

658(07)


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
V-32 MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

A.V. VAHOBOV,  
G'.A. IBRAGIMOV, U.K. YAKUBOV

# IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

*Darslik*



TOSHKENT  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2015

658 (07)

658,5 11 (07)  
+ 658,4 (07)

UO'K: 338.1:657(075)

KBK: 65.053

I-99

*✶-32*

*Taqrizehlar:* N. Rizayev – i.f.n., dots.;  
I. O'rinboyev – i.f.n.;  
M. Raximov – i.f.n., dots.

**Iqtisodiy tahlil va audit.** Darslik. A.V. Vahobov va boshq. /O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent moliya instituti. T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2015. 368 bet.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy salohiyatida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yaratilayotgan zamonaviy texnika-texnologiya, asbob-uskunalar, nou-xau, ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa mahsulot (ish, xizmat)lar sifatini jahon bozori talablariga qanchalik mos kelishi muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berilishida xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish va uni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu, bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatning mazmuni, xususiyatlari, talablari, qonun-qoidalari kabi jihatlarini chuqurroq bilishlarini talab etadi.

UO'K: 338.1:657(075)

KBK: 65.053

ISBN 978-9943-13-536-9

© «IQTISOD-MOLIYA», 2015  
© A.V. Vahobov va boshq., 2015

## KIRISH

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va shu asosda rentabelli faoliyatni yo'lga qo'ygan holda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bugungi kunning muhim, dolzarb vazifalaridan sanaladi. Shu sababli global iqtisodiy integratsiya sharoitida hukumatimiz, qolaversa, xalqaro tashkilotlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar manfaatini himoya qilish, erkin faoliyatini ta'minlash maqsadida qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va ular takomillashtirilmoqda.

Mamlakatimiz va xorijda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali faoliyat yuritishida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining to'g'riligi va haqqoniyligi, shuningdek, ularning ilmiy asoslanganligiga baho berish orqali istiqboldagi rejalarini belgilashda «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» fanlarining o'rni beqiyos. Hozirda davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini ta'minlash masalasini birinchi o'ringa olib chiqdi. Chunki taqdim qilinayotgan ma'lumotlarning buzib ko'rsatilishi noto'g'ri boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi va natijada mulk egalari baxtsizlikka olib keldi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» bilan muntazam va jiddiy shug'ullanish lozimligini hayotning o'zi yana bir bor isbotlab berdi. Axborotlardan foydalanuvchilarga sifatli va aniq ma'lumotlarni yetkazib berish, shuningdek, mazkur sohada faoliyat yuritish uchun tayyorlanuvchi mutaxassislarning bilim olish doirasini kengaytirish oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan fanlarga yangicha yondashuvni taqozo etdi.

Ko'rsatilgan masalalarning yechimini topish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tegishli buyrug'i bilan iqtisodiy yo'nalishdagi Oliy ta'lim muassasalarida 2011–2012- o'quv yilidan boshlab «Iqtisodiy tahlil va audit» fanining o'qitilishi amaliyotga joriy etildi.

# I mavzu. IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING RIVOJLANISH TARIXI VA FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI

---

## 1. «Iqtisodiy tahlil va audit» fanining shakllanishi


Iqtisodiy adabiyotlarda «Iqtisodiy tahlil» hamda «Audit» fanlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi «Buxgalteriya hisobi» fanining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq holda yoritiladi. Bu adabiyotlarda «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» fanlarining vujudga kelish va rivojlanish tarixi buxgalteriya hisobi bo'yicha ilk yozma manba<sup>1</sup> nashr etilgan davrdan boshlab hisoblanadi. Biroq, bu boradagi bahs-munozaralar hozirgacha davom etib kelmoqda. Bizning fikrimizcha, «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» fanlarining jadal rivojlanishi «Buxgalteriya hisobi» fani bo'yicha bugungi kungacha yetib kelgan dastlabki yozma adabiyot yaratilgandan keyingi davrga to'g'ri kelsada, mazkur fanlar elementlarining vujudga kelishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Chunki «Buxgalteriya hisobi» fani elementlarining paydo bo'lishi bevosita qadimgi davr bilan bog'lanib, qadimgi Misrda mol-mulk hisobi sopol lavhalarida yuritilgani bilan izohlanadi. Shu jihatdan, «Buxgalteriya hisobi», «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» fanlarining vujudga kelish va rivojlanishini quyidagi chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin (1-chizma).

Kuzatishlarga ko'ra qadimgi Misr, Assiriya, Vavilonda asosan buxgalteriya hisobining elementlari kuzatilgan bo'lib, iqtisodiy tahlil tushunchalariga ilk bor Yunonistonda eramizdan oldingi 430-355-yillarda yashab o'tgan Ksenofont asarlarida duch kelingan. U «Uy xo'jaligi» kitobida o'zining iqtisodiy qarashlarini bayon etgan. Shu sababli, «Analiz» (tahlil) so'zi ham yunon tilidan olingan bo'lib, «Butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman» ma'nosini beradi.

Shuningdek, Platon (eramizdan oldingi 427-347-yillar) o'zining «Davlat» nomli kitobida, Aristotel Stagirit (eramizdan oldingi 384-322-yillar) o'z asarlarida iqtisodiy tahlil tushunchalaridan foydalangan.

---

<sup>1</sup> Л. Пачоли. Трактат о счетах и записях. М.: «Финанси и статистика», 1983 г. 286 с.



**1-chizma. «Buxgalteriya hisobi», «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» ning rivojlanish bosqichlari**

Rim davrida Katon Tsenzor (eramizdan oldingi 234-149-yillar) o'z asarlarida, Mark Terensiy Varron (eramizdan oldingi 116 – 27-yillar) «Qishloq xo'jaligi haqida»gi kitobida tahlilda normativ yondashuvni, iqtisodiy tahlil usul va uslublarini bayon etganlar.

Qadimgi Xitoyda agrar, tijorat, moliyaviy masalalar bilan doimiy ravishda shug'ullanuvchi, yuqori rivojlangan davlat boshqaruviga asos solindi. Bu masalalarga bugungi kungacha yetib kelgan adabiyotlarda, shu jumladan, eramizdan oldingi 551-479-yillarda yashab ijod qilgan Konfutsiyning (Kun-tszi) asarlarida etik va me'yor jihatdan yondashilgan. Qadimgi Xitoyda pul oqimini tartibga solish va tovarlarni ayriboshlashni nazorat qilishda ma'lum usul va uslublar mavjud bo'lib, ular jiddiy iqtisodiy tahlilni talab qilgan.

Xristianlik paydo bo'lgan va ommalashgan davrda Benedikt Nursiyskiy (480-549-yillar), Foma Akvinskiy (1225-1274-yillar), Voradjolik Yakob (XIII asr) o'z qarashlarida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, moliyaviy nazorat elementlaridan foydalanganlar.

Islom madaniyati paydo bo'lishi va keng ommalashishi davrida hisob va tahlil elementlarini kuzatish mumkin. Islom dinida o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish, ayniqsa qarzdorlikni bartaraf yetishga alohida ahamiyat berilgan.

G'arbiy Yevropada XV-XVIII asrlarda tadbirkorlik va sanoatning jadal rivojlanishi tizimga solingan iqtisodiy va hisob ma'lumotlariga talabni kuchaytirdi. Obyektiv ravishda ikki yoqlama yozuv paydo bo'ldi. Xususan, buxgalteriya hisobining «Eski italiyancha» shakli paydo bo'ldi. U asta-sekin takomillashib, hisobraqamlar va hisob registrlari soni ko'payishi bilan «Yangi italiyancha», deb nomlangan shaklga asos bo'ldi.

XV-XVIII asrlar davomida Yevropada italiyancha ikki yoqlama buxgalteriya yetakchi o'rinlarda bo'ldi. XVIII asrga kelib Yevropaning bir qancha davlatlarida milliy hisob tizimi va buxgalteriya hisobi nazariyalari paydo bo'ldi. Hisob registrlari va hisobraqamlar iqtisodiyot tarmoqlari xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

XIX-XX asrlarga kelib buxgalteriya hisobida tub o'zgarishlar amalga oshdi. Buning natijasida iqtisodiy tahlil obyektlari kengaydi, usul va uslublari takomillashdi. Shu davrda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga baho berish ehtiyoji yuzaga keldi, buning oqibatida audit paydo bo'ldi. Bu amaliy faoliyat keyinchalik «Audit» fanining paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning keyingi rivojlanishi buxgalteriya hisobi va auditning xalqaro standartlarini yaratish bilan bog'liq. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari milliy hisob tizimlari bilan o'zaro bog'liqlikda yaratildi.

## **2. XV-XVIII asrlarda Yevropada ikkiyoqlama yozuvning paydo bo'lishi va rivojlanish davrida iqtisodiy tahlil**

Ikkiyoqlama yozuv dastlab amaliy faoliyat sifatida Italiyada vujudga keldi. Bu, Luka Pacholi va Benedeto Kotruli («Savdo va komil savdogar haqida», 1458- yil yozilib, 1573-yil chop etilgan) tomonidan qoldirilgan yozma manbalarda ifodalangan. Luka Pacholining 1494-yilda nashr etilgan «Arifmetika va geometriyaning yig'indisi, proporsiyalar haqida»gi kitobining 11- «Schyotlar va yozuvlar haqida», deb nomlangan traktati (hozirgi tushunchalarda-bob) buxgalterlar orasida eng ommalashgan adabiyot sanalgan.

XV-XVIII asrlarda Italiyada buxgalteriya hisobiga 2 xil yondashuv shakllandi.

Birinchi huquqiy yondashuv bo'lib, o'sha davrda juda keng tarqalgan edi.

Ikkinchi, iqtisodiy yondashuv bo'lib, uning yorqin vakili sifatida B.Venturini keltirish mumkin (Bastiano Venturi XVII asrda yashab o'tgan italiyancha buxgalteriya vakili. U buxgalter moddiy javobgar shaxslarning javobgarlik doirasini belgilab berishi lozim, deb hisoblagan va buxgalteriya jurnaliga kassa kirimi va chiqim ustunlarini qo'shish taklifini kiritgan).

Yuqoridagi ikki yondashuvdan kelib chiqib, italiyalik avtorlar hisobning quyidagi maqsadlarini belgilashgan:

1. Qarzarlar (kreditorlar) va talablar (debitorlar)ni o'z vaqtida aniqlash. Bu maqsad huquqiy yo'nalishda bo'lib, huquq va majburiyatlar hisob obyektini bo'lib hisoblangan.

2. Ishlarni to'g'ri tashkil etish — xarajatlarni minimallashtirish va korxonalar samaradorligini oshirish (iqtisodiy yondashuv).

Italiyalik olimlar buxgalteriya hisobi predmetini sezilarli darajada kengaytirishdi. Xususan, Pacholi va Kotruli — savdoda; Kazanova-kemasozlikda; di Pietro-monastir xo'jaligida, banklarda; Mosketti — sanoatda; Flori — davlat tashkilotlarida; Venturi — qishloq xo'jaligida.

Italiyalik olimlar mol-mulkni inventarizatsiyadan o'tkazish taklifini olg'a surdilar. Pacholi kitoblarda dastlab qimmatroq, keyin

arzonroq buyumlarni qayd etish zarur, deb hisoblagan. Shuningdek, inventarizatsiyani ma'lum bir sanaga o'tkazish talabini kiritdi. Biroq, inventarizatsiya o'tkazish borasidagi masalalar di Pietroning qarashlarida kengroq yoritilgan bo'lib, u obyektlar kesimida inventarizatsiyani o'tkazish va mulkni baholash taklifini kiritgan.

Bu davrda buxgalteriya hisobida tovarlarni baholash quyidagi usullarda amalga oshirilgan:

1. Joriy bozor bahosida.
2. Sotib olish bahosida.
3. Komission tovarlar natural ko'rinishda ifodalangan.

Pacholi va Tolente natijaviy schyotlar Bosh kitobda yopilishi kerak, deb hisoblaganlar. Lekin bu tizimli va xronologik yozuvlarning bir xilligini ta'minlay olmagan. Mantini bu xatolikni bartaraf etib, schyotlarni avval jurnalda, keyin esa Bosh kitobda yopish shartini kiritdi. Negaki, uning fikricha har qanday muomala Bosh kitobda faqat jurnalda yozuvga asosan qayd etilishi mumkin.

Bu davrdagi italiyalik olimlar schyotlarni quyidagicha tasniflaganlar:

1. Manchini barcha schyotlarni hisob-kitoblar va moddiy qiymatliklarni aks ettiruvchi schyotlarga bo'lishni taklif etgan.

2. Flori schyotlarni kapital, moliyaviy natijalarni aniqlovchi (foyda va zararlar), savdo (tovarlar), hisob-kitoblar schyotlariga ajratgan.

3. Skali esa schyotlarni mol-mulk, shaxsiy va hisob-kitoblar schyotlariga bo'lgan.

O'sha vaqtda italiyaliklar tomonidan ikkiyoqlama yozuv mazmunini tushuntirishga harakat qilib ko'rilgan. Pacholi quyidagi ikki postulatni<sup>2</sup> taklif qildi:

1. Debet aylanmalar yig'indisi kredit aylanmalar yig'indisiga teng.

2. Bir schyotlar tizimidagi debet qoldiqlar kredit qoldiqlariga teng.

Amaliyotda schyotlarning analitik va sintetik turlarga bo'linmaganligi balansdagi ko'rsatkichlarning o'ta ko'payib ketishiga olib kelgan. Bu ko'plab arifmetik xatolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lib, ular to'g'ridan to'g'ri (aniqlik kiritilmasdan) foyda va zararlar schyotiga olib borilgan.

---

<sup>2</sup> Postulat – hozircha isbotlanmagan, lekin haqiqat deb tan olingan tushuncha (aksiomaga o'xshash).



«Balans» terminini italiyaliklar Medichi bankining hisoboti bilan bogʻlaganlar. Balans va hisobot toʻgʻrisidagi toʻliqroq taʼlimot di Petroga tegishli. Flori balansni yakuniy va oraliq turlarga tasniflashni taklif qildi.

Buxgalteriya balansi yuzasidan olib borilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar oxir-oqibat italiyalik olimlar tomonidan ikkiyoqlama yozuv mazmunini uning oʻzgarishi (buxgalteriya balansining 4 xil oʻzgarishi) asosida yoritib berilishiga olib kelgan.

Shu davrlarda Manchini bir qator yordamchi kitoblar yuritishni, yaʼni hisobni sintetik va analitik turlarga boʻlishni taklif qilgan. Manchini postulatlarini quyidagilardan iborat:

1. Analitik schyotlardagi aylanmalar sintetik schyot aylanmasiga teng.

2. Analitik schyotlardagi qoldiq sintetik schyotdagi qoldiq summasiga teng.

XVII asr oxirlariga kelib buxgalteriya balansi nafaqat nazorat, balki korxonada moliyaviy holatini tahlil qilish uchun ham tuzilgan. Biroq «Iqtisodiy tahlil» fani evolyutsion rivojlanish davrida bir qancha nomlar bilan nomlangan. Dastavval bu fan balans maʼlumotlarini oʻrganishga qaratilgani sababli «Balansshunoslik», keyinchalik «Balans talqini», «Balansni tahlil qilish» deb nomlangan.

### 3. Auditning rivojlanish tarixi

Tarixiy manbalarga koʻra markazlashgan davlatlarning tashkil etilishi va rivojlanishi natijasida mamlakatni boshqarish uchun hisob, nazorat va moliya ishlariga zaruratning kuchayishi auditning vujudga kelishiga sabab boʻlgan. Professor P.I. Kamishanovning «Amaliy audit» (2002-yil) kitobida keltirilishicha, auditorlikning shakllana boshlashi eramizdan oldingi 200-yillarga toʻgʻri keladi. Rim Imperiyasida kvestorlar<sup>3</sup> joylardagi Davlat gʻaznasining kirimi va chiqimi, shuningdek, buxgalterlar ustidan nazorat qilib turganlar. Kvestorlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar Rimda konsullar<sup>4</sup> tomonidan eshitilgan. Shu boisdan ham «Audit» lotincha «auditing» — «u eshitayapti», «eshituvchi» degan maʼnolarni bildirgan.

---

<sup>3</sup> Kvestor (lot. *quaestor* < *quaerere* — «soʻramoq», «tergamoq») — Rim Imperiyasida moliya va sudlov ishlarini olib boruvchi mansabdor shaxs.

<sup>4</sup> Kónsul (lat. *consul*) — Qadimgi Rimda Respublika davrida saylanuvchi oliy darajali mansabdor shaxs.

Iqtisodiy adabiyotlarda hozirgi audit tushunchasi va auditor kasbi XVII asrning o'rtalarida Yevropada faoliyat yuritgan qo'shma mulk asosida tashkil etilgan kompaniyalarda mulk egalari, kreditorlar va soliq xizmati xodimlari o'rtasidagi munozarali masalalarni hal qilib berish zarurati tufayli vujudga kelgani qayd etilgan.

XIX asrning o'rtalariga kelib, Angliyada aksiyadorlik kompaniyalarining buxgalteriya schyotlarini, mulkdorlarga beriladigan hisobotlarni yiliga kamida bir marta tekshiruvdan majburiy o'tkazilishini talab qiladigan qonunlarni yaratish borasida ishlar boshlangan. Shu sababdan Angliya audit shakllangan mamlakat sifatida tarixda qolgan.


1862-yili Angliyada, 1867-yili Fransiyada, 1937-yili esa AQShda majburiy audit to'g'risidagi qonun qabul qilingan. Biroq auditorlik kasbi turli xil mamlakatlarda turlicha, xususan, AQShda jamoatchi-buxgalter, Fransiyada buxgalter-ekspert yoki schyotlar bo'yicha komissar, Germaniyada xo'jalik nazoratchisi yoki kitoblar (Das Buch) nazoratchisi, qator anglo-saksoniya mamlakatlarida kompaniyaning moliyaviy faoliyatini nazorat qiladigan taftishchi, deb nomlangan.

1929-1933-yillarda bo'lib o'tgan jahon iqtisodiy tanazzuli auditorlik xizmatlaridan foydalanish masalasini birinchi o'ringa olib chiqdi va faoliyatning keng rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu davrda aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa korxonalarining ko'pchiligi inqirozga yuz tutganligi moliyaviy hisobot ma'lumotlarini to'g'riligi va haqqoniyligini mustaqil auditorlar tomonidan tekshirishga ehtiyojni yanada kuchaytirib, tasdiqlovchi auditni vujudga keltirdi. Iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan har bir iqtisodiy ehtiyoj asosida audit rivojlanib bordi (2-chizma).

Hisob registrlari va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi va haqqoniyligini tekshirishda tasdiqlovchi auditning o'rni beqiyos bo'lib, uning natijasida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini buzib ko'rsatilishiga barham berilgan.

1949-yildan keyin mustaqil auditorlar tomonidan ichki auditga e'tibor qaratilib, uning natijasida moliyaviy xatoliklarni kamaytirish mumkinligi e'tirof etilgan va maqsadli, sistemali audit bosqichi shakllangan.

Maqsadli, sistemali auditning shakllanishi bilan auditorlar ichki nazorat tizimini samarali tashkil qilish hisobiga moliyaviy xato va kamchiliklarni aniqlab, faoliyatni jiddiy tekshirishga hojat qoldirmaganlar.



2-chizma. Auditning rivojlanish bosqichlari

Tavakkalchilikka asoslangan audit yoppasiga yoki tanlov yo'li bilan o'tkaziladigan tekshirishga asoslangan bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatidan kelib chiqadi va asosan, tor doiradagi obyektlarni tekshirish bilan yakunlanadi. Negaki, iqtisodiy integratsiyalashuv auditorlik firmalari ko'rsatadigan xizmatlar turlari va doirasini kengaytirib, buxgalteriya hisobiga oid maslahatlar hamda xizmatlardan tashqari soliqqa tortish, boshqaruv faoliyati, axborotlarni olish texnologiyasi, marketing, moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini baholash, budjetlashtirish, bank, sug'urta ishlari bo'yicha ham konsalting xizmatlariga ehtiyojni orttirdi. Shu sababli 1970-yillarga kelib auditorlik standartlari ishlab chiqila boshlandi va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etila bordi.

Iqtisodiyotning integratsiyalashuvi auditorlik kasbida, u bo'yicha qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda umumiylikka ega bo'lgan bandlar, qoidalar bo'lishini talab qildi. Shu sababli mamlakatlarda auditni tashkil qilishga oid qoidalarda bir qator

umumiylik mavjud bo'lib, ular: xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini majburiy audit nazoratidan o'tkazish; auditorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni ma'lum malakaga ega bo'lishi bilan bog'liq talablar; auditorlikka faqat shu mamlakat fuqarolarini tayinlash va boshqalarda o'z ifodasini topgan. Bu jarayon bugungi kungacha davom etib, mamlakatning iqtisodiyoti, madaniyati, xususiyatidan kelib chiqqan holda xalqaro auditorlik standartlari qabul qilinib, fanning rivojlanishiga olib kelmoqda.

#### **4. O'zbekistonda iqtisodiy tahlil va auditning rivojlanishi**

O'zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining jadal rivojlanishi XX asrning 60–70-yillariga to'g'ri kelib, unda mamlakat iqtisodchi olimlaridan A. Shoalimov, A. Ibrohimov, Q. Raxmonov, I. Abdulkarimov, M. Pardayev, A. Abdiyev, N. Xan va boshqalarning hissasi katta bo'lgan. Shu davrda fan bo'yicha qator adabiyotlar chop etilgan. 1966-yilda «Matlubot kooperatsiyasi korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili» nomli darslik chop etilib (L.A.Falkovich, I.N.Toporovskiy), unda respublikamizning ba'zi xususiyatlari o'z ifodasini topgan.

1968-yilda I.T.Abdulkarimov tomonidan «Kooperativ savdoda muomala xarajatlari tahlili», 1970-yilda I.T.Abdulkarimov, B.A.Zalesskiy va N.Toporovskiy tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi korxonalar va tashkilotlari xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'yicha masalalar to'plami», 1971-yilda I.T.Abdulkarimov tomonidan «Kooperativ savdoda chakana tovar oboroti tahlili» nomli o'quv qo'llanmalar chop etildi.

Bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari davom ettirilib, 1973-yilda I.T.Abdulkarimov tomonidan «Kooperativ savdoda foyda va rentabellik» nomli monografiya nashrdan chiqarilgan. Shu yili N.A.Xan tomonidan tayyorlangan «Qishloq xo'jalik korxonalarini xo'jalik faoliyatining analizi», I.T.Abdulkarimov va M.K.Pardayevning «Kooperativ savdoda mehnat ko'rsatkichlari tahlili» nomli kitoblari yaratildi. Shuningdek, bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida O.Mahmudovning «Qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyatini analiz qilish» (1979-yil), I.T.Abdulkarimov, M.K.Pardayev, A.A.Abdiyev va V.I.Abdulkarimovning «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» (1989-yil), V.I.Abdulkarimovning «Axborotlarning avtotmatlashtirilgan tizimi sharoitida ko'p tarmoqli matlubot kooperatsiyasi samaradorligini

kompleks baholash masalalari» (1990-yil) nomli o'quv adabiyotlari chop etilganini ta'kidlash mumkin.

1995-1999- yillarda O'zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining asosiy sohasi bo'lgan moliyaviy va boshqaruv tahliliga bag'ishlangan bir qancha adabiyotlar chop etildi. Jumladan, 1995-yilda Toshkent moliya instituti «Xo'jalik faoliyati tahlili» kafedrasini mudiri A. Ibrohimov tomonidan «Moliyaviy tahlil», 1996-yilda shu kafedra professor-o'qituvchisi Q. Rahmonovning «Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini tahlil qilish» nomli o'quv qo'llanmalari nashr ettirildi. Shuningdek, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti professor-o'qituvchilari M. To'laxodjayevaning «Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsiyentlarni tahlil qilish» (1996-yil), A. Shoalimovning «Sanoat korxonalarini xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» (1992-yil) nomli o'quv qo'llanmalari ham chop etilgan.

Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilning rivojlanishi bilan, axborot yetkazib beruvchilar (ma'muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aksiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi, noto'g'ri axborotlarga asoslangan holda boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi, iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyoj, axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallarning yetishmasligi natijasida auditga ehtiyoj paydo bo'ldi.

«Audit» – xuddi «Iqtisodiy tahlil» fani singari O'zbekistonda XX asrning 90-yillarida, Yu. Itkin, T. M. To'laxodjayeva, A. Karimov, A. Rizoqulov, N. Sanayev, R. Narziyev, B. Xoshimov kabi mamlakat olimlarining sa'yi-harakati tufayli rivojlana boshlagan.


Bular Yu. Itkinning «Организация финансового контроля в переходной период к рыночной экономике» (1991-yil), Yu. Itkin, M. To'laxodjayevaning «Контроль и ревизия в нефтеснабжении» (1992-yil), B. Xashimov, M. Tulaxodjayevaning «Организация бухгалтерского учета и контроля в кооперативах, общественных организациях, совместных и малых предприятиях Узбекистана» (1993-yil), A. Rizakulovning «Qishloq xo'jaligi tizimidagi turli mulkchilikka asoslangan, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini taftish qilish to'g'risida uslubiy qo'llanma» (1995-yil), M. Tulaxodjayevaning «Аудит финансового состояния предприятия» (1996-yil), N. Sanayevning «Audit va taftish» (1997-yil) nomli o'quv adabiyotlarining nashrdan chiqishi bilan izohlanadi. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit fanlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tegishli buyruqlari asosida oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatoriga muvofiq tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan takomillashtirib borildi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 17-sentabrdagi 792-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va №5D-5230100 raqam bilan ro'yxatga olingan «O'quv dasturi»ga ko'ra 2011-2012-o'quv yilidan boshlab «Iqtisodiy tahlil va audit» fani o'quv jarayoniga tatbiq etildi.

## 5. Iqtisodiy tahlil va auditning tamoyillari

Maqsad va yo'nalishlaridan qat'iy nazar ilmiy izlanishlar nazariy va amaliy jihatdan tan olingan tamoyillarga amal qilgan holda o'tkazilishi zarur. Xo'jalik hayotida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'ladigan iqtisodiy tahlil va audit o'z tamoyillariga mos ravishda o'tkazilishi kerak. Negaki, tamoyillar o'rganiladigan obyektning bir butunligi, realligi va voqeligini tavsiflaydi. Shu sababli iqtisodiy tahlil va auditning hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'zi amal qiladigan tamoyillari mavjud (3-chizma).

Xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatiga baho berishda davlat nuqtayi nazaridan yondashish, ilmiy asoslanganlik, komplekslilik, tizimlilik, ishonchlilik, ta'sirchanlik, taqqoslanuvchanlik, betaraflilik, pullik baholash, mazmunning shakldan ustunligi, uzluksizlik, tezkorlik, demokratizm, samaradorlik tamoyillariga amal qilish belgilangan vazifalarni aniq bajarishning zarur shartidir.



3-chizma. Iqtisodiy tahlil va auditning hodisa va jarayonlarni o'rganishda amal qiladigan tamoyillari

Tahlil va auditni o'tkazishda iqtisodiy jarayonlar va xo'jalik faoliyati natijalariga baho berishda davlat nuqtayi nazaridan yondashuv ta'minlanishi zarur. Boshqacha aytganda xo'jalik hayotining turli jabhalariga baho berishda bu jarayonlarni davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, xalqaro siyosatiga va qonunchilikka mosligi hisobga olinishi zarur.

Tahlil va audit ilmiy xarakterda bo'lishi kerak, ya'ni bilishning dialektik nazariyasi qoidalariga tayanishi, ishlab chiqarishni rivojlantirishni iqtisodiy qonuniyatlari talablariga javob berishi, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini qo'llashi, iqtisodiy izlanishlarning yangi usullaridan foydalanilishi lozim.

Tahlil va audit kompleks tarzda o'tkazilishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyekt iqtisodini barcha jihatlarini va taraflarini qamrab olishi, ularni o'zaro bog'liqlik sabablarini har taraflama o'rganishi talab etiladi.

Tahlil va audit o'tkazishga qo'yilgan talablardan yana biri – tizimli yondashish bo'lib, bunda o'rganilayotgan har bir obyekt o'zaro va tashqi muhit bilan ma'lum uslub orqali bog'langan bir qancha elementlardan tashkil topgan murakkab rivojlanayotgan tizim sifatida qaraladi. Har bir obyektning o'rganish barcha ichki va tashqi aloqalar, o'zaro bog'liqlik va bo'ysunishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Xo'jalik hayoti tahlili va auditini haqqoniy va aniq bo'lishi kerak. U aniq tekshirilgan ma'lumotlarga tayanishi, xulosalar tahliliy hisob-kitoblar asosida chiqarilgan bo'lishi kerak. Ushbu talab buxgalteriya hisobi, ichki va tashqi auditni tashkil etilishini, iqtisodiy tahlil va auditning usul va uslublarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Tahlil va audit ta'sir doirasiga ega bo'lib, ishlab chiqarish va uning natijalariga faol ta'sir ko'rsatishi, kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, ular yuzasidan manfaatdor tomonlarga ma'lumot berib turishi zarur. Tahlil va audit ma'lumotlaridan xo'jalik yurituvchi subyektning boshqarishda, aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqarishda, biznes reja ma'lumotlarini aniqlashtirishda foydalanish ushbu tamoyilning asosiy talabidir. Aks holda tahlil va audit oldiga qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Tahlil va auditda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar taqqoslash shartlariga javob berishi kerak. Bunga ko'ra ko'rsatkichlar bir asosli tarzda, turli davrlar va boshqa xo'jalik subyektlarining ma'lumotlari bilan qiyosiy taqqoslana oladigan bo'lishi zarur.

Tahlil va audit jarayonida barcha taraflarning manfaatlarini himoya qilish katta ahamiyatga ega. Ma'lumotlardan foydalanuvchilarning bir guruhining zarari hisobiga boshqa shaxslar manfaatlarining qondirilishiga yo'l qo'yilmasligi ta'minlanishi kerak.

O'rganiladigan obyektlarning qiymati yagona birlikda ifodalanishi lozim. Tahlil va audit jarayonida barcha aktivlar, kapital va majburiyatlarning tegishli pul birliklarida ifoda etilishi talab etiladi.

Iqtisodiy tahlil va auditda olinadigan ma'lumotlar, o'rganiladigan ko'rsatkichlar mazmuni muhim o'rin tutadi. Shu sababli ma'lumotlarning hisobotlardagi mohiyati va iqtisodiy voqeligi ularni aks ettiruvchi shakldan ustunligini ta'minlash zarur.

Tahlil va audit reja asosida, domiy ravishda o'tkazilishi kerak. Bundan xo'jalik yurituvchi subyektda tahlil va audit ishlari rejalashtirilishi, ijrochilar o'rtasida majburiyatlarning taqsimlanishi, o'tkazilishi doimiy nazoratda bo'lishi kelib chiqadi.

Tahlil tezkor bo'lishi zarur. Tezkorlik tahlilni o'tkazish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni hayotga tatbiq etishni tez va aniq bajarilishini bildiradi.

Tahlil tamoyillaridan yana biri bu demokratik tamoyildir. Tahlil o'tkazishda xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlarining keng qatlamini qatnashishi ilg'or tajribani to'liq o'rganishni va mavjud ichki imkoniyatlardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Tahlil va audit samaradorligi ta'minlanishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan sarf-xarajatlar yuqori samara keltirishi zarur.

Yuqoridagi tamoyillarga amal qilish, iqtisodiy tahlil va audit xulosalarining aniqligi hamda ishonchligini oshiradi.

Ularga asosan tahlilchi, auditor:

- iqtisodiy tahlil yoki audit qilinayotgan obyektning alohida bir butun tizilma yoki tizilmaning elementi deb qarashi;
- olingan ma'lumotlarda xato yo'qligi va haqqoniy ekanligi, realligiga ishonch hosil yetishi;
- ko'rsatkichlarning bir asosli tarzda turli davrlar va boshqa xo'jalik subyektlarining ma'lumotlari bilan qiyosiy o'rganishi (taqqoslash shartlariga binoan);
- ma'lumotlardan foydalanuvchilarning bir guruhining zarari hisobiga boshqa shaxslar manfaatlarining qondirilishiga yo'l qo'yilmasligi;



- barcha aktivlar, kapital va majburiyatlarning tegishli pul birliklarida ifoda etilishiga e'tibor qaratishi;
- ma'lumotlarning hisobotlardagi mohiyati va iqtisodiy voqeligi bo'yicha hisobga olishdagi ifodasining ustunligi ta'minlanganligini tekshirishi;
- xo'jalik faoliyati yuzasidan barcha jarayonlarning o'z yakuniga qadar hisobda uzluksiz aks ettirilganiga ishonch hosil qilishi;
- o'zi belgilagan mezonlar asosida iqtisodiy tahlil va auditning umumiy rejasi hamda dasturidan maqbulini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

## Xulosalar


«Iqtisodiy tahlil» va «Audit» fanlarining rivojlanish tarixi borasida soha olimlari o'rtasida hozirgi kungacha bahs-munozara bormoqda. Negaki, bu olimlarning bir qismi ushbu fanlar rivojlanishi qadimgi davrdan boshlangan, deb hisoblasalar, yana bir qismi ularni XVII asrdan boshlab vujudga kelgan, deb hisoblaydilar. Tadqiqotlarga ko'ra «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» XVII asrda fan sifatida shakllangan bo'lib, qadimgi va o'rta asrlarda ularning elementlari vujudga kelgan. Biroq bu elementlarning fan sifatida shakllanishida olimlarning alohida o'rni bor. Xususan, «Buxgalteriya hisobi» fanini shakllanishida italiyalik olimlarining o'rni beqiyos bo'lib, ular ikkiyoqlama yozuv mazmunini buxgalteriya balansi, uning o'zgarishi asosida omma e'tiboriga yetkazganlar.

XVII asrning o'rtalarida Yevropada faoliyat yuritgan qo'shma mulk asosida tashkil etilgan kompaniyalarda mulk egalari, kreditorlar va soliq xizmati xodimlari o'rtasidagi munozarali masalalarni hal qilib berish zarurati yuzaga keldi. Bu o'z o'rnida «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» fanlarining shakllanishiga asos bo'lgan. Shu boisdan ushbu fanlarning rivojlanish tarixi Angliyaga borib taqaladi.

«Buxgalteriya hisobi», «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» fanlarining mamlaktimizda jadal rivojlanish bosqichi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan.

## Mavzu bo'yicha savollar

1. Hisob elementlarining qadimgi va o'rta davrlarda shakllanishini misollar asosida izohlang.



2. Xristianlik davrida hisob, iqtisodiy tahlil va audit elementlarining shakllanishi qay tarzda yuzaga kelgan?
3. Islom madaniyatida hisob, iqtisodiy tahlil, audit elementlarining shakllanishi qaysi davrga to'g'ri keladi?
4. Tahlil va audit elementlari qachon shakllana boshlagan?
5. «Buxgalteriya hisobi» fani qachon shakllangan va uning asoschilari kimlar?
6. «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» fanlari qachon fan sifatida shakllangan?
7. Ikkiyoqlam yozuv, deganda nimani tushunasiz?
8. «Audit» fanining rivojlanish bosqichlarini sanab o'ting va ularga izoh bering.
9. O'zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining shakllanishi qaysi yillarga to'g'ri keladi?
10. O'zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan ustozlar va ularning asarlarini sanab o'ting.
11. Mamlakatimizda «Audit» fanining shakllanishi qaysi yillarga to'g'ri keladi?
12. O'zbekistonda «Audit» fanini rivojlanishiga hissa qo'shgan ustozlar va ularning asarlarini sanab o'ting.
13. «Iqtisodiy tahlil» va «Audit» fanlarining tamoyillarini sanab o'ting va ularga izoh bering.

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Postulat; kvestor; tamoyil; konsul; joriy bozor bahosi; sotib olish bahosi; komission tovarlar natural ko'rinishda ifodalangan; hisob maqsadi; schyotlar tasnifi; balansning o'zgarishi; ikkiyoqlama yozuv; Bosh daftar; ilmiy asoslanganlik; komplekslilik; tizimalilik; ishonchlilik; ta'sirchanlik; taqqoslanuvchanlik; betaraflilik; pullik baholash; mazmunning shakldan ustunligi; uzluksizlik; tezkorlik; demokratizm; samaradorlik; debet aylanma; kredit aylanma; inventarizatsiya; balansshunoslik; balans talqini; tasdiqlovchi audit; maqsadli, sistemali audit; tavakkalchilikka asoslangan audit.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

1. XIX asrda tahlilning ba'zi elementlari mavjud bo'lgan fan .... deb atalgan.
  - A. Balansshunoslik.

- B. Balans netto.
- C. Balans burutto.
- D. Balans fani.

**2. «Tablil» ... soʻzidan olingan boʻlib, lugʻaviy mazmuni ...**

- A. Yunoncha — «butunni boʻlakchalarga boʻlib oʻrganaman» maʼnosini anglatadi.
- B. Lotincha — «boʻlakchalardan butunga qarab oʻrganaman» maʼnosini anglatadi.
- C. Lotincha — «butunni boʻlakchalarga boʻlib oʻrganaman» maʼnosini anglatadi.
- D. Yunoncha — «boʻlakchalardan butunga qarab oʻrganaman» maʼnosini anglatadi.

## II mavzu. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI

---

### 1. Iqtisodiy tahlil fanining mohiyati va predmeti

«Analiz» (tahlil) – soʻzi yunon tilidan olingan boʻlib, butunni boʻlakchalarga boʻlib oʻrganaman maʼnosida ilmiy izlanishlarning alohida metodi sifatida qaralgan. Sintez esa, analiz (tahlil)ning aksi boʻlib, boʻlaklardan umumiylikka qarab oʻrganish maʼnosini anglatadi.

Ilmiy qarashlarda analiz (tahlil) turli, xususan, matematik, fizik, ximik, statistik, iqtisodiy va boshqa shu kabi koʻrinishlarda namoyon boʻladi.

Iqtisodiy tahlil – oʻrganilayotgan obyekt koʻlamiga koʻra makro va mikro darajadagi tahlil turlariga boʻlinadi.

Makro koʻlamdagi iqtisodiy tahlil – umumnazariy koʻrinishga ega boʻlib, mamlakat, tarmoq iqtisodiyoti va undagi oʻzgarishlarni oʻrganishga qaratilgan.

Mikro koʻlamdagi iqtisodiy tahlil esa, aniq bir xoʻjalik yurituvchi subyekt faoliyatiga baho berishni nazarda tutadi. Biroq makro va mikro koʻlamdagi tahlil bir-birini toʻldirib, jarayonga baho berishni aniqlashtirib boradi.

Makro koʻlamdagi tahlil umumiy iqtisodiy fanlarning shakllanishi bilan bogʻlanib, u qadimgi va oʻrta davrlarga borib taqaladi. Shu sababli uning namoyondalari sifatida Ksenofont, Platon, Aristotel, Varron, Seneka (qadimgi davrda yashab oʻtgan), U. Petti, D. Rikardo, A. Smit, S. Sismondi (oʻrta asrlarda yashab oʻtgan)larni sanab oʻtish mumkin.

Mikro koʻlamdagi (iqtisodiy) tahlil esa, buxgalteriya hisobi, statistika kabi fanlarning shakllanishi bilan rivojlangan fan sifatida qaralgan va shu boisdan XIX asrlargacha iqtisodiy tahlil nomi bilan adabiyotlar chop etilmasdan, ular balansshunoslik, balans talqini nomi ostida nashrdan chiqarilgan. Biroq ularning mazmun-mohiyati hozirgi davrgacha saqlanib, fanda foydalanib kelinmoqda.

Xoʻjalik yurituvchi subyektlarda eskicha boshqaruv tizimidan voz kechib, yangicha boshqaruv tizimini tashkil etish va ular yuzasidan samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali ularning

raqobatbardoshligi, mamlakat iqtisodiyoti rivojiga munosib hissasi qo'shishini ta'minlash bugungi kun tartibining asosiy masalasi hisoblanadi. Shu bois xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yangi texnika hamda texnologiyalar, innovatsion g'oyalar bilan ta'minlab, ularning imkoniyatlaridan keng foydalanish hisobiga iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Endigi vazifa yaratilayotgan barcha imkoniyatlardan samarali foydalanishni tashkil etish, faoliyatga ta'sir etuvchi salbiy oqibatlarini bartaraf yetish hisoblanadi. Bu o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida yuz beradigan har bir jarayonni maydandan-yirikka, oddiydan-murakkabga yoki aksincha, umumiylikdan eng kichik omilga qadar o'rganib, ular yuzasidan xulosa va takliflarni tayyorlashni, ya'ni iqtisodiy tahlil o'tkazishni talab qiladi.

Iqtisodiy tahlil fanining predmeti - obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida iqtisodiyot subyektlarining xo'jalik hayotida sodir bo'lgan jarayonlarni hujjatlar asosida baholab, istiqbolni belgilashga takliflar kiritish.

Demak, iqtisodiy tahlil asosida xo'jalik yurituvchi subyektning mavjud axborot manbalariga tayanib, o'tgan davrda moddiy, moliyaviy, mehnat, intellektual resurslaridan qay darajada foydalanilgani, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanib, natijalarining yillar bo'yicha dinamik o'zgarishiga omilli baho beriladi hamda bu boradagi kelgusi rejalar ishlab chiqiladi. Natijada xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga baho berilib, yutuqlarni ommalashtirish va kengaytirishga, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish hisobiga iqtisodiy tahlil qilinayotgan obyektning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga erishiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida yuz berayotgan jarayonlarga obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta'sir etib, ularni o'rganmasdan turib iqtisodiy tahlilni yakunlash mumkin emas.

Obyektiv (tashqi) omillar - xo'jalik yurituvchi subyektda qabul qilinayotgan qarorlarga bog'liq bo'lmagan holda uning faoliyatiga ta'sir etuvchi sabablar, ya'ni bozordagi talab va taklif, baho, tabiiy iqlim sharoitlaridir.

Subyektiv (ichki) omillar esa, xo'jalik yurituvchi subyektda qabul qilinayotgan qarorlar natijasida uning faoliyati natijalarini o'zgarishi (yaxshilanishi yoki yomonlashishi)ga olib keluvchi, ya'ni mehnat, moddiy, moliyaviy, intellektual resurslardan foydalanish bilan bog'liq sabablardir.

Iqtisodiy tahlilning obyektini bo'lib - davlat, jamoat tashkilotlari, uyushmalar, trestlar, birjalar, korxonalar, tashkilotlar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik hayoti<sup>5</sup> hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning subyektlari tahlil obyektini kim tomonidan o'rganilishiga qarab aniqlanadi. Jumladan, mulkdorlar, boshqaruvchilar, davlat idoralari xodimlari, buxgalterlar, iqtisodchilar, menejerlar, boshqaruv organlari xodimlari, statistika idoralari xodimlari, auditorlar, moliya tashkilotlari xodimlari, texnik xizmat xodimlari, atrofni muhofaza qilish tashkiloti xodimlari, marketing xizmati xodimlari, bank va birjalar xodimlari iqtisodiy tahlilning subyekti bo'lishlari mumkin.

## **2. Iqtisodiy tahlil fanining maqsadi va vazifalari**

Xo'jalik yurituvchi subyekt hayotiga odilona baho berish va unda mavjud kamchiliklarni bartaraf yetish takliflari asosida o'rganilayotgan obyektning iqtisodiy hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy tahlil muhim o'rin tutadi. Negaki, xo'jalik hayotiga oid ma'lumotlar iqtisodiy axborot manbalari (reja, me'yor va hisobot)dan olinib, sifat ko'rsatkichlari yillar bo'yicha aniqlanadi va ularning o'zgarishiga omilli baho berish orqali boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan obyektning faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo'jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonani kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan qarordir. Korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida korxonada qabul qilingan biznes rejalarning asoslanganligi tekshiriladi, rejada ko'zda tutilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Iqtisodiy tahlil rejalashtirish darajasini talab darajasiga ko'taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlaydi. Shuning uchun ham rejalashtirish bilan tahlil o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rinib turadi. Biznes reja tuzish korxonada faoliyatining tahlili bilan boshlanadi va

---

<sup>5</sup> Xo'jalik hayoti tushunchasi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatidan kengroq ma'noga ega bo'lgani uchun ushbu atamadan foydalanishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

yakunlanadi. Biznes rejaning aniq va puxta ishlab chiqilishi korxonalarining iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli ma'lumotlarni o'rganib chiqib, takliflar tayyorlash.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, xo'jalik yurituvchi subyektning mehnat, moddiy, moliyaviy va boshqa resurslar bilan ta'minlanganligi hamda ulardan samarali foydalanganligini ta'sir etuvchi omillar asosida, axborot manbalariga binoan monitoring etib, foydalanuvchilarni ma'lumotlar bilan ta'minlash, shuningdek, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf yetish yuzasidan takliflar tayyorlashni fanning maqsadi, deb hisoblash mumkin.

Ushbu maqsadga erishishda iqtisodiy tahlil quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- o'rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga to'g'ri va xolisona baho berish;

- tuzilgan biznes reja ma'lumotlarining to'g'ri va ilmiy asoslanganligini baholash;

- moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanishga baho berish;

- iqtisodiy tahlil tamoyillari va xo'jalik hisob-kitoblariga amal qilishlikni muntazam tekshirib turish;

- monitoring natijasida samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash;

- korxonani rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy asos bo'ladigan ko'rsatkichlarni aniqlash;

- xo'jalik subyektini kelgusida faoliyati bo'yicha takliflar tayyorlash va h.k.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida «Iqtisodiy tahlil»ning vazifasi yuqorida ta'kidlanganlar bilan cheklanmaydi. Negaki, xo'jalik hayoti juda serqirra bo'lib, iqtisodiy tahlil jarayonida uning hamma jihatlarini o'rganish kerak bo'ladi. Shu sababli, iqtisodiy tahlilning vazifalari ham juda keng ko'lamlidir.

Iqtisodiy tahlilning oldiga qo'yilgan vazifalarni mukammal hal etilishi bugungi sharoitda ham, kelajakda ham xo'jalik hayotini uzluksiz yaxshilab borishda muhim iqtisodiy dastak sifatida ahamiyatini oshirib boraveradi.


### **3. Fanlar sistemasida iqtisodiy tahlilning tutgan o'rni**

Iqtisodiy tahlil fani buxgalteriya hisobi fani bilan yonma-yon vujudga kelib, u mustaqil fan sifatida shakllandi va rivojlandi.

Davr talabiga ko'ra iqtisodiy tahlilning ham barcha fanlar singari rejaning bajarilishini nazorat qilish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, yuqoridan ko'r-ko'rona topshirilgan rejani asoslashga qarab qo'llangan davrlari ham bo'lgan.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy tahlil bozor iqtisodiyotiga xos, mulk egalari manfaatiga mos ravishda mazmunan va tarkiban yangilandi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlil xo'jalik yurituvchi subyektlarga, mulk egalari samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy tahlil fani ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlardagi umumiy qonuniyatlar, tartiblardan foydalanib, ular bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlandi (4-chizma).



4-chizma. Iqtisodiy tahlilning boshqa fanlar bilan aloqadorligi



Avvalambor, Iqtisodiy tahlil fani «Iqtisodiyot nazariyasi» fani bilan bevosita aloqadordir. Chunki «Iqtisodiyot nazariyasi» fanida iqtisodiy kategoriyalar va atamalarning mazmuni va mohiyati ochib beriladigan bo'lsa, iqtisodiy tahlil fanida ularning holatiga baho beriladi. Masalan, yalpi mahsulot ko'rsatkichining mazmun va mohiyati «Iqtisodiyot nazariyasi» fanida yoritilsa, uning hajmini ma'lum davrlar bo'yicha taqqoslab, dinamik o'zgarishini baholash iqtisodiy tahlil asosida amalga oshiriladi. Xuddi shuningdek, tarmoqlar (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va boshqalar) iqtisodiyotini o'rganuvchi fanlar ham iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda zarur bo'ladigan tushuncha va atamalarni yoritib beradi. Iqtisodiy tahlilning natijalari esa shu tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil qilishni va boshqarishni takomillashtirishda keng qo'llaniladi. Iqtisodiy tahlil xo'jalik yurituvchi subyektlar va tarmoqlar iqtisodiyotini ko'tarishga zamin yaratadi.

Iqtisodiy tahlil xo'jalik yurituvchi subyektlarni boshqarish va rejalashtirishga oid fanlar bilan ham uzviy bog'liq. Chunki iqtisodiy tahlilda reja va istiqbolni belgilovchi ma'lumotlardan keng foydalaniladi. Tahlilchi davlat tomonidan tartibga solish, rejalashtirish va istiqbolni belgilash metodikasini yaxshi bilishi kerak. Iqtisodiy tahlil biznes rejalar, istiqbol ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

«Buxgalteriya hisobi» fani bilan «Iqtisodiy tahlil» fani bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Buxgalteriya hisobi xo'jalik hayotini uzluksiz hujjatlarda aks ettirib, iqtisodiy tahlil bu ma'lumotlar asosida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganib, tegishli xulosa va takliflarni tayyorlaydi. Shu o'rinda buxgalteriya hisobi ham iqtisodiy tahlil ma'lumotlari asosida aniqlangan kamchiliklarga keyingi davrlarda yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqadi.

Iqtisodiy tahlil «Statistika» fani bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, uning ba'zi metodlaridan tahlil o'tkazish jarayonida foydalaniladi.

Shu bilan birga iqtisodiy tahlil boshqa iqtisodiy fanlar, ya'ni moliya, moliyaviy menejment, bank ishi, marketing, soliqlar va soliqqa tortish kabilar bilan bog'liq. Iqtisodiy tahlilda ushbu fanlarning nazariy tushunchalaridan foydalaniladi. Shu bilan birga yuqoridagi fanlar o'z obyektini o'rganishda tahlil amallaridan keng foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlil fani iqtisodiyotga oid bo'lgan fanlar bilan ham bog'liq.

Xususan, «Falsafa» fani bilan bog'liqligini obyektiv borliqning inson ongida aks etishini bilish nazariyasi asosida o'rgatishi orqali asoslash mumkin. Chunki bilish jarayonida analiz va sintez, eksperiment, modellashtirish vositalaridan keng foydalaniladi.

Xo'jalik hayotiga baho berishda huquqiy-me'yoriy hujjatlardan keng foydalanganligi bois, iqtisodiy tahlil bilan huquqiy fanlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud.

Shunga o'xshash bog'liqlikni iqtisodiy tahlil hamda matematikka va tabiiy fanlar o'rtasida ham ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xo'jalik hayotiga baho berishda tahlilchi yuqorida ko'rsatilgan fanlarni yaxshi bilishi talab etiladi.

#### **4. Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar tizimi**

Xo'jalik hayotini tahlil qilishda iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan keng foydalaniladi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy hodisalarni ifodalovchi mikromodel sanaladi. Shu sababli iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi xo'jalik hayotidagi ushbu hodisalarning mazmuni, ko'lami va davriga bog'liq holda shakllantiriladi. Ko'rsatkichlarning dinamik o'zgarishiga omilli baho berish orqali esa iqtisodiy tahlilda hodisalarning yuzaga kelishi va undagi o'zgarishlar sababi o'rganiladi. Bu mutaxassisdan xo'jalik hayotidagi hodisalar to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi va faoliyatning aniq yo'nalishini baholashi uchun doimo iqtisodiy tahlil o'tkazishning maqsadi va vazifalarini yodda tutishni talab etadi.

Xo'jalik hayotini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi ma'lum belgilariga ko'ra:

1. Aniqlash uchun asos bo'lgan o'lchov birliklariga qarab - qiymat va natural.

2. Hodisa, muomala, jarayonlarni o'rganish jihatiga ko'ra - miqdor va sifat.

3. Alohida olingan ko'rsatkichlar yoki ularning nisbatlaridan foydalanilishiga qarab - hajm va salmoq ko'rsatkichlariga bo'linadi.

Hozirgi vaqtda qiymat ko'rsatkichlari keng tarqalgan bo'lib, ularni xo'jalik hayotida qo'llash tovar ishlab chiqarish va tovar aylanishi, tovar-pul munosabatlari mavjudligidan kelib chiqadi. Ulgurji va chakana savdo hajmi, muomala xarajatlari, foyda pul

(qiymat) ko'rinishida ifodalanadi. Pul ko'rinishida ifodalash yuqoridagi kategoriyalarning<sup>6</sup> iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi.

Natural ko'rsatkichlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda reja va hisob, tahlil ishlarida qo'llaniladi. Ular ayniqsa, mol-mulkni saqlanishi, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanilishini nazorat qilish uchun zarur.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovarlar qiymat ko'rinishi bilan bir qatorda natural ko'rinishda ham hisobga olinadi va iqtisodiy tahlil amalga oshiriladi. Natural ko'rsatkichlarda mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan shartnoma shartlarining bajarilishi va shu kabi jihatlar nazorat qilinadi.

Bevosita hisobga olish vositasida olinadigan va hodisalarni miqdoriy jihatdan ifodalaydigan ko'rsatkichlar iqtisodiy tahlilda miqdor ko'rsatkichlari sifatida tushuniladi. Miqdor ko'rsatkichlari mahsulot ishlab chiqarish va sotish, uning tarkibi va xo'jalik hayotining boshqa jihatlarini xarakterlovchi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Miqdor ko'rsatkichlari qiymat ko'rinishida ham, natural ko'rinishida ham ifodalanishi mumkin. So'mda ifodalangan sotilgan mahsulot hajmi; kilogramm, metr, litrlarda ko'rsatilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi; so'mda va natural ko'rsatkichlarda aks ettirilgan tovarlarni ulgurji sotish; so'mdagi chakana savdo hajmi miqdor ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Sifat ko'rsatkichlari xo'jalik hayoti mazmunini, uning belgilari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Ular ishlab chiqarilgan mahsulotni standartlar, texnik shartlar va namunalariga mos kelishi nuqtayi nazaridan, moddiy va mehnat resurslaridan, moliyaviy qo'yilmalar va boshqalardan samarali foydalanishni baholash uchun qo'llaniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini sifat jihatidan tavsiflovchi ko'rsatkichlar hozirgi kunda katta ahamiyatga ega bo'lib, ularga:

- sotish maromiyligini ifodalovchi;
- tovar strukturasi bo'yicha sotish rejalarining bajarilishiga oid;
- iste'molchilar talablarini to'liq qondirilishini aks ettiruvchi;

---

<sup>6</sup> Kategoriya (grekcha. kategoria — qarash, ayblash, belgi) — hodisani o'rganishda qo'llaniladigan nazariy tushunchalar bo'lib, ular real voqealikning ilmiy ifoda etilishidir.

- mahsulotga bo'lgan talabni o'rganish va uni istiqbolda ishlab chiqarish hajmini belgilashda qo'llaniladigan (ishlab chiqarishga mavsumning, iste'molchilar didining, tovarning ergonomik, estetik zavq berish xususiyatlarining o'zgarishini, ishlab chiqaruvchilar va loyiha tashkilotlari tomonidan yangi tovarlar taklif etilishi ta'sirini hisobga olgan holda);

- sifatsiz, past navli yoki to'liq butlanmagan tovarlarni sotishga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularning sifatini yalpi yoki tanlov asosida tekshirib, qabul qilib olishni ifodalovchi (xaridorlar tomonidan sotib olingan tovarlarning sifati bo'yicha e'tiroz bildirilmaganligi);

- sanitariya nazorati talablariga rioya qilinishini aks ettiruvchi (ayniqsa, oziq-ovqat tovarlari savdosida) ko'rsatkichlar kiradi.

Odatda xo'jalik hayotiga bir vaqtning o'zida miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi ham ta'sir etadi. Shu sababli tahlilchi ikkala toifaga oid ko'rsatkichlarning xo'jalik hayotiga ta'sirini alohida-alohida hisoblab, o'rganadi. Masalan, tovar mahsulot ishlab chiqarish hajmi ishchilar sonining ortishi (miqdor ko'rsatkichi) hamda mehnat unumdorligi o'sishi (sifat ko'rsatkichi) hisobiga ko'payishi mumkin. Shuningdek, tovar mahsuloti hajmi qiymat ko'rinishida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sonining, uning tarkibidagi yuqori navli tovar ulushining ko'payishi hisobiga o'sishi mumkin (masalan, sutning yog'lilik darajasini ortishiga qarab tovar mahsulot hajmining mos ravishda ko'payishi).

Hajm ko'rsatkichlari xo'jalik hayotidagi o'rganilayotgan jarayonlarni ularning hajmi, tarkibi nuqtayi nazaridan dastlabki qayd etishda ishlatiladi. Aylanma mablag'lar, chakana va ulgurji savdo, muomala xarajatlari, daromad miqdori hajm ko'rsatkichlaridir.

Xo'jalik hayotidagi iqtisodiy jarayonlar mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Mutlaq ko'rsatkich iqtisodiy hodisalarni boshqa hodisalarga bog'liq bo'lmagan holda miqdor jihatdan ifodalaydi. Nisbiy ko'rsatkich esa, o'rganilayotgan ma'lumotlarni o'tgan davrlar ma'lumotlariga, boshqa hodisalar ko'rsatkichlarga nisbatini aks ettiradi.

Salmoq ko'rsatkichlari - nisbiy ko'rsatkich bo'lib, tegishli hajm ko'rsatkichlaridan keltirib chiqariladi. Salmoq ko'rsatkichlariga bir xodimning mehnat unumdorligi, bir so'mlik sotish hajmiga to'g'ri keladigan muomala xarajatlari kabi ko'rsatkichlar kiradi. Iqtisodiy hisob-kitoblarda strukturani, istiqbol ko'rsatkichlarini bajarilishini, rivojlanish darajasini va dinamikasini ifodalovchi boshqa nisbiy ko'rsatkichlar ham keng qo'llaniladi.

Iqtisodiy tahlilda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan tashqari o'rtacha kattaliklar ham keng qo'llaniladi. Ular bir turdagi hodisalarni miqdoriga ko'ra umumlashtirib tavsiflash uchun qo'llanadi, ya'ni bitta raqam bilan bir guruhdagi obyektlarning jamini tavsiflab beradi.

O'rtacha kattaliklardan faqat ommaviy, bir turdagi ko'rsatkichlarni tahlil qilishda foydalanish zarur. O'rtacha ish haqi, tovarlarning o'rtacha zaxirasi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish kutilgan natijalarni olish imkonini beradi. O'rganilayotgan ko'rsatkichlarni bir turda bo'lish sharti buzilganda o'rtacha kattaliklardan foydalanib bo'lmaydi, chunki bu holatda tahlil qilinayotgan subyekt faoliyatining kamchiliklari ochilmay qolishi mumkin. Shu sababli o'rtacha kattaliklardan foydalanilganda ularni hisoblash uchun asos bo'lgan ko'rsatkichlar ham tahlil qilinishi kerak.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlarning har biri tahlil uchun ma'lum mazmun va ahamiyatga ega. Ularning har biri alohida ko'rilganda, ba'zilar ma'lum cheklashlarga moyil ekanini ko'rish mumkin. Iqtisodiy tahlil esa ko'rsatkichlardan kompleks tarzda, tizimli ravishda foydalanishni nazarda tutadi. Faqat shu holatdagina xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati har taraflama va obyektiv tarzda tadqiq etilishi mumkin.

## Xulosalar

Iqtisodiy tahlilning maqsadi - boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli ma'lumotlarni o'rganib chiqib, takliflar tayyorlash.

Iqtisodiy tahlil xo'jalik yurituvchi subyektning mavjud axborot manbalariga tayanib, o'tgan davrda moddiy, moliyaviy, mehnat, intellektual resurslaridan qay darajada foydalanilgani, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanib, natijalarining yillar bo'yicha dinamik o'zgarishiga obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar asosida baho beriladi hamda bu boradagi kelgusi rejalar ishlab chiqiladi.

Obyektiv (tashqi) omillar - xo'jalik yurituvchi subyektida qabul qilinayotgan qarorlarga bog'liq bo'lmagan holda uning faoliyatiga ta'sir etuvchi sabablar, ya'ni bozordagi talab va taklif, baho, tabiiy-iqlim sharoitlaridir. Subyektiv (ichki) omillar esa, xo'jalik yurituvchi subyektida qabul qilinayotgan qarorlar natijasida uning faoliyati natijalarining o'zgarishi (yaxshilanishi yoki yomonlashishi)ga olib

keluvchi, ya'ni mehnat, moddiy, moliyaviy, intellektual resurslardan foydalanish bilan bog'liq sabablardir.

Iqtisodiy tahlilning obyekti - davlat, jamoat tashkilotlari, uyushmalar, trestlar, birjalar, korxonalar, tashkilotlar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik hayoti, subyektlari esa tahlil obyektini kim tomonidan o'rganilishiga qarab aniqlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning mehnat, moddiy, moliyaviy va boshqa resurslar bilan ta'minlanganligi hamda ulardan samarali foydalaniganligini ta'sir etuvchi omillar asosida, axborot manbalariga binoan monitoring qilib, foydalanuvchilarni ma'lumotlar bilan ta'minlash, shuningdek, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlash iqtisodiy tahlil fanining maqsadi, deb hisoblash mumkin.

Iqtisodiy tahlil xo'jalik hayoti yuzasidan boshqaruv qarorlarini qabul qilar ekan uning adolatli, to'g'ri, sifatli, qonuniy bo'lishida ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlardagi umumiy qonuniyatlar, tartiblaridan foydalanadi va ular bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi.

Iqtisodiy tahlil ko'rsatkichlar tizimi xo'jalik hayotidagi hodisalarning mazmuni, ko'lami va davriga bog'liq holda shakllantiriladi. Xo'jalik hayotini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi: aniqlash uchun asos bo'lgan o'lchov birliklariga qarab - qiymat va natural; hodisa, muomala, jarayonlarni o'rganish jihatiga ko'ra - miqdor va sifat; alohida olingan ko'rsatkichlar yoki ularning nisbatlaridan foydalanilishiga qarab - hajm va salmoq ko'rsatkichlariga bo'linadi.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Tahlil fanining predmeti, deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy tahlilning maqsadini ayting.
3. Iqtisodiy tahlil fanining vazifalari nimalardan iborat?
4. Xo'jalik hayotiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni ayting.
5. Iqtisodiy tahlilning obyekti, deganda nimani tushunasiz?
6. Iqtisodiy tahlilning subyektlari kimlar?
7. Iqtisodiy tahlil fanining iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini izohlang.
8. Iqtisodiy tahlilning noiqtisodiy fanlar bilan aloqasini tushuntirib bering.
9. Qiymat va natural ko'rsatkichlar, deganda nimani tushunasiz?

10. Miqdor va sifat ko'rsatkichlariga sharh bering.
11. Hajm va salmoq ko'rsatkichlariga misollar asosida izoh bering.
12. Mutlaq ko'rsatkichlar, deganda nimani tushunasiz?
13. O'rtacha kattaliklar va ularning mazmunini izohlang.
14. Nisbiy ko'rsatkichlar va ularning mazmunini keltiring.

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Iqtisodiy tahlil fanining predmeti; iqtisodiy tahlil fanining obyekt; iqtisodiy tahlil fanining subyekt; iqtisodiy tahlilning maqsadi; iqtisodiy tahlil fanining vazifalari; ta'sir e'tuvchi obyektiv omillar; subyektiv omillar; iqtisodiy tahlilning obyekt; iqtisodiy tahlilning subyekt; iqtisodiy tahlilning fanlar sistemasida tutgan o'rn; iqtisodiy tahlil va iqtisodiy fanlarning aloqasi; iqtisodiy tahlil va noiqtisodiy fanlarning aloqasi; ko'rsatkichlar tizimi; miqdor ko'rsatkichlar; sifat ko'rsatkichlar; hajm ko'rsatkichlari; salmoq ko'rsatkichlar; qiymat ko'rsatkichlar; natural ko'rsatkichlar; mutlaq ko'rsatkichlar; nisbiy ko'rsatkichlar; o'rtacha kattaliklar.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

#### **1. Iqtisodiy tahlil fanining maqsadi...**

- A. Mavjud imkoniyatlarni topish va ulardan to'la-to'kis foydalanish.
- B. Mahsulot tannarxini hisoblash.
- C. Mehnat unumdorligini aniqlash.
- D. Asosiy vositalardan samarali foydalanish.

#### **2. Parchalab o'rganilgan jarayonlarni umumlashtirish ... deyiladi.**

- A. Deduksiya.
- B. Sintez.
- C. Induksiya.
- D. Analiz.

### **III mavzu. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO‘LLANILADIGAN AN‘ANAVIY USULLAR**

---

#### **1. Iqtisodiy tahlilning metodi va uning xususiyatlari**

Xo‘jalik hayotiga baho berishda iqtisodiy tahlil ma‘lum metod-dan foydalanadi. Metod (yunoncha «methodos» — tadqiqot o‘tkazish yoki o‘rganish yo‘li, nazariya, ta‘limot) - tabiat hamda jamiyatda sodir bo‘ladigan hodisalarni, jarayonlarni o‘rganish va bilish usuli hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning metodi - xo‘jalik hayotida jarayonlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi hamda rivojlanishini dialektik yondashuv usulidan foydalanib o‘rganish hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida xo‘jalik hayotini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish va ularning o‘zaro bog‘liqligi, o‘zgarish sabablarini hisob-kitob qilish iqtisodiy tahlil fani metodining o‘ziga xos jihati sanaladi.

Fan metodida yangi bilimlar olish uchun zarur bo‘lgan jarayonlar jamlangan, ya‘ni uni o‘ziga xos fikrlash texnologiyasi, deyish mumkin.

Bilish metodlarini barcha fanlar uchun umumiy va alohida aniq bir fan uchun qo‘llaniladigan turlarga bo‘lish mumkin. Barcha fanlar uchun umumiy bo‘lgan metodlarga kuzatish, taqqoslash, eksperiment, analiz (tahlil), sintez, modellashtirish kabilarni kiritish mumkin. Bu metodlarni aniq bir fan yoki izlanishda qo‘llash o‘rganilayotgan obyektning maxsus jihatlari, uni bilishning umumiy darajasi, shuningdek, mavjud texnik vositalarga bog‘liq.

Aniq bir fan uchun qo‘llaniladigan metodlar alohida fanlarga xos bo‘lib, ular boshqa fanlar tomonidan foydalanilmaydi.

Iqtisodiy tahlil metodi ham aniq bir fan uchun qo‘llaniladigan metod bo‘lib, xo‘jalik hayotini bilish usuli sifatida qat‘iy ketma-ketlikda amalga oshiriladigan bir qator bosqichlardan iborat:

- subyektni kuzatish, mutlaq va nisbiy kattaliklarni aniqlash hamda hisoblash, ularni taqqoslanadigan ko‘rinishga keltirish;
- omillarni bir tizimga keltirish va solishtirish, guruhlashtirish va detallashtirish, ularni xo‘jalik hayotiga ta‘sirini o‘rganish;



- tahlil natijalarini umumlashtirish – yakuniy va istiqbolga yo'naltirilgan jadvallarni tuzish, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xulosa va takliflar tayyorlash.

Iqtisodiy tahlilda jarayonlar dialektik yondashuv, ya'ni har bir voqelik mavjud va rivojlanishda, deb qaralib, ular sonidan sifat o'zgarishiga yoki yangi sifatning paydo bo'lishi, inkorni - inkor qilish, qarama-qarshilik kurashi, eskining tugashi, yangi - ilg'or voqeliklarning paydo bo'lishi kabi xususiyatlar asosida o'rganiladi. Shu boisdan, dialektik yondashuv va uning barcha usullari xo'jalik hayotini tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan ko'rsatkichlar, ularning turi va hajmi o'rganilayotgan jarayonning mazmuni, ko'lami va davriga bog'liq bo'ladi. Hatto tahlil natijasida avvaldan mo'ljallanmagan yangi ko'rsatkichlar ham hisoblab topilishi mumkin. Mazkur holat iqtisodiy tahlil metodining o'ziga xos jihatlardan biri hisoblanadi.

Ko'rsatkichlarning o'zaro farqlanishi hamda o'zgarish sabablarini aniqlash iqtisodiy tahlil ishlarida muhim ahamiyatga ega. Har bir o'zgarishga ta'sir ko'rsatgan sabablar (omillar)ni hisoblash iqtisodiy tahlil metodining yana bir o'ziga xos xususiyatidir. Chunki iqtisodiy tahlilda foydalanilayotgan ko'rsatkichlar va ularning o'zgarishi doimo bir-biri bilan uzviy bog'liq, o'zaro aloqa hamda ta'sir natijasida sodir bo'ladi. Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bu o'zgarishlarga ta'sir etgan omillarni aniqlab, hisob-kitob qilish muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, ayrim omillar xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va hayotini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu boisdan, ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi asosiy va qo'shimcha omillarni aniqlash, ularni tasniflash tahlil metodining muhim xususiyati bo'lib sanalgan.

Asosiy va qo'shimcha omillar ham tarkibiy elementlarining ta'sirida o'zgaradi. Omillarning tarkibiy elementlari miqdor va sifati bo'yicha guruhlanadi. Masalan, mehnat resurslari ishlab chiqarishning asosiy omili sanaladi. Biroq, mehnat resurslari tahlilida ishchilar soni miqdor omili, mehnat unumdorligi sifat omili hisoblanadi.

Demak, iqtisodiy tahlil metodining muhim xususiyati xo'jalik yurituvchi subyektida o'rganiladigan muayyan ko'rsatkich alohida, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa omillardan ajratilgan holda o'rganilmaydi. Faqatgina ayrim hollarda iqtisodiy jarayonlar bo'yicha hisob-kitoblarni mantiqiy asoslash uchun, ya'ni yakuniy natija ko'rsatkichiga faqat bir omilning ta'siri o'rganilayotgan

vaziyatlarda boshqa sabablarning o'zgarishi hamda ta'sir yetish miqdori shartli o'zgarimas, deb qaralishi mumkin.

Iqtisodiy tahlil usullarining o'ziga xos xarakterli jihatlari — ko'rsatkichlarning muntazam taqqoslab turilishi, o'rganilayotgan obyektning alohida tekshirilmasligi bilan ham izohlanadi. Bunda har bir hodisa va jarayonlarning ichki qarama-qarshiliklari, ijobiy va salbiy tomonlari o'rganib chiqiladi va o'rganilayotgan obyekt alohida tekshirilsa u yuzasidan to'g'ri xulosaga ega bo'lmasligi kelib chiqadi.

Iqtisodiy tahlilda xo'jalik hayotidagi jarayonlarning umumiyligi, o'ziga xos tuzilish va tarkibga egaligi hamda murakkab tavsifdagi o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib, tizimlashgan turli metodlardan foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlilga oid ayrim adabiyotlarda uning metodlari shartli ravishda ikki, xususan: oddiy-an'anaviy (odatdagi); iqtisodiy - matematik (omilli tahlil) guruhga ajratib ko'rsatilgan. Biroq, moliyaviy va boshqaruv tahliliga oid iqtisodiy adabiyotlarda uning metodlarini — vertikal, gorizontaal, trendli, moliyaviy koeffitsiyentlarga ajratilganini ta'kidlash zarur.

Iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy (odatdagi) metodi iqtisodiy tahlil paydo bo'lgandan buyon an'anaga aylanib, amaliy tajribada keng qo'llanilib kelayotgan usullardan tashkil topgan bo'lib, ular mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash, taqqoslash, guruhlashtirish, balansli bog'lanish, zanjirli o'rin almashtirish kabilardan iborat (bu usullarga ushbu mavzuning keyingi rejalarida aniq iqtisodiy jarayonlarning tahlili asosida batafsil to'xtalib o'tamiz).

Iqtisodiy-matematik metod, iqtisodiy axborotlarni qayta ishlovchi kompyuterlar hamda axborot texnologiyalarini rivojlanishi bilan shakllangan usullardan tashkil topgan. Ushbu metodda mujassamlashgan usullarning o'ziga xos jihati iqtisodiy axborotlarni hisoblash va qayta ishlash jarayonini tezlashishi, qisqa muddatda ma'lumotlarning boshqaruv xodimlariga uzatilishi, murakkab masalalarni tez va aniq hisob-kitob qilinishi bilan izohlanadi. Bunga korrelyatsiya - regressiya, integral, nazariy o'yin, matematik dasturlash kabi iqtisodiy-matematik usullar misol bo'ladi.

## **2. Mutlaq, o'rtacha va nisbiy kattaliklardan foydalanish usuli**

Mutlaq kattaliklar iqtisodiy tahlil ko'rsatkichlarini dastlabki, bir-lamchi shaklda ifodalaydi. Ular o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlar va voqelikni mutlaq o'lchamlarini tavsiflaydi (qiymati, hajmi va hokazolarni).

Mutlaq kattaliklar doimo o'lchov birligi bilan birga keltiriladi. Iqtisodiy jarayon va hodisalarni mazmuniga ko'ra mutlaq kattaliklar natural (tonna, kilogramm, litr, dona va hakoza), qiymat (so'mda) va mehnat (kishi – kunlari, kishi-soatlari) o'lchov birliklarida ifodalanadi (1-2-jadvallar).

*1-jadval*

**Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot (ish, xizmat)lar nomenklaturasi va assortimentining tahlili**

Mahsulot turlari	Mahsulot (ish, xizmat) bir-birligining bahosi, so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi, dona		Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymati, ming so'm	
		biznes reja	haqiqatda	biznes reja	haqiqatda
Buxanka non	600	1000	1200	600	720
Baton	1800	1200	1400	2160	2520
Patir non	1500	1000	800	1500	1200
<b>Jami</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>4260</b>	<b>4440</b>

Jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyekt uch, xususan, buxanka non, baton, patir non ishlab chiqarib, hisobot davrida ulardan buxanka non va baton rejalashtirilganidan mos ravishda 200 (1400-1200) va 200 (1200-1000) taga ko'p ishlab chiqarilgan. Patir non ishlab chiqarilishi rejalashtirilganidan 200 (1000-800) taga kam bo'lgan. Mazkur o'zgarishga mos ravishda mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining qiymati ham ma'lum miqdorga kamaygan. Shunday bo'lsada, hisobot davrida mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish rejasi qiymatda 104,2 foiz ((4440/4260)\*100)ga bajarilgan. Bu xo'jalik yurituvchi subyekti uchun ijobiy holat hisoblanadi.

*2-jadval*

**Xo'jalik yurituvchi subyektda mehnat resurslarining ish vaqtdan foydalanishi tahlili**

Ko'rsatkichlar	Biznes rejada	Haqiqatda	Biznes rejadan farq (+,-)	Biznes rejaning bajarilishi, %
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>
1. Mehnat resurslarining yil davomida ishlagan jami kishi-kunlari, ming kishi-kuni	100,1	110,2	+10,1	110,1
2. Mehnat resurslarining yil davomida ishlagan jami kishi-soatlari, ming kishi-soat	770,6	800,9	+30,3	103,9

1	2	3	4	5
3. Xodimlar soni, kishi	360	380	+20	105,6
4. Bir xodimning yil davomida ishlagan kunlari (1 k./3 k.)	278	290	+12	104,3
5. Ish kuni davomiyligi, soat (2/1)	7,7	7,3	-0,4	94,8
<b>6. Mehnat resurslarining yil davomida ishlagan jami kishi-kunlarining o'zgarishi, ming kishi-kuni</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>+10,1</b>
<i>Shu jumladan:</i>				
- xodimlar sonining o'zgarishi hisobiga, ming kishi-kuni	$(+20*278)/1000=5,6$			+5,6
- bir xodimning yil davomida ishlagan kunlarining o'zgarishi hisobiga, ming kishi-kuni	$(+12*380)/1000=4,5$			+4,5
<b>7. Mehnat resurslarining yil davomida ishlagan jami kishi-sonlarining o'zgarishi, ming kishi-soati</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>+30,3</b>
<i>Shu jumladan:</i>				
- ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga, ming kishi-kuni	$(+20*278*7,7)/1000=+42,8$			+42,8
- bir xodimning yil davomida ishlagan kunlarining o'zgarishi hisobiga, ming kishi-kuni	$(+12*380*7,7)/1000=+35,1$			+35,1
- ish kuni davomiyligining o'zgarishi hisobiga, ming kishi-kuni	$(-0,4*290*380)/1000=-44,1$			-44,1

Jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektda mehnat resurslarining ish vaqtidan foydalanish fondi biznes rejadagiga nisbatan 10,1 (110,2-100,1) ming kishi-kuni va 30,3 (800,9-770,6) ming kishi-soatiga ortgan. Bunga bir xodimning yil davomida ishlagan kunlarining 12 kunga va xodimlar sonining 20 nafarga ko'payganligi ijobiy ta'sir etgan. Ammo, bir kunlik ish soatlari (ish kuni davomiyligi)ning 0,4 soatga qisqargani salbiy ta'sir etgan. Hisob-kitoblarga ko'ra bir xodimning yil davomida ishlagan kunlarining 12 kunga va xodimlar sonining 20 nafarga ortgani mos ravishda mehnat resurslarining yil davomida ishlagan jami kishi-kunlarini 5,6 hamda 4,5 ming kishi kuniga ko'paytirgan. Shu o'rinda bir xodimning yil davomida ishlagan kunlarining 12 kunga va xodimlar sonining 20 nafarga ortgani, ish kuni davomiyligining 0,4 soatga qisqarganligi mos ravishda mehnat resurslarining yil davomida ishlagan jami kishi-soatlari o'zarishiga +42,8; +35,1; -44,1 birlikda ta'sir etgan.

Bizningcha, xo‘jalik yurituvchi subyekt ish kunlari va xodimlar sonini ko‘paytirib, mehnat resurslarining ish vaqtidan foydalanish ko‘rsatkichlarini oshirishni hamda ular hisobiga ish kuni davomiyligini qichqartirishni ma’qul topgan.

Nisbiy kattaliklar bir mutlaq kattalikning ikkinchi bir mutlaq kattalikka bo‘lib topiladi.

Nisbiy kattaliklarsiz o‘rganilayotgan jarayon va hodisalar o‘zgarishini, o‘zaro bog‘liq voqelikni rivojlanish darajasini baholab bo‘lmaydi. Nisbiy kattaliklarni qo‘llash orqali o‘rganilayotgan obyektlarga inflyatsiyaning ta’siri inobatga olinadi, aktivlardan samarali foydalanish darajasi ko‘rsatiladi va h.k.

Iqtisodiy tahlilda ikkita mutlaq kattalikning nisbati odatda, moliyaviy koeffitsiyentlar, deb ham ataladi.

Nisbiy kattaliklar foizda, promille (foizning yuzdan biri)da yoki o‘lchamli raqamlarda (marta) ifoda etiladi. Foiz, odatda, solishtirilayotgan ko‘rsatkich bazis ko‘rsatkichidan 2-3 barobardan katta bo‘lmagan hollarda hisoblanadi. Bundan katta bo‘lgan hollarda esa o‘lchamli raqamlar (barobar)dan foydalaniladi. Masalan, 425 foiz o‘rniga 4,25 barobar katta ifodasi ishlatiladi.

3-jadval

### Nisbiy miqdorlarning ifodalanish turlari va ularning shartli ishoralari

Bazis miqdori	Nisbiy miqdorlarning ifodalanishi	Ifodalanishlarning shartli belgilari	Misolimizda
1,0	Koeffitsiyentlarda	1/10	1,720
100,0	Foizda	0/00	172,0
1000	Promilleda	0/000	1720
10000	Prodetsimilleda	0/0000	17200

O‘rtacha kattaliklar xo‘jalik hayotida sodir bo‘layotgan omaviy, bir turdagi iqtisodiy hodisalarni tahlil etishda qo‘llaniladi. O‘rtacha kattalik o‘rganilayotgan ma’lumotlarni «o‘rta» yoki «markaz»ini bildirib, quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Darajali o‘rtacha kattaliklar:
  - 1.1. O‘rtacha arifmetik.
  - 1.2. O‘rtacha geometrik.
  - 1.3. O‘rtacha garmonik.
  - 1.4. O‘rtacha kvadratik, kubik va boshqalar.
2. Tarkibiy o‘rtachalar:
  - 2.1. Moda.
  - 2.2. Mediana.

O'rtacha arifmetik kattaliklar eng ko'p tarqalgan, oddiy va amalda keng foydalaniladigan turi bo'lib, oddiy va tortilgan ko'rinishda bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

1. Oddiy o'rtacha arifmetik:

$$\bar{x}_{od.ar.} = \frac{x_1 + x_2 + x_3 + \dots + x_n}{f} = \frac{\sum x}{f}$$

2. Tortilgan o'rtacha arifmetik:

$$\bar{x}_{tor.ar.} = \frac{x_1 f_1 + x_2 f_2 + x_3 f_3 + \dots + x_n f_n}{f_1 + f_2 + f_3 + \dots + f_n} = \frac{\sum x f}{\sum f}$$

O'rtacha geometrik kattaligini hisoblash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$\bar{x}_{geom.} = \sqrt[n]{x_1 * x_2 \dots x_n} = \sqrt[n]{P * x_i}$$

O'rtacha garmonik. Statistika o'rtacha arifmetik miqdor bilan bir qatorda o'rtacha garmonik miqdor ham keng qo'llaniladi.

O'rtacha garmonik miqdor – bu o'rtacha arifmetik miqdorning teskari, ya'ni  $x = -1$  bo'lgan darajasiga tengdir:

$$\bar{x}_{gar.} = \frac{1+1+\dots+1}{\frac{1}{x_1} + \frac{1}{x_2} + \dots + \frac{1}{x_n}} = \frac{n}{\sum \frac{1}{x}} = \frac{1}{\sum \frac{n}{x} : \sum n}$$

O'rtacha kvadratik miqdor quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\bar{x}_{kv.} = \sqrt{\frac{x_1^2 + x_2^2 + \dots + x_n^2}{n}} = \sqrt{\frac{\sum x^2}{n}}$$

O'rtacha kubik miqdor quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{x}_{kub.} = \sqrt[3]{\frac{\sum x^3}{n}}$$

Moda, deganda to'plamda belgining eng ko'p uchraydigan miqdoriga aytiladi. Ish haqi modasi deyilganda eng ko'p ishlovchilar oladigan mehnat haqi, erkaklar poyafzali - bo'yicha eng ko'p uchraydigan 42 razmer tushuniladi. Modaning o'rtacha arifmetik, garmonik va hatto medianadan farqi, u hamma vaqt mavhum miqdorni emas, balki aniq miqdorni ifodalaydi. Moda, taqsimot

qatorini oxirgi hadlariga bogʻlanib qolmagan. Shuning uchun ham teng boʻlmagan taqsimlanishlarda oʻrtacha arifmetikni toʻldiruvchisi boʻlib hisoblanadi.

Mediana, deyilganda toʻplamni teng ikkiga boʻluvchi varianta tushuniladi. Toʻplam birliklarini yarmisi medianadan yuqorida, yarmisi esa pastda joylashadi.

### 3. Taqqoslash usuli va uning qoʻllanishi

Xoʻjalik hayotiga baho berishda taqqoslash usulidan keng foydalanilib, unda koʻrsatkichlar reja, oʻtgan davrlar maʼlumotlari bilan solishtirilishi orqali tegishli xulosalar olinadi. Negaki, bir turdagi koʻrsatkichlar oʻrtasidagi oʻxshashlik yoki farqlarni aniqlangandan soʻnggina taʼsir etuvchi omillar hisob-kitob qilinadi.

Taqqoslash bir nechta bosqichdan iborat boʻladi. Xususan:

- taqqoslanadigan obyektlar belgilanadi;
- taqqoslash shakli tanlab olinadi (dinamik, makoniy va h.k.);
- taqqoslash bazasi belgilab olinadi (oʻtgan davr, hisobot davr biznes-reja maʼlumotlari, etalon korxonalar maʼlumotlari va h.k.);
- obyektlarni qiyoslash amalga oshiriladigan koʻrsatkichlar sonini tanlash.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, iqtisodiy tahlilda taqqoslash usulining quyidagi: gorizontalar va vertikal; dinamik va statik; bir va koʻp oʻlchovli shakllari mavjud.

Gorizontalar taqqoslash oʻrganilayotgan koʻrsatkichlarning haqiqatdagi darajasini bazaviydan (reja, oʻtgan yillar, oʻrtacha daraja, fan va ilgʻor tajriba yutuqlari) mutlaq va nisbiy farqlarini aniqlash uchun foydalaniladi (5-chizma).


Vertikal taqqoslash iqtisodiy hodisalarning strukturasi va jarayonlarning qismlari hamda umumiy solishtirma salmogʻini hisoblash yoʻli bilan (oʻz kapitalining umumiy kapitaldagi ulushi), butun va qism nisbatlari (masalan, oʻz va qarz kapitali, asosiy va aylanma kapital), shuningdek, omillarning natijaviy koʻrsatkichlar darajasiga taʼsirini mos omilning oldingi va keyingi oʻzgarishlari miqdorlariga solishtirishni anglatadi.

Iqtisodiy tahlilda taqqoslash usulini qoʻllash shartlari mavjud boʻlib, ular quyidagilardan iborat:

1. Taqqoslanuvchi koʻrsatkichlar bir xil usulda aniqlangan boʻlishi kerak (masalan, amortizatsiya ajratmalari, soliq stavkasi va boshqalar).

2. Taqqoslanuvchi ko'rsatkichlar bir xil o'lchov birligida bo'lishi zarur (masalan, qiymat, kilogramm, litr, dona va boshqalar).

3. Taqqoslanuvchi obyektning hajmi bir-biriga mos bo'lishi talab etiladi (masalan, kichik savdo do'koni aylanmasi bilan supermarketning oborotini taqqoslash kerakli natijani bermaydi va h.k.).



**5-chizma. Taqqoslash usullarini turlari**

4. Taqqoslanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) turlari bir xil bo'lishi kerak (masalan, non ishlab chiqaruvchi korxonada bilan fermer xo'jaligi faoliyati ko'rsatkichlarini solishtirish to'g'ri xulosa chiqarish imkonini bermaydi va boshqalar).



5. Boshqa omillar, xususan, tabiiy-iqlim sharoiti, xo'jalik yurituvchi subyektning geografik joylashuvi va boshqa holatlar inobatga olinishi zarur (5-jadval).

5-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyekt mulkini o'tgan yil, ilg'or va o'rtacha darajadagi korxonalar ma'lumotlariga nisbatan taqqoslash**

(mln. so'm hisobida)

Ko'rsatkich	O'tgan yil	Hisobot yil	Ilg'or korxonalar ma'lumoti	O'rtacha darajadagi korxonalar ma'lumoti	Farqi (+,-)		
					o'tgan yildan	ilg'or korxonalar ma'lumotidan	o'rtacha darajadagi korxonalar ma'lumotidan
1	2	3	4	5	6=3-2	7=3-4	8=3-5
Mol-mulki qiymati	144,2	147,8	157,9	127,3	+3,6	-10,1	+20,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xo'jalik yurituvchi subyektning mol-mulki hisobot yilida 147,8 mln. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,6 (147,8-144,2) mln. so'mga ko'p bo'lgan. Hisobot yilidagi ko'rsatkichning o'zgarishi ilg'or va o'rtacha korxonaga nisbatan mos ravishda -10,1 (147,8-157,9) hamda +20,5 (147,8-127,3) mln. so'mga o'zgaragan.

Tahlil natijalariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning mol-mulki tarmoqdagi o'rtacha darajadagi korxonalar mulki qiymatidan ko'proq ekanini ko'rish mumkin.

Tahlilda rioya qilish zarur bo'lgan muhim shartlardan biri - ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlashdir. Chunki faqat sifat jihatidan bir xil kattaliklarni qiyoslash mumkin.

Ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchan emasligi quyidagi sabablarga ko'ra kelib chiqishi mumkin: turli narxlar mavjudligi; faoliyat hajmi turlichaligi; taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar uchun tanlangan vaqt kesimi har xilligi; faoliyatning boshlang'ich sharoiti bir xil bo'lmasligi (texnik, tabiiy-iqlim va boshqalar); ko'rsatkichlarni hisoblash usullari turlichaligi; korxonalar hisob siyosatining o'zgarishi va boshqalar. O'rganilayotgan ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun yuqorida ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, ularni yagona bazaga olib kelish zarur.

Birinchi navbatda, barcha qiymat ko'rsatkichlar (ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar qiymati, tushum, tannarx, foyda, material xarajatlar hajmi, zaxiralar, asosiy vositalar va boshqalar)ning kattaligiga ta'sir ko'rsatuvchi narx o'sishini (inflyatsiya bilan aloqadorlikda) e'tiborga olish zarur. Narx o'sishining ta'sirini bartaraf etish uchun taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar bir xil narxga keltirilishi kerak (6-jadval).

6-jadval

### Mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasi tahlili

Yillar	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi joriy yil bahosida, ming so'm	Baho indeksi	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi bazis davr bahosida, ming so'm	O'sish sur'ati, %	
				bazisli	zanjirli
2008	200000	1,0	200000	100	100
2009	215000	1,30	165384	82,7	82,7
2010	220000	1,35	125356	62,6	75,8
2011	339150	1,20	209352	104,6	167,0
2012	336006	1,10	254550	127,3	127,6

Hisob-kitoblar:

$$215000: (1,0 \cdot 1,30) = 165384$$

$$220000: (1,30 \cdot 1,35) = 125356$$

Jadval ma'lumotlariga ko'ra baho indeksi (inflyatsiya) hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmi taqqoslanuvchanlik ko'rinishiga keltirildi.

Mahsulot ayrim turlarining jami mahsulot hajmi tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi ham (strukturaviy o'zgarish) mazkur ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslashda noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, taqqoslanayotgan ko'rsatkichlarni bir xil asosga keltirish uchun haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi bazis davr strukturasiiga mos ravishda qayta hisoblanishi zarur.

Ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun tuzatish koeffitsiyentlari ham keng qo'llaniladi. Xususan, ko'rsatkichlarning metodik nomutanosibligiga nisbatan e'tiborli bo'lish lozim. U nafaqat taqqoslash natijalarini, balki umuman voqelik ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin. Misol uchun, fond qaytimi asosiy vositalarning jami summasi bo'yicha, ishlab chiqarishga mo'ljallangan asosiy vositalar bo'yicha yoki faqat ularning aktiv qismi bo'yicha hisoblanishi mumkin. Shu bois

xulosalar to'g'riligini ta'minlash uchun ularni hisoblash metodikasi bo'yicha ko'rsatkichlar bir xilligiga erishish lozim.

Ko'rsatkichlarni taqqoslashda ularning taqqoslanuvchanlik bo'yicha tabiiy-iqlim sharoitlarini ta'minlash juda muhim. Xususan, bu qishloq xo'jaligi uchun juda dolzarb masala sanaladi. Korxonalarining turli tabiiy-iqtisodiy zonalarda bo'lishi mahsulot yetishtirishga, vaqtinchalik va doimiy xarajatlar darajasiga, mahsulotlar mehnat sig'imi va boshqalarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu omil bo'yicha ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun iqlimiy va hududiy xususiyatlar bilan shartlangan ko'rsatkichlarning o'sish ulushi ajratiladi, keyin esa ularning ta'siri bartaraf etiladi.

Ayrim ko'rsatkichlarning mavsumiy tavsifiga e'tibor qaratish zarur. Misol uchun, tovar zaxiralari mavsumgacha jamlanadi, qishki davr uchun ozuqa zaxiralari yaratiladi va boshqalar.

Ayrim hollarda ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchan emasligi korxonaning hisob siyosatidagi o'zgarishlardan ham kelib chiqishi mumkin. Xususan, amaldagi me'yoriy hujjatlar bir ma'noga ega ko'rsatkichlarni turli usullar bilan shakllantirish mumkinligiga yo'l qo'yadi. Misol uchun, asosiy vositalarga eskirish hamda nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning turli metod va usullarining mavjudligi, iste'mol qilingan ishlab chiqarish zaxiralarini baholash metodini o'zgartirish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, ko'rsatkichlarni taqqoslanuvchan shaklga keltirishning asosiy usullari qiymat, hajm, sifat va struktura omillarining ta'sirini ularni yagona asosga keltirish yo'li bilan yo'q qilish, shuningdek, o'rtacha va nisbiy kattalik, tuzatish koeffitsiyentlari, qayta baholash metodlaridan foydalanish va shu kabilar hisoblanadi.

#### **4. Mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli va ularning mohiyati**

Iqtisodiy tahlilda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni qo'llash bilan bir qatorda mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usulidan foydalaniladi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish bilan mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash har xil tushuncha bo'lib, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar xo'jalik hayotida olinadigan kattaliklarni dastlabki, birlamchi shaklda ifodalaydi.

Mutlaq va nisbiy farqlar usulining mohiyati esa, ko'rsatkichlar o'zgarishiga aniq baho berishni ta'minlashdir. Mutlaq farq o'rganilayotgan ma'lumotlarni avvalgi davrlardan farqlash asosida aniqlanadi. Lekin omillar ta'sirida mutlaq farqni hisoblash bilan topilgan natija har doim ham to'g'ri xulosaga olib kelmasligi mumkin.

Nisbiy farq tahlilda shartli ko'rsatkichlarning kiritilishi va uni xuddi shunday ko'rsatkichning hisobot yilgi ma'lumotidan farqlash asosida aniqlanadi. Nisbiy farqlarni aniqlash vositasida omillar ta'sirida mutlaq ko'rsatkichlarda bo'lgan o'zgarishlar real baholanadi. Bu ayniqsa, yakuniy ko'rsatkich o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarni o'rganishda qo'l keladi.

Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektning mehnat haqi xarajatlarining tahlilida mutlaq farqlarga qarab chiqarilgan xulosa har safar ham to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Shu sababli uning tahlilini nisbiy farqlarni hisoblash bilan to'ldirish zarur (7-8-jadval).

7-jadval

**Mehnat haqi xarajatlari o'zgarishining mutlaq va nisbiy farqlarni hisoblash asosidagi tahlili**

(ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Biznes-rejada	Haqiqatda	Farqi (+, -)	
			summa	foiz, %
1	2	3	4=3-2	5= (4/2)*100
Mehnat haqi xarajatlari	4000	4150	+150	+3,7

Jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning ish haqi xarajatlari haqiqatda biznes-rejada belgilanganidan 150 (4150-4000) ming so'mga ortib ketgan va bu ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxini shu qiymatda qimmatlashishiga ta'sir etgan, deb tushunish mumkin.

Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmini o'zgarishi ta'sirini hisobga olmaslik natijasida xo'jalik yurituvchi subyekt ish haqi xarajatlarini biznes-rejada belgilangan 4000 ming so'm qiymatida saqlab qolishi maqsadga muvofiq bo'lar edi, degan xulosaga kelish mumkin.

Bunga yo'l qo'ymaslik maqsadida mehnat haqi xarajatlariga mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hajmini o'zgarishi ta'sirini hisobga olgan holda 8-jadval bo'yicha faoliyatga baho berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## Mehnat haqi xarajatlari o'zgarishining mutlaq va nisbiy farqlarni hisoblash asosidagi tahlili

(ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Biznes-rejada	Shartli ko'rsatkich	Haqiqatda	Farqi (+, -)	
				mutlaq	nisbiy
1	2	3	4	5=4-2	6=4-3
Mehnat haqi xarajatlari	4000	4200	4150	+150	-50

Hisob-kitoblar:

Shartli ko'rsatkich (X) quyidagicha aniqlangan:

$$x = \frac{4000 * 105}{100} = 4200.$$

Jadval ma'lumotiga binoan xo'jalik yurituvchi subyekt hisobot yilida 4000 ming so'm miqdorida ish haqi fondini shakllantirgan. Yil yakunidagi hisob kitoblarga ko'ra bu ko'rsatkich 4150 ming so'mni tashkil etgan. Natijada mutlaq farq 150 (4150 - 4000) ming so'mni tashkil etgan. Lekin mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmining rejalashtirilganidan 105 foizga ortig'i bilan bajarilgani bois, shu darajada ish haqi fondi oshirilganda uning korrektirovka summasi 4200 ming so'm bo'lgan. Natijada nisbiy farq -50 ming (4150-4200) so'mni tashkil etib, bu ish haqi fondining rejalashtirilganidan shu miqdorgacha iqtisod qilinganligini anglatadi.

### 5. Guruhlashtirish usuli va uning ahamiyati

Xo'jalik hayotidagi jarayonlarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning soni ko'p bo'lgan hollarda tahlil ishlarini yengillashtirish maqsadida guruhlashtirish usulidan foydalanish talab etiladi.

Xo'jalik hayotining o'rganilayotgan jihatlarining ichki bog'lanishlari va qonuniyatlarini to'liq o'rganish uchun to'plangan ma'lumotlar muhim belgilar asosida guruhlariga bo'lib o'rganiladi.

Guruhlashtirish uchun asos qilib olingan belgi guruhlash belgisi, deb yoki guruhlashni aynan qaysi belgi asosida amalga oshirilishi tushuniladi. Guruhlashtirish belgisini tanlashda quyidagi asosiy shartlarga rioya qilish zarur:

- iqtisodiy jarayonni to'la tavsiflab beruvchi muhim belgilar guruhlashtirish uchun asos qilib olinishi;

- guruhlashtirish belgisini tanlashda hozirgi zamon iqtisodiyotini tavsiflovchi masalalarni yorita oluvchi belgilar ekanligiga e'tibor berish;

- xo'jalik hayotining murakkab jarayonlarini o'rganishda guruhlashtirish faqat bitta belgi bo'yicha emas, balki bir necha muhim belgilar bo'yicha amalga oshirilishi kerak.

Demak, guruhlashtirish usuli o'rganilayotgan hodisani ma'lum belgilariga ko'ra guruhlarga ajratishni anglatib, shu guruh ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy tahlil amalga oshiriladi.

Xo'jalik hayotini o'rganishda guruhlashtirish usulini qo'llash uchun muayyan talablar e'tiborga olinishi talab etiladi. Xususan, tipologik guruhlar tuzishda iqtisodiy qonun-qoidalarga asoslangan guruhlar tuzishga e'tibor qaratish zarur. Bunda o'rganilayotgan ma'lumotlarning turli xildagi birliklari sifat jihatdan bir xil guruhlarga, bir xil tiplarga ajratiladi. Masalan, mamlakat iqtisodiyotini tarmoqlarga bo'lish, korxonalarining qaysi yo'nalishda ixtisoslashganligi yoki qaysi mulkchilik shakliga taalluqli ekanligi tipologik guruhlash asosida tahlil etiladi.

Tuzilmaviy guruhlashda sifat jihatidan bir xil bo'lgan guruhlar (birliklar)ning salmog'i o'rganilib, voqealikka tarkibiy jihatdan baho beriladi. Bunga xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy vositalari tarkibida aktiv va passiv (ishlab chiqarishdagi va noishlab chiqarishdagi ...) qismining tutgan salmog'i, investitsiyaning tarkibini mol-mulk, moliyaviy, nomoddiy (davlat-korporativ-xususiy-xorijiy, yangi loyihalarga-kengaytirishga-reinvestitsiyalar...) kabi qismlarga ajratib iqtisodiy tahlilni o'tkazish tuzilmaviy guruhlashni bildiradi (9-jadval).

Jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larini harakati xo'jalik faoliyatidan, to'langan soliqlar, investitsion va moliyaviy jarayonlardan yuzaga kelib, hisobot davrida 15626647 ming so'm pul mablag'i xo'jalik hayotida kirim qilingan. Bu pul mablag'lari tarkibida yil boshidagi qoldiq-0,113 foiz, xo'jalik jarayonidan-93,592 %, investitsion va moliyaviy faoliyatdan mos ravishda 6,287 hamda 0,008 foiz salmoqni tashkil etgan.

Hisobot davrida 14656065 ming so'm pul mablag'lari chiqim qilingan bo'lib, uning 88,203 foizi xo'jalik faoliyati, 11,788 % qismi to'langan soliqlar, investitsion va moliyaviy jarayonlarga mos ravishda 0,008 hamda 0,001 foiz ulushi to'g'ri kelgan.

## Pul mablag'lari harakati va holati tahlili

Ko'rsatkichlar	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
	summa, ming so'm	jamiga nisbatan salmog'i, %	summa, ming so'm	jamiga nisbatan salmog'i, %
1. Pul va unga tenglashtirilgan mablag'larning hisobot yil boshiga qoldig'i	7657	0,113	-	-
2. Xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining kirimi (+), chiqimi (-)	14625279	93,592	12927038	88,203
3. To'langan soliqlar	0	0,000	1727646	11,788
4. Investitsiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi (+) yoki chiqimi (-)	982520	6,287	1171	0,008
5. Moliyaviy faoliyatdagi sof kirimi (+) yoki chiqimi (-)	1191	0,008	210	0,001
<b>Jami pul mablag'larining harakati:</b>	<b>15626647</b>	<b>100,0</b>	<b>14656065</b>	<b>100,0</b>
Sof ko'payish yoki kamayish	970582	6,211	-	-

Tuzilish bo'yicha va omilli guruhlashtirish (analitik guruhlashtirish)da esa - guruhlar oralig'i imkon qadar bir-biriga mos bo'lishi kerak. Shuningdek, guruhlar kichik sondan, yuqoriga borish tartibida tuzilishi, tahlil natijalarining aniqligini ta'minlash maqsadida guruhlar orasidagi intervallar yaqinroq olinishi, dastlabki guruhning quyi chegarasi va oxirgi guruhning yuqori chegarasi ochiq, qolgan oraliq guruhlar chegarasi yopiq, ya'ni boshlang'ich va oxirgi guruh chegaralari aniq bo'lishi, barcha o'rganiladigan obyektlar soni tuzilgan guruhlar imkon qadar teng taqsimlanishiga rioya qilinishi zarur.

Bu jarayon iqtisodiy tahlilda quyidagicha amalga oshiriladi (10-jadval):

1. Guruhlashtirish belgisi aniqlanishi kerak.
2. Guruhlashtirish intervali aniqlanishi zarur.

$$x_{\text{int.}} = \frac{a_{\text{max}} - a_{\text{min}}}{n};$$

Bu yerda,  $x_{\text{int.}}$  - interval oralig'i;  
 $a$  - belgining eng katta va kichik miqdorlari.

$n$  – ajratiladigan guruhlar soni.

3. Aniqlangan interval asosida guruhlar chegarasi belgilanadi.

Birinci guruh,  $a_{\min} + x_{\text{int.}} = c$ ; Ikkinchi guruh,  $s + x_{\text{int.}} = r$ ;

Uchinchi guruh,  $r + x_{\text{int.}} = q$ ; ...

### Berilgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Tuman bo'yicha mavjud fermer xo'jaliklari						
	«Zafar»	«Qo'rg'on»	«Mustaqillik»	«Ilg'or»	«Turon»	«Nur»	«Hur»
Paxta hosildorligi, ts/ga.	27	33	31	24	30	25	29

1. Guruhlashtirish belgisi – hosildorlik.

$$2. x_{\text{int.}} = \frac{a_{\max} - a_{\min}}{n} = \frac{33 - 24}{4} = \frac{9}{4} = 2,25.$$

3. Qoloq guruh  $24 + 2,25 = 26,25$ ;  $[24 - 26,25]$

O'rtacha guruh  $26,25 + 2,25 = 28,5$ ;  $[26,25 - 28,5]$

Yaxshi guruh  $28,5 + 2,25 = 30,75$ ;  $[28,5 - 30,75]$

Eng yaxshi  $30,75 + 2,25 = 33,0$ ;  $[30,75 - 33,0]$

10-jadval

**Paxta hosildorligiga binoan tumandagi fermer xo'jaliklarini eng ilg'or, yaxshi, o'rtacha, qoloq guruhlariga ajratish**

No	Guruhlar	Interval	Fermer xo'jaliklarining nomi
1.	Qoloq	$[24 - 26,25]$	«Ilg'or», «Nur»
2.	O'rtacha	$[26,25 - 28,5]$	«Zafar»
3.	Yaxshi	$[28,5 - 30,75]$	«Hur», «Turon»
4.	Eng yaxshi	$[30,75 - 33,0]$	«Mustaqillik», «Qo'rg'on»

Jadval ma'lumotlariga binoan, tumanning fermer xo'jaliklari paxta hosildorligiga binoan 4 ta, ya'ni qoloq, o'rtacha, yaxshi, eng yaxshi guruhlariga bo'lib o'rganildi. Guruhga ajratish davomida tumanning ikkita, xususan, «Ilg'or», «Nur» fermer xo'jaliklarining hosildorligi eng past ekanligi aniqlandi. «Zafar» fermer xo'jaligining hosildorligi 27 s/ga ni tashkil etgani bois, uni o'rtacha hosildorlikka ega fermer xo'jaliklari guruhiga kiritildi. «Hur», «Turon» fermer



xo'jaliklari hosildorligiga binoan yaxshi fermer xo'jaliklari guruhini tashkil etdi. Tumandagi hosildorligi eng yaxshi fermer xo'jaliklari guruhi «Mustaqillik», «Qo'rg'on» fermer xo'jaliklaridan iborat bo'ldi. Ularning paxta hosildorligi mos ravishda 31 va 33 s/ga ni tashkil etgan.

Xulosa qilib ta'kidlash kerakki, xo'jalik hayotidagi ma'lumotlarni umumlashtirishda axborotlarni prinsipial savollariga javob berish bilan birga ularning texnik hisob-kitoblarini amalga oshirish iqtisodiy tahlil xulosalari aniqligini oshiradi.

## 6. Balansli bog'lanish usulining tahlilda qo'llanilishi

Mamlakat iqtisodiyotiga kompleks baho berishda balansli bog'lanish usulidan keng foydalaniladi. Balansli bog'lanish usuli xo'jalik yurituvchi subyektda, tarmoqda, mamlakatda, respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatida yuzaga kelgan funksional bog'liq jarayonlarga omillar ta'sirini hisoblashda, shuningdek, ularda foydalanilayotgan ko'rsatkichlar muvozanatini saqlash orqali samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo'llaniladi.

Balans (fransuzcha «*balance*» — torozi, lotincha «*bilan*») — torozining ikki pallasi) xalq xo'jaligida va umuman xo'jalik, savdo ishlarida bir-biriga bog'liq bo'lgan sohalarining o'zaro muvofiq salmog'i. Balans iqtisodiyotda muayyan bir muddat oralig'idagi kirim bilan chiqimni bir-biriga taqqoslab chiqilgan tenglik sifatida quyidagi turlardan iborat:

1. Xalq xo'jaligi balansi - iqtisodiy ko'rsatkichlar aks ettirilgan jadvallar tizimi bo'lib, iqtisodiyotni rivojlanish darajasini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ko'lamlari va o'sish sur'atlarini, shuningdek, muhim umumdavlat miqyosidagi iqtisodiy nisbatlar (moliyaviy resurslar va ularga bo'lgan talab, ishlab chiqarish bilan moddiy resurslar...)ni ifodalaydi. Uning yordamida muhim tarkibiy nisbatlar o'rtasidagi funksional bog'liqlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganiladi.

2. Mehnat resurslari balansi — mavjud mehnat resurslari va ulardan foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi bo'lib, xodimlarga bo'lgan talab va taklifni o'zaro solishtirish imkoniyatini beradi.

3. Yer fondi balansi – foydalanishda bo‘lgan yer resurslarini va ularni foydalanuvchilar, boniteti<sup>7</sup> kesimida o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini aks ettiradi.

4. Tarmoqlararo balans – iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish aloqalarini iqtisodiy matematik modeli bo‘lib, asosiy nisbatlarni tarmoqlar kesimida natural va qiymat o‘lchov birliklarida tuziladi.

5. To‘lov balansi – ma‘lum davrda (oy, chorak, yil) xorijga va xorijdan bo‘lgan to‘lovlar o‘rtasidagi nisbatni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni umumlashtiradi.

Yuqoridagilardan tashqari savdo, hisob, aholining daromad va xarajatlari, buxgalteriya balanslari ham tuzilib, ularda ham funksional bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi aks ettiriladi.

Yuqoridagi balanslar balansli bog‘lanish usulini qo‘llashda keng foydalaniladi. Bu usul buxgalteriya hisobi va rejalashtirish amaliyotida keng tarqalgan bo‘lib, iqtisodiy tahlilda ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, bu usuldan korxonaning mehnat va moliyaviy resurslar, xomashyo, yonilg‘i, material, asosiy ishlab chiqarish vositalari va boshqalar bilan ta‘minlanganligini tahlil qilishda keng foydalaniladi. Misol uchun, korxonaning mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligini aniqlash maqsadida, mehnat resurslari bo‘yicha balans tuziladi. Unda bir tomondan, mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyoj, boshqa tomondan - ularning mavjud soni ko‘rsatiladi (11-jadval).

11-jadval

### Xo‘jalik yurituvchi subyektning mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligi tahlili

Ko‘rsatkichlar	Biznes rejada		Haqiqatda		Farqi (+,-)	
	soni, nafar	salmog‘i, %	soni, nafar	salmog‘i, %	biznes rejadan	salmog‘da, %
1. Ishchilar	49	67,1	51	67,1	+2	0,0
2. Xizmatchilar	14	19,2	15	19,7	+1	+0,5
3. Rahbarlar	3	4,1	2	2,6	-1	-1,5
4. Mutaxassislar	7	9,6	8	10,6	+1	+1,0
<b>Jami</b>	<b>73</b>	<b>100,0</b>	<b>76</b>	<b>100,0</b>	<b>+3</b>	
<b>Mehnat resurslari bilan ta‘minlanganlik yoki ta‘minlanmaganlik</b>	3					
<b>Balans</b>	<b>76</b>		<b>76</b>			

<sup>7</sup> Bonitet (lot. «bonitas» — yuqori sifat, sahiy) — tabiiy boyliklarni haqiqiy yoki istiqboldagi iqtisodiy bahosini ifodalovchi miqdor ko‘rsatkichi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyekting mehnat resurslariga bo'lgan jami talabi 73 nafar xodimni tashkil etib, haqiqatda ishlaganlar soni 3 kishiga ko'p bo'lgan. Mehnat resurslariga bo'lgan talab tarkibiy jihatdan o'rganilganda ishchilar 2 kishiga, xizmatchi va mutaxassislar 1 nafardan ko'pligi, rahbarlarning 1 kishiga kam ekanligi aniqlandi.

Mehnat resurslaridan foydalanish tahlilida ish vaqtining ehtimoliy fondi haqiqatdagi ishlangan soatlar miqdori bilan taqqoslanadi. Korxonaning to'lov qobiliyatini aniqlash uchun to'lov balansi tuziladi, unda to'lov mablag'lari va to'lov majburiyatlari o'zaro taqqoslanadi (12-jadval).

12-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyekting to'lov qobiliyati tahlili

(ming so'm hisobida)

To'lash uchun mablag'lar	Summa	To'lov qarzlari	Summa
1. Pul mablag'lari (kassa-dagi va hisob-kitob schyotidagi)	207536	1. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar	197850
2. Valuta mablag'lari	7400	2. Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar	11200
3. Qisqa muddatli investitsiyalar, boshqa pul mablag'lari	500	3. Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar	6700
4. Tayyor mahsulot	202721	4. Mulkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzarlar	0
5. Debitorlik qarzlari	383626	5. Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzarlar	290
6. Boshqa to'lov mablag'lari	12700	7. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzarlar	13900
		8. Qisqa muddatli kredit va qarzarlar	14100
		9. Boshqa joriy majburiyatlar	18000
<b>Jami to'lash uchun mablag'lar</b>	<b>814483</b>	<b>Jami to'lov qarzlari</b>	<b>262040</b>
To'lov mablag'laridan majburiyatlarning ko'pligi		Majburiyatlardan to'lov mablag'larining ko'pligi	552443
<b>Balans</b>	<b>814483</b>	<b>Balans</b>	<b>814483</b>

Jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektining jami to'lov mablag'lari hisobot yili 814483 ming so'mni tashkil etib, o'rganilayotgan davrda uning to'lov qarzlari 262040 so'm bo'lgan. Bu, xo'jalik yurituvchi subyekt mablag'larini to'lov qarzlaridan 552443 (814483-262040) ming so'mga ko'pligini bildiradi. Tahlil natijasida xo'jalik yurituvchi subyektini yuqori to'lov qobiliyatiga ega, deb hisoblanadi.

Shuningdek, balansli bog'lanish usulidan natijaviy ko'rsatkichlarga omillarning ta'sirini to'g'ri aniqlanganligini nazorat qilish uchun foydalaniladi. Determinatsiyalashgan<sup>8</sup> tahlilda alohida omillarning ta'sir kattaliklari algebraik summasi natijaviy ko'rsatkichning umumiy o'sish kattaligiga mos kelishi kerak.

Balans usuli additiv<sup>9</sup> omilli model tuzishda foydalanilishi mumkin. Misol uchun tovar balansiy quyidagi ko'rinishda tuziladi:

$$T_s = T_{Q_{y.b.}} + T_k - T_{Q_{y.o.}}$$

Bu yerda:

$T_s$  — yil davomida sotilgan tovar;

$T_{Q_{y.b.}}$  — yil boshiga tovar qoldig'i;

$T_k$  — yil davomida kirim qilingan tovar;

$T_{Q_{y.o.}}$  — yil oxiriga tovar qoldig'i.

Balansli bog'lanish usuli yordamida tovar moddiy boyliklar harakatini tahlil etish tartibi 13-jadvalda keltirilgan.

13-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektning tovar moddiy boyliklari harakati tahlili

(ming so'm hisobida)

Omborga kirim qilingan tovarlar	Summa	Ombordan chiqim qilingan tovarlar	Summa
1. Yil boshiga tovar qoldig'i ( $T_{Q_{y.b.}}$ )	14000	1. Yil davomida sotilgan tovar ( $T_s$ )	112000
2. Yil davomida kirim qilingan tovar ( $T_k$ )	117800	2. Yil oxiriga tovar qoldig'i ( $T_{Q_{y.o.}}$ )	11200
<b>Jami mavjud tovarlar</b>	<b>131800</b>	<b>Jami tovarlar chiqimi</b>	<b>123200</b>
Tovarlarning kamligi	-	Tovarlarning ko'pligi	8600
<b>Balans</b>	<b>131800</b>	<b>Balans</b>	<b>131800</b>

<sup>8</sup> Determinatsiya (lot. »determinatio«) — chegaralangan, belgilangan) keng ma'noda sharti parametrlarda hodisalar o'rini belgilash.

<sup>9</sup> Additiv (lot. »additivus« — qo'shiluvchi) — bir butun obyektga mos keluvchi miqdoriy kattalik uning qismlariga mos keluvchi kattaliklar yig'indisiga tengligini ifodalovchi tushuncha.

Jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik yurituvchi subyektning omborida jami 131800 ming so'mlik tovar bo'lib, shundan 14000 ming so'm yil boshiga tovar qoldig'i, 117800 ming so'm kirim qilingan tovar hisoblanadi. Hisobot davrida 123200 ming so'mlik chiqim qilingan bo'lib, shundan 112000 ming so'm sotilgan, 11200 ming so'm yil oxiriga qoldiq. Tahlil natijalariga ko'ra omborda 8600 ming so'mlik kamomad aniqlangan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, xo'jalik hayotidagi ayrim jarayonlar yuzasidan samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda balansli bog'lanish usuli muhim ahamiyatga ega.

## 7. Zanjirli o'rin almashtirish usuli va uning mohiyati

Zanjirli o'rin almashtirish usuli - natija o'zgarishiga uch va undan ko'p birlik omillar ta'sirini o'rganishda keng qo'llaniladi. Bunda o'rganilayotgan natija va birlik omillar bir-biri bilan funksional bog'liqlikda bo'lishi talab etiladi.

Zanjirli o'rin almashtirish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Xususan:

### 1. Zanjirli o'rin almashtirish yo'nalishi.

Ikki omilli bo'lganda:

$$U = x * y \quad \Delta \quad U_x = x_1 * y_0 - x_0 * y_0;$$

$$\Delta \quad U_y = x_1 * y_1 - x_1 * y_0.$$

Uch omilli bo'lganda:

$$U = x * y * z \quad \Delta \quad U_x = x_1 * y_0 * z_0 - x_0 * y_0 * z_0;$$

$$\Delta \quad U_y = x_1 * y_1 * z_0 - x_1 * y_0 * z_0;$$

$$\Delta \quad U_z = x_1 * y_1 * z_1 - x_1 * y_1 * z_0. \quad \text{va h.k.}$$

Nisbiy ko'rsatkichlarda,

$$U = \frac{x}{y} \quad \Delta \quad U_x = \frac{x_1}{y_0} - \frac{x_0}{y_0};$$

$$\Delta \quad U_y = \frac{x_1}{y_1} - \frac{x_1}{y_0}. \quad \text{formularida aniqlanadi.}$$

### 2. Farqlarni ko'paytirish yo'nalishi.

Ikki omilli bo'lganda:

$$U = x * y \quad \Delta \quad U_x = \Delta x * y_0;$$

$$\Delta U_y = \Delta y * x_1 .$$

Uch omilli bo'lganda:

$$U = x * y * z \quad \Delta U_x = \Delta x * y_0 * z_0 ;$$

$$\Delta U_y = \Delta y * x_1 * z_0 ;$$

$$\Delta U_z = \Delta z * x_1 * y_1 . \text{ va h.k.}$$

Faqatgina zanjirli o'rin almashtirish jarayonida birlik ko'rsatkichlarning analitik jadvallardagi ketma-ketligi ilmiy asoslangan holda joylashtirilishi zarur (14-jadval).

14-jadval ma'lumotlariga binoan hisobot yilida mahsulot (ish, xizmat) hajmi +36200 ming (356900-320700) so'mga ortgan bo'lib, unga ishchilar sonining 8 nafarga ortishi va bir ishchining mehnat unumdorligini 46,93 ming so'mga ortishi ijobiy ta'sir etgan.

Xususan, ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi 32070 ming so'mni, bir ishchining mehnat unumdorligini o'zgarishi hisobiga 4134,24 ming so'mni tashkil etgan. Natijada, hisobot yilida mahsulot (ish, xizmat) hajmi 36200 ming so'mga ortgan. Bu, xo'jalik yurituvchi subyekti uchun ijobiy holat, deb qaraladi.

14-jadval

**Mahsulot (ish, xizmat) hajmining biznes rejaga nisbatan o'zgarishining omilli (ishchilar soni va mehnat unumdorligi) tahlili**

Ko'rsatkichlar	Biznes reja	Haqiqatda	Rejadan farqi
1. Mahsulot (ish, xizmat) hajmi, ming so'm.	320700	356900	+36200
2. Ishchilar soni, kishi.	80	88	+8
3. Mehnat unumdorligi, ming so'm	4008,75	4055,68	+46,93
<b>4. Mahsulot (ish, xizmat) hajmining biznes rejaga nisbatdan o'zgarishi, ming so'm.</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>+36200</b>
4.1. Ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi, ming so'm.	X	X	+32070,00
4.2. Bir ishchining mehnat unumdorligini o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi, ming so'm.	X	X	+4134,24

Hisob-kitoblar:

*Zanjirli o'rin almashtirish usuliga binoan.*

- ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi.

$$\Delta U_x = x_1 * y_0 - x_0 * y_0 = 88 * 4008,75 - 80 * 4008,75 = 352770 - 320700 = 32070;$$

- bir ishchining mehnat unumdorligini o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi.

$$\Delta U_y = x_1 * y_1 - x_1 * y_0 = 88 * 4055,68 - 88 * 4008,75 = 356900 - 352770 = 4130.$$

- ikki omil yig'indisi.

$$\Delta U = \Delta U_x + \Delta U_y = 32070 + 4130 = 36200.$$

*Farqlarni ko'paytirish usuliga binoan.*

- ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi.

$$\Delta U_x = \Delta x * y_0 = +8 * 4008,75 = +32070;$$

- bir ishchining mehnat unumdorligini o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi.

$$\Delta U_y = \Delta y * x_1 = +46,93 * 4055,68 = +4134,24.$$

- ikki omil yig'indisi.

$$\Delta U = \Delta U_x + \Delta U_y = 32070 + 4134,24 = 36204,24 \approx 36200.$$

Xulosa qilib ta'kidlash kerakki, zanjirli o'rin almashtirish usuli iqtisodiy tahlilning boshqa usullari singari xo'jalik hayotiga aniq, xolisona baho berib, samarali boshqaruv qarorlarini xo'jalik yurituvchi subyektning mavjud, foydalanilmagan imkoniyatlarini ochib berish orqali qabul qilgani bilan ahamiyatli sanaladi.

## 8. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan boshqa metodlar

Iqtisodiy tahlilda oddiy (an'anaviy) metodlardan tashqari iqtisodiy matematik usullardan ham keng foydalanib, xo'jalik hayoti yuzasidan xulosa va takliflar tayyorlanadi.

Integral usuli — bu natija ko'rsatkichlariga alohida omillar ta'sirini aniqlashni anglatib, zanjirli o'rin almashtirish usulining takomillashgan shaklidir. Integral usulning takomillashgan jihati natija ko'rsatkichiga birlik omillarning analitik jadvallardagi joylashuvi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ta'siri bo'lmaydi. An'anaviy (oddiy) metodning zanjirli o'rin almashtirish usulida esa birlik omillarning

analitik jadvallardagi ketma-ketligi ilmiy asoslangan bo'lishi zarur. Aks holda, birlik omillarning ta'siri hisob-kitob qilinganda noto'g'ri ma'lumotlar shakllanib, tahlil xulosalarining noto'g'ri bo'lishini ta'minlaydi. Integral usulida natija ko'rsatkichiga birlik omillarning ta'siri quyidagicha hisob-kitob etiladi (15-jadval).

15-jadval

**Mahsulot hajmining biznes rejaga nisbatan o'zgarishining omilli (ishchilar soni va mehnat unumdorligi ta'siri) tahlili**

Ko'rsatkichlar	Biznes reja	Haqiqatda	Rejadan farqi
1. Mahsulot (ish, xizmat) hajmi, ming so'm.	320700	356900	+36200
2. Ishchilar soni, kishi.	80	88	+8
3. Mehnat unumdorligi, ming so'm	4008,75	4055,68	+46,93
4. Mahsulot (ish, xizmat) hajmining biznes rejaga nisbatdan o'zgarishi, ming so'm.	x	x	+36200
4.1. Ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi, ming so'm.	x	x	+32070,00
4.2. Bir ishchining mehnat unumdorligini o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi, ming so'm.	x	x	+4134,24

Ikki omilli bo'lganda:

$$\Delta U_x = \Delta x * y_0 + ((\Delta x * \Delta y) / 2);$$

$$\Delta U_y = \Delta y * x_0 + ((\Delta x * \Delta y) / 2).$$

Uch omilli bo'lganda:

$$U = x * y * z \quad \Delta U_x = (\Delta x / 2) * (y_1 * z_0 + y_0 * z_1) + (\Delta x * \Delta y * \Delta z) / 3;$$

$$\Delta U_y = (\Delta y / 2) * (x_1 * z_0 + x_0 * z_1) + (\Delta x * \Delta y * \Delta z) / 3;$$

$$\Delta U_z = (\Delta z / 2) * (x_1 * y_0 + x_0 * y_1) + (\Delta x * \Delta y * \Delta z) / 3. \text{ va h.k.}$$

Nisbiy ko'rsatkichlarda,

$$U = \frac{x}{y} \quad \Delta U_x = \Delta x / y_0 * \ln \left| \frac{y_1}{y_0} \right|;$$

$$\Delta U_y = \Delta U - \Delta U_x.$$

Hisob-kitoblar:

- ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi



$$\Delta U_x = \Delta x * y_0 + (\Delta x * \Delta y) / 2 = +8 * 4008,75 + ((+8 * 46,93) / 2) = 32070 + 187,72 = 32257,72;$$

- bir ishchining mehnat unumdorligini o'zgarishi hisobiga mahsulot (ish, xizmat) hajmining o'zgarishi

$$\Delta U_y = \Delta y * x_0 + ((\Delta x * \Delta y) / 2) = 46,93 * 80 + ((+8 * 46,93) / 2) = 3754,4 + 187,72 = 3942,12.$$

- ikki omil yig'indisi.

$$\Delta U = \Delta U_x + \Delta U_y = 32257,72 + 3942,12 = 36199,84 \approx 36200.$$

Jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik yurituvchi subyekting mahsuloti (ish, xizmati) hajmiga omillar ta'siri ijobiy bo'lgan. Sababi, natija omili (mahsulot hajmi) birlik omillar, ya'ni ishchilar soni va mehnat numdorigining hisobot davrida ko'payishi hisobiga ortgan.

Korrelyatsion va regression usulda ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik qanchalik jipslikda ekanligini miqdoran ifodalab (r), quyidagicha aniqlanadi (16-jadval):

$$r = \frac{\overline{x_1 * x_2} - \overline{x_1} * \overline{x_2}}{\lambda x_1 * \lambda x_2};$$

$$\text{Bu yerda, } \overline{x_1 * x_2} = \frac{\sum x_1 * x_2}{n}; \quad \overline{x_1} = \frac{\sum x_1}{n}; \quad \overline{x_2} = \frac{\sum x_2}{n};$$

$$\lambda x_1 = \sqrt{\frac{x_1^2}{n} - \overline{x_1}^2}; \quad \lambda x_2 = \sqrt{\frac{x_2^2}{n} - \overline{x_2}^2}.$$

16-jadval

**Mahsulot tannarxi hamda moddiy xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlik jipsligini korrelyatsion va regression usuldan foydalanib tahlil eting**

Sexlar	Bir birlik mahsulotning tannarxi, so'm (x <sub>1</sub> )	Bir birlik mahsulotga sarflangan moddiy xarajatlar, so'm (x <sub>2</sub> )	x <sub>1</sub> <sup>2</sup>	x <sub>2</sub> <sup>2</sup>	x <sub>1</sub> *x <sub>2</sub>
1-sex	1300	450	1690000	202500	585000
2-sex	1700	600	2890000	360000	1020000
3-sex	1200	320	1440000	102400	384000
<b>jami</b>	<b>4200</b>	<b>1370</b>	<b>6020000</b>	<b>664900</b>	<b>1989000</b>

## Hisob-kitoblar:

$$\overline{x_1 * x_2} = \frac{\sum x_1 * x_2}{n} = \frac{\sum 1989000}{3} = 663000;$$

$$\overline{x_1} = \frac{\sum x_1}{n} = \frac{4200}{3} = 1400; \quad \overline{x_2} = \frac{\sum x_2}{n} = \frac{1370}{3} = 456,7;$$

$$\lambda x_1 = \sqrt{\frac{\sum x_1^2}{n} - \overline{x_1}^2} = \sqrt{\frac{6020000}{3} - 1400^2} = \sqrt{2006666,6 - 1960000} = \sqrt{466666,6} = 216;$$

$$\lambda x_2 = \sqrt{\frac{\sum x_2^2}{n} - \overline{x_2}^2} = \sqrt{\frac{664900}{3} - 456,7^2} = \sqrt{221633,3 - 208574,9} = \sqrt{13058,7} = 114,3;$$

$$r = \frac{\overline{x_1 * x_2} - \overline{x_1} * \overline{x_2}}{\lambda x_1 * \lambda x_2} = \frac{663000 - 1400 * 456,7}{216 * 114,3} = \frac{663000 - 639380}{24688,8} = \frac{23620}{24688,8} = 0,957.$$

Jadval ma'lumotlariga binoan bir birlik mahsulot tannarxi va unga sarflangan moddiy xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlik zichligi 0,957 koeffitsiyentni tashkil etib, bu xo'jalik subyekti tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar bevosita moddiy xarajatlar bilan bog'liqligini belgilaydi.

Nazariy o'yin usuli, turli xil shart-sharoitlarda taktika va strategiyalarni belgilab, xo'jalik subyekting faoliyati uchun bir me'yorda daromad olishini ta'minlaydigan yo'nalishlarni topishda qo'llaniladi. Bu ko'proq mavsumiy mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan xo'jalik subyektlarining faoliyatida samarali sanaladi va quyidagicha tahlil etiladi:

### Xo'jalik subyekting mavsumda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishi uchun sarflar va ularning sotilishi to'g'risida ma'lumotlar

№	Ishlab chiqaradigan mahsuloti (ish, xizmati)	Mahsulot (ish, xizmat) tannarxi, ming so'm	Mahsulot (ish, xizmat) bahosi, ming so'm	Sotiladigan mahsulot (ish, xizmat) hajmi, dona	
				kuzda	qishda
1.	Kurtka	70	100	500	200
2.	Palto	150	200	300	600

Yuqoridagi ma'lumotlarga binoan xo'jalik yurituvchi subyekting kuz, qish mavsumida bozor talabiga binoan mahsulot (ish, xizmat)larini sotishdan olingan moliyaviy natijasi quyidagicha bo'ladi:

1. Kuz mavsumida - 30000 ming so'm foydaga erishadi.

$$500 * (100 - 70) + 300 * (200 - 150) = 15000 + 15000 = 30000;$$

2. Qish mavsumida - 36000 ming so'm foydaga erishadi.

$$200 * (100-70) + 600 * (200-150) = 6000 + 30000 = 36000;$$

3. Kuz mavsumi bo'yicha mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish yo'liga qo'yilganda ob-havo sovuq kelganda - 18000 ming so'm foydaga erishadi.

$$300 * (100-70) - 200 * (100-70) + 300 * (200-150) = 18000;$$

4. Qish mavsumi bo'yicha mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish yo'liga qo'yilganda ob-havo issiq kelganda - 6000 ming so'm foydaga erishadi.

$$200 * (100-70) + 300 * (200-150) - 300 * (200-150) = 6000.$$

Yuqoridagi ma'lumotlarga binoan quyidagicha matritsa jadvali tuziladi:

O'yinlar	R <sub>2</sub>			
	Strategiya	S	D	min
P <sub>1</sub>	A	30000	18000	18000
	B	6000	36000	6000
	max	30000	36000	

Bunda, A strategiyasida noma'lum - X

V strategiyasida noma'lum - (1-X)=U

Natijada,

30000 (X)+6000 (1-X)=18000 (X)+36000 (1-X) formulasi ga ko'ra

$$30000X + 6000 - 6000X = 18000X + 36000 - 36000X$$

$$42000 (X) = 30000 \text{ va } X = 5/7 \text{ ga teng}$$

U=1- (X) formulasi ga ko'ra U=2/7 qiymatiga ega bo'lamiz.

Keltirib chiqarilgan X=5/7 va U=2/7 koeffitsiyentlardan foydalanib, xo'jalik subyekti ikkala tabiat sharoitida maksimal ega bo'ladigan quyidagi foyda miqdorini aniqlaymiz:

$$1. 30000 * (5/7) + 6000 * (2/7) = 23142,9 \text{ ming so'm.}$$

$$2. 18000 * (5/7) + 36000 * (2/7) = 23142,8 \text{ ming so'm.}$$

Keyingi vazifa, xo'jalik subyekti qanday nisbatda palto va kurtka ishlab chiqarish kerakligini aniqlashdan iborat:

$$1. 500 * (5/7) + 200 * (2/7) = 414 \text{ dona kurtka ishlab chiqarishi zarur;}$$

$$2. 300 * (5/7) + 600 * (2/7) = 385 \text{ dona palto ishlab chiqarishi zarur.}$$

Hisob-kitoblarga binoan, xo'jalik yurituvchi subyekti yil davomida tabiatning qanday bo'lishidan qat'iy nazar 414 dona kurtka, 385 dona palto ishlab chiqarishi maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi. Natijada, xo'jalik subyekti foydasi quyidagicha bo'ladi:

$$1. 414 * (100-70) + 300 * (200-150) - 85 * (200-150) = 23170 \text{ ming so'm;}$$

2.  $200^* (100-70)-214^* (100-70)+385^* (200-150)=18830$  ming so'm.

Xulosa tarzida, iqtisodiy tahlil va audit orqali xo'jalik subyektining mablag'lari va ulardan samarali foydalanish holati tahlil etiladi. Miqdor va nisbiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga omilli baho berilib, xo'jalik subyektining samarali faoliyati uchun takliflar ishlab chiqadi.

## Xulosalar

Iqtisodiy tahlilning metodi - xo'jalik hayotida jarayonlarni yuzaga kelishi, o'zgarishi hamda rivojlanishini dialektik yondashuv usulidan foydalanib o'rganish hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilning metodi shartli ravishda ikki, xususan, oddiy-an'anaviy (odatdagi) va iqtisodiy - matematik (omilli tahlil) guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Oddiy-an'anaviy (odatdagi) metodda iqtisodiy tahlil paydo bo'lganidan buyon an'anaga aylanib, amaliy tajribada keng qo'llanilgan usullar, ya'ni mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash, taqqoslash, guruhlashtirish, balansli bog'lanish, zanjirli o'rin almashtirish kabilar jamlangan. Iqtisodiy-matematik metod iqtisodiy axborotlarni qayta ishlovchi kompyuterlar hamda axborot texnologiyalarini rivojlanishi bilan shakllangan korrelyatsion-regression, integral, nazariy o'yin, matematik dasturlash kabi usullardan tashkil topgan.

## Mavzu bo'yicha savollar

1. Iqtisodiy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos jihatlari?
2. Taqqoslash usuli va uni qo'llash shartlarini aytib bering.
3. Mutlaq, o'rtacha va nisbiy kattaliklarni izohlang.
4. Guruhlashtirish usuli va uning mazmunini aytib bering.
5. Mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli mazmunini aytib bering.
6. Balansli bog'lanish usulining mohiyatini aytib bering.
7. Iqtisodiy-matematik usullarining o'ziga xos xususiyatlariga izoh bering.
8. Zanjirli o'rin almashtirish usuli va uning ko'rinishlarini keltirib o'ting.
9. Korrelyatsion va regression tahlil usulini izohlab bering.
10. Integral usuli va uning mazmunini yoritib bering.

11. Nazariy o'yin usuli va uning mazmunini misollar asosida keltiring.

12. Taqqoslash usulining shartlarini keltirib o'ting.

### Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar

Metod; usul; nazariy o'yin usuli; zanjirli o'rin almashtirish usuli; integral usuli; balansli bog'lanish usuli; taqqoslash shartlari; korrelyatsion-regression usul; ko'rsatkich; mutlaq kattalik; nisbiy kattalik; o'rtacha kattalik; guruhlashtirish usuli; guruhlashtirish turlari; determinatsiya; additiv; balans.

### Mavzu bo'yicha testlar

#### 1. Metod ...

- A. Borliqni dialektik qonunlarga asoslanib o'rganish.
- B. Tabiatni o'rganish.
- C. Jamiyatni o'rganish.
- D. Aktivlarni o'rganish.

#### 2. Taqqoslash usulini qo'llashdagi shartlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ko'rsatkichlarning baho va aniqlash usuli bir xil bo'lishi kerak.
  - B. Mulkchilik shakli bir xil bo'lishi kerak.
  - C. Ixtisoslashuvi bir xil bo'lishi kerak.
  - D. Barcha javoblar to'g'ri.
3. Iqtisodiy tahlil usullarini mazmuniga mutanosib guruhi bilan bog'lang.

Iqtisodiy-matematik  
usullar

Taqqoslash usuli

Oddiy (an'anaviy)  
usullar

Integral usuli

Balansli bog'lanish usuli

Korrelyatsiyon-regression usuli

Zanjirli o'rin almashtirish usuli

Nazariy o'yin usuli

Mutlaq va nisbiy farqlarni  
aniqlash usuli


- 4. Tahlil vujudga kelgandan buyon qo'llanilgan usullarga ...**
- A. An'anaviy usullar, deyiladi.
  - B. Iqtisodiy-matematik usullar, deyiladi.
  - C. Doimiy usullar, deyiladi.
  - D. Tahliliy usullar, deyiladi.

## IV mavzu. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI, AXBOROT MANBALARI VA IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

### 4.1. Iqtisodiy tahlil turlari

Iqtisodiy tahlil mazmun va mohiyati jihatidan turli shakl hamda turlarga ega bo'lib, ularni umumlashtirish, shuningdek, bir tizimga keltirib, eng muhim tomonlarini aniqlash mazkur fanning istiqbolda yanada takomillashtirish imkonini yaratadi.

Iqtisodiy tahlilning turi - ma'lum belgilari, xossalari, vazifalari, o'tkazish muddati, qabul qilinayotgan qarorlarning xarakteri, obykti, subyekti va boshqa shu kabi sifatlari bilan umumiy bo'lgan guruhlar yoki bir butunlikni tashkil etgan yaxlit xillar asosida shakllantiriladi. Iqtisodiy tahlil turlari belgilariga ko'ra bir necha turlarga bo'linsada, ular bir-biriga yaqin va o'xshash bo'lgan usullardan foydalangan holda voqelikni o'rganadi hamda baho beradi (6-chizma).



6-chizma. Iqtisodiy tahlilning belgilariga ko'ra turlari

Iqtisodiy tahlil shakllari esa o'ziga xos bo'lgan tashqi ko'rinishi, qiyofasi bilan birga o'z mazmuni va usullariga ega bo'ladi. Shu sababli iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lib, ular bir maqsadda, ya'ni xo'jalik hayotiga baho berishga xizmat qilsada, iqtisodiy tahlil shakllarida o'ziga xos usullar majmuasidan foydalaniladi.

Xo'jalik hayotida muayyan vaqt mobaynida shunday voqe'liklar yuz beradiki, unda sodir bo'layotgan jarayonni uzluksiz, vaqtida iqtisodiy tahlil qilib, natijalarni hisob-kitob qilish orqali xulosa va takliflar tayyorlash talab etiladi. Shu jihatdan zamon nuqtayi nazaridan (belgisiga ko'ra) iqtisodiy tahlilni 3 ta, xususan, tezkor, joriy va istiqbolli tahlil turlariga ajratiladi.

Tezkor tahlil – joriy davr tugamasdan o'tkaziladigan tahlil turi bo'lib, u belgilangan muddat davomida qanday natijaga erishish mumkinligini aniqlash maqsadida har kuni, dekadada, oyda o'tkazib boriladi. Ularga paxta yig'im-terimi mavsumida har kunlik, dekadalik, oylik natijalar tahlilini kiritish mumkin.

Joriy tahlilda hisobot davri tugashi bilan moliyaviy va boshqaruv hisobi, statistik hisob hisobotlari asosida o'tkaziladigan choraklik, yarim yillik, 9 oylik, yillik tahlil tushuniladi. Bunga buxgalteriya balansi (1-shakl) ma'lumotlari asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga baho berishni yoki «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl)ga binoan moliyaviy natijasini o'rganish kabilarni kiritish mumkin.

Istiqbolli tahlil – xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusi faoliyatini oldindan o'rganish maqsadida amalga oshirilib, unga uning kelgusi yil uchun tuzgan biznes-rejasini keltirish mumkin. Bugungi kunda yoshlarga keng imkoniyatlar ochilib, banklar tomonidan ularning samarali biznes rejalarini amalga oshirishlari uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Makon nuqtayi nazaridan iqtisodiy tahlil ichki va tashqi turlarga bo'linadi.

Ichki iqtisodiy tahlilda jarayon xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlari tomonidan olib borilib, faoliyatni yanada yaxshilash, boy berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish yuzasidan qarorlar qabul qilinadi.

Tashqi iqtisodiy tahlilda xo'jalik hayotiga tashqi subyektlar tomonidan baho berilib, u soliq idoralari, moliya tashkilotlari va boshqalar tomonidan olib boriladi.



Iqtisodiy tahlil mazmunan uch, xususan: global; lokal tahlil turlariga bo'linadi.

Global iqtisodiy tahlil xo'jalik hayotini atroflicha, to'liq o'rganishni nazarda tutsa, lokal iqtisodiy tahlilda xo'jalik yurituvchi subyektning alohida bir tarkibiy qismiga baho beriladi.

Iqtisodiy tahlil subyeksi nuqtayi nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ijtimoiy – iqtisodiy tahlil. Bu iqtisodiy tahlil statistika, boshqaruv idoralari, ijtimoiy-tadqiqot markazlari, iqtisodchi-buxgalterlar tomonidan olib boriladi.

2. Auditorlik tahlil. Auditorlik firmalari tomonidan olib boriladi.

3. Moliyaviy-iqtisodiy tahlil, korxonaning moliya xizmati xodimlari tomonidan olib boriladi.

4. Texnik – iqtisodiy tahlil, texnik xizmati xodimlari tomonidan olib boriladi.

5. Iqtisodiy-ekologik tahlil. Bu iqtisodiy tahlil turi atrof muhitni muhofaza qilish, ekologiya xizmati xodimlari tomonidan olib boriladi.

6. Marketing xizmati bo'limi xodimlari tomonidan esa, marketing tahlili olib boriladi va h.k.

Tarmoq nuqtayi nazaridan:

- alohida tarmoqlar;

- tarmoqlararo umumiy iqtisodiy tahlil turlariga bo'linadi.

Ayrim tarmoqlar (sanoat, qishloq xo'jaligi...) xususiyatlaridan kelib chiqib olib boriladigan iqtisodiy tahlil alohida tarmoqlar tahlili deyiladi. Masalan, qishloq xo'jaligida yyetishtirilgan jami mahsulot hajmi va unda dehqonchilik, chorvachilik va boshqa sohalarning tutgan ulushi hamda ularni yillar bo'yicha dinamik o'zgarishiga baho berish.

Barcha tarmoqlar xususiyatidan kelib chiqqan holda qisman taqqoslash shartlari asosida o'tkazilgan tahlil turini tarmoqlararo umumiy tahlil turi, deyish mumkin. Bunga misol qilib, yalpi ichki mahsulot hajmi hamda unda sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqalarning tutgan ulushini yillar bo'yicha dinamik o'zgarishiga baho berishni keltirish mumkin.

Ko'lam nuqtayi nazaridan iqtisodiy tahlil makro va mikro darajada olib boriladi. Makroiqtisodiy tahlilda ma'lum hudud iqtisodiyoti holati va uning o'zgarishiga baho berilsa, mikroiqtisodiy tahlilda bevosita xo'jalik yurituvchi subyekt hayoti monitoring qilinadi.

Obyekti nuqtayi nazaridan batafsil va tanlab o'tkazilgan iqtisodiy tahlil turlariga bo'linadi.

Batafsil tahlili o'rganilayotgan obyektning barcha jihatlari qamrab olingan holda o'rganiladi. Tanlab olingan iqtisodiy tahlilda esa, o'rganilayotgan obyektning ayrim jarayonlari tanlab olinadi, o'rganiladi va ular yuzasidan qarorlar qabul qilinadi.

Iqtisodiy tahlilni avtomatlashtirish nuqtayi nazaridan kompyuterlashtirilmagan, qisman kompyuterlashtirilgan, to'liq kompyuterlashtirilgan turlariga ajratish mumkin.

Kompyuterlashtirilmagan iqtisodiy tahlilda ma'lumotlar odatdagi qo'lda bajarilsa, qisman kompyuterlashtirishda xo'jalik jarayonlarining ayrim jarayonlari yuzasidan hisob-kitoblar kompyuterlarda amalga oshiriladi. Xo'jalik hayotining barcha qirralarini kompyuterlarda hisob-kitob qilinishi va ular yuzasidan xulosalar olinishi iqtisodiy tahlilni to'liq kompyuterlashtirilganini bildiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'lum belgilari bo'yicha turlarga ajratilgan iqtisodiy tahlillar bir xil uslubiyotga asosan olib borilishi qiyin. Biroq, shunday bo'lsada ularning o'ziga xos taraflarini iqtisodiy tahlil nazariyasida aks etishini ta'minlash zarur.

## **4.2. Iqtisodiy tahlilning shakllari**

Iqtisodiy tahlil turlari uning shakllaridan ma'lum jihatlari bilan farqlanadi. Bu farqlanish iqtisodiy tahlil shakllarida mujassamlashgan o'ziga xos usullari, ketma-ketligi, maqsad va vazifalari bilan izohlanadi. Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, iqtisodiy tahlilning quyidagi shakllarini keltiramiz (7-chizma):


1. Kompleks tahlil. Bu iqtisodiy tahlil shaklida xo'jalik hayoti makon va zamon nuqtayi nazaridan barcha jarayonlarini inobatga olgan holda keng, batafsil o'rganiladi.

2. Solishtirma iqtisodiy tahlil. Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatidagi jarayonlarni baho va vaqt nuqtayi nazaridan taqqoslash shartlari asosida solishtirish holatiga keltirib o'tkaziladigan iqtisodiy tahlilni nazarda tutadi.

3. Omilli iqtisodiy tahlil. Ushbu iqtisodiy tahlil shaklida xo'jalik yurituvchi subyektning natijaviy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar (birlik kattaliklar) aniqlanib, ularning ta'siri qator usullar yordamida hisob-kitob qilinadi.

4. Marjinal iqtisodiy tahlil. Marjinal (inglizcha «margin», fransuzcha «marge» varoq chegarasi, o'lka) iqtisodiy tahlil xo'jalik

yurituvchi subyektning barcha xarajatlarini doimiy va o'zgaruvchan turlarga bo'lib, ishlab chiqariladigan mahsulot (ish, xizmat)larning ko'zlangan foydaga erishish uchun zarur bo'lgan miqdorini aniqlash hamda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilganligi bilan izohlanadi;



7-chizma. Iqtisodiy tahlilning shakllari

5. Boshqaruv tahlili. Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari, mulkdorlari, mutaxassislarining korxonada mavjud ichki imkoniyatlarni ishga solish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruv hisobi va hisoboti asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun olib boradigan iqtisodiy tahlil shakli sanaladi.

6. Staxostik iqtisodiy tahlil. Bu iqtisodiy tahlil shaklida natijaviy ko'rsatkichlar bilan ularga ta'sir etuvchi omillar, birlik kattaliklar o'rtasida funksional bog'liqlik bo'lmaganda jarayon bog'liqligi regressiya, korrelyatsiya kabi iqtisodiy-matematik modellarni tuzish orqali o'rganilishini bildiradi.

7. Moliyaviy tahlil. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobot shakllari va unga qo'shimcha ilovalari asosida uning

moliyaviy holati, moliyaviy natijalari, debitorlik va kreditorlik qarzlarini holati, asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanishi, pul oqimlari va valuta mablag'lari harakati, xususiy kapitalning shakllanishi, budjetga o'lchovlarini o'rganishga bag'ishlangan iqtisodiy tahlil shakli sanaladi.

8. Boshqa iqtisodiy shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin:

8.1. Funksional qiymatli tahlil. Xo'jalik hayotida bajariladigan funktsiyani qiymat o'lchov birligida, mahsulot (ish, xizmat) sifatini oshirgan holda keraksiz funktsiyalarni bartaraf etish hisobiga ichki imkoniyatlarni aniqlab topib, uni ishga solishga qaratilgan iqtisodiy tahlil shakli sanaladi.

8.2. Loyiha tahlili. Xo'jalik yurituvchi subyekt istiqbolini, biznes-rejasini, investitsiya loyihalarini asoslash maqsadida bo'lishi kutilayotgan jarayonni o'rganadigan iqtisodiy tahlil shakli hisoblanadi.

8.3. Xo'jalik faoliyati tahlili. Bu tahlil shaklida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati mikroiqtisod darajasida o'rganilib, baho beriladi.

8.4. Auditorlik tahlili. Auditorlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati audit qilinganda voqelik yuzasidan to'g'ri xulosa qabul qilish maqsadida ular tomonidan o'tkazilgan iqtisodiy tahlil shakli sanaladi.

Yuqoridagi ta'kidlangan iqtisodiy tahlil shakllari va turlarini ma'lum xususiyatlariga ko'ra to'g'ri turkumlanishini e'tiborga olish va ularni mazmunan tushunib olish iqtisodiy tahlilda to'ldirilmagan, e'tibordan qolgan jihatlarni oldini olish imkonini yaratadi.

### **4.3. Iqtisodiy tahlil uchun kerakli ma'lumotlar tizimi**

Xo'jalik hayotini to'g'ri va oqilona boshqarishda turli-tuman ma'lumotlar tizimidan foydalaniladi. Chunki xo'jalik hayotida yuz bergan voqeliklar tegishli xodimlar tomonidan ma'lumotlarda rasmiylashtirilib, ular asosida jarayonga baho beriladi. Shu sababli ham qabul qilingan qarorlarning samarali bo'lishida xo'jalik hayotining ma'lumotlarda to'g'ri, aniq rasmiylashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan ma'lumotlar mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Iqtisodiy ma'lumotlar.
2. Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar.

3. Ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar.
4. Tabiiy-ekologik ma'lumotlar.
5. Boshqa ma'lumotlar.

Iqtisodiy ma'lumotlar iqtisodiy tahlilni tahminan 80 foiz axborot manbalari bilan ta'minlab, ular tezkor, moliyaviy va boshqaruv, statistik hisob ma'lumotlaridan iborat bo'ladi.

Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar hukumatimiz tomonidan qabul qilinib, tegishli tartibda ro'yxatdan o'tgazilgan va mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, me'yoriy hujjatlar, normativ aktlardan tashkil topgan.

Ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar fan va texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan axborotlardan iborat bo'lib, ular iqtisodiy tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy-ekologik ma'lumotlar, tabiat, yer, iqlim va boshqa ekologik omillarni mujassamlashtirgan axborotlardan tashkil topib, ular iqtisodiy tahlilda muhim manba hisoblanadi.

Boshqa manbalarga esa iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-texnikaviy, tabiiy-ekologik manbalarda aks etmagan ma'lumotlar, xususan, ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallardagi, radio va televideniya keltirilgan axborotlarni kiritish mumkin.

Ma'lumotlarni iqtisodiy tahlil jarayonida qo'llash ularning mazmuni va sifatini boyitishga e'tiborni qaratadi. Shu boisdan, mamlakatimizda ma'lumotlar shaklini mazmun ustunligini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilib, ular amaliyotga joriy etildi. Xususan, buxgalteriya balansi (1-shakl), «Tashkilot xarajatlari to'g'risida» (3-moliya shakli) va h.k.

Iqtisodiy manbalar boshqa axborotlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Hujjatlashganligi — barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar sodir bo'lishi bilan tegishli boshlang'ich hujjatlarda qayd etiladi hamda axborot sifatida rasmiylashtiriladi.

2. Turli-tumanligi, hodisa va voqealar ko'pgina manbalarda qayd etilib, hajmi, mazmuni, shakli jihatidan bir-biridan farqlanadi.

3. Ommaviyligi va hajmining kengligi — ko'pgina iqtisodiy axborotlar tegishli shaklga ega bo'lganligi, hisobot shakllarining yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlanilganligi ularni tushunishni, bilishni osonlashtiradi.

4. Ma'lum davrlarda takrorlanib turishligi — tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar muntazam to'ldirilib, tegishli tashkilotlarga

hisobot davrlarida, ya'ni, choraklar, yarim hamda yillik muddatlarda topshirilishi ko'zda tutiladi.

5. Qonunlashganligi va chegaralanganligi — barcha iqtisodiy axborotlar davlat tashkilotlari, moliya vazirligi, makroiqtisodiyot vazirligi va soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllarga asoslanib tuziladi. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun muhim sanalgan ayrim boshqaruv hisobi ma'lumotlari boshqalar uchun maxfiy bo'lib, faqat mulk egasining ruxsati bilan e'lon qilinishi mumkin.

6. Ko'p qirraliligi va sermazmunligi — iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o'lchamlarida ko'rsatiladi, boshlang'ich hujjatlarda xo'jalik yurituvchi subyekt nomi, imzo chekuvchilarning naslnomasi, davri va mahsulotlarning turlari ko'rsatilgan holda rasmiylashtiriladi.

Iqtisodiy ma'lumotlarning aksariyat qismini hisob ma'lumotlari tashkil etib, buxgalteriya, statistika va tezkor hisoblar majmuyidan iborat.

Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar quyidagi talablarni bajarishi kerak:

1. Haqqoniylik va xolisonalik tamoyiliga amal qilish.
2. Ma'lumotlar iqtisodiy tahlil uchun keng imkoniyatli bo'lmog'i zarur, ya'ni reja, hisob va statistik ma'lumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to'liq yoritishi, talab qilingan vazifalarni bajarishi.
3. Iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbalar aniq o'lchamda aks ettirilishi.
4. Barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog'liqligi, saqlanishi hamda ulardagi axbarotlar bir-birini to'ldirib turishi.
5. Ma'lumotlarga kiritilgan ko'rsatkichlarni aniqlash tamoyillari va aks ettiriladigan davrlar mos bo'lishi va h.k.

Yuqoridagi talablarga javob beruvchi barcha ma'lumotlar iqtisodiy tahlilning aniq bajarilishi, sermazmun bo'lishiga zamin yaratadi.

Xo'jalik hayotini avtomatik boshqarish tizimi sharoitida tashkil etish deyilganda elektron hisoblash mashinalari (kompyuterlar) yordamida va iqtisodiy matematik usullarini qo'llagan holda ishlab chiqarishning muhim sohalarini aniq va to'g'ri boshqarish vazifalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etish tushiniladi. Bu uch xil yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Markazlashgan.

2. Markazlashmagan.

3. Aralash.

Xo'jalik hayotini iqtisodiy tahlil etishning avtomatik boshqarish tizimida amalga oshirish quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

1. Aniq maqsadga ega ekanligi tizimlashganligi.

2. Kompleksliligi.

3. Ixchamlashganligi.

4. Uzluksizlik va muntazamlilik.

5. Taqqoslanish imkoniyatining kengligi.

6. Yechim loyihasi aniq va ixchamliligi.

Avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida iqtisodiy tahlil etish quyidagi sharoitda bajariladi:

1. Qayd etish.

2. Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish va uzatish.

3. Umumiy ma'lumotlar bazasini tashkil etish.

4. Ko'rsatkichlar algoritmi bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash.

5. Iste'molchilar uchun kerakli ma'lumotlarni tayyorlash.

Iqtisodiy tahlil uchun kerakli ma'lumotlarning aniqligini va tez muddatda tayyorlashning aniq yo'llaridan biri — kompyuter dasturlari yordamida qayta ishlash hisoblanadi.

Kompleks avtomatlashgan sharoitda iqtisodiy tahlil uchun kerakli ma'lumotlardan foydalanish xususiyatlari ma'lum darajada imkoniyatlarni ochib beradi:

1. Boshlang'ich hujjatlar - hisob, statistika, me'yoriy ma'lumotlar kompyuterining xotirasiga qo'yilib faqat bir xil manba, ya'ni mashina xotirasiga olinadi.

2. Iqtisodiy tahlil uchun kerakli turli murakkab hisoblashlar ma'lum sekundlarda bajariladi.

3. Ta'sir etuvchi omillarni mashinalar aniq ko'rsatib beradi.

4. Iqtisodiy tahlil uchun kerakli ma'lumotlar va natijalar o'rnatilgan shaklda mashinagramma, tabelogrammalarda ifodalanadi.

5. Turli xil iqtisodiy ma'lumotlar mashinalar uchun bir xil shifr va kodlarda kiritiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra ishning avtomatlashtirilgan tarzda olib borilishi ancha iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

#### **4.4. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarining to'g'riligini tekshirish usullari**

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan barcha axborot manbaalarini ishonchli, aniq va to'g'ri to'ldirilishi monitoring natijalarining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shu boisdan, tahlilchi tomonidan xo'jalik hayotiga baho berishdan oldin foydalanilayotgan turli-tuman, sermazmun axborot manbalarining to'g'ri, aniq, ilmiy asoslangan holda to'ldirilganiga ishonch hosil yetishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Odatda xo'jalik hayotiga baho berish davrida axborot manbalari to'planib, ularning to'g'riligi ikki usulda tekshiriladi:

1. Texnik (yuzaki) tekshirish.
2. Mazmun jihatidan tekshirish.

Texnik (yuzaki) tekshirish - axborot manbalarini arifmetik jihatdan to'g'riligi, rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko'rsatkichlarning bir-biriga mosligini e'tiborga olgan holda o'rganishni nazarda tutadi. Texnik (yuzaki) tekshirishda hisobotlarga barcha ma'lumotlarni to'g'ri kiritilganligi, ularning arifmetik yig'indisi, Moliya vazirligi hamda Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan tasdiqlangan amaldagi hisobot shakllariga rioya qilinganligi, hisobot shakllarining bir-biri bilan bog'liqligi va ulardagi takroriy ko'rsatkichlar bir xilligi ta'minlanganligi, hisobotlarni topshirish muddati, mansabdor shaxslar imzosi tekshiriladi va h.k.

Axborot manbalarini mazmunan tekshirish ulardagi ma'lumotlar, raqamlarning haqqoniy, ilmiy asoslanganligiga baho beradi. Bunday tekshirishda buxgalteriya hisobining boshlang'ich hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlar inventarizatsiyadan o'tkaziladi, ko'rsatkichlarning taqqoslash, sanab ko'rish va o'lchash yo'li bilan to'g'riligiga ishonch hosil qilinadi.

Axborot manbalarini mazmun jihatdan tekshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Inventarizatsiya natijalarining hisobotda o'z aksini topishi.
2. Xo'jalik yurituvchi subyektning hisobot ma'lumotlaridagi budjetga to'lovlari va budjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirish summasining moliya tashkiloti ma'lumotlariga mos kelishi.
3. Foyda va zararlar schyotiga o'tkazilgan ma'lumotlar (ustav kapitalining o'zgarishi, tabiiy ofatdan ko'rilgan zarar, asosiy vositalar tugatilishi ...)ning to'g'riligi va h.k.



Xo'jalik hayotini iqtisodiy tahlil qilishda foydalanilayotgan axborot manbalarini quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Biznes-reja ma'lumotlari.
2. Hisob va hisobot ma'lumotlari.
3. Qo'shimcha ma'lumotlar.

Biznes-reja ma'lumotlari ko'rsatkichlarga belgilangan limitlar, norma va normativlar asosida shakllantirilgan xo'jalik yurituvchi subyektning biznes – rejasidagi axborotlar nazarda tutiladi.

Hisob va hisobot ma'lumotlari operativ, buxgalteriya, statistika hisobi va hisobotlaridagi axborotlar asosida shakllanadi. Ular iqtisodiy tahlilning asosiy axborot manbayi bo'lib, xo'jalik hayotining barcha jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Operativ hisob ma'lumotlari asosida buxgalteriya, statistika hisobi va hisoboti ko'rsatkichlari shakllantirilib, u:

- ma'lumotlarning tez olinishi;
- axborotlarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan maxsus shaklda rasmiylashtirilmasligi;
- ma'lumotlarni qayta ishlash imkonining mavjudligi bilan boshqa hisob shakllaridan farqlanadi.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari tegishli yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan va amalda foydalanilayotgan shakllar asosida rasmiylashtirilib, iqtisodiy tahlil xulosasiga ko'ra boy berilgan imkoniyatlarni shu davrning o'zida foydalanish imkoni bo'lmaydi.

Statistik hisob va hisobot ma'lumotlaridan iqtisodiy tahlilda ko'pincha xo'jalik hayoti istiqbolini belgilashda foydalaniladi. Negaki, bu axborot manbalarida hodisa va jarayonlar miqdor jihatdan muayyan iqtisodiy qonunlarni aniqlaydigan tarzda aks ettiriladi.

Iqtisodiy tahlil xulosalari har tomonlama mukammal, aniq bo'lishida mutaxassisdan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-texnikaviy, tabiiy-ekologik bilimlarga ega bo'lishi va ularga tegishli ma'lumotlardan foydalana bilishi talab etiladi. Shu sababli ham iqtisodiy tahlilda ularga oid ma'lumotlar (qo'shimcha ma'lumotlar)dan foydalaniladi.

Shuningdek, qo'shimcha ma'lumotlar - bank, moliya, soliq inspektorlari tomonidan tuzilgan dalolatnoma, inspektorlarni taqdim etgan ma'lumotlar, auditor xulosalari, radio va televideniye, ishchi va xizmatchilar bilan bo'lgan muloqot natijasida olingan ma'lumotlardan tashkil topadi.

Iqtisodiy tahlil ma'lumotlari hamda natijalari uni kim va nima maqsadda o'tkazganiga qarab turli shaklda, ya'ni analitik mavzular

yoki xo'jalikning yillik hisobotiga ilova qilinadigan bayonnoma ko'rinishida umumlashtirilishi mumkin.

Iqtisodiy tahlil natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdagi tahlilni o'tkazganligimizga qarab bajariladi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektning yillik hisobotlari asosida o'tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiy xulosalar yozish va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xati tuzish orqali yakunlanadi. Ayrim turdagi iqtisodiy tahlil turlarining natijalari esa mutaxassislarining ma'ruzasi, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarining buyrug'i, jamoaning majlis bayoni, taftish komissiyasining dalolatnomalari orqali umumlashtiriladi.

Iqtisodiy tahlil natijalari umumlashtirilganda erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda yutuqlar aniq raqamlarda va dalillar bilan ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya'ni takliflar ham ko'rsatiladi.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va umumlashtirishga xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy majlis materiallarini turli xil diagramma, jadval va grafiklar asosida xodimlarga ko'rsatma sifatida osib qo'yilishi, oynoma va ro'znoma sahifalarida ma'lumotlarni chop yetish, axborot doskalaridagi ko'rsatkichlarni e'lon qilib borish ham kiradi.

Analitik yozuvlarga xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini yakunlari bo'yicha yillik yoki choraklik hisobotiga tushuntirish xatlari yoki ularga yuqori tashkilotlarining xulosalari kiradi.

Tushuntirish xati biznes-rejaning bajarilishi haqidagi umumiy ma'lumotlar, shuningdek, o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning avvalgi davrlarga nisbatan dinamik o'zgarishiga baho berish bilan boshlanadi. So'ngra o'rganilayotgan ko'rsatkichning biznes-rejadan farqlanish sabablari, ayrim omillarning o'zaro bog'lanishi va ularning xo'jalik faoliyatiga ta'siri hisoblab beriladi.

Analitik hisob — kitoblar jadvallar ko'rinishida rasmiylashtirilib, ularni har biriga xulosalar va ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini yechib beruvchi matnli ilovalar beriladi.

Bayonnomaning xotima qismida xulosa va takliflar, ya'ni aniqlangan kamchiliklarni bartaraf yetish yo'llari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doir imkoniyatlardan foydalanish yuzasidan aniq takliflar bayon etiladi. Bayonnoma tushunarli, ilmiy asoslangan, ixcham, analitik jadvallar bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda axborot manbaalarining to‘g‘riligiga ulardagi takroriy ko‘rsatkichlarning bir xilligi ta‘minlanganlini o‘rganish orqali baho beriladi (17-jadval).

17-jadval

### Axborot manbaalarining to‘g‘riligini tekshirish

Ko‘rsatkichlar Nomi	Birlamchi:			Ikkilamchi:			Mosligi
	shakl raqami	satri	summa, ming so‘m	shakl raqami	satri	summa, ming so‘m	
Ustav kapitali	1	320	280000	5	080	280000	mos
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	1	350	45000	5	080	45000	mos
....							

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi subyektning ustav kapitali va taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) ko‘rsatkichlarining (1-va 5-moliyaviy hisobot shakllariga asosan) bir xilligi aniqlandi. Bu iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan 1-va 5-moliyaviy hisobot shakllarini ishonchli, aniq va to‘g‘ri to‘ldirilganini bildiradi.

### 4.5. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish bosqichlari

Iqtisodiy tahlilning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uni qanday tashkil etilganligi va rejalashtirilganiga bog‘liqdir. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Birinchi - iqtisodiy tahlil o‘tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi.

Bu bosqichda iqtisodiy tahlil ishlarini nimadan boshlanishi, tahlil o‘tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan tashqari iqtisodiy tahlil o‘tkazish dasturida quyidagilar aniq ko‘rsatilgan va belgilagan bo‘lishi kerak:

- iqtisodiy tahlilning maqsadi va vazifalarini aniqlash.
- iqtisodiy tahlil obyektini aniqlash.
- iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish joyi.

- iqtisodiy tahlil mazmunini izohlash.
- ijrochilar tarkibi va ularning vazifalarini belgilash.
- iqtisodiy tahlil o'tkazish muddatini belgilab olish.
- iqtisodiy tahlil manbalari hamda ularning natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish va h.k.

Ikkinchi — iqtisodiy tahlil uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichi.

Ushbu bosqichda iqtisodiy tahlil uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash, manbalarini to'plash, qo'shimcha ma'lumotlarni jalb etish ishlari amalga oshiriladi.

Uchinchi - to'plangan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi.

To'plangan ma'lumotlar to'g'riligi, ilmiy asoslanganligini tekshirish hamda ishonchligini aniqlashdan iborat bo'ladi va ushbu axborot manbalari iqtisodiy tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- iqtisodiy tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma'lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, sxema va maketlarni tuzish;
- ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- mavjud imkoniyatlarni aniqlash.

To'rtinchi - bevosita xo'jalik yurituvchi subyektning barcha jarayonlarini belgilangan tartibda iqtisodiy tahlil etish bosqichi.

Bu bosqichda bevosita iqtisodiy tahlil ishlari bajariladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarish sabablari va farqlari aniqlanadi. Shuningdek, ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko'rsatkichlari aniqlanadi;
- ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalari baholanadi;
- baholashda ekspertizadan foydalaniladi;
- natijalar umumlashtiriladi;
- iqtisodiy tahlil natijalari bo'yicha xulosaga tayyorlanadi.

Beshinchi — iqtisodiy tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.

Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda iqtisodiy tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlarni amalga oshirilishiga e'tibor qaratish zarur:

- xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati natijalarini o'zgarish sabablari aniqlanadi;

- xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini yaxshilash imkoniyatlarini jamlash;

- aniqlangan imkoniyatlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;

- iqtisodiy tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

Oltinchi — ilg'or g'oya va tajribalarni xo'jalik hayotida qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib berish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bosqichi.

Mazkur bosqichda iqtisodiy tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni uning amaliyotiga tatbiq etish natijasida erishiladigan natija ko'rsatib beriladi va ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning bajarilishi bo'yicha nazorat o'rnatadi.

Xulosa tarzida ta'kidlash kerakki, iqtisodiy tahlilni yuqoridagi bosqichlarga to'liq amal qilgan holda, xolis, sifatli, aniq o'tkazilishi belgilangan maqsadning bajarilishini ta'minlaydi.

## Xulosalar

Iqtisodiy tahlilni ma'lum belgilariga binoan turlarga ajratish asosida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini samarali boshqarishga erishiladi. Biroq iqtisodiy tahlilda uning turlari va shakllarini ajratish zarur. Iqtisodiy tahlil shakllari o'ziga xos bo'lgan tashqi ko'rinishi, qiyofasi bilan birga o'z mazmuni va usullariga ega bo'ladi. Iqtisodiy tahlil shakllari va turlarini ma'lum xususiyatlariga ko'ra to'g'ri turkumlanishini e'tiborga olish va ularni mazmunan tushunib olish iqtisodiy tahlilda to'ldirilmagan, e'tibordan qolgan jihatlarni oldini olish imkonini yaratadi. Iqtisodiy tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin: iqtisodiy ma'lumotlar, huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, tabiiy-ekologik ma'lumotlar, boshqa ma'lumotlar. Iqtisodiy tahlil uchun yig'ilgan ma'lumotlarni tekshirish ikki usulda, xususan, texnik (yuzaki) va mazmun jihatidan olib boriladi. Texnik tekshirish - axborot manbalarini arifmetik jihatidan to'g'riligini, rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko'rsatkichlarning bir-biriga mosligini e'tiborga oladi. Mazmunan tekshirish ma'lumotlarning haqqoniy, ilmiy asoslangan ekanligini o'rganadi. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan manbalar - reja, hisob va hisobot, qo'shimcha ma'lumotlarga bo'linadi. Iqtisodiy tahlil: iqtisodiy tahlil o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish; iqtisodiy tahlil

uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash; to'plangan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va iqtisodiy tahlil uchun moslashtirish; bevosita xo'jalik yurituvchi subyektning barcha jarayonlarini belgilangan tartibda iqtisodiy tahlil qilish; iqtisodiy tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish; iqtisodiy tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib berish bosqichlaridan iborat bo'ladi.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Iqtisodiy tahlil turlari va ularning mazmunini yoriting.
2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarida iqtisodiy tahlil ishlarini kimlar olib boradi?
3. Iqtisodiy tahlil shakllari va ularning mazmunini bayon eting?
4. Xo'jalik yurituvchi subyektlarining iqtisodiy tahlil ishlariga mas'ul javobgar shaxslar bo'lib kimlar hisoblanadi?
5. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish bosqichlarini sanab o'ting va mazmunini tushuntiring.
6. Iqtisodiy tahlil natijalari qanday rasmiylashtiriladi?
7. Iqtisodiy tahlil natijalari kimlarga taqdim etiladi?
8. Iqtisodiy tahlilda qanday turdagi ma'lumotlardan foydalaniladi?
9. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan ma'lumotlarga qanday talablar qo'yiladi?
10. Ma'lumotlarning to'g'riligi qaysi usullar orqali tekshiriladi?
11. Texnik jihatdan tekshirish qanday amalga oshiriladi?
12. Mazmun jihatdan tekshirish qanday amalga oshiriladi?
13. Iqtisodiy tahlil jarayonida ma'lumotlarni kompyuterlarda qayta ishlashning afzalliklari nimadan iborat?
14. Iqtisodiy tahlil o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichini izohlang.
15. Iqtisodiy tahlil uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichida nimalarga e'tibor qaratiladi?
16. To'plangan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va iqtisodiy tahlil uchun moslashtirish bosqichiga izoh bering.
17. Iqtisodiy tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichida nimalarga e'tibor qaratiladi?


18. Iqtisodiy tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib bering.

### Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar

Iqtisodiy tahlil turlari va shakllari; iqtisodiy tahlilni tashkil etish bosqichlari; marja; funksional qiymatli tahlil; moliyaviy tahlil; boshqaruv tahlili; axborot manbalari; iqtisodiy axborotlar; ilmiy-texnikaviy axborotlar; tabiiy-ekologik axborotlar; axborotlarni texnik tekshirish; ma'lumotlarni mazmun jihatdan tekshirish; iqtisodiy tahlil bosqichlari; auditorlik tahlil; staxostik iqtisodiy tahlil; kompleks iqtisodiy tahlil; kompleks iqtisodiy tahlil; marjinal iqtisodiy tahlil; omilli iqtisodiy tahlil; operativ hisob; buxgalteriya hisobi; statistik hisob.

### Mavzu bo'yicha testlar

1. Iqtisodiy tahlil turlari va shakllariga mutanosibini olib boring.



2. Iqtisodiy tahlilda qanday turdagi axborot manbalaridan foydalaniladi?

- A. Iqtisodiy, huquqiy-me'yoriy, ilmiy-texnologik, tabiiy-ekologik va boshqa turdagi ma'lumotlar.
- B. Iqtisodiy va huquqiy.
- C. Iqtisodiy.
- D. Huquqiy va tabiiy ekologik.

## **V mavzu. KORXONALARNING ISHLAB CHIQUARISH FAOLIYATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH USULLARI**

---

### **5.1. Mahsulot ishlab chiqarish va uning sotilishining muhim ko'rsatkichlari tahlili**

Mamlakatda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan boyliklarning chegaralanganligi ularning hajmini ilmiy asoslangan holda rejalashtirishni taqozo etadi. Bu xo'jalik yurituvchi subyekting ichki imkoniyatidan kelib chiqib, mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish bo'yicha buyurtmalar olib, iste'molchilarning talablaridan kelib chiqib shartnomalar tuzishni taqozo etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarida mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish bo'yicha belgilangan biznes rejadagi hajmni yuqori sifatli bajarilishini ta'minlash uning rentabellik va to'lov qobiliyati kabi qator sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash omili hisoblanadi. Shu boisdan, amaldagi qonunchilikka binoan (O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonunini 20-moddasi) xo'jalik yurituvchi subyektlari o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hajmini bozordagi talab asosida belgilaydi.

Yuqoridagilarga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish hajmini dinamik o'zgarishiga omilli baho berib, uning raqobatbardoshligi, hajmini oshirish hisobiga muhim sifat ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishini ta'minlash hamda mazkur yo'nalishda mavjud imkoniyatlar yuzasidan takliflar tayyorlash mavzuning maqsadi sanaladi.

Belgilangan maqsadga erishishda iqtisodiy tahlilning vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishning biznes rejada belgilangan hajmda bajarilishiga baho berish.
2. Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)larning sifatini o'rganish.



3. Mahsulot (ish, xizmat)lar nomenklaturasi va assortimentiga baho berish.

4. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish maromiyligini tahlil etish.

5. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan takliflar tayyorlash va h.k.

Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish tahlilida xo'jalik subyekting biznes reja, «Korxonada (birlashma)ning mahsuloti bo'yicha hisoboti» (1-P shakl), «Tayyor mahsulotlar harakati» to'g'risidagi 16-sonli vedomost, «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl) ma'lumotlari axborot manbalari bo'ladi.

Ushbu axborot manbalarida mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmini ifodalovchi quyidagi ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar olinadi:

- yalpi mahsulot;
- tovar mahsulot;
- sotilgan mahsulot.

Yalpi mahsulot, xo'jalik yurituvchi subyekting ma'lum bir davr (kun, oy, chorak, yil)da yaratgan qiymatliklarining amaldagi va solishtirma baholarda o'lgan hajmiga aytiladi. Shuning uchun xo'jalik subyekting yalpi mahsulotining hajmi ular tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot (ish, xizmat), tugallanmagan ishlab chiqarishi, yarim fabrikatlari qiymati asosida aniqlanadi.

Tovar mahsuloti iste'molchilarga yetkazib berish uchun sotishga mo'ljallangan, pirovard mahsulot (ish, xizmat)lar bo'lib, hajm nuqtayi nazaridan yalpi mahsulotdan tugallanmagan ishlab chiqarishi, yarim fabrikatlari hisobiga kichik bo'ladi.

Sotilgan mahsulot – iste'molchilarga jo'natilgan, xaridorlardan puli kelib tushgan, daromadi tan olingan mahsulot (ish, xizmat)lar qiymatiga aytilib u tovar mahsulotidan sotilmagan tovarlar hisobiga hajmi nuqtayi nazaridan kichik bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar qiymati amaldagi va solishtirma baholarda hisobga olinib, ular quyidagicha aniqlanadi (18-jadval):

18-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyekting tovar mahsulotini amaldagi qiymati 168000 so'mni tashkil etgan. Tovar mahsulotining solishtirma, ya'ni hisobot davrida erishilgan tovarlar hajmini o'tgan yilgi shu mahsulotning bir-birlik bahosi bilan hisoblagandagi qiymati 140000 so'mni tashkil etgan. Xuddi shunday boshqa ko'rsatkichlarning amaldagi va solishtirma

qiymatlari aniqlanib, bu ma'lumotlarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.

18-jadval

**Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining amaldagi va solishtirma qiymatlarda aniqlanishi**

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		Qiymatlar, so'm	
		mahsulot (ish, xizmat) hajmi, dona	bir-birlik mahsulot (ish, xizmat) bahosi, so'm	mahsulot (ish, xizmat) hajmi, dona	bir-birlik mahsulot (ish, xizmat) bahosi, so'm	amaldagi	solishtirma
1	2	3	4	5	6	7=5*6	8=5*4
1.	Tovar mahsuloti	1000	100	1400	120	168000	140000
2.	Sotilgan mahsulot	800	100	1300	120	156000	130000

Xo'jalik subyekti tomonidan mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hajmi mutlaq, ya'ni dona, metr, tonna va boshqa ko'rsatkichlarda tahlil etilib, ularning har bir turini dinamik o'zgarishiga baho beriladi. Shuningdek, bir turdagi mahsulot (ish, xizmat)larning umumiy hajmini o'rganishda shartli – miqdor ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda shartli banka, paxtani qayta ishlovchi korxonalarda shartli – paxta toyi, poyafzal ishlab chiqaruvchi korxonalarda shartli – juft oyoq kiyimlari kabilardan foydalaniladi. Bu bir turdagi mahsulot (ish, xizmat)larning natura o'lchov birligidagi hajmini jamlash imkoniyatini yaratib, faoliyat tahlili imkoniyatlarini oshiradi (19-jadval).

19-jadval

**Xo'jalik subyektida mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishning umumlashtirilgan ko'rsatikichlari tahlili**

(ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
Tovar mahsuloti:			
- amaldagi bahoda;	100000	168000	+68000
- solishtirma bahoda.	83000	140000	+57000
Sotilgan mahsulot:			
- amaldagi bahoda;	80000	156000	+76000
- solishtirma bahoda.	69000	130000	+61000

19-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektida joriy davrda tovar mahsulotining hajmi o'tgan yilga nisbatan solishtirma baho bo'yicha 57000 ming so'mga ortgan. Mazkur

ko'rsatkichning amaldagi bahosi esa o'tgan yilga nisbatdan 68000 ming so'mga ortgan.

Sotilgan mahsulot hajmi ham amaldagi va solishtirma baholari bo'yicha mos ravishda +76000 hamda 61000 ming so'mga ko'paygan. Bu xo'jalik yurituvchi subyekt uchun ijobiy hol, deb qaralishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyektining ixtisosligiga ko'ra ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larning tarkibi ularga bo'lgan bozordagi talab va taklifning o'zgarishiga qarab muntazam takomillashib boradi. Bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larning strukturaviy o'zgarishlarini yuzaga keltiradi. Natijada, mahsulot (ish, xizmat)lar qiymatining hajmi strukturaviy o'zgarishlar ta'sirida ortib yoki kamayib boradi.

Hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlari ko'proq foyda keltiruvchi, kam xarajatlar talab etadigan mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishdan manfaatdordir. Shuning uchun ham mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish hajmi tahlilida strukturaviy o'zgarishlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Struktura bo'yicha mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish rejasining bajarilishi uchun uning haqiqatdagisi rejalashtirilgani tarkibiga teng bo'lishi talab etiladi. Ammo, mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish tarkibida bozorda qimmat sotilayotgan mahsulot turlari ulushining ortishi tufayli bu tartib buziladi. Bu mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi qiymatining ortishiga sabab bo'ladi va aksincha (20-jadval).

Hisob-kitoblar:

Strukturaviy o'zgarish hisobiga aniqlangan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi ( $x_s$ ).

$$x_s = \frac{340}{320} = 1,1.$$

Olma sharbati bo'yicha ( $o_s$ )  $o_s = 270 * x_s = 270 * 1,1 = 297$  ming so'm.

Nok sharbati bo'yicha ( $r_s$ )  $r_s = 360 * x_s = 360 * 1,1 = 396$  ming so'm.

Uzum sharbati bo'yicha ( $t_s$ )  $t_s = 210 * x_s = 210 * 1,1 = 231$  ming so'm.

Jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik subyektida ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larning strukturaviy o'zgarishi natijasida ishlab chiqarish hajmi hisobot davrida 12 ming so'mga kamaygan. Biznes reja ma'lumotlari bo'yicha jami 840 ming so'mlik mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich haqiqatda 912 ming so'mni tashkil etgan. Strukturaviy o'zgarish hisobiga 924 ming so'mlik mahsulot (ish, xizmat) ishlab

chiqarishi zarur edi. Bu ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi subyekting mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish strukturasi o'zgarishi faoliyatga salbiy ta'sirini ko'rsatganligidan dalolatdir.

20-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyektda mahsulot (ish, xizmat)lar strukturasi tahlili**

Mahsulot (ish, xizmat)lar turi	Mahsulot (ish, xizmat) bir birligining bahosi, so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi shartli naturada, shartli banka		Mahsulot (ish, xizmat)lar qiymati, ming so'm			Struktura o'zgarishini mahsulot (ish, xizmat)lar hajmiga ta'siri
		reja	haqiqatda	rejada	struktura o'zgarishi hisobiga aniqlangan mahsulot (ish, xizmat) hajmi	haqiqatda	
1	2	3	4	5	6	7	8=7-6
Olma sharbati	2700	100	120	270	297	324	+27
Nok sharbati	3000	120	140	360	396	420	+24
Uzum sharbati	2100	100	80	210	231	168	-63
<b>Jami</b>	<b>x</b>	<b>320</b>	<b>340</b>	<b>840</b>	<b>924</b>	<b>912</b>	<b>-12</b>

Xo'jalik yurituvchi subyektlari mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni iste'molchilar bilan tuzilgan shartnoma talablari asosida, nomenklatura va assortimentlarda ham bajarishi zarur. Sababi mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni nomenklatura va assortimentda bajarilishi iste'molchilarni ularga bo'lgan talabini to'laroq qondiribgina qolmasdan, bozor mo'l-ko'lligini ta'minlaydi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar assortimenti - ularning ma'lum bir belgilari, ya'ni navi, o'lchami, markasiga qarab turlarga ajratiladigan mahsulot (ish, xizmat)lar xilidir.

Mahsulot (ish, xizmat)lar nomenklaturasi, deb tovarlarning guruhlarini belgilashda hamda hisobga olishda qabul qilingan ro'yxatiga aytiladi. Masalan, ruchka, qalam, daftar kabilar mahsulot nomenklaturasini tashkil qilsa, ularning ranglari, turlari bo'yicha ajratilgani, ya'ni qizil, ko'k, yashil rangli ruchka, qalamlar yoki umumiy, oddiy daftar tovar assortimentini bildiradi.

**Xo'jalik yurituvchi subyektlarida mahsulot (ish, xizmat)lar  
nomenklaturasi va assortimenti tahlili**

Mahsulot (ish, xizmat) turlari	Mahsulot (ish, xizmat) bir-birigining bahosi, so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi shartli natura shaklida, shartli banka		Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymati, ming so'm		Assortimentga qabul qilingan mahsulot (ish, xizmat) hajmi, ming so'm
		biznes reja	haqiqatda	biznes reja	haqiqatda	
Olma sharbati	2700	100	120	270	324	270
Nok sharbati	3000	120	140	360	420	360
Uzum sharbati	2100	100	80	210	168	168
<b>Jami</b>	<b>x</b>	<b>320</b>	<b>340</b>	<b>840</b>	<b>912</b>	<b>798</b>

Mahsulot (ish, xizmat)lar nomenklaturasi va assortimenti tahlilida o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi ( $x_a$ ) quyidagi formula asosida aniqlanib, o'rganiladi:

$$x_a = \frac{\text{Assortimentga qabul qilingan mahsulot (ish, xizmat) xajmi}}{\text{Re ja bo' yicha ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) xajmi}} * 100$$

Assortimentga qabul qilingan mahsulot (ish, xizmat) hajmi, har bir tovar assortimenti qiymatining rejalashtirilgan va haqiqatdagi ma'lumotlaridan eng kichigini olish orqali aniqlanadi (11-jadval).

21-jadval ma'lumotlari asosida assortiment rejasining bajarilishi quyidagicha bo'lgan:

$$x_a = \frac{\text{Assortimentga qabul qilingan mahsulot (ish, xizmat) xajmi}}{\text{Re ja bo' yicha ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) xajmi}} * 100 = \frac{798}{840} * 100 = 95,0$$

21-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyekti uch turdagi, ya'ni olma, nok, uzum sharbatlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ulardan nok va olma sharbatlarini rejalashtirilganidan mos ravishda 20 (140-120) va 20 (120-100) shartli bankaga ortig'i bilan bajargan. Uzum sharbati esa, 20 (100-80) shartli bankaga rejalashtirilganidan kam ishlab chiqarilgan. Mazkur o'zgarishga mos ravishda mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining qiymati ham ma'lum miqdorga kamaygan. Natijada, olma va nok sharbatlari qiymatining biznes reja ma'lumotlari (270 va 360 ming so'm), uzum sharbatining haqiqatda ishlab chiqarilgan hajmi (168 ming so'm) assortimentga qabul qilingan. Shu boisdan, assortimentga qabul qilingan umumiy mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi 798 ming so'mni tashkil etgan.

21-jadval ma'lumotlariga asosan, assortiment rejasining bajarilishi 95,0 foizni tashkil etib, bunga uzum sharbatining hisobot davrida ma'lum miqdorga kam ishlab chiqarilganligi sabab bo'lgan. Ammo, xo'jalik yurituvchi subyekting assortiment rejasi 100 foizga bajarilmagan bo'lsada, hisobot davrida mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish rejasi 108,6 foiz ((912/840)\*100)ga bajarilgan. Bu, xo'jalik yurituvchi subyekti uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Uzum sharbatining belgilangan rejadan kam ishlab chiqarilgani bois, xo'jalik yurituvchi subyekti 42 ming so'mlik (168-210) pul tushumiga ega bo'lish imkoniyati boy berilgan. Natijada, 5 foiz ((42/840)\*100) assortiment rejasi bajarilmagan.

Umuman, iqtisodiy tahlilda assortiment hisobiga mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni tartibga keltirish uchun iste'molchilarning istiqboldagi ehtiyojlarini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning

raqobatbardoshlik darajasini, o'z vaqtida yangi tovarlar turini yaratish ishlarini, ma'naviy eskirgan va iqtisodiy jihatdan kam foyda keltirayotgan mahsulot (ish, xizmat)larni chiqarib tashlash, mahsulot assortimentining o'zgarishidagi xavf-xatarni oldindan ko'ra bilish qobiliyatini shakllantirishini amalga oshirishi zarur.

Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish jarayonining tahlilida faoliyatning bir maromda borishi muhim ahamiyatga ega. Negaki, mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish jarayonining bir maromda olib borilmasligi, tuzilgan shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilmasligini, natijada xo'jalik yurituvchi subyekti tomonidan qarshi tomonga turli xil jarimalar to'lanishiga, shuningdek, tovarlar sifatining buzilishi hisobiga pul tushimining kamayishi, tannarxning ortishi, muhim sifat ko'rsatkichlari (foyda, rentabellik va h.k.)ning pasayishi kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Shu boisdan ham xo'jalik yurituvchi subyektlari mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish maromiyligini har 10 kunlikda (dekadalarda), oyda, chorakda tahlil etib boradi (22-jadval).

Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish maromiyligining tahlilida ham xuddi mahsulot (ish, xizmat)lar assortimentining tahlili singari maromiylik koeffitsiyenti ( $x_m$ ) aniqlanadi.

22-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektida mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish maromiyligi tahlili

(ming so'm hisobida)

O'n kunliklar	Hisobot yili		Maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi	Mahsulot (ish, xizmat)larning tutgan ulushi	
	biznes rejada	haqiqatda		biznes rejada	haqiqatda
I - o'n kunlik	78	86	78	32,5	32,3
II - o'n kunlik	90	86	86	37,5	32,3
III - o'n kunlik	72	90	72	30,0	35,4
<b>Jami</b>	<b>240</b>	<b>262</b>	<b>236</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

Hisob-kitoblar:

$$x_m = \frac{\text{Maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot(ish, xizmat) hajmi}}{\text{Biznes reja bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot(ish, xizmat) hajmi}} = \frac{236}{240} = 0,983;$$

Jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektida mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish maromiyligi 0,983 koeffitsiyentni tashkil etgan.

Xo'jalik yurituvchi subyekt biznes reja bo'yicha, I-II-III o'n kunliklarda mos ravishda 32,5; 37,5; 30 foiz nisbatda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni belgilagan. Ammo haqiqatda 32,3; 32,3; 35,4 foiz nisbatda bajarilgan. Tahlil natijalariga ko'ra o'n kunliklarda mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish rejasi haqiqatdagisi bilan qiyoslaganda ma'lum tafovutlarni kuzatish mumkin. Bu tafovutlar mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish maromiyligining buzilishi sanalib, xo'jalik yurituvchi subyekt har bir o'n kunlikdagi farqni navbatdagi dekada (o'n kunlik)da bajarishi zarur. Xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati yuzasidan qo'shimcha majburiyatning bajarilishi mahsulot (ish, xizmat)lar sifatini buzilishiga olib keladi va natijada uning tannarxi ortishi, pul tushumining kamayishi, foydaning pasayishi yuzaga keladi. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi subyekt mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish jarayonini bir maromda olib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xo'jaliuk yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish jarayonidagi asosiy muammosi ko'proq ularni sotish bilan bog'liq. Shu o'rinda mahsulot (ish, xizmat)lar sotilganda daromadning quyidagi ikki xil tan olinishini qayd etish kerak:

- kassali usulda;
- hisoblashish usulida.

Kassali usulda daromadlar xo'jalik yurituvchi subyektning hisob raqamiga puli kelib tushgandan so'ngina tan olinadi. Hisoblashish usulida daromadlar mahsulot (ish, xizmat)lar ortib jo'natilishi bilan tan olinadi.

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelgan daromadlar hajmining ko'p yoki kam bo'lishida bir qator omillar ta'sir etib, bular tovar balansini tuzish orqali aniqlanadi.

Tovar balansini quyidagicha aniqlanadi va tahlil etiladi (23-jadval):

$$Y_b + T = S + Y_o$$

Bunda:

$Y_b$  – tayyor mahsulot (ish, xizmat)ning yil boshiga qoldig'i;

$T$  – ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti;

$S$  – sotilgan mahsulot hajmi;

$Y_o$  – tayyor mahsulot (ish, xizmat)ning yil oxiridagi qoldig'i.

Yuqoridagi formulaga asosan, sotilgan mahsulot hajmi ( $S$ ) quyidagicha aniqlanadi:



$$S = Y_b + T - Y_o;$$

Demak, tayyor mahsulot (ish, xizmat)larning yil boshiga qoldig'i ( $Y_b$ ) hamda ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti (T)ning qiymati qanchalik ko'p bo'lsa, ularni sotish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha.

Tayyor mahsulot (ish, xizmat)ning yil oxiridagi qiymati qanchalik ko'p bo'lsa, ularni sotish hajmi shu miqdorga kam bo'ladi va aksincha.

23-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyektda mahsulot (ish, xizmat)lar sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili**

(ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Hisobot yili		Farqi (+;-)	Sotish hajmiga ta'siri
		biznes reja	haqiqatda		
1. Tayyor mahsulot (ish, xizmat)ning yil boshiga qoldig'i	$Y_b$	10	22	+12	+12
2. Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti	T	840	912	+72	+72
jami (1 satr+2 satr)		850	934	+84	
3. Sotilgan mahsulot	S	700	900	+200	X
4. Tayyor mahsulot (ish, xizmat)ning yil oxiriga qoldig'i	$Y_o$	150	34	-116	+116
jami (3 satr+4 satr)		850	934	+84	

23-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektning hisobot yilida sotgan mahsuloti rejalashtirilganiga nisbatdan 200 (900-700) ming so'mga ko'p bo'lgan. Bu natijaga omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan:

$$S = Y_b + T - Y_o = 12 + 72 - (-116) = 200;$$

- tayyor mahsulot (ish, xizmat)lar qoldig'ining rejalashtirilganidan 12 (22-10) ming so'mga ko'pligi sotish hajmiga ijobiy ta'sir etib, shu miqdorga oshirgan;

- ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining rejalashtirilganidan 72 (912-850) ming so'm ortiqligi, sotish hajmiga ijobiy ta'sir etib, shu miqdorga oshirgan;

- tayyor mahsulot (ish, xizmat)lar qoldig'ining yil oxiridagi qoldig'i rejalashtirilganidan 116 ming so'mga kam bo'lganligi ham sotish hajmiga ijobiy ta'sir etib, 116 ming so'mga ortirgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyekt hisobot yilida ko'proq mahsulot (ish, xizmat)lar sotgan bo'lib, mazkur yo'nalishda ijobiy natijalarga erishganligini qayd etish zarur.

Xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish jarayoni tahlilida yana bir jihatga e'tibor qaratilishi va o'rganilishi zarur. Bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)lar sifati hisoblanadi. Mahsulot (ish, xizmat)lar sifati, deganda uning tovarlilik darajasi, mamlakat va xalqaro standart me'yorlariga egaligiga aytiladi.

Odatda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar sifatiga bahoni xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi yoki mamlakatda sifatni belgilovchi tashkilotlar belgilaydi. Shu boisdan, ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar sifatini uning tarkibida oliy navlisini, eksportga yo'naltirilayotgan qismi va boshqalarning tutgan salmog'iga ko'ra ham baholash mumkin.

24-jadval

### Xo'jalik subyektida mahsulot (ish, xizmat) sifati tahlili

Ko'rsatkichlar	Mahsulot (ish, xizmat) bir birligining bahosi, so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi, shartli natura o'lchov birligida		Biznes reja-ning bajarilishi	Jami mahsulot (ish, xizmat) dagi ulushi, foiz		Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar qiymati, ming so'm	
		biznes reja	haqiqatda		biznes reja	haqiqatda	biznes reja	haqiqatda
Oliy navli olma sharbati	2800	80	95	118,8	80,0	79,2	224	266
Birinchi navli olma sharbati	2600	20	25	125,0	20,0	20,8	52	65
<b>Jami</b>	<b>X</b>	<b>100</b>	<b>120</b>	<b>120,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>276</b>	<b>331</b>

Mahsulot (ish, xizmat)lar sifati xo'jalik yurituvchi subyektning yuqori daromad olishining asosiy manbayi hisoblanib, uni quyidagi ko'rsatkichlarni o'rganish orqali tahlil etiladi:

1. O'rtacha nav (sort)lilik darajasi ( $S_d$ )

$$S_d = \frac{\text{Jami ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymati}}{\text{Jami mahsulotlar xajmi} * \text{Oliy navli mahsulot bir - birligining bahosi}}$$

2. Mahsulot (ish, xizmat)lar bir birligini o'rtacha sotish bahosi -  $D_r$  (24-jadval).

$$D_r = \frac{\text{Jami ishlab chiqarilgan mahsulot(ish, xizmat) qiymati}}{\text{Jami ishlab chiqarilgan mahsulot(ish, xizmat) xajmi shartli naturada}}$$

Hisob-kitoblar:

1. O'rtacha nav (sort)lilik darajasi:

$$S_d^0 = \frac{276}{100 \cdot 2800} = \frac{276}{280} = 98,6; \quad S_d^1 = \frac{331}{120 \cdot 2800} = \frac{331}{336} = 98,5$$

2. Mahsulot (ish, xizmat)lar bir birligini o'rtacha sotish bahosi:

$$D_r^0 = \frac{276}{100} = 2760; \quad D_r^1 = \frac{331}{120} = 2758$$

24-jadval ma'lumotlarga binoan xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)ini o'rtacha sortlilik darajasi hisobot davrida 98,5 koeffitsiyentni tashkil etib, bu rejalashtirilganidan 0,1 (98,5-98,6) birlikka kam. Mahsulot (ish, xizmat)lar bir birligini o'rtacha sotish bahosi ham 2 (2758-2760) so'mga pasaygan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra xo'jalik subyektining hisobot davrida ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmat)larining sifati ma'lum darajaga pasaygan. Bunday o'zgarish uning faoliyatidagi salbiy vaziyat hisoblanmasada, bizningcha, istiqbolda ushbu holatni inobatga olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa tarzida shuni ta'kidlash kerakki, xo'jalik yurituvchi subyekt mahsulot (ish, xizmat) sifatiga ta'sir etuvchi: foydalanilayotgan xomashyo va materiallar sifati; ishchilarning malakasi va texnik tayyorgarlik darajasi; ishlab chiqarishda ishtirok etadigan texnika va texnologiyalarning holati; ishchi hamda xodimlarning mahsulot (ish, xizmat) sifatiga javobgarligi hamda ularning moddiy rag'batlantirilishi va boshqa omillarni ham nazorat etish zarur.

## 5.2. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ularning unumdorligi tahlili

Mehnat resurslari mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishning muhim omili sanaladi. Hatto, fan-texnikasi rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishida ham inson omilining ishtiroki zarur. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi subyektida mehnat resurslarining tahlili olib borilib, ular yuzasidan samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning xodimlar bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini omilli o'rganish, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishiga baho berish hamda boy berilgan imkoniyatlar yuzasidan tavsiyalar tayyorlash tahlilning maqsadi hisoblanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektda mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi tahlilining vazifalari bo'lib quyidagilar sanaladi:

- mehnat resurslari bilan ta'minlanganligiga baho berish;
- ish vaqtidan foydalanish jarayonini tahlil etish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini omilli o'rganish;
- xodimlar qo'nimsizligiga baho berish;
- mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmiga mehnat omillarining ta'sirini aniqlash;
- mehnat resurslari tahlili bo'yicha mavjud va boy berilgan imkoniyatlarni aniqlab, takliflar tayyorlash.

Xo'jalik yurituvchi subyektning mehnat resurslarini tahlilida axborot manbalari bo'lib, biznes reja ma'lumotlari, «Mehnat hisoboti» va boshqalar hisoblanadi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish rejasining bajarilishi ko'p jihatdan xo'jalik yurituvchi subyektning ish kuchi bilan ta'minlanishi bilan bog'liq. Shu bois, xo'jalik yurituvchi subyekti mehnat resurslarini ishlab chiqarishdagi roliga ko'ra tarkiblab, ular bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganadi.

Mehnat resurslari ishlab chiqarishdagi roliga qarab quyidagicha tarkibga bo'linadi va tahlil etiladi:

- ishchilar;
- xizmatchilar;
- rahbarlar;
- mutaxassislar va boshqalar.

Xo'jalik yurituvchi subyektning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligiga baho berishda ularning harakati va qo'nimsizligi tahlil etiladi.

Mehnat resurslarining harakati ishga qabul qilish ( $I_k$ ) va ishdan bo'shash oboroti ( $I_b$ )ni aniqlash bilan tahlil etiladi. Odatda, mehnat resurslari o'z arizalariga binoan ishga qabul qilinib, ularning ishdan bo'shatilishi ham o'z arizalariga ko'ra intizomni buzganligi, nafaqaga, homiladorlik ta'tiliga chiqqanligi, o'qishga ketganligi uchun amalga oshiriladi va quyidagicha aniqlanadi:

- ishga qabul qilish oboroti

$$I_t = \frac{\text{Ishga qabul qilinganlar}}{\text{Xodimlarning o'rtacha yillik soni}} * 100;$$

- ishdan bo'shash oboroti.

$$I_b = \frac{\text{O'z arizasiga, int izomni buzgani, nafaqaga, xomiladorlik ta'tiliga chiqqanlar...}}{\text{Xodimlarni o'rtacha yillik soni}} * 100.$$

Shu o'rinda mehnat resurslarining qo'nimsizlik koeffitsiyenti (Kk) aniqlanib, bu ko'rsatkich ishdan bo'shash oborotidan koeffitsiyentda aniqlanganligi hamda formulaning suratida faqatgina o'z arizalariga ko'ra intizomni buzgani uchun ketgan xodimlar soni aks ettiriladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$K_t = \frac{\text{O'z arizasiga ko'ra ketganlar} + \text{int izomni buzganligi uchun ketganlar}}{\text{Xodimlarni o'rtacha yillik soni}}$$

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning yillar bo'yicha dinamik o'zgarishi omilli tahlil etilib, ular yuzasidan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi (25-jadval).

25-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xodimlar harakati va qo'nimsizligi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+, -)
1. Xodimlarning o'rtacha yillik soni, kishi	38	38	+1
2. Ishga qabul qilinganlar soni, kishi	3	4	+1
3. Ishdan bo'shatilganlar soni, kishi	4	5	+1
Shu jumladan:			
a) o'z arizasiga ko'ra	1	2	+1
b) intizomni buzganligi uchun	1	1	0
v) o'qishga kirganligi, nafaqaga, xomiladorlik ta'tiliga chiqqanligi va boshqa shu kabi sabablarga ko'ra ishdan ketganlar	2	2	0
4. Ishga qabul qilish oboroti, % ((2/1)*100)	7,9	10,5	+2,6
5. Ishdan bo'shatish oboroti, % ((3/1)*100)	10,5	13,2	+2,7
6. Qo'nimsizlik koeffitsiyenti, ((3a+3b)/1)	0,05	0,08	+0,03

Jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektining ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish oborotlari mos ravishda 10,5 va 13,2 foizlarni tashkil etib, bu ko'rsatkichlar o'tgan yilga nisbatdan

2,6 hamda 2,7 birliklarga ko'p. Shuningdek, joriy yilda xodimlarning qo'nimsizligi 0,08 koeffitsiyentni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatdan 0,03 (0,08-0,05) koeffitsiyentga ko'p bo'lgan. Yuqoridagi natijalar, xo'jalik yurituvchi subyekt uchun salbiy holat hisoblanib, bu ko'rsatkichlar unda mehnatni tashkil etish, rag'batlantirish tizimining talab darajasida emasligini, shuningdek, mehnat intizomining pastligini ifodalaydi. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi subyekt mehnatni tashkil etish, rag'batlantirish hamda mehnat intizomiga rioya etish yuzasidan ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining ko'p yoki kam bo'lishi ishni tashkil etish va mehnat resurslarining ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlariga ham bog'liq. Mehnat resurslarining ish vaqti fondi, ya'ni ularning yil davomida ishlagan kishi-kunlari ( $K_k$ ) va kishi-soatlari ( $K_s$ ) ko'rinishida tegishli hisobotlarda ifodalanadi. Shuning uchun ish vaqtidan foydalanishni tahlil etishda yuqoridagi ko'rsatkichlarning biznes reja va haqiqatdagi ma'lumotlari taqqoslanib, o'zgarish sabablari omilli tahlil etiladi.

$K_k = \text{Jami xodimlar soni} * \text{bir xodimning yil davomida ishlagan kuni}$

$K_s = \text{Jami xodimlar soni} * \text{bir xodimning yil davomida ishlagan kuni} * \text{ish kuni davomiyligi}$

Mavzuni o'rganish jarayonida har bir xodimning yil davomida ishlagan kunlari ( $I_k$ ) va ish kuni davomiyligi ( $D$ ) kabi ko'rsatkichlari ham omilli o'rganiladi.

$$I_k = \frac{K_k}{\text{Jami xodimlar soni}}; \quad D = \frac{K_s}{K_k}$$

Yuqoridagi formulalarga binoan, ish vaqti fondi ko'rsatkichlariga xodimlar soni, bir xodimning yil davomida ishlagan kuni va ish kuni davomiyligi kabi omillarning o'zgarishi ta'sir etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mehnat resurslarini tahlilida, ulardan qay darajada samarali foydalanilganiga ham baho berilishi zarur. Negaki, mehnat resurslaridan samarali foydalanmaslik ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxining sun'iy ortishiga sabab bo'ladi.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mehnat unumdorligi;
- mehnat sig'imi.

Mehnat unumdorligi ( $M_u$ ) vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmiga aytilib, quyidagicha aniqlanadi:

$$M_u = \frac{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) xajmi, min g so'm}}{\text{Xodimlar soni, kishi yoki jami kishi - kuni, kishi - soatlari}};$$

Yuqoridagi ko'rsatkichni mehnat resurslarining ish vaqti fondlari, ya'ni jami kishi-kunlari va kishi-soatlariga bog'lab, bir kunlik yoki bir soatlik mehnat unumdorliklarini ham aniqlash mumkin. Shu boisdan, mehnat unumdorligiga xodimlar soni, ish kuni davomiyligi, bir xodim tomonidan ishlangan kunlar, ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining o'zgarishi ta'sir etadi.

Mehnat sig'imi ( $M_s$ ) bir so'mlik mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqtni bildirib, quyidagicha aniqlanadi:

$$M_s = \frac{\text{Mehnat resurslarining ish vaqti fondi, jami kishi - kuni yoki kishi - soatlari}}{\text{Mahsulot (ish, xizmat) xajmi, min g so'm}};$$

Mazkur ko'rsatkichlar asosida mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari omilli tahlil etiladi (26-jadval).

26-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektda mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil		Farqi (+,-)	
		biznes rejada	haqiqatda	o'tgan yildan	biznes rejadan
1. Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi, ming so'm	177000	197000	201000	+24000	+4000
2. Xodimlar soni, kishi	38	36	38	0	+2
3. Shu jumladan: ishchilar soni, kishi	17	18	19	+2	+1
4. Mehnat resurslarining yil davomida ishlagan jami kishi-kunlari, ming kishi-kuni	9,9	10,1	11,2	+1,3	+1,1
5. Mehnat resurslarining yil davomida ishlagan jami kishi-soatlari, ming kishi-soat	69,9	77,6	80,9	+11,0	+3,3
6. Bir xodimning yil davomida ishlagan kunlari	260	280	296	+36	+16
7. Ish kuni davomiyligi, soat	7,1	7,7	7,2	+0,1	-0,5
8. Ishchilar sonini xodimlar tarkibida tutgan salmog'i, %	44,7	50,0	50,0	+5,3	0,0
8. Bir xodimning mehnat unumdorligi, ming so'm (1\2)	4658	5472	5289	+631	-183
9. Bir ishchining mehnat unumdorligi, ming so'm (1\3)	10411	10944	10578	+167	-366
10. Mehnat resurslarining bir kunlik ish unumi, ming so'm (1\4)	17878	19504	17946	+68	-1558
11. Mehnat resurslarining bir soatlik ish unumi, ming so'm (1\5)	2532	2538	2484	-48	-54

26-jadval ma'lumotlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektning mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining holati va dinamik o'zgarishiga baho berilgan.

Tahlilarga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning hisobot davridagi mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari o'tgan yilga nisbatdan ortgan. Xususan:

Bir xodimning mehnat unumdorligi 631 (5289-4658) ming so'mga ortgan bo'lib, natijaga mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining +24000 (201000-177000) ming so'mga ortishi ijobiy ta'sir etgan. Mehnat unumdorligini aniqlashda foydalanilgan xodimlar soni hisobot yilida 38 nafarni tashkil etib, bu ko'rsatkichning o'tgan yilgi ma'lumotdan farqlanmaganligi bois uning ta'sir doirasi bo'lmagan. Hisobot yilida mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining o'tgan yilga nisbatdan o'zgarishini zanjirli o'rin almashtirish usulidan foydalangan holda hisoblab, ularning ta'sir doirasi aniqlanadi.

Jadval ma'lumotidan hisobot yilidagi mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining rejalashtirilganiga nisbatdan biroz pasayish kuzatilgan. Ularning pasayishiga ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining 4000 (201000-197000) ming so'mga ortishi biroz ijobiy ta'sir etgan bo'lsada, boshqa omillar, xususan xodimlar sonining 2 nafarga ortishi; mehnat resurslarining yil davomida ishlagan jami kishi-kunlarining 1,1 ming kishi-kuniga, jami kishi-soatlarining 3,3 ming birlikka ortishi salbiy ta'sir etgan.

Jumladan, bir xodimning mehnat unumdorligi ( $X_{mu}$ ) hisobot yilida biznes rejaga nisbatdan 183 (5289-5472) ming so'mga kamaygan bo'lib, uning o'zgarishida bir ishchining va xodimlar tarkibida ishchilar salmog'ining o'zgarishi ham ta'sir etgan. Shundan kelib chiqib, xodimlarning mehnat unumdorligini quyidagicha ifodalab, zanjirli o'rin almashtirish usulida baho beriladi:

$X_{mu} = X_{o}$  dimlar tarkibida ishchilarning tutgan salmog'i \* Ishchining mehnat unumdorligi

26-jadvalga binoan, biznes reja va haqiqatda xodimlar tarkibida ishchilarning tutgan salmog'i 50,0 ( (18/36)\*100; (19/38)\*100) foizni tashkil etgan bo'lib, nisbiy ko'rsatkichlar o'zgarmagan. Shu boisdan ham xodimlarning mehnat unumdorligini rejalashtirilganidan 183 ming so'mga kam bo'lishida uning ta'siri bo'lmagan.

Ishchilarning mehnat unumdorligi esa, hisobot davrida 10578 ming so'mni tashkil etib, bu rejalashtirilganidan 366 (10578-10944)



ming soʻmga kam boʻlgan. Natijada ishchilarning mehnat unumdorligining pasayishi hisobiga xoʻjalik yurituvchi subyekti xodimining mehnat unumdorligi ( $X_{mu}^{im}$ ) 183 ming soʻmga kam boʻlgan.

$$X_{mu}^{im} = X_{o\ dim\ lar\ tarkibida\ ishchilarning\ tutgan\ salmog'i^1} * \frac{Ishchining\ mehnat\ unumdorligi^f}{100}$$

$$X_{mu}^{im} = (50 * (-366)) / 100 = -183;$$

Bu yerda,

- xodimlar tarkibida ishchilarning tutgan salmogʻi<sup>1</sup> - uning hisobot davri maʼlumoti;

- Ishchining mehnat unumdorligi<sup>f</sup>-uning farq miqdori.

Yuqoridagi hisob-kitoblar asosida mehnat resurslaridan samarali foydalanish koʻrsatkichlarining omilli tahlili olib boriladi va xoʻjalik yurituvchi subyekt boshqaruvchisi uchun takliflar tayyorlanadi.

Demak, xoʻjalik yurituvchi subyektning mehnat resurslarining ish vaqti fondini oshirishi samarasiz boʻlgan. Negaki, mehnat resurslarining ish vaqti fondini oshirishiga mos ravishda mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi ortmagan. Shu boisdan, xoʻjalik yurituvchi subyektning keyingi faoliyatlarida mehnat resurslarining ish vaqti fondini qisqartirish yuzasidan tegishli ishlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi jadval va uning tahliliga binoan mehnat resurslaridan samarali foydalanish koʻrsatkichlari tarkibida ishchilarning, yaʼni mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchilarning mehnat unumdorligi, soni muhim oʻrin tutib, barcha sifat koʻrsatkichlarining oʻzgarishiga taʼsir etmoqda. Shu boisdan ham xoʻjalik yurituvchi subyektning ishchilarini mehnat unumdorligiga omilli baho berish (19-jadval), mavjud imkoniyatlarini yuzaga chiqarish zarur boʻladi.

Odatda bir ishchining mehnat unumdorligi ( $X_{mu}^i$ ) quyidagicha ifodalanib, qator omillar taʼsir etadi:

$$X_{mu}^i = I_k * I_d * X_s ;$$

- bir ishchining yil davomida ishlagan kunlarining oʻzgarishi ( $I_k$ );

- ish kuni davomiyligining oʻzgarishi ( $I_d$ );

- ishchining bir soatlik mehnat unumining oʻzgarishi ( $X_s$ ).

Yuqoridagi fikrlar asosida bir ishchining mehnat unumdorligi omilli tahlil etiladi (27-jadval).

27-jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, xoʻjalik yurituvchi subyekt ishchilarning mehnat unumdorligi hisobot yilida

rejalashtirilganidan 366 ming so'mga kamaygan va bu uning uchun ijobiy holat emas.

27-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyektida bir ishchi mehnat unumdorligining omilli tahlili**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil		Farqi (+,-)	
		biznes rejada	haqiqatda	o'tgan yildan	biznes rejadan
1. Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi, ming so'm	177000	197000	201000	+24000	+4000
2. Ishchilarning jami ishlagan kishi-kunlari, ming kishi-kuni	4,9	5,4	5,7	+0,8	+0,3
3. Ishchilarning jami ishlagan kishi-soatlari, ming kishi-soat	35,9	40,5	44,0	+8,1	+3,5
4. Ishchilarni ro'yxat bo'yicha soni, kishi	17	18	19	+2	+1
5. Hisob-kitoblar:					
5.1. Bir ishchining mehnat unumdorligi, ming so'm (1/4)	10411	10944	10578	+167	-366
5.2. Bir ishchining yil davomida ishlagan kunlari, kishi-kuni (2/4)	290	300	301	+11	+1
5.3. Ish kuni davomiyligi, soat (3/2)	7,3	7,5	7,7	+0,4	+0,2
5.4. Ishchining 1 soatlik ish unumi, so'm (1/3)	4930	4864	4568	-362	-296
6. Bir ishchining mehnat unumdorligini biznes rejaga nisbatdan o'zgarishi, ming so'm:	x	x	x	x	-366
6.1. Ish kunlarining o'zgarishi hisobiga, ming so'm.	$(1*7,5*4864)/1000=36$				+36
6.2. Ish kuni davomiyligining o'zgarishi hisobiga, ming so'm	$(0,2*301*4864)/1000=293$				+293
6.3. Bir soatlik ish unumining o'zgarishi hisobiga, ming so'm	$(-296*7,7*301)/1000=-686$				-686
7. Uch omilning yig'indisi	$36+293+ (-686)=-357=-366$				

Xo'jalik yurituvchi subyekt ishchilari mehnat unumdorligining 366 ming so'mga kamayishida omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan:

- ish kunlarining 1 (301-300) kunga ko'payishi hisobiga xo'jalik yurituvchi subyekt ishchilarining mehnat unumdorligi 36 ming so'mga ortgan;

- ish kuni davomiyligining 0,2 soatga ko'payishi hisobiga xo'jalik yurituvchi subyekt ishchilarining mehnat unumdorligi 293 ming so'mga ko'paygan;

- bir soatlik ish unumining 296 so'mga kamayganligi esa, xo'jalik yurituvchi subyekt ishchilarining mehnat unumdorligini 686 ming so'mga pasaytirgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga binoan xo'jalik yurituvchi subyekt ishchilarining mehnat unumdorligini 686 ming so'mga oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, buning uchun ishchilarning bir soatlik unumini rejalashtirilgan miqdorda bajarilishini ta'minlash talab etiladi.

Buning uchun mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish jarayonida ishchilarning bo'sh qolishlari, texnika vositalarini ishlashi uchun to'sqinlik qilayotgan (elektr energiyasini bo'lmasligi, texnikalarning vaqtida ta'mirlanishi va boshqalar) omillarni bartaraf etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining o'zgarishi xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining ko'p yoki kam bo'lishiga ham bog'liq. Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi esa, uning tegishli struktura va assortimentda ishlab chiqarilishiga ham bog'liq bo'ladi. Shu boisdan, mahsulot (ish, xizmat)larning struktura va assortimenti o'zgarishini mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish, mehnat sig'imi orqali amalga oshiriladi. Negaki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi strukturaviy, ya'ni kam mehnat vaqti talab qiluvchi, ko'p daromad keltiruvchi tovar turlari hisobiga o'zgaradi.

Mehnat unumdorligi ( $M_u$ ) va mehnat sig'imi ( $M_s$ ) bog'liqligini inobatga olib, foiz hisobida quyidagi ifodani keltirish mumkin:

$$M_u = \frac{100 * M_s}{100 - M_s};$$

Ushbu formulaga binoan, mehnat sig'imi  $M_s = \frac{100 * M_u}{100 + M_u}$  ko'rinishida ifodalanadi.

27-jadval ma'lumotlariga binoan bir ishchining mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun sarflagan vaqti reja bo'yicha 40,5 ming kishi-soatni, haqiqatda 44,0 ming kishi-soatni tashkil etgan. Natijada bir ishchining mahsulot uchun sarflagan vaqti haqiqatda rejalashtirganidan 3,5 ming kishi-soatga ortgan bo'lib, o'sish surati 108,6 ( (44,0/40,5)\*100) foizni tashkil etgan.

Demak, mehnat sig'ining 8,6 foizga ortishi, mehnat unumdorligini  $M_u = \frac{100 * 8,6}{100 - 8,6} = 9,4$  foizga kamaytirgan.

Mehnat unumdorligining mehnat sig'imiga ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$M_s = \frac{100 * 9,4}{100 + 9,4} = 8,6;$$

Xulosa tarzida mehnat resurslaridan samarali foydalanib, intensiv usulda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Negaki, mehnat resurslari sonini oshirib, ekstensiv usulda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish maqsadga muvofiq bo'lmay, qo'shimcha xarajatlarni talab etadi.

Mehnat resurslarining mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hajmiga ta'siri quyidagicha tahlil etiladi (28-jadval).

28-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmiga mehnat resurslarining ta'siri tablili**

Ko'rsatkichlar	Biznes rejaning bajarilishi, %	Foizlarning farqi, (+, -)	Hisob-kitoblar	Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmiga ta'siri
1. Ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga	105,6	+5,6 (105,6-100,0)	(197000 * 5,6)/100= +11032	Ishchilar sonini o'zgarishi hisobiga
2. Jami ishlangan kishi-kunlarining o'zgarishi hisobiga	105,6	0,0 (105,6-105,6)	(197000*0,0)/100=0,0	Ish kunlarini o'zgarishi hisobiga
3. Jami ishlangan kishi-soatlarining o'zgarishi hisobiga	108,6	+3,0 (108,6-105,6)	(197000 * 3,0)/100= +5910	Ish kuni davomiy-ligining uzayishi hisobiga
4. Mahsulot hajmining o'zgarishi	102,0	-6,6 (102,0-108,6)	(197000 * (-6,6)) / 100 = -13002	1 soatlik ish unumining o'zgarishi hisobiga
<b>Jami</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>3940,0=4000,0</b>	<b>x</b>

Jadval ma'lumotlariga ko'ra o'rganilayotgan davrda xo'jalik yurituvchi subyektda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi rejalashtirilganidan 4000 (201000-197000) ming so'mga ko'p bo'lgan.

Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining biznes rejaga nisbatan 4000 ming soʻmga koʻp boʻlishida mehnat omillarining taʼsiri quyidagicha boʻlgan:

- ishchilar sonining 1 (19-18) nafarga koʻp boʻlishi hisobiga 11032 ming soʻmlik mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarilgan;

- jami ishlangan kishi-kunlarining oʻsishi 105,6 foiz boʻlganligi bois uning oldingi koʻrsatkichdan farqi 0 deb topildi. Shuning uchun ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmiga ishlangan kishi-kunlarining taʼsiri boʻlmagan;

- ish kuni davomiyligining uzayishi 108,6 foizni tashkil etib, bu oʻzgarish mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining 5910 ming soʻmga koʻpaytirgan;

- bir soatlik ish unumining -296 soʻmga kamayishi hisobiga rejalashtirilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmidan 13002 ming soʻmlik yoʻqotish boʻlgan va bu xoʻjalik yurituvchi subyekt uchun boy berilgan imkoniyat, deb hisoblanishi zarur.

Yuqoridagi maʼlumotlarga binoan xoʻjalik yurituvchi subyekt ishchilarning bir soatlik unumini biznes reja maʼlumotlariga moslashtirishi zarur. Buning natijada, xoʻjalik yurituvchi subyekt mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini qoʻshimcha 13002 ming soʻmga oshirgan holda umumiy oʻsishni 17002 (4000+13002) ming soʻmga keltirishi maqsadga muvofiq boʻlar edi.

### **5.3. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish koʻrsatkichlarining omilli tahlili**

Asosiy vositalar xoʻjalik yurituvchi subyektlar tomonidan uzoq muddat davomida faoliyatini yuritishda, xususan, mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish yoki maʼmuriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan moddiy aktivlar hisoblanadi. Asosiy vositalar bilan taʼminlanganlik hamda ulardan samarali foydalanish koʻrsatkichlariga baho berilayotganda tahlilchidan quyidagi iqtisodiy atamalarni bilishi talab etiladi:

- amortizatsiyalanadigan qiymat - moliyaviy hisobotlarda faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda koʻrsatilgan aktivning boshlangʻich (tiklash) summasini bildiradi;

- amortizatsiya - foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga yoki davr

xarajatlariga muntazam taqsimlash va o'tkazish ko'rinishidagi eskirishning qiymat ifodasi;

- foydali xizmat muddati — xo'jalik yurituvchi subyektning aktivdan foydalanadigan vaqt davri yoki ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallayotgan mahsulot (ish, xizmat)lar miqdori;

- boshlang'ich qiymat - to'langan va qoplanmaydigan soliqlarni (yig'implarni), shuningdek, aktivni undan mo'ljal bo'yicha foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo'yicha haqiqatda qilingan xarajatlarning qiymati;

- joriy qiymat - ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa;

- qoldiq (balans) qiymat - jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati;

- tugatish qiymati - asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi.

Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

- bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;

- bir birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lgan buyumlar.

Xo'jalik yurituvchi subyektining rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashga haqli.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'iy nazar, quyidagilar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi:

a) maxsus asboblardan va moslamalardan (muayyan buyumlarni turkumlab va yoppasiga ishlab chiqarish uchun yoki yakka tartibdagi buyurtmalarni tayyorlash uchun mo'ljallangan, maqsadli yo'naltirilgan asboblardan hamda moslamalardan);

b) maxsus va sanitariya kiyim-kechaklari, maxsus poyabzallar;

- v) ko'rupa-to'shak anjomlari;
- g) yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblar va boshqalar);
- d) oshxona anjomlari, shuningdek, oshxona uchun dasturxon-sochiqlar;
- e) tiklanishi bo'yicha xarajatlar qurilish-montaj ishlari tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (notitul inshootlar) moslamalar va qurilmalar;
- j) kamida bir yillik foydalanish muddatiga ega bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;
- z) ov qurollari (to'rlar, qarmoqlar, matraplar, merejalar va boshqalar).

Asosiy vositalar tarkibida qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyekt mulkiga o'tkazilgan yer uchastkalari ham hisobga olinadi.

Ko'p yillik ko'chatlarga, erni tubdan yaxshilashga, ijaraga olingan asosiy vositalar obyektlariga kapital qo'yilmalar har yili butun ishlar majmuasi yakunlangan sanadan qat'i nazar, hisobot yilida foydalanishga qabul qilingan asosiy vositalarga tegishli xarajatlar summasida asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi<sup>10</sup>.

Tahlilda asosiy vositalarning har bir tarkibi, turi bo'yicha o'zgarishlariga baho berilib, ular bilan ta'minlanganligi, holati, harakati, samaradorligi o'rganiladi. Negaki, bu ko'rsatkichlarning ijobiy natijasi hisobiga xo'jalik yurituvchi subyektini samarali faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shuning uchun ham xo'jalik yurituvchi subyektlarini asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, ularning texnik holati va harakati, samarali foydalanish darajasiga omilli baho berish tahlilning maqsadi hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi hamda ulardan foydalanish samaradorligi tahlilining vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarining asosiy vosita turlari bilan yetarli darajada ta'minlanganlik holatiga baho berish;
- asosiy vositalarning texnik holatini o'rganish;
- asosiy vositalarning harakatini o'rganish va baholash;

---

<sup>10</sup> O'zR AV tomonidan 20.01.2004- y. 1299-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, Moliya vazirining 09.10.2003- y. 114-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 5-sonli BXMS «Asosiy vositalar».

- asosiy vositalardan samarali foydalanlikni tahlil etish;  
- xodimlarning asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasiga baho berish;

- tahlil natijalariga ko'ra takliflar tayyorlash va boshqalar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi hamda ulardan foydalanish samaradorligi tahlilida «Buxgalteriya balansi»ga moliyaviy hisobot shakli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy vositalar ma'lum bir xususiyatlari bo'yicha turlarga ajratilib, ular asosida tahlilni tashkil etish uzoq muddatli aktivlar yuzasidan samaraliroq qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli asosiy vositalarni quyidagi belgilari bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Asosiy vositalarni xo'jalik yurituvchi subyektining ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga qarab: aktiv va passiv asosiy vositalarga ajratish mumkin.

2. Asosiy vositalarni ma'lum tarmoqlarga bo'ysunuviga ko'ra: sanoat ishlab chiqarish; - boshqa tarmoq; - noishlab chiqarish asosiy vositalariga bo'linadi.

3. Asosiy vositalarning foydalanish jarayonidagi qatnashuviga qarab: foydalanishdagi; foydalanishdan olib qo'yilgan (konservatsiya qilingan) asosiy vositalarga ajratiladi.

4. Asosiy vositalarning turlari bo'yicha:

- yer;
- binolar;
- inshootlar;
- uzatish moslamalari;
- hisoblash texnikasi va kompyuterlar;
- mashina va uskunalar;
- transport vositalari;
- asbob-uskunalar;
- xo'jalik jihozlari;
- ishlab chiqarish inventarlari;
- ishchi va mahsuldor hayvonlar;
- ko'p yillik ekinlar va boshqa asosiy vositalar.

5. Mulkiy egaligiga qarab: - o'ziga tegishli; ijaraga olingan asosiy vositalarga bo'linadi.

Hozirda xo'jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalarning barcha turlarini kerakli nisbatda va tarkibda bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq sanaladi. Sababi sanoat ishlab chiqarishida ham,



yordamchi tarmoqlarda ham yoki ijtimoiy-maishiy sohalarda ham asosiy vositalar kerakli xizmatlarni bajaradi. (29-jadval).

29-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyekting asosiy vosita turlari bo'yicha ta'minlanganligi tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		Yil boshiga nisbatan o'zgarishi	
		ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%
1	Bino	70293	20,4	70293	19,2	-	-
2	Inshoot	14 020	4,1	14020	3,8	-	-
3	Uzatish moslamalari	864	0,3	864	0,2	-	-
4	Mashina va jihozlari	148927	43,2	171736	46,9	+22809	+6,6
5	Transport vositalari	92 718	26,9	91027	24,9	-1 691	-0,5
6	Inventarlar	17 883	5,2	17883	4,9	-	-
<b>Jami asosiy vositalar</b>		<b>344705</b>	<b>100,0</b>	<b>365823</b>	<b>100,0</b>	<b>+21118</b>	<b>+6,1</b>

29-jadval ma'lumotlariga asoslanib, xo'jalik yurituvchi subyekting asosiy vositalari o'rganilayotgan davrda 365823 ming so'mni tashkil etib, bu o'tgan yilga nisbatan 21118 (365823-344705) ming so'mga ko'p. Bu ko'payish, asosan xo'jalik yurituvchi subyektinga keltirilgan mashina va jihozlarning hisobot davrida o'tgan yilga nisbatdan 22809 (171736-148927) ming so'm ko'payishi hisobiga bo'lgan. Ammo xo'jalik yurituvchi subyekting transport vositalarining hisobot davrida o'tgan yilga nisbatdan 1691 (91027-92718) ming so'mga kamayishi kuzatilgan.

Tahlil natijalariga binoan xo'jalik yurituvchi subyekting jami asosiy vositalari tarkibida mashina va jihozlari (o'tgan yil - 43,2 %; hisobot davrida - 46,9 foiz), transport vositalari (o'tgan yil - 26,9 %; hisobot davrida - 24,9 foiz), binolar (o'tgan yil - 20,4 %; hisobot davrida - 19,2 foiz) salmoqli hissaga egaligi ma'lum bo'lmoqda.

Umuman yuqoridagi natijalarni xo'jalik yurituvchi subyekti uchun ijobiy baholash mumkin. Sababi xo'jalik yurituvchi subyekti asosiy vositalarini bosqichma-bosqich yangilanayotganligini kuzatish mumkin.

Asosiy vositalar, xizmat muddatlarini o'tab borgan sari ham jismonan, ham manaviy eskirib boradi. Natijada ularning ishlab chiqarishdagi faoliyati ham mos ravishda o'zgarib boradi. Bu xo'jalik yurituvchi subyekting asosiy vositalarining texnik holatini muntazam tahlil etib, tegishli chora-tadbirlar belgilashni taqozo

etadi. Negaki, asosiy vositalarning yomon holatda bo'lishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)lar sifati, hajmining o'zgarishiga ta'sir etib, xo'jalik yurituvchi subyekting moliyaviy ahvoriga keskin ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham xo'jalik yurituvchi subyektlari asosiy vositalarining quyidagi texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarini yillar bo'yicha dinamik o'zgarishiga omilli baho berib o'rganadi (30-jadval):

- asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi ( $A_{ya}$ );
- asosiy vositalarning eskirish darajasi ( $A_e$ ).

Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi ularning necha foizi ishga yaroqli holda ekanligini bildirib, quyidagicha aniqlanadi:

$$A_{ya} = \frac{\text{Asosiy vositalarning qoldiq qiymati (1 - shakl, 012 - satr)}}{\text{Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati (1 - shakl, 010 - satr)}} * 100;$$

Asosiy vositalarning eskirish darajasi, ularning qancha foizi eskirib, yaroqsiz holga kelganligini bildirib, quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$A_e = \frac{\text{Asosiy vositalarning eskirish summasi (1 - shakl, 011 - satr)}}{\text{Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati (1 - shakl, 010 - satr)}} * 100.$$

30-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyekti asosiy vositalarining texnik holati tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farqi (+, -)
1	Asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm (1-shakl, 010-satr)	344 705	365 823	+21118
2	Asosiy vositalarning eskirish summasi, ming so'm (1-shakl, 011-satr)	206 310	251 146	+44836
3	Asosiy vositalarning qoldiq (balans) qiymati, ming so'm (1-shakl, 012-satr)	138 395	114 677	-23718
4	Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi, %	40,2	31,4	-8,8
5	Asosiy vositalarning eskirish darajasi, %	59,8	68,6	+8,8

30-jadval ma'lumotlari asosida, xo'jalik yurituvchi subyekting asosiy vositalarini texnik holati o'rganilganda hisobot davrida ularning yaroqlilik darajasi 8,8 foizga pasaygan, eskirish darajasi esa shu miqdorga ortgan. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyekting asosiy vositalarining boshlang'ich qiymatini hisobot davrida 21118 (365823-344705) ming so'mga, eskirish summasining 44836 (251146-206310) ming so'mga ortishi kuzatilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra o'tgan yili xo'jalik yurituvchi subyek-  
tining asosiy vositalarini yaroqlilik darajasi 40,2 foizni, hisobot  
davrida 31,4 birlikni tashkil etgan bo'lib, bu natija quvonarli holat  
emas. Sababi xo'jalik yurituvchi subyektiga tegishli asosiy vosita-  
larning 50,0 foizdan ortiq qismi eskirgan bo'lib, bizningcha ularni  
yangilash chora-tadbirlari belgilanishi maqsadga muvofiq hisob-  
lanadi.

Asosiy vositalarning texnik holati ularning harakat ko'rsat-  
kichlarini o'rganish asosida to'ldiriladi. Negaki, asosiy vositalarning  
harakat ko'rsatkichlarida ularning yangilanishi va chiqib ketishi  
koeffitsiyentlari omilli o'rganiladi.

Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti joriy davrda xo'jalik  
yurituvchi subyekt faoliyatiga yangidan kiritilgan uzoq muddatli  
aktivlarni bildirib, quyidagicha aniqlanadi ( $A_k$ ):

$$A_k = \frac{\text{Hisobot davrida kiritilgan asosiy vositalar}}{\text{Asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymati}};$$

Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti ( $A_{ch}$ ) esa,  
xo'jalik yurituvchi subyektning hisobot davrida qancha uzoq  
muddatli aktivlarini chiqib ketganini bildirib, quyidagicha  
aniqlanadi:

$$A_{ch} = \frac{\text{Hisobot davrida chiqim qilingan asosiy vositalar}}{\text{Asosiy vositalarning yil boshidagi qiymati}}.$$

Asosiy vositalar harakatining tahlilida kiritim va chiqim qilingan  
qiymat mazmun-mohiyatiga ko'ra bevosita ularning yil oxiri hamda  
boshiga bo'lgan summa bilan bog'lanadi. Odatda eskirgan asosiy  
vositagina hisobdan chiqarilishi mumkin bo'lib, ular yil boshidagi  
qiymatga nisbatdan bog'lanadi. Kiritim esa, bevosita asosiy  
vositalarning yil oxiridagi qiymati bilan bog'lanadi.

Yuqoridagidek tahlil, asosiy vositalarning jami yoki har bir  
tarkibi bo'yicha alohida o'rganilishi ham mumkin. Tahlilda asosiy  
vositalarning yangilanish va ishlab chiqarishdan chiqarish sabablariga  
ham e'tibor beriladi. Xususan, asosiy vositalarni yangilash manbalari  
bo'lib: -xususiy kapitalning o'sishi; -uzoq muddatli kreditlar va  
qarzarlar; -maqsadli moliyalash va subsidiyalar; -tekinga olingan asosiy  
vositalar; -kapital qo'yilmalar va investitsiyalar; -grantlar va  
boshqalar hisoblanadi.

Asosiy vositalarni ishlab chiqarishdan chiqarish sabablariga: -  
asosiy vositalarning ma'naviy eskirishi; -asosiy vositalarning jismoniy  
eskirishi va foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelishi; -asosiy

vositalarning ortiqchaliligi; -o'g'irliklar, yo'qotishlar va boshqa shu kabi chiqimlarni keltirish mumkin (31-jadval).

31-jadval

### Hisobot yilida xo'jalik yurituvchi subyektining asosiy vositalarining harakati tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil davomida asosiy vositalarning		Yil oxiri	Asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlari, koeffitsiyent	
		kirimi	chiqimi		yangilanish	chiqib ketish
1	2	3	4	5	6=3/5	7=4/2
1. Asosiy vositalar qiymati, ming so'm	344705	41959	20841	365823	11,5	6,0

31-jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik yurituvchi subyektining asosiy vositalarini yangilanish darajasi hisobot yilida 11,5 foizni, chiqib ketish koeffitsiyenti esa 6,0 birlikni tashkil etgan. Bu natija 41-jadval ma'lumotlari tahliliga binoan ijobiy deb baholanmaydi. Sababi xo'jalik yurituvchi subyektining 50,0 foizdan ortiq asosiy vositalari yaroqsiz deb topilgan bir paytda, yangilanish koeffitsiyentining 20-30 foiz chegarasida bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki fan-texnika taraqqiyoti rivojlanib borayotgan va tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratilayotgan bir sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalarini ularning turlariga ko'ra 3-8 yilda bir marta yangilash maqsadga muvofiq sanaladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanganligini o'rganishdan tashqari ulardan foydalanish holatiga ham baho beriladi. Sababi xo'jalik yurituvchi subyektining asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlangan bo'lsa-yu, lekin ulardan samarali foydalanmasa, bu faoliyat samaradorligini pasaytiradi.

Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Asosiy vositalar qaytimi ( $AV_k$ ).

Bu ko'rsatkich har bir yoki ming so'mlik asosiy vosita hisobiga to'g'ri kelgan mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum hajmini bildirib, quyidagicha aniqlanadi:

$$AV_k = \frac{\text{Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum hajmi, min g so'm}}{\text{Asosiy vositalarning qiymati, min g so'm}}$$

2. Asosiy vositalar sig'imi koeffitsiyenti ( $AV_s$ ).

Har bir yoki ming so'mlik mahsulot (ish, xizmat)lar mahsulotlarining sof tushum hisobiga to'g'ri kelgan asosiy vositalar qiymatini bir marta quyidagicha aniqlanadi:

$$AV_s = \frac{\text{Asosiy vositalarning qiymati, min g so'm}}{\text{Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum hajmi, min g so'm}}$$

Yuqorida keltirilgan asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari ularning har bir turi bo'yicha alohida o'rganilishi ham mumkin (32-jadval).

32-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyektining asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining omilli tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
1	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	605821	999312	+393491
2	Asosiy vositalar qiymati, ming so'm	344705	365823	+21118
3	Asosiy vositalar qaytimi	1,8	2,7	+0,9
4	Asosiy vositalar sig'imi koeffitsiyenti	0,6	0,4	-0,2
5	Asosiy vositalar qaytimining o'zgarishi	x	x	+0,9
-	mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushumning o'zgarishi hisobiga	x	x	+1,1
-	asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi hisobiga	x	x	-0,2
6	Asosiy vositalar sig'imining o'zgarishi	x	x	-0,2
-	mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushumning o'zgarishi hisobiga	x	x	-0,3
-	asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi hisobiga	x	x	+0,1

Hisob-kitoblar:

1. Asosiy vositalarning shartli qaytimi ( $AV_k^{sh}$ ) aniqlanadi.

$$AV_k^{sh} = \frac{\text{Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum hajmi, hisobot yil}}{\text{Asosiyvositalar qiymati, o' tgan yil}}$$

$$AV_k^{sh} = \frac{999312}{344705} = 2,9; \quad AV_k^1 = \frac{999312}{365823} = 2,7; \quad AV_k^0 = \frac{605821}{344705} = 1,8.$$

1.1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushumning o'zgarishi hisobiga:

$$AV_k^{sh} - AV_k^0 = 2,9 - 1,8 = +1,1;$$

1.2. Asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi hisobiga.

$$AV_k^1 - AV_k^{sh} = 2,7 - 2,9 = -0,2.$$

ng shartli sig'imi ( $AV_s^{sh}$ ) aniqlanadi.

*Asosiy vositalar qiymati, o'tgan yil*  
*(ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum xajmi, hisobot yil*

$$\frac{+705}{99312} = 0,3; \quad AV_s^1 = \frac{365823}{999312} = 0,4; \quad AV_s^0 = \frac{344705}{605821} = 0,6.$$

ulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushumning sobiga:

$$AV_s^{sh} - AV_s^0 = 0,3 - 0,6 = -0,3;$$

1.2. Asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi hisobiga.

$$AV_s^1 - AV_s^{sh} = 0,4 - 0,3 = +0,1.$$

32-jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik yurituvchi subyekting asosiy vositalaridan samarali foydalangan. Shu bois, asosiy vositalar qaytimi hisobot yilida 2,7 birlikni tashkil etib, bu o'tgan davrga nisbatdan 0,9 (2,7-1,8) birlikka ko'p. Unga omillar ta'siri, hisob-kitoblarning 1.1. va 1.2. bandlarida keltirilgan.

Asosiy vositalarning salmog'i koeffitsiyentida ham ijobiy o'zgarish, ya'ni hisobot davrida o'tgan yilga nisbatda 0,2 (0,4-0,6) birlikka pasayish kuzatilgan. Mazkur ko'rsatkichning o'zgarishiga omillar ta'siri hisob-kitoblarning 2.1. va 2.2. bandlarida keltirilgan.

Demak, xo'jalik yurituvchi subyekti asosiy vositalardan samarali foydalangan, deb hisoblash mumkin.

Faqatgina, asosiy vositalarning samarali foydalanish maqsadida, xo'jalik yurituvchi subyektiga ish beradiganlaridan foydalanib, ishni smenali tashkil etish, ishlamaydiganlarini hisobdan chiqarish maqsadga muvofiq sanaladi.

#### 5.4. Moddiy boyliklar bilan ta'minlanganlik va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy resurslari tahlilida, mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat predmetlari, ya'ni: xomashyo va materiallar; elektro-energiya; yoqilg'i; yog'lovchi materiallarning holati, samaradorligi ta'sir etuvchi omillar asosida o'rganiladi.

Hozirda moddiy resurslar zaxirasining cheklanganligi bois xo'jalik yurituvchi subyektidan ulardan samarali, tejab, o'rinbosar materiallarni topib foydalanish talab etiladi. Bu cheklangan moddiy

resurslar zaxirasidan uzoq vaqt mobaynida foydalanish, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini pasaytirish imkoniyatini yaratadi va natijada xo'jalik yurituvchi subyektning sifat ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Shuning uchun xo'jalik yurituvchi subyekt mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash maqsadida moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojini tegishli hajmda, assortimentda ta'minlashga harakat qilib, undan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'ylab topadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlanishi uning moliyaviy barqarorligini ta'minlab, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini, xalqning turmush darajasi yaxshilanishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagi fikrlarga asosan, xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy resurslar bilan ta'minlanishi, ulardan foydalanish holatini omilli o'rganib, ko'rsatkichlarning dinamik o'zgarishiga baho berish hamda mavjud imkoniyatlar yuzasidan takliflar tayyorlash tahlilning maqsadi hisoblanadi.

Mazkur maqsadga erishishda, quyidagilar moddiy resurslarning holati va ulardan samarali foydalanish tahlilining vazifalari bo'lib sanaladi:

- mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun belgilangan moddiy resurslar hajmining ilmiy asoslanganligiga baho berish;
- xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini o'rganish;
- moddiy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga omilli baho berish;
- tahlil natijasida aniqlangan mavjud imkoniyatlar yuzasidan takliflar tayyorlash va boshqalar.

Moddiy resurslarning holati va ulardan samarali foydalanish tahlilini olib borishda axborot manbalari bo'lib, ularning biznes reja, moddiy resurslarni hisobga oluvchi dastlabki hujjatlar, «Korxonalar sarf-xarajatlari to'g'risida»gi ma'lumotlari hisoblanadi.

Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik tahlilida xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish jarayoni uchun kerakli materiallar bilan qay darajada ta'minlanganligiga baho beriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt mahsulot moddiy resurslarga bo'lgan talabini ikki, xususan, ichki va tashqi manbalar hisobiga ta'minlaydi.

Moddiy resurslarga bo'lgan talabning ichki ta'minoti, xo'jalik subyektining o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, materiallarga bo'lgan ehtiyojini qoplanishiga aytiladi. Masalan, fermer xo'jaliklarining o'tgan yilgi bug'doy, kartoshka va boshqa shu kabi mahsulotlaridan hisobot davrida material sifatida foydalanishini misol keltirish mumkin. Shuningdek, moddiy resurslarga bo'lgan talabning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnoma asosida qoplanishi tashqi ta'minotni bildiradi.

Yuqoridagi fikrlarga binoan, xo'jalik subyektining moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi ( $M_1$ ) quyidagicha ifodalanib, tahlil etiladi (33-jadval):

$$M_1 = \frac{\text{Tashqi va ichki ta'minot hisobiga yig'ilgan materiallar hajmi}}{\text{Biznes reja bo'yicha zarur bo'lgan moddiy resurs hajmi}} * 100;$$

33-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyekt shakar va nok mahsulotiga bo'lgan talabini mos ravishda 100,0 hamda 125,0 foizlarga bajarilgan.

Hisobot yilida xo'jalik yurituvchi subyekt shakar mahsulotiga bo'lgan talabini 100,0 foiz, xususan, 25,0 % ichki imkoniyatlari, 75,0 birlikni tashqi manbalar hisobiga bajargan.

Nok mahsulotiga bo'lgan talabini to'liq tashqi manba hisobiga 125,0 foizga bajarib, ichki imkoniyatlari bo'lmagan. Negaki, nok mahsulotini bir yil davomida saqlash imkoniyati bo'lmay, ular tez buzuluvchi tovarlar hisoblanadi.

Xuddi shunday uzum va olma mahsulotlari ham to'liq tashqi ta'minot hisobiga mos ravishda 66,7 hamda 85,7 foizlarga bajarilgan. Bunda uzum va olma mahsulotlariga tashqi talab mos ravishda 6 hamda 7 tonnani tashkil etgan bo'lsada, xo'jalik yurituvchi subyekt har ikkala moddiy resurs yuzasidan 1 tonnadan kam materiallarga shartnoma tuzgan. Shuningdek, shartnoma bo'yicha yetkazilishi kerak bo'lgan 5 tonna uzum mahsulotlari haqiqatda 4 tonnani tashkil etib, bu moddiy resurs ta'minotining yana shu miqdorga bajarilmasligini keltirib chiqargan.

Bizningcha, xo'jalik yurituvchi subyekt uzum va olma mahsulotlariga bo'lgan talabni to'liq ta'minlash borasida qo'shimcha hamkorlarni topishi hamda ular bilan mazkur masalada oldindan shartnomalar tuzishi zarur. Shuningdek, tuzilgan shartnoma shartlari bandlarida tomonlarning majburiyatlari yuzasidan javobgarligini kuchaytirish orqali uning to'liq bajarilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



## Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik tahlili

Moddiy resurslar tarkibi	Moddiy resurslarga bo'lgan talab (tonna)	Shu jumladan:		Moddiy resurslarga bo'lgan talabning manbalar hisobiga qoplanish, %		Tashqi ta'minotning holati			Tashqi ta'minotning bajarilishi, %		Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, %
		ichki	tashqi	ichki	tashqi	shartnomalar tuzildi	haqiqatda kelib tushdi	shartnoma bo'yicha	haqiqatda		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	$11 = \frac{8+3}{2} * 100$
1. Shakar	12	3	9	25,0	75,0	9	9	100,0	100,0	100,0	100,0
2. Uzum mahsuloti	6	-	6	0,0	100,0	5	4	83,3	66,7	66,7	66,7
3. Nok mahsuloti	8	-	8	0,0	100,0	9	10	112,5	125,0	125,0	125,0
4. Olma mahsuloti	7	-	7	0,0	100,0	6	6	85,7	85,7	85,7	85,7

Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxida moddiy resurslar xarajatlari salmoqli o'ringa ega bo'lib, ulardan samarali foydalanish bugunning dolzarb masalalaridan sanaladi. Shuning uchun ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishiga omilli baho berilib, boy berilgan imkoniyatlar aniqlanadi.

Moddiy resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- material qaytimi ( $M_k$ );

- material sig'imi ( $M_s$ ).

Material qaytimi, deb bir so'mlik moddiy resurslar hisobiga to'g'ri kelgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi tushunilib, quyidagicha ifodalanadi:

$$M_k = \frac{\text{Mahsulot(ish, xizmat)lar xajmi, min g so'm}}{\text{Sarflangan moddiy resurslar xajmi, min g so'm}};$$

Material sig'imi esa, bir so'mlik mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy resurslar hajmini bildirib, material qaytimi bilan teskari bog'liqlikda bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$M_s = \frac{\text{Sarflangan moddiy resurslar xajmi, min g so'm}}{\text{Mahsulot(ish, xizmat)lar xajmi, min g so'm}}$$

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida moddiy resurslardan samarali foydalanish holati quyidagicha tahlil etiladi (34-jadval):

34-jadval

### Moddiy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Biznes reja	Haqiqatda	Farqi (+,-)
1. Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi, ming so'm	197000	201000	+4000
2. Moddiy resurs xarajatlari, ming so'm	63000	72000	+9000
3. Material qaytimi, so'm (1/2)	3,13	2,79	-0,34
4. Material sig'imi, so'm (2/1)	0,32	0,36	+0,04
<b>5. Material qaytimining o'zgarishi, so'm:</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>-0,34</b>
5.1. Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining o'zgarishi hisobiga, so'm	x	x	0,06
5.2. Moddiy resurs xarajatlarning o'zgarishi hisobiga, so'm	x	x	-0,40
<b>6. Mehnat sig'imining o'zgarishi, so'm:</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>+0,04</b>
6.1. Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining o'zgarishi hisobiga, so'm	x	x	0,06
6.2. Moddiy resurs xarajatlarning o'zgarishi hisobiga, so'm	x	x	-0,40

## Hisob-kitoblar:

### 1. Mehnat unumdorligiga omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan:

1.1. Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)larning o'zgarishi hisobiga

$$\frac{201000}{63000} - \frac{197000}{63000} = 3,19 - 3,13 = 0,06 ;$$

1.2. Moddiy resurs xarajatlarining o'zgarishi hisobiga

$$\frac{201000}{72000} - \frac{201000}{63000} = 2,79 - 3,19 = -0,40 .$$

2. Mehnat sig'imining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan:

2.1. Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)larning o'zgarishi hisobiga

$$\frac{63000}{201000} - \frac{63000}{197000} = 0,31 - 0,32 = -0,01 ;$$

2.2. Moddiy resurs xarajatlarining o'zgarishi hisobiga

$$\frac{72000}{201000} - \frac{63000}{201000} = 0,36 - 0,31 = +0,05 .$$

Tahlil etilayotgan 34-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xo'jalik yurituvchi subyekti hisobot davrida moddiy xarajatlardan samarasiz foydalangan. Natijada biznes rejada belgilangan material qaytimi haqiqatda 0,34 (2,79-3,13) so'mga kam bo'lgan. Unga mos ravishda bir so'mlik mahsulot (ish, xizmat)lar hajmida material xarajatlari 0,04 (0,36-0,34) so'mga ortgan. Moddiy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga omillar ta'siri hisob-kitoblarda aks ettirilgan.

Yuqoridagi fikrlarga asosan, xo'jalik yurituvchi subyekt moddiy resurslardan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillar (eskirgan asosiy vositalar, ishchilardagi loqaydlik va boshqalar)ni kamaytirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Moddiy resurslardan samarali foydalanish tahlili asosida ortiqcha sarf-xarajatlar hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmidan boy berilgan tovarlar miqdori yoki ulardan unumli foydalanish natijasida qo'shimcha yaratilgan boyliklarni aniqlash mumkin (35-jadval).

Buning uchun avvalombor, xo'jalik yurituvchi subyektda ishlab chiqariladigan mahsulot (ish, xizmat)lar birligi uchun belgilangan material xarajati me'yorini haqiqatda sarflangani bilan taqqoslaymiz. Erishilgan iqtisod yoki ortiqcha material xarajatini ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy miqdoriga ko'paytiriladi. Moddiy resurslardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan ortiqcha xarajat reja bo'yicha ko'zlangan material xarajat me'yoriga taqsimlanadi va boy berilgan ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi..

35-jadval

**Moddiy resurslardan samarali foydalanish hisobiga qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi tahlili**

Ko'rsatkichlar	Olma sharbati	Nok sharbati	Uzum sharbati
1. Reja bo'yicha mahsulot birligiga sarflangan material, so'm	1200	1300	1000
2. Haqiqatda mahsulot birligiga sarflangan material, so'm	1100	1400	1000
<b>Farqi (+,-)</b>	<b>-100</b>	<b>+100</b>	<b>0</b>
3. Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, shartli banka	120	140	80
3. Olingan iqtisodiy natija – tejamkorlik (-), ortiqcha sarf (+), ming so'm	-12	+14	0
4. Iqtisodiy natijaga mos ravishda qo'shimcha yoki kam ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, shartli banka	+10	-11	0

35-jadval ma'lumotidan ko'rinadiki, xo'jalik yurituvchi subyekti olma sharbatini ishlab chiqarishda har bir shartli bankadan 100 (1100-1200) so'mdan material xarajatlarini tejagan. Natijada, 120 shartli bankadan 12 (-100\*120) ming so'mni tejash hisobiga 10 (12/1200)\*1000) shartli banka olma sharbati ko'p ishlab chiqargan.

Shuningdek, nok, uzum sharbatlari ishlab chiqarishning holati tahlil etildi. Tahlil natijalariga ko'ra nok sharbatini ishlab chiqarishdagi ortiqcha 100 (1400-1300) so'm xarajat hisobiga jami 14 (14\*100) ming so'mga qo'shimcha sarf yuzaga kelgan. Bu, 11 shartli banka nok sharbatining kam ishlab chiqarilishini ta'minlagan.

Uzum sharbatini ishlab chiqarish uchun belgilangan material sarfida chetga chiqishlar bo'lmaganligi bois, uning ta'siri bo'lmagan. Ammo nok sharbatini ishlab chiqarishdagi qo'shimcha material sarfini bartaraf etish zarur, deb hisoblaymiz. Negaki, nok sharbatini

ishlab chiqarishda material sarfining jami 14 ming so'mga ko'payishi hisobiga 11 shartli banka mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining kamayganligi, xo'jalik yurituvchi subyektining mazkur jarayonda boy berilgan imkoniyati sifatida qaralishi zarur.

### **5.5. Yerdan foydalanish ko'rsatkichlari tahlili**

Yer umummilliy boylikdir.

O'zbekistonning yer maydoni 448900 kvadrat – kilometrni tashkil etib, yer yuzi quruqlik maydonining 0,3 foiz qismini egallagan holda, dunyo mamlakatlari orasida 55-o'rinda turadi.

Mamlakat yer fondi quyidagi toifalardan iborat:

1. Qishloq xo'jaligiga qarashli yerlar.
2. Aholi yashaydigan yerlar.
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaaga qarashli va boshqa yerlar.
4. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, tarixiy yodgorliklarga tegishli yerlar.
5. O'rmon fondi yerlari.
6. Suv fondi yerlari.
7. Zaxiradagi yerlar.

O'zbekiston yer fondining 3/4 qismi tekisliklar va platolar, qolgan 1/4 qismi tog'oldi hududlar va tog'lardan iborat.

Mamlakatda sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni salkam 4,3 mln. gektarni tashkil etib, uning asosiy qismi tuproq-suv sharoiti nisbatan qulay bo'lgan vodiy va vohalarda joylashgan. Sug'oriladigan yerlar maydoni XX asrning 60-yillaridan so'ng ikki martadan ziyod ko'paydi.

Bog'lar va tokzorlar egallagan yer maydoni mamlakatda salkam 0,4 mln. gektarga teng. So'nggi yillarda tomorqa xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, uning maydoni 0,6 mln. gektarni tashkil etadi.

Yer eng qimmatli boyligimiz bo'lib, undan bir necha yillar mobaynida tekin iqtisodiy mulk sifatida xo'jasizlarcha foydalanib kelindi. Shu boisdan, hukumatimiz tomonidan yer munosabatini hal etishga katta ahamiyat berildi. Xususan, 1990-yilda «Yer to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, unga binoan yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilanib, tuproq hosildorligini oshirish, yer resurslaridan aniq maqsadli hamda samarali foydalanishga katta e'tibor qaratildi.

Shu o'rinda yer resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tabiiy holati buzilgan yerlarni qayta tiklanishi uchun

(almashlab ekishni tashkil etish orqali) sharoitlar yaratish bugungi kunning muhim masalasi sanaladi.

Iqtisodiy tahlilda yerdan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liq yerlarga baho berishni ifodalovchi kattaliklar asosida shakllanadi. Shu sababli qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishning samaradorligi uning har bir gektariga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini xarakterlovchi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Xususan:

1. Har 1 gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga yoki to'g'ri keladigan yalpi mahsulot ( $G_{ya.m.}$ );

$$G_{ya.m.} = \frac{\text{Yetishtirilgan yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti}}{\text{Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni}}$$

2. Har 1 gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri keladigan sof tushum ( $G_{s.t.}$ );

$$G_{s.t.} = \frac{\text{mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum}}{\text{Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni}};$$

3. Har 1 gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri keladigan sof foyda ( $G_f$ ).

$$G_f = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni}}$$

Yuqoridagi ko'rsatkichlarga binoan qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan subyektlarning faoliyatiga qolaversa, yerdan foydalanish darajasiga baho beriladi (36-jadval).

Jadval ma'lumotlariga binoan, har bir gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri keluvchi yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining hajmi hisobot yili 5988,1 ming so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatdan 813,5 (5988,1-5174,6) ming so'mga ko'p bo'lgan. Bu ijobiy natijaga yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining o'tgan yilga nisbatan 82978 (610788-527810) ming so'mga ko'p bo'lgani ta'sir etgan.

Har bir gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri kelgan sof tushum ham hisobot yilida 724,5 (6760,8-6036,3) ming so'mga ko'p bo'lgan va bu xo'jalik yurituvchi subyektning o'rganilayotgan davrda sof tushumining 73900 (689600-615700) ming so'mga ko'pligi bilan izohlanadi.

Har bir gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarga to'g'ri keladigan sof foyda summasining ham joriy yilda 38,2 (213,7-175,5) ming so'mga ko'payishi kuzatilgan va bu natijaga hisobot davrida erishilgan sof foydani 3900 (21800-17900) ortishi ijobiy ta'sir etgan.

36-jadval

### Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)	O'zgarishi, %
1.	Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti solishtirma bahoda, ming so'm.	527810	610788	+82978	115,7
2.	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum	615700	689600	+73900	112,0
3.	Sof foyda	17900	21800	+3900	121,8
4.	Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni	102	102	0	0,0
5.	Har 1 gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga yoki to'g'ri keladigan yalpi mahsulot, ming so'm	5174,6	5988,1	+813,5	115,7
6.	Har 1 gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri keladigan sof tushum	6036,3	6760,8	+724,5	112,0
7.	Har 1 gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri keladigan sof foyda, ming so'm.	175,5	213,7	+38,2	121,8

Iqtisodiy tahlilda xo'jalik yurituvchi subyektning yer resurslari holati va uning o'zgarishiga ham baho beriladi. Bunda jami qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibida haydaladiganlarining, hosili yig'ib olinganlarining, almashlab ekishga mo'ljallanganlarining, o'zlashtirilganlarining, foydalanilmayotganlarining tutgan ulushi aniqlanib, ularning dinamik o'zgarishiga baho beriladi.

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibida haydaladiganlarining tutgan ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Haydaladigan yerlar}}{\text{Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni}} * 100$$

Qishloq xo'jaligi yerlari tarkibida hosili yig'ib olingan yer maydonlarining tutgan ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Hosili yig'ib olingan yer maydoni}}{\text{Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni}} * 100$$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibida almashlab ekishga mo'ljallangan maydonlarning tutgan ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$\frac{\text{Almashlab ekishga mo'ljallangan yer maydoni}}{\text{Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni}} * 100$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibida o'zlashtirilganlarining tutgan ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$\frac{\text{O'zlashtirilgan yer maydoni}}{\text{Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni}} * 100$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibida foydalanilmayotganlarining tutgan ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$\frac{\text{Foydalanilmayotgan yer maydoni}}{\text{Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni o'rtacha hajmi}} * 100$

Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan samarali foydalanish jarayoniga natura o'lchov birliklaridan foydalanib, ya'ni yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligini aniqlash va ularni omilli tahlilini olib borish bilan ham baho beriladi (37-jadval).

37-jadval

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi va ularning omilli tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)	O'zgarishi, %
1.	Yetishtirilgan jami paxta, ts..	1189	1302	+113	109,5
2.	Yetishtirilgan jami bug'doy, ts..	1221	1400	+179	114,7
3.	Paxta ekilgan yer maydoni, ga..	41	42	+1	102,4
4.	Bug'doy ekilgan yer maydoni, ga..	33	35	+2	106,1
5.	Paxta hosildorligi, s/ga.	29	31	+2	106,9
6.	Bug'doy hosildorligi, s/ga.	37	40	+3	108,1
7.	<b>Paxta hosildorligiga ta'sir etuvchi omillar:</b>			+2	
7.1.	Yalpi paxta hosilini o'zgarishi hisobiga;			2,8	
7.2.	Ekin maydonining o'zgarishi hisobiga.			-0,8	
8.	<b>Bug'doy hosildorligiga ta'sir etuvchi omillar:</b>			+3	
8.1.	Yalpi bug'doy hosilini o'zgarishi hisobiga;			+5,4	
8.2.	Ekin maydonining o'zgarishi hisobiga.			-2,4	



37-jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik yurituvchi subyekt paxta va bug'doy mahsulotlarining hosildorligi bo'yicha hisobot davrida mos ravishda 2 (31-29) hamda 3 (40-37) s/ga.ga ortgan. Bu, xo'jalik yurituvchi subyektning yer resurslaridan samarali foydalanganligini bildirib, hisobot davrida uning agrotexnika, almashlab ekish va boshqa qator qoidalarga rioya etganini bildiradi.

Ma'lumki, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishning ikki, xususan: intensiv va ekstensiv usullari mavjud bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektning har ikkalasidan ham foydalanganligi ma'lum bo'ldi.

Paxta va bug'doy hosildorligining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan:

1. Paxta mahsulotining shartli hosildorligi 31,8 (1302/41)ni e'tiborga olsak:

- yalpi paxta hosili hisobiga hosildorlik 2,8 (31,8-29,0) s/ga.ga ortgan;

- ekin maydonining 1 gektarga ortishi hisobiga 0,8 (31,0-31,8) s/ga.ga pasaygan.

2. Bug'doy mahsulotining shartli hosildorligi 42,4 (1400/33)ni e'tiborga olsak:

- yalpi bug'doy hosili hisobiga hosildorlik 5,4 (42,4-37,0) s/ga.ga ortgan;

- ekin maydonining 2 gektarga ortishi hisobiga 2,4 (40,0-42,4) s/ga.ga pasaygan.

Yuqoridagi natijalarga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektning yer resurslaridan samarali foydalangan, deb hisoblash mumkin.

Xulosa tarzida ta'kidlash kerakki, yer - O'zbekiston xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi. Shu sababli undan oqilona foydalanish har bir fuqaroning burchi sanaladi.

## **5.6. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi tahlili**

Mahsulot tannarxi xo'jalik faoliyatining turli tomonlarini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichdir. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish hamda iqtisodiy tahlil qilish bugunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar (amortizatsiya),

mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning umumiy qiymat ko'rinishini ifodalaydi.

Tannarx iqtisodiy kategoriyadir. Shu sababli u:

- xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilishga xizmat qiladi;
- mahsulot bahosini shakllanishi va xo'jalik yurituvchi subyektning foyda va rentabelligini aniqlash asosini tashkil etadi;
- korxonaning boshqaruv va investitsiya faoliyatlari bo'yicha qarorlarni qabul qilishning zaruriy elementidir;
- resurslardan foydalanish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy yetish, ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish tizimini takomillashtirishdan ko'rilgan samaradorlikni ifodalaydi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi amaldagi «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq hisob-kitob qilinib, uni iqtisodiy tahlil qilishdan maqsad: buxgalteriya hisobi schyotida jami xarajatlar to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining rentabelligi va raqobatbardoshligini aniqlash; mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini aniq hisob-kitobini qilish; mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlarni alohida tarkiblash va ularni moliyaviy natijaga bog'lash; ishlab chiqarish xarajatlarini yuzaga chiqishi va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish va nazorat qilish; soliq to'lanadigan bazani aniq hisob-kitobini yurtish va bu orqali ishlab chiqarish xarajatlari hamda qilinayotgan sarflarni boshqarishni tashkil etib, ularga oid ko'rsatkichlarni yillar bo'yicha dinamik o'zgarishiga omilli baho berish hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari tannarxini tahlil qilishda iqtisodiy tahlilining vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarini o'rganish va ularning holatiga baho berish.
2. Mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha belgilangan rejani bajarilishi va dinamikasini nazorat qilish.
3. Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementi va kalkulyatsion moddalarini bo'yicha o'rganish va ularga baho berish.
4. Mehnat unumdorligi bilan ish haqi xarajatlari o'rtasidagi nisbatni o'rganish.
5. Tannarxning o'zgarish sabablarini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillarni miqdor jihatidan hisoblash.

6. Ayrim turdagi mahsulot tannarxini xarajat moddalari bo'yicha tahlil etish.

7. Tannarxni pasaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash va h.k.

Mahsulot tannarxi tahlilida axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Biznes-reja ma'lumotlari.
2. «Korxonalar sarf-xarajatlari to'g'risida»gi hisoboti ma'lumotlari.
3. «Mehnat hisoboti» ma'lumotlari.
4. Buxgalteriya hisobining ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olib boruvchi hisobot ma'lumotlari va h.k.

«Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- bevosita va bilvosita material xarajatlari;
- bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari;
- asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- boshqa xarajatlar.

Bevosita xarajatlar mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga to'g'ridan to'g'ri qo'shiladigan xarajatlarni nazarda tutib, bilvosita xarajatlar esa taqsimlash yo'li bilan kiritiladigan sarflarni bildiradi. Masalan, paxta mahsulotini yetishtirish uchun sarflangan chigit xarajati bevosita material xarajati bo'lib, u to'g'ridan to'g'ri paxta mahsuloti tannarxida yotadi. Bu xarajat bug'doy yoki sholi tannarxiga olib borilmaydi. Biroq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mirob (ekinlarni sug'oruvchi) xarajatlari bor. Agar mirob, paxta bilan bir vaqtda bug'doyni sug'organ bo'lsa unga hisoblangan 350000 (uch yuz ellik) ming so'm maosh ekinlarning yer maydonidagi ulushiga binoan taqsimlanib ularning tannarxiga qo'shiladi. Faraz qilaylik - 15 gektar paxta, 10 gektar bug'doy ekini sug'orilgan bo'lsa, mirob ish haqining  $(350000 \text{ ming so'm}) / 210000$  (ikki yuz o'n) ming so'mi ( $(350000 \cdot 15) / 25$ ) paxta, 140000 ( $(350000 \cdot 10) / 25$ ) ming so'mi bug'doy tannarxiga qo'shiladi.

Shu o'rinda xarajatlar quyidagi xususiyatlari bo'yicha ham tasniflanadi:

1. Yuzaga chiqish shakliga ko'ra:
  - 1.1. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari.
  - 1.2. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.

- 1.3. Tasodifiy, favquloddagi xarajatlar.
  2. Mahsulot tannarxiga qo'shilishiga ko'ra:
    - 2.1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.
    - 2.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar.
  3. Yuzaga chiqish o'rni bo'yicha:
    - 3.1. Bo'lim bo'yicha qilingan xarajatlar.
    - 3.2. Sex bo'yicha qilingan xarajatlar.
    - 3.3. Uchastka bo'yicha qilingan xarajatlar va hokazo.
  4. Sotish hajmiga hisobdan chiqarilishiga ko'ra:
    - 4.1. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari.
    - 4.2. Davr xarajatlari.
  5. Davriga ko'ra:
    - 5.1. Joriy davr xarajatlari;
    - 5.2. Kelgusi davr xarajatlari.
  6. Soliqqa tortiladigan foyda summasini aniqlashda hisobga olinishiga ko'ra:
    - a. Soliqqa tortiladigan bazaga qayta qo'shiladigan doimiy tafovutlar;
    - b. Soliqqa tortiladigan bazaga qo'shiladigan davri bo'yicha tafovutlar;
    - c. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda hisobga olinmaydigan xarajatlar.
  7. Mahsulot hajmining o'zgarishiga muvofiq:
    - 7.1. O'zgaruvchan xarajatlar;
    - 7.2. O'zgarmas xarajatlar.
  8. Mahsulot tannarxiga qo'shilishiga qarab:
    - 1.1. To'g'ri xarajatlar (bevosita);
    - 1.2. Egri xarajatlar (bilvosita).
  9. Moliyaviy natijalarga daxlsizligi bo'yicha:
    - 9.1. Mahsulot tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
    - 9.2. Foyda hisobidan qoplanadigan xarajatlar.
- Iqtisodiy tahlilda xarajatlarni yuqorida keltirilgan tarkiblar asosida o'rganilishi, ular yuzasidan samarali qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi jihatidan xarajatlarni o'zgaruvchan (mahsulot ishlab chiqarish hajmini ortishi bilan o'sib boruvchi xarajatlar) va o'zgarmas (mahsulot miqdoriga bog'liq bo'lmagan holda bir xil darajada saqlanuvchi xarajatlar) xarajatlarga bo'lib o'rganilishi quyidagicha tahlil etiladi (39-jadval).

**Jami ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot birligi tannarxining mahsulot hajmiga bog'liqligi**

Mahsulot hajmi, dona	Jami mahsulot tannarxi, mln. so'm			Mahsulot birligi tannarxi, ming so'm		
	o'zgarmas xarajatlar	o'zgaruvchan xarajatlar	jami	o'zgarmas xarajatlar	o'zgaruvchan xarajatlar	jami
1200	50	100	150	41,7	76,9	118,6
1300	50	110	160	38,5	84,6	123,1
1500	50	120	170	33,3	80	113,3
2100	50	160	210	23,8	76,1	99,9
2300	50	200	250	21,7	86,9	108,6

Iqtisodiy tahlilda mahsulot tannarxini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat.
2. Taqqoslanadigan mahsulot tannarxi.
3. Mahsulot birligining tannarxi.

Mahsulot tannarxini ifodalovchi ko'rsatkichlardan eng muhimi bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajaddir. Bu ko'rsatkich tiyin hisobida quyidagicha aniqlanadi:

Bu ko'rsatkich orqali qilingan xarajatlarning samaradorligini aniqlash mumkin.

Tahlil etishda bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar dinamikasi, biznes rejaga nisbatan o'zgarishi aniqlanadi (40-41-jadvallar).

**Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar tahlili**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	
		Biznes rejada	Haqiqatda
1. Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'mda	227600	374300	375900
2. Tovar mahsulotining solishtirma ulgurji bahosi, ming so'mda	313400	398700	453900
3. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar, tiyin hisobida	72,6	93,9	82,8

**Bir soʻmlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlarni pasaytirish boʻyicha biznes rejasining bajarilishi tahlili**

Koʻrsatkichlar	Summa
1. Bir soʻmlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar, tiyin hisobida:	
- Oʻtgan yil	72,6
- Hisobot yil:	
• Biznes reja boʻyicha	93,9
• Haqiqatda	82,8
2. Oʻtgan yildan farqi:	
• tiyin hisobida	+10,2
• foiz hisobida	+14,0
3. Rejadan farqi:	
• tiyin hisobida	-11,1
• foiz hisobida	-11,8
4. Bir soʻmlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatdan olingan iqtisod (-) yoki sarflangan ortiqcha xarajat, ming soʻm da	-50382,9

Jadval maʼlumotlari koʻra biz tahlil qilinayotgan xoʻjalik yurituvchi subyektda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining har soʻmi uchun qilingan xarajat hisobot davrida 82,8 tiyinni tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan 10,2 tiyinga yoki 14,0 foizga koʻpaygan, biroq biznes rejaga nisbatan 11,1 tiyinga yoki 11,8 foizga pasaygan. Oʻrganilayotgan davrda har bir soʻmlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatning biznes rejaga nisbatan 11,1 tiyinga pasayishi hisobiga xoʻjalik yurituvchi subyektning oladigan daromadi 50382,9 ming soʻmga ortgan va bu holat oʻtgan yilga nisbatdan aksincha boʻlgan.

Tahlil davomida 1 soʻmlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarni rejaga, oʻtgan yildagiga nisbatan oʻzgarish sababalari va unga quyidagi omillarni taʼsirini aniqlash lozim:

1. Mahsulot strukturasi va assortimenti oʻzgarishi.
2. Xomashyo yoqilgʻi energiya bahosini oʻzgarishi.
3. Mahsulot bahosining oʻzgarishi.

Iqtisodiy tahlilda xarajatlar iqtisodiy elementlari va kalkulyatsiya moddalari boʻyicha ham oʻrganiladi.

Xarajatlarni elementi boʻyicha guruhlariga ajratishdan maqsad ularni strukturasi, dinamikasini nazorat qilishdan iborat.

Koʻrsatkichlarni taqqoslash orqali jonli mehnat bilan boshqa xarajat turlarini nisbati, ishlab chiqarish zaxiralarini normalashtirish

va tahlil etish, oborot mablag'larini tezligini aniqlash va milliy daromadni hisoblash imkoniyati tug'iladi.

Xarajatlarni elementlari bo'yicha tahlil natijalariga muvofiq material sig'imi, mehnat sig'imi va fond sig'imi darajalari bo'yicha tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin.

Tahlil etishda jami xarajatdagi har bir xarajat elementning tutgan salmog'i aniqlanib, o'tgan yildagisi hamda smetadagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi va bu ko'rsatkichlarni o'zgarish sabablari aniqlanadi.

Mahsulotlarning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari tarkibini iqtisodiy elementlari va moddalari bo'yicha quyidagi tarkibda berish mumkin (41-jadval).

41-jadval

**Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va moddalari bo'yicha turkumlanishi**

Iqtisodiy elementlari bo'yicha	Kalkulyatsion moddalari bo'yicha
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	Xomashyo
	Yoqilg'i
	Elektr quvvati
	Ehtiyot qismlar
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	Idishlar va hakoza
	Asosiy ish haqlari
	Qo'shimcha ish haqlari
Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	Ish haqiga ustamalar
	Ijtimoiy ta'minot bo'limiga
	Mehnat birjasiga
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, eskirish xarajatlari	Kasaba uyushmasiga
	Asosiy vositalarning eskirishi
	Nomoddiy aktivlarning eskirishi
Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar	Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni ijara haqlari
	Turli ishlar va xizmatlar
	Soliqlar, yig'imlar va hokazo.

Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlari va kalkulyatsion moddalari bo'yicha o'rganish quyidagicha farqlanadi, ya'ni bo'limlar va korxonalar bo'yicha jami xarajatlar faqat iqtisodiy elementlari bo'yicha o'rganiladi, mahsulotlar turi va turkumi bo'yicha esa ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyatsiya moddalari asosida ko'rib chiqiladi. Tahlil etishda ishlab chiqarish xarajatlarining jami o'zgarishi va uning tarkibi bo'yicha o'zgarishlari mutlaq va nisbiy jihatdan o'rganiladi. Nisbiy jihatdan o'rganishda har bir turkum xarajat moddasi yoki elementining jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi salmog'iga baho beriladi.

**Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari bo'yicha tarkibi va strukturasi tahlili**

Xarajat guruhlari	O'tgan yili		Hisobot yili	
	summa, ming so'm	jamiga nisbatan salmog'i, %	summa, ming so'm	jamiga nisbatan salmog'i, %
1. Moddiy xarajatlar	1001408	81,58	1539843	77,93
2. Mehnat haqi xarajatlari	121594	9,91	231624	11,72
3. Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	48395	3,94	92359	4,67
4. Amortizatsiya ajratmalari	3859	0,31	7370	0,37
5. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	52247	4,26	104730	5,30
<b>Jami ishlab chiqarish xarajatlari</b>	<b>1227503</b>	<b>100,0</b>	<b>1975926</b>	<b>100,0</b>

Jadval ma'lumotlari asosida xo'jalik subyekting ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilib chiqishimiz mumkin bo'ladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, jami xarajatda xomashyo, yoqilg'i, energiya, yarim fabrikat xarajatlarining tutgan ulushi yuqoridir. Ularni ulushi bazis davridagi 81,58 foizdan, hisobot davriga kelib 77,93 foizgacha pasaygan. Shu davr ichida mehnat haqi xarajatlarining ulushi esa 9,91 foizdan hisobot davriga kelib 11,72 foizga o'sgan. Moddiy xarajatlar bilan mehnat haqi xarajatlari o'rtasidagi nisbatning bunday tarzda o'zgarishi mehnat unumdorligi darajasining o'sganligidan hamda xodimlarning moddiy manfaatdorligi oshganligidan dalolat beradi.

Fan-texnika taraqqiyotiga tayangan holda ishlab chiqarishni tashkil etgan korxonalarda unumdorlik darajasi ortadi, amortizatsiya ajratmalari mutlaq summada o'tgan yilga nisbatan ortsa ham, ularning nisbiy ko'rsatkichlari ya'ni mahsulot narxidagi ulushi pasayadi.

Xarajatlarning kalkulyatsiya moddalarini tahlili asosan bir elementli bo'lib, ya'ni bir xil iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan xarajatlardan iborat. Xomashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa xarajat moddalarini har birini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bo'lish orqali xarajatlarni darajasi (tiyin) aniqlanadi va bu ko'rsatkichni bazis davri yoki hisobot davrining rejasi bilan taqqoslash orqali erishilgan iqtisod yoki ortiqcha xarajat aniqlanadi (43-jadval).



### Xarajatlarning moddalari bo'yicha tahlili

№	Xarajat moddalari	Hisobot yilining rejadagi xarajat darajasi, tiyin	Hisobot yilining haqiqiy xarajat darajasi, tiyin	Rejadagi farqi	
				+	-
1.	Xomashyo va materiallar	20,50	20,80	0,30	
2.	Yoqilg'i va energiya texnologik maqsadlar uchun	4,90	5,50	0,60	
3.	Chetdan olingan butlovchi buyum va yarim fabrikatlar	29,97	26,62		3,35
4.	Ishchilarning asosiy ish haqi	13,23	12,16		1,07
5.	Qo'shimcha ish haqi	1,61	1,45		0,16
6.	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	3,42	3,27		0,15
7.	Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari	2,73	2,53		0,20
8.	Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari	1,04	1,04		
9.	Brakdan zarar	X	0,35	0,35	
10.	Boshqa xarajatlar	0,99	0,61	1,25	0,38
	Jami – 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat	78,39	74,33	1,25	5,31

1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat reja darajasiga nisbatan 4,06 tiyanga pasaygan holda, xomashyo yoqilg'i va brakdan ko'rilgan zararlarni reja darajasidan ortib ketishi 1,25 tiyinni tashkil etgan. Qolgan xarajat moddalaridan 5,31 tiyin miqdorida iqtisodga erishilgan.

#### 5.7. Foyda va rentabellik ko'rsatkichlari tahlili

Har bir xo'jalik yurituvchi subyektning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi- faoliyati hisobiga foyda olishdir.

Foyda xo'jalik yurituvchi subyektning daromadlari hamda xarajatlari o'rtasidagi farqlanishning ijobiy o'zgaruvchanligidir va aksincha.

Daromadlar, bu hisobot davrida iqtisodiy foyda aktivlarining ko'payishi shaklidagi o'sishi bo'lib, xarajatlar – joriy yilda iqtisodiy foyda aktivlarining chiqib ketishini bildiradi.

Yuqoridagilarga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalarini amaldagi «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizom (keyingi o'rinlarda — nizom) asosida shakllangan ko'rsatkichlarga ko'ra omilli tahlil etib, dinamik o'zgarishiga baho berish mavzu tahlilining maqsadi hisoblanadi.

Belgilangan maqsadga erishishda tahlilning vazifalari:

- foydaning shakllanish ko'rsatkichlari va ishlatilishini amaldagi nizomga ko'ra asoslanganligini tekshirish;
- xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijasini shakllanish ko'rsatkichlari asosida dinamik o'zgarishiga baho berish;
- mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan moliyaviy natijani omilli o'rganish;
- asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijaning omilli tahlili;
- moliyaviy faoliyatdan olingan moliyaviy natijaga omilli baho berish;
- sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili;
- rentabellik ko'rsatkichlari va ularni omilli tahlili;
- xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijasini yaxshilash bo'yicha xulosa tayyorlash va boshqalar.

Moliyaviy natijalar tahlilida axborot manbayi bo'lib, «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot (2-sonli moliyaviy hisobot shakli) va ularni aks ettiruvchi tegishli schyot ma'lumotlari hisoblanadi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlar «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotdan olinib, u yil bo'yicha har bir chorakka tuziladi. Ushbu hisobot shakli tegishli tashkilotlarga, xususan soliq, bank va boshqa yuqori tashkilotlarga, budjetga to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida topshiriladi.

«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot va uni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli Yo'riqnomasi asosida belgilanadi.

«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijasi quyidagilar asosida shakllanadi:

1. Asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natija.
2. Moliyaviy faoliyatdan olingan moliyaviy natija.
3. Favqulotdagi moliyaviy natija.

Asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natija quyidagicha aniqlanadi ( $F_a$ ):

$$F_a = F_{ms} - X_d + F_{ba};$$

Bu yerda:

$F_{ms}$ -mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan moliyaviy natija;

$X_d$ -jami davr, ya'ni sotish, ma'muriy, boshqa operatsion, kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari;

$F_{ba}$ -asosiy faoliyatning boshqa daromadlari.

Moliyaviy faoliyatdan olingan moliyaviy natija quyidagicha aniqlanadi ( $M_f$ ):

$$M_f = M_f^d - M_f^z;$$

Bu yerda:

$M_f^d$ -moliyaviy faoliyatdan olingan, ya'ni dividend shaklidagi, foizlar ko'rinishidagi, uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing)dan, valuta kursidagi ijobiy tafovutlar va boshqa shu kabi daromadlar;

$M_f^z$ -moliyaviy faoliyatdan, ya'ni foizlar shaklidagi, uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing)dan, valuta kursidagi salbiy tafovutlar va boshqa shu kabi xarajatlar.

Favqulotdagi moliyaviy natija, xo'jalik yurituvchi subyektining odatdagi faoliyatidan aniq farq qiladigan, shuningdek, tez-tez yoki muntazam (uch yil davomida) sodir bo'lmaydigan, faoliyatida rejalashtirilmagan hamda tabiat qonuniyatlari asosida yuzaga kelgan xarajatlari yoki daromadlariga ko'ra shakllanadi.

«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot shakli amaldagi «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan, xalqaro hisob andozalari talablariga ko'ra mazmunan boyitilgan bo'lib, unda xo'jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zararlari to'g'risidagi ma'lumotlari umumlashtirilib, tahlil etiladi (44-jadval).

44-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xo'jalik yurituvchi subyektning sof foydasi hisobot yilida 192789 ming so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yildan 151620 (192789-41169) ming so'mga ko'p. Bu, xo'jalik yurituvchi subyekti uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Hisobot davrida sof foydaning 151620 ming so'mga ortishida asosan mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan foydaning yil oxirida 364541 ming so'mni tashkil etishi sabab bo'lgan. Negaki, hisobot davrida mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan foyda o'tgan yilga nisbatan 234965 (364541-129576) ming so'mga ko'p bo'lgan.

### Xo'jalik yurituvchi subyektda moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlari tahlili

№	Kursatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)	
		ming sum	%	ming sum	%	ming sum	%
1	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija, (2-shakl, 030-satr)	129576	240,0	364541	151,0	+234965	-89,0
2	Jami davr xarajatlari, (2-shakl, 040-satr)	75587	140,0	123144	51,0	+47557	-89,0
3	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	-	-	-	-	-	-
4	Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi (2-shakl, 100-satr yoki 1-2+3)	53989	100,0	241397	100,0	+187408	-
5	Moliyaviy faoliyatning daromadlari (2-shakl, 110-satr)	-	-	-	-	-	-
6	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (2-shakl, 170-satr)	-	-	-	-	-	-
7	Moliyaviy faoliyatdan olingan moliyaviy natija (5-6)	-	-	-	-	-	-
8	Favqulodagi moliyaviy natija (2-shakl, 230-satr)	-	-	-	-	-	-
9	Foyda solig'ini to'lagunga qadar moliyaviy natija (2-shakl, 240-satr yoki 4E7E8)	53989	100,0	241397	100,0	+187408	-
10	Foydadan soliq va boshqa soliqlar hamda yig'imlar (2-shakl, 250-260-satrlar)	12820	23,7	48608	20,1	+35788	-3,6
11	Hisobot davrining sof foydasi (2-shakl, 270-satr yoki 9-10)	41169	76,3	192789	79,9	+151620	+3,6

Yuqoridagi ijobiy holatlar bilan birga xo'jalik yurituvchi subyekting jami davr xarajatlari ham hisobot davrida 47557 (123144-75587) mig so'mga ortgan. Bu odatiy hol. Sababi mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan foydaga mos ravishda jami davr xarajatlari ham ortgan.

Moliyaviy natijalarning shakllanishida boshqa, ya'ni moliyaviy faoliyatdan, favqulodda olingan foyda yoki zarar ko'rsatkichlarning ta'siri bo'lmaga.

Xo'jalik yurituvchi subyekting moliyaviy natijalarini vertikal tahliliga ko'ra hisobot davrida mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan foydasi 151 foiz (soliq to'laguniga qadar foydasiga nisbatdan)ni tashkil etib, 51 foizi davr xarajatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Bu

ko'rsatkichlar o'tgan yilda mos ravishda 240 va 140 foizlarni tashkil etgan. Natijada, xo'jalik yurituvchi subyekti hisobot davrida erishgan 100 foizlik foydasidan 20,1 foiz soliq to'lagan va 79,9 foiz sof foydaga erishgan. Ushbu ko'rsatkich, o'tgan yili mos ravishda 100/23,7/76,3 taqsimotda bo'lgan.

Tahlil natijalariga binoan xo'jalik yurituvchi subyektining hisobot davridagi faoliyatini ijobiy baholash mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarini shakllanishida asosiy daromadni mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda tashkil etadi. Shu sababli, xo'jalik yurituvchi subyektining mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olgan yalpi foydasi omilli tahlil etilib, uning o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishiga baho beriladi.

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda ularni sotishdan sof tushumdan tannarxini chegirish asosida aniqlanadi. Shu boisdan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi, bahosi, hajmi ularni sotishdan yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir etadi.

**Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagicha ifodalanadi:**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Shartli ko'rsatkich	Hisobot yil
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum	$Q_0 \cdot P_0$	$Q_1 \cdot P_0$	$Q_1 \cdot P_1$
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi	$Q_0 \cdot S_0$	$Q_1 \cdot S_0$	$Q_1 \cdot S_1$
3. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda	$Q_0 \cdot (P_0 - S_0)$	$Q_1 \cdot (P_0 - S_0)$	$Q_1 \cdot (P_1 - S_1)$

Bu yerda, Q-sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi, naturada; P-sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar bir birligining bahosi; S-sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar bir birligining tannarxi.

Hisob-kitoblarga ko'ra omillar ta'siri quyidagicha aniqlanar edi:  
Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining o'zgarishi hisobiga;

$$Q_1 \cdot (P_0 - S_0) - Q_0 \cdot (P_0 - S_0)$$

Mahsulot (ish, xizmat)lar bir birligining bahosi va tannarxining o'zgarishi hisobiga.

$$Q_1 \cdot (P_1 - S_1) - Q_1 \cdot (P_0 - S_0)$$

Ammo bu tartibda mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda o'zgarishiga omilli baho berishda «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot ma'lumotlari yetarli bo'lmay, qo'shimcha axborot manbalari (boshqaruv hisobotlari)dan foydalanish zarur bo'ladi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foydaga ta'sir etuvchi ichki omillar sifatida qaralib, u tashqi sabablarga ko'ra ham o'zgaradi. Tashqi omillar, xo'jalik yurituvchi subyektiga bog'liq bo'lmagan, ya'ni mahsulot (ish, xizmat)larga bo'lgan talab, taklif va boshqa shu kabilarga ko'ra shakllanadi.

Umuman, xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelgan yalpi foydasiga o'ziga tegishli bo'lgan ta'sir etuvchi omillarini tahlil etish mumkin (45-jadval).

45-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyektining mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olgan yalpi foydasi va uning o'zgarishining omilli tahlili**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Shartli ko'rsatkich	Hisobot yili	O'zgarishi	
				mutlaq	foiz
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum	605821	942764	999312	+393491	164,9
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi	476245	785459	634771	+158526	133,3
3. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda	129576	157305	364541	+234965	281,3

45-jadval ma'lumotlaiga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektining mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olgan yalpi foydasi hisobot yilida 234965 (364541-129576) ming so'mga ortgan. Bu xo'jalik yurituvchi subyekt uchun ijobiy holat hisoblanib, unga mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum va ishlab chiqarish tannarxi ta'sir etgan. Ushbu omillar ta'sirini quyidagi hisob-kitoblar asosida aniqlash mumkin:

1. O'tgan yilda xo'jalik yurituvchi subyekt mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan 605821 ming so'mlik sof tushumga ega bo'lib, uning 78,6 foizi ( $(476245/605821)*100$ ) sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning tannarxini tashkil etgan. Ushbu fikrga asosan, xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)larini shartli tannarxi 785459 ( $(999312*78,6)/100$ ) ming so'm ekanligi aniqlanadi.

2. Yuqoridagi hisob-kitoblarga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)larini sotishdan olgan shartli yalpi foydasi 21,4 foiz (100,0-78,6)ga, ya'ni 27729 ( (129576\*21,4)/100) ming so'mga ortishi zarur. Aniqlangan summa 157305 (129576+27729) ming so'mni tashkil etgan.

3. Iqtisodiy tahlilning mazmuni, ya'ni umumiylikdan bo'laklarga bo'lib yoki bo'laklardan umumiylikka o'tishdan kelib chiqib, mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan shartli sof tushumni 942764 ming so'm (785459+157305) ekanligini keltirib chiqaramiz.

4. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxining o'zgarishi hisobiga.  
 $157305 - 129576 = +27729$ .

5. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi va boshqa omillar hisobiga.

$364541 - 157305 = +207236$ .

6. Omillar yig'indisi.

$27729 + 207236 = +234965$ .

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan, xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olgan yalpi foydasi o'sgan va omillar ta'siri ham ijobiy bo'lgan.

Davr xarajatlari xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, ammo uning asosiy faoliyatidan olingan moliyaviy natijani kamayishiga ta'sir etuvchi quyidagi ko'rsatkichlar asosida shakllanadi:

- sotish xarajatlari;

- ma'muriy xarajatlar;

- boshqa operatsion xarajatlar;

- kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari.

Sotish xarajatlari xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)larini xaridorlarga yetkazish bilan bog'liq barcha, yuklash, jo'natish, reklama va boshqa shu kabi xarajatlarni bildirib, u amaldagi «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq taribga solinadi.

Ma'muriy xarajatlar xo'jalik yurituvchi subyektning boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan ish haqi, asosiy vositalar va boshqa shu kabilar asosida shakllanadi.

Boshqa operatsion xarajatlar xo'jalik yurituvchi subyektning quyidagi:

- kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash;

- loyiha va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- maslahat va axborot tizimlariga haq to'lash;
- auditorlik xizmatlari uchun to'lovlar;
- salomatlikni muhofaza qilish;
- obodonchilik ishlari;
- madaniyat va sport obyektlarini asrash xarajatlari;
- budjetga majburiy to'lovlar kabi qator xarajatlarini bildirib, ular davr xarajatlari tarkibida salmoqli o'ringan ega.

Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari, deb ular yuzaga kelgan paytda joriy hisobot davrida soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, ammo keyingi davrlarda xo'jalik yurituvchi subyekting moliyaviy natijasidan o'n yildan ko'p bo'lmagan muddat ichida chegiriladigan quyidagi sarflarga aytiladi:

- yangi ishlab chiqarishlar, sexlar, agregatlarni, shuningdek, seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot (ish, xizmat) turlari hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirish;
- barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks sinab ko'rish (ishlab turgan holatida);
- ishchi kuchlarini qabul qilish va yangi ishga tushirilgan xo'jalik yurituvchi subyektda ishlashi uchun kadrlarni tayyorlash;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning jadallashtirilgan usulda hisoblangan amortizatsiya summasi bilan soliq qonunchiligimizga muvofiq belgilangan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq.

Masalan, xo'jalik yurituvchi subyekti joriy yilda 6 mln. so'mga yangi sexni o'zlashtirib, uning hisobot davrida soliqqa tortiladigan foydasi 17 mln. so'mni tashkil etgan. Bunga binoan xo'jalik yurituvchi subyekting joriy yilda soliqqa tortiladigan bazasi 23 mln. (6+17) so'm bo'ladi. Keyingi yillar (o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatlarda)da esa, xo'jalik yurituvchi subyekti 600000 (6 mln./10, 6 mln./9, 6 mln./8...) so'mni soliqqa tortiladigan foydasidan chegirib, budjetga to'lovlarni amalga oshiradi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida xo'jalik yurituvchi subyekting davr xarajatlarining holatiga baho beriladi (46-jadval).

46-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyekting davr xarajatlari hisobot davrida 123144 ming so'mni



tashkil etib, bu o'tgan yilga nisbatdan 47557 (123144-75587) ming so'mga ko'p bo'lgan.

Davr xarajatlari tarkibida asosan boshqa operatsion va ma'muriy sarflari bo'lib, ularning salmog'i mos ravishda hisobot yilida 90,8 hamda 9,2 foizlarni tashkil etgan.

46-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektining davr xarajatlari tahlili

(ming so'm hisobida)

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yili		Hisobot yili		Farqi (+,-)	
		summa	foiz	summa	foiz	summa	foiz
1.	Sotish xarajatlari	-	-	-	-	-	-
2.	Ma'muriy xarajatlar	8273	11,0	11375	9,2	+3102	-1,8
3.	Boshqa operatsion xarajatlar	67314	89,0	111769	90,8	+44455	+1,8
4.	Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	-	-	-	-	-	-
	<b>Jami davr xarajatlari</b>	<b>75587</b>	<b>100,0</b>	<b>123144</b>	<b>100,0</b>	<b>+47557</b>	<b>-</b>

Tahlil natijalariga binoan davr xarajatlari faoliyat davomida yuzaga keluvchi xarajatlar hisoblanib, uni bartaraf yetish mumkin emas. Shu boisdan bu xarajatni kamaytirish imkoniyatlari bo'lsa, undan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromadlari yuzasidan «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotda to'liq ma'lumotni olish imkoniyati bo'lmay, ular to'g'risida umumlashgan ko'rsatkich keltirilgan. Shunday bo'lsada, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromadlari quyidagi ko'rsatkichlar asosida shakllanib, ular to'g'risida maxsus bilimga ega bo'lishni taqozo etadi:

1. Ortiqcha asosiy vositalarini sotishdan olgan foydasi.
2. Ortiqcha nomoddiy aktivlarini sotishdan olgan foydasi.
3. Ortiqcha materiallarini sotishdan olgan foydasi va boshqalar.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar bilan mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan foyda (zarar)ni chegirish (qo'shish) orqali xo'jalik yurituvchi subyektining asosiy faoliyatidan olingan moliyaviy natijasi aniqlanadi va ularning ta'siriga baho beriladi.

Rentabellik-xo'jalik yurituvchi subyektning foydalilik darajasini karakterlab, odatda uning bir necha turlari mavjud.

Xususan:

1. Asosiy vositalar rentabelligi ( $R_a$ ).

Asosiy vositalar rentabelligi har bir yoki ming so'mlik asosiy vosita hisobiga to'g'ri keladigan sof foyda summasini karakterlab, quyidagicha aniqlanadi:

$$R_a = \frac{\text{Sof foyda (2 - shakl, 270 - satr)}}{\text{Asosiy vositalar qiymati}} * 100;$$

Joriy aktivlar rentabelligi ( $R_j$ );

Ushbu ko'rsatkich joriy aktivlarning har bir yoki ming so'miga to'g'ri keladigan sof foydani xarakterlab, quyidagicha aniqlanadi:

$$R_j = \frac{\text{Sof foyda (2 - shakl, 270 - satr)}}{\text{Joriy aktivlar qiymati}} * 100;$$

Jami mulk rentabelligi ( $R_m$ ).

Bu ko'rsatkich xo'jalik yurituvchi subyektning jami mulkining foydalilik darajasini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanib, quyidagicha aniqlanadi:

$$R_m = \frac{\text{Sof foyda (2 - shakl, 270 - satr)}}{\text{Jami mulk qiymati}} * 100;$$

O'z mablag'lar manbayi rentabelligi ( $R_n$ );

O'z mablag'lar manbayi rentabelligi xo'jalik yurituvchi subyektning o'ziga qarashli bo'lgan mablag'larning foydalilik darajasini anglatib, quyidagicha aniqlanadi:

$$R_n = \frac{\text{So foyda (2 - shakl, 270 - satr)}}{\text{O'z mablag'lar manbai}} * 100;$$

Sotish bo'yicha rentabellik ( $R_s$ );

Sotish bo'yicha rentabellik, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning foydalilik darajasini xarakterlab, boshqa rentabellik ko'rsatkichlaridan farqli ravishda quyidagicha aniqlanadi:

$$R_s = \frac{\text{Mahsulot(ish, xizmat)lar sotishdan yalpi foyda (2 - shakl, 030 - satr)}}{\text{Mahsulot(ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum}} * 100.$$

Rentabellik ko'rsatkichlari foydaning yuzaga chiqish o'rni bilan bevosita bog'lanib, birlik omillar bo'yicha aniqlanib, tahlil etiladi (47-jadval).

47-jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning rentabellik ko'rsatkichlari hisobot davrida o'tgan yilga nisbatan o'sgan. Bu xo'jalik yurituvchi subyektining faoliyati samaradorligidan dalolat bermoqda.

Xususan:

- asosiy vositalar rentabelligi 168,1 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yildan 138,4 (168,1-29,7) foizga ko'p;

- joriy aktivlar rentabelligi ham hisobot davrida o'tgan yildan 11,0 (24,3-13,3) foiza ortgan;

- jami mol-mulk rentabelligi hisobot yili 20,4 foizni tashkil etib, o'tgan yildan 11,3 foizga (20,4-9,1) ko'p bo'lgan;
- o'z mablag'lar manbayi rentabelligi hisobot davrida 28,8 foiz (42,5-13,7)ga ko'paygan;
- mahsulot (ish, xizmat)lar rentabelligi ham hisobot yili 15,1 foiz (36,5-21,4)ga ortgan.

47-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektning rentabellik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
1	Hisobot davrining sof foydasi	41169	192 789	+151 620
2	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija	129576	364 541	+234 965
3	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum	605821	999 312	+393 491
4	Asosiy vositalar qiymati	138395	114 677	-23 718
5	Joriy aktivlar qiymati	309846	793 883	+484 037
6	Jami mol-mulk	454739	943 138	+488 399
7	O'z mablag'lar manbalari	300212	453 890	+153 678
8	Asosiy vositalar rentabelligi, % ( (1/5)*100)	29,7	168,1	+138,4
9	Joriy aktivlar rentabelligi, % ( (1/6)*100)	13,3	24,3	+11,0
10	Jami mol-mulkning rentabelligi, % ( (1/7)*100)	9,1	20,4	+11,3
11	O'z mablag'lar manbayi rentabelligi, % ( (1/8)*100)	13,7	42,5	+28,8
12	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish bo'yicha rentabellik, % ( (2/3)*100)	21,4	36,5	15,1

Yuqoridagi ijobiy natijalarga xo'jalik yurituvchi subyektining hisobot davridagi sof foydasini 151620 (192789-41169) ming so'mga o'sishi katta ta'sir etgan. O'ylaymizki, xo'jalik yurituvchi subyektini bunday faoliyatini yanada samarali davom ettirishi maqsadga muvofiqdir. Faoliyatini yanada samarali davom ettirishda xo'jalik yurituvchi subyektning rentabellik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etgan omillarni o'rganish muhim ahamiyatga ega (48-jadval).

Hisob-kitoblar:

1. Asosiy vositalar rentabelligining shartli ko'rsatkichi;

$$R_a^{sh} = \frac{\text{Sof foyda, hisobot davr (2-shakl, 270-satr)}}{\text{Asosiy vositalar qiymati, o'tgan yil}} * 100 = \frac{192789}{138395} * 100 = 139,3;$$

1.1. Sof foydaning o'zgarishi hisobiga asosiy vositalar rentabelligining o'zgarishi;

$$R_a^{sh} - R_a^0 = 139,3 - 29,7 = +109,6;$$

1.2. Asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi hisobiga.

$$R_a^1 - R_a^{sh} = 168,1 - 139,3 = +28,8.$$

2. Joriy aktivlar rentabelligi.

$$R_j^{sh} = \frac{\text{Sof foyda, hisobot yil (2 - shakl, 270 - satr)}}{\text{Joriy aktivlar qiymati, o'tgan yil}} * 100 = \frac{192789}{309846} * 100 = 62,3.$$

2.1. Sof foydaning o'zgarishi hisobiga:

$$R_j^{sh} - R_j^0 = 62,3 - 13,3 = +49,0;$$

2.2. Joriy aktivlar qiymatining o'zgarishi hisobiga.

$$R_a^1 - R_a^{sh} = 24,3 - 62,3 = -38,0.$$

48-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektining aktivlari rentabelligining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Shartli ko'rsatkich	Hisobot yil	Jami o'zgarish	Shu jumladan:	
					sof foydaning o'zgarishi hisobiga	aktivlar-ning o'zgarishi hisobiga
1. Asosiy vositalar rentabelligi ( $R_a^{sh}$ ), %	29,7	139,3	168,1	+138,4	+109,6	+28,8
2. Joriy aktivlar rentabelligi ( $R_j^{sh}$ ), %	13,3	62,3	24,3	+11,0	+49,0	-38,0

48-jadval ma'lumotlariga ko'ra asosiy vositalar va joriy aktivlarning rentabelligi hisobot davrida o'tgan yilga nisbatdan o'sgan bo'lib, ularga sof foyda hamda aktivlar qiymatining o'zgarishi ta'sir etgan.

Xususan, asosiy vositalar rentabelligi sof foydaning hisobot yili o'tgan davrga nisbatdan 151620 (192789-41169) ming so'mga ortishi hisobiga 109,6 foizga ortgan. Asosiy vositalar qiymatining hisobot davrida 23718 (114677-138395) ming so'mga kamayishi hisobiga esa uning rentabelligi 28,8 foizga o'sgan. Natijada, asosiy vositalar rentabelligi hisobot davrida o'tgan yilga nisbatdan jami 138,4 (168,1-29,7 yoki 109,6+28,8) foizga ortgan.

Shu jumladan, joriy aktivlarning rentabelligi hisobot davrida sof foydaning ortishi hisobiga 49,0 foizga o'sgan. Joriy aktivlar qiymatining hisobot davrida 484037 (793883-309846) ming so'mga ortishi hisobiga ularning rentabelligi 38,0 foizga pasaygan. Natijada, ikki omil yig'indisi hisobiga jami o'zgarish hisobot yilida 11,0 foiz (49,0+ (-38,0))ni tashkil etgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan, xo'jalik yurituvchi subyektining asosiy vositalari rentabelligini ijobiy baholash mumkin. Joriy aktivlar rentabelligini oshirishda esa, xo'jalik yurituvchi subyektini buxgalteriya balansidagi tayyor mahsulot (170-satr), debitorlik qarzlari (210-satr) kabi qator ko'rsatkichlarni kamaytirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## Xulosalar

**Yalpi mahsulot** - xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir davr (kun, oy, chorak, yil)da yaratgan qiymatliklarining amaldagi va solishtirma baholarda o'Ichangan hajmiga aytiladi. Tovar mahsuloti - iste'molchilarga yetkazib berish uchun sotishga mo'ljallangan, pirovard mahsulot (ish, xizmat)lar bo'lib, hajm nuqtayi nazaridan yalpi mahsulotdan tugallanmagan ishlab chiqarishi, yarim fabrikatlari hisobiga kichik bo'ladi. Sotilgan mahsulot - iste'molchilarga jo'natilgan, xaridorlardan puli kelib tushgan, daromadi tan olingan mahsulot (ish, xizmat)lar qiymatiga aytilib, u tovar mahsulotidan sotilmagan tovarlar hisobiga hajmi nuqtayi nazaridan kichik bo'lishi mumkin. Xo'jalik yurituvchi subyektining ixtisosligiga ko'ra ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larning tarkibi ularga bo'lgan bozordagi talab va taklifning o'zgarishiga qarab muntazam takomillashib boradi. Bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larning strukturaviy o'zgarishlarini yuzaga keltiradi. Natijada mahsulot (ish, xizmat)lar qiymatining hajmi strukturaviy o'zgarishlar ta'sirida ortib yoki kamayib boradi. Mahsulot (ish, xizmat)lar assortimenti - ularning ma'lum bir belgilari, ya'ni navi, o'lchami kabilarga qarab turlarga ajratiladigan mahsulot (ish, xizmat)lar xilidir. Mahsulot (ish, xizmat)lar nomenklaturasi, deb tovarlarning guruhlarini belgilashda hamda hisobga olishda qabul qilingan ro'yxatiga aytiladi. Assortimentga qabul qilingan mahsulot (ish, xizmat) hajmi, har bir tovar assortimenti qiymatining rejalashtirilgan va haqiqatdagi ma'lumotlaridan eng kichigini olish orqali aniqlanadi. Mahsulot (ish, xizmat)lar sifati, deganda uning tovarlilik darajasi, mamlakat

xalqaro standart me'yorlariga egaligiga aytiladi. Ishga qabul qilish oboroti o'z arizalariga binoan ishga qabul qilingan xodimlar sonini jami xodimlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Ishdan bo'shatish oboroti o'z arizalariga ko'ra intizomni buzganligi, nafaqaga, homiladorlik ta'tiliga chiqqanligi, o'qishga ketganligi uchun ishdan bo'shagan xodimlar sonini jami xodimlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Mehnat resurslarining qo'nimsizlik koeffitsiyenti ( $K_k$ ) o'z arizalariga ko'ra intizomni buzgani uchun ketgan xodimlar sonini jami xodimlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Xo'jalik yurituvchi subyekti tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining ko'p yoki kam bo'lishi ishni tashkil etish va mehnat resurslarining ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlariga ham bog'liq. Ish vaqti fondi ko'rsatkichiga xodimlar soni, bir xodimning yil davomida ishlagan kuni va ish kuni davomiyligi kabi omillar ta'sir etadi. Mehnat unumdorligi ( $M_n$ ), deb - vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmiga aytiladi. Mehnat sig'imi ( $M_s$ ) bir so'mlik mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqtni bildiradi. Moddiy resurslarga bo'lgan talabning ichki ta'minoti, xo'jalik yurituvchi subyektning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, materiallarga bo'lgan ehtiyojini qoplanishiga aytiladi. Moddiy resurslarga bo'lgan talabning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnoma asosida qoplanishi tashqi ta'minotni bildiradi. Material qaytimi, deb bir so'mlik moddiy resurslar hisobiga to'g'ri kelgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi tushuniladi. Material sig'imi - bir so'mlik mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy resurslar hajmini bildiradi. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi yoki qayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar (amortizasiya), mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarining qiymat ko'rinishini ifoda etadi. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan barcha xarajatlarga noishlab chiqarish xarajatlari, deb ataladi. Ular tarkibiga sotish bilan bog'liq xarajatlar, ilmiy tekshirish va tadqiqot xarajatlari, umumiy va ma'muriy boshqaruv xarajatlari, boshqaruv xarajatlari, olingan kredit uchun foiz to'lovlari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, xarajatlar kiritiladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'z o'sib boruvchi xarajatlar o'zgaruvchan xarajat hisoblanadi. Xarajatlar mahsulot miqdoriga bog'liq bo'lmagan holda bir xarajatlanuvchi xarajatlardir. Yarim o'zgaruvchan xarajatlar — k va ayni paytda davriylik yoki doimiylik xarakteriga ega

## Mavzu bo'yicha savollar

1. Mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar tahlili qanday olib boriladi?
2. Mahsulot assortimentini tahlil qilishning qanday usullari mavjud?
3. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi, deganda nimani tushunasiz?
4. Maromiylik tahlilida qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni tavsiflang.
5. Sotish hajmining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir etadi?
6. Mahsulot sifatini tahlil qilishda qaysi ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
7. Sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini sanab o'ling.
8. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik tahlilining vazifalari nimalardan iborat?
9. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlikni tahlil qilishda qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?
10. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlarni aytib o'ling.
11. Mehnat resurslari tarkibi va tuzilishini tahlil qilishdan maqsad nima?
12. Xodimlar harakati va ularning darajasi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
13. Ish vaqti fondiga qaysi omillar ta'sir etadi?
14. Bir xodimning mehnat unumiga qanday omillar ta'sir etadi?
15. Bir ishchining mehnat unumiga qanday omillar ta'sir etadi?
16. Mehnat unumdorligi va mehnat sig'imi o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.
17. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlikni o'rganishda qaysi axborot manbalariga tayaniladi?
18. Material resurslardan samarali foydalanganlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni sanab o'ling.
19. Mahsulot tannarxi, deganda nimani tushunasiz?
20. Mahsulot tannarxini tahlil etishning ahamiyati nimadan iborat?
21. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat qanday aniqlanadi?

22. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementi va kalkulyasion moddalari qanday tahlil etiladi?

23. Mahsulot tannarxiga qo'shiladigan material xarajatlari qanday tahlil etiladi?

24. Mehnat haqi xarajatlari va unga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Ishlab chiqarish hajmi; mahsulot nomenklaturasi; mahsulot assortimenti; mahsulot assortimentini tahlil etish uslublari; mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarni aniqlash uslublari; ishlab chiqarish maromiyligi; ishlab chiqarish maromiyligini buzilish sabablari; maromiylikning xo'jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri; mahsulotlar ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar tasnifi; sotish hajmi; sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar; shartnoma bajarilishini tahlil etish usullari; sifat ko'rsatkichlari tahlili; reklamatsiya; mehnat resurslari; mehnat resurslarining tarkibi va strukturasi; mehnat resurslarini tahlil qilishning vazifalari; ishchilar qo'nimsizligi; ishga qabul qilish oboroti; ishdan bo'shatish oboroti; qo'nimsizlikni tahlil etish uslubi; ish vaqtdan foydalanish tahlili; mehnat unumdorlik ko'rsatkichlari; qiymat shaklida unumdorlik darajasini aniqlashning kamchiliklari; 1 xodimga va 1 ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot; 1 xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulotga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash uslubi; 1 ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi; mahsulot mehnat sig'imi; mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillari; moddiy resurslar to'g'risida tushuncha; moddiy resurslar bilan ta'minlanish manbalari; ichki manba; tashqi manba; ishlab chiqarishda moddiy resurslardan samarali foydalanish; material sig'imi; material sig'imi va uni ta'siri; tannarx to'g'risida tushuncha; tannarxni tahlil etishning maqsadi; xarajatlarni turkumlash; o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar; mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar; mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar; 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar; xarajatlarni iqtisodiy elementi bo'yicha tahlil etish.



## Mavzu bo'yicha testlar

**1. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlang.**

1. Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi.
2. Mehnat unumdorligi.
3. Ishchilar soni.
4. Material qaytimi.
5. Material xarajatlari.
6. Asosiy vositalar sig'imi.
7. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.
8. Ishchilarning 1 soatlik ish unumi.

C. 5,6,7,8.




A. 2,4,6,8.

G. 1,3,5,7.

E. 1,2,3,4.

**2. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni tahlil etishda ko'rsatkichlarni analitik jadvalda to'g'ri joylashtirish ketma-ketligini aniqlang.**

1. Asosiy vositalar qaytimi.
2. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.
3. Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi.
4. Asosiy vositalar qaytimi.



## **VI mavzu. KORXONALAR MOLIVAVIY FAOLIYATINI TAHLIL QILISH USULLARI**

---

### **6.1. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati tahlilining maqsadi, vazifalari hamda axborot manbalari**

Mamlakatda turli ukladlardagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyat ko'rsatib, ular qonun himoyasidadir. Shu boisdan xo'jalik yurituvchi subyektlar savdo-sotiqda erkin munosabat yuritishi, hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi uchun sherik tanlay bilishi, o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmat)lar va ularni sotishdan olgan daromadga to'liq egalik qiladi. Bu jihatlar xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga ta'sir etuvchi muhim omillardan sanalib, uning to'g'ri yo'lga qo'yilishi bugunning kechiktirib bo'lmas vazifalaridan sanaladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning yangicha faoliyatida ishonchli hamkor tanlay bilish moliyaviy hisobot shakllariga asosan hamkorning moliyaviy imkoniyatlarini o'rganishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagilarga binoan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning yillar bo'yicha dinamik o'zgarishiga omilli baho berish tahlilning maqsadi sanaladi. Belgilangan maqsadga erishishda tahlilning vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga aniq va xolisona baho berish.
2. Xo'jalik mablag'lari va uning kelib chiqish manbalarini joylanishini tekshirish, ularni to'g'ri yo'nalishda sarflanganligini aniqlash.
3. Ruxgalteriya balansini harakatchanligiga ko'ra tahlil etish.
4. Tovar moddiy zaxiralarini qoplash manbalarini omilli o'rganish.
5. Aylanma mablag'lar aylanishini tahlil etish.
6. Moliyaviy koeffitsiyentlarni omilli o'rganish.
7. Xo'jalik subyektining to'lov qobiliyatini baholash.
8. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning holatini omilli o'rganish.

9. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan xulosa hamda takliflar tayyorlash va boshqalar.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga buxgalteriya balansi asosida baho beriladi.

Buxgalteriya balansi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, xo'jalik yurituvchi subyektning mablag'lari va ularni kelib chiqish manbalarining ma'lum bir sanaga aks ettiruvchi huquqiy hujjat hisoblanadi.

Buxgalteriya balansi ikki – aktiv va passiv qismlardan iborat bo'lib, uning aktivida xo'jalik mablag'lari, ya'ni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'ladigan buyumlari aks etadi. Passivida esa, buxgalteriya balansining aktividagi mablag'larning kelib chiqish, ya'ni o'z yoki chetdan jalb etilgan manbalar hisobiga shakllanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Buxgalteriya balansining aktivini ikki qism: - «Uzoq muddatli aktivlar»; «Joriy aktivlar»dan iborat bo'lib, tahlil ko'rsatkichlari ham ular asosida shakllanadi. Faqatgina tahlilda joriy aktivlar mazmun-mohiyatiga ko'ra uch qism, xususan: - «Tovar-moddiy zaxiralari» (kelgusi davr xarajatlari -190 satr, muddati kechiktirilgan xarajatlar – 200 satr bilan birga); «Debitorlik qarzlari»; «Pul mablag'lari» (qisqa muddatli investitsiyalar – 370- satr, boshqa joriy aktivlar – 300 satr bilan birga)ga bo'linib, balans tamoyili asosida o'rganiladi (49-jadval).

49-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektning yil boshida 1631291,1 ming so'mlik mulki bo'lib, bu ko'rsatkich yil oxirida 3207468 ming so'mni tashkil etgan. Demak, xo'jalik yurituvchi subyektning mol-mulki hisobot davrida 1576176,9 ming so'mga ortgan. Bu ko'payish asosan joriy aktivlarning, ya'ni zaxira va xarajatlarning 28556,4 (81886-53329,6) ming so'mga, pul mablag'larining 1465182,2 (1465792-609,8) ming so'mga ortishi hisobiga yuz bergan. Ma'lumotlarga mos ravishda mol-mulkdagi salmog'i ham o'zgargan.

Tahlil natijalariga binoan xo'jalik yurituvchi subyektning mol-mulkinging ko'payishida pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar salmoqli hissaga ega. O'tgan yili bu ko'rsatkich 0,037 foizni tashkil etib, hisobot davrida 45,662 (45,699) birlikka ortgan. Bu xo'jalik yurituvchi subyekt uchun ijobiy holat.

Shuningdek, zaxira va xarajatlarning 28556,4 ming so'mga ko'pligi ijobiy holat. Sababi, bu ko'payish ishlab chiqarish zaxiralari

hissasiga (buxgalteriya balansiga qarang) to'g'ri keladi. Agarda bu o'sish tovarlar hisobiga bo'lganda bu xo'jalik yurituvchi subyekti uchun salbiy holat hisoblab, mahsulot (ish, xizmat)larining sotilmay qolganligini bildirar edi.

49-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyekting buxgalteriya balansini  
aktivining tahlili**

(ming so'm hisobida)

№	Mol-mulk (aktiv)ning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)	
		ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%
	1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3
1.	Uzoq muddatli aktivlar	1271200,1	77,926	1550249	48,332	279048,9	-29,594
2.	Joriy aktivlar	360091	22,074	1657219	51,668	1297128	29,594
	Shu jumladan:						
2.1.	Zaxira va xarajatlar (140+190+200);	53329,6	3,269	81886	2,553	28556,4	-0,716
2.2.	Pul mabag'lari va qimmatli qog'ozlar (320+370+380);	609,8	0,037	1465792	45,699	1465182,2	45,662
2.3.	Debitorlar (210).	306151,6	18,768	109541	3,416	-196610,6	-15,352
	<b>Balans aktivining JAMI</b>	<b>1631291,1</b>	<b>100,0</b>	<b>3207468</b>	<b>100,0</b>	<b>1576176,9</b>	<b>-</b>

Deditorlik qarzlarning 196610,6 (109541-306151,6) ming so'mga kamayishi xo'jalik yurituvchi subyekti uchun ijobiy holat. Negaki, xo'jalik yurituvchi subyekti tashqarida yurgan, olishga tegishli bo'lgan qarzlarni katta qismini qaytarib olgan.

Yuqoridagi tahlil natijalariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyekti debitorlik qarzlarni undirish ishlarini amalga oshirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Negaki, debitorlik qarzlarni vaqtida undirilmastligi uning moliyaviy holatini pasaytirishi mumkin.

Buxgalteriya balansining passivi tahlili ham 1-sonli moliyaviy hisobot shakli ko'rsatkichlari, ya'ni «O'z mablag'lar manbayi» va «Majburiyatlar» asosida amalga oshiriladi. Tahlilda majburiyatlar ham mazmun-mohiyatidan kelib chiqib quyidagicha guruhlariga ajratilib o'rganiladi:

- uzoq muddatli kredit va qarzarlar;
- qisqa muddatli kredit va qarzarlar;
- kreditorlik qarzlari (50-jadval).

**Xo'jalik yurituvchi subyekting buxgalteriya balansini  
passivining tahlili**

№	Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga			Yil oxiriga			(ming so'm hisobida)	
		ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%
		2	3	4	5	6=4-2	7=5-3		
1.	O'zlik mablag'lari manbalari	120037,6	7,358	942154	29,374	822116,4	22,016		
2.	Majburiyatlar	1511253,5	92,642	2265314	70,626	754060,5	-22,016		
	Shu jumladan:								
2.1.	Uzoq muddatli majburiyatlar (490)	-	-	1000000	31,177	1000000	31,177		
2.2.	Qisqa muddatli kredit va qarzlilar (730, 740)	10900	0,668	-	-	-10900	-0,668		
2.3.	Kreditolik qarzlari (601)	1500353,5	91,974	1265314	39,449	-235039,5	-52,525		
	<b>Balans passivining JAMI</b>	<b>1631291,1</b>	<b>100,0</b>	<b>3207468</b>	<b>100,0</b>	<b>+1576176,9</b>	<b>-</b>		

Jadval ma'lumotlariga ko'ra jami manbalar yil boshiga nisbatan 1576176,9 (3207468-1631291,1) ming so'mga yoki 196,6 foizga ko'paygan. Xususan, o'zlik mablag'lar manbalari hisobot yil boshiga nisbatan 822116,4 (942154-120037,6) ming so'mga yoki 784,9 foizga, majburiyatlar 754060,5 (2265314-1511253,5) ming so'm yoki 149,9 foizga ko'paygan.

Hisobot davrida xo'jalik yurituvchi subyektining majburiyatlarining 149,9 foizga ortishi uning uchun ijobiy holat emas. Sababi, mablag'lar manbayi tarkibida majburiyatlarning ortishi xo'jalik yurituvchi subyektning mustaqillik darajasini pasaytirishi mumkin. Tahlil natijalariga binoan, hisobot yilida xo'jalik yurituvchi subyekt 3207468 ming so'mlik mulkka ega bo'lib, uning 70,626 ((2265314/3207468)\*100) foizi chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobiga shakllangan.

Shuningdek, hisobot davrida mablag'lar manbayi tarkibida majburiyatlarning katta salmoqqa egaligi, asosan joriy kreditorlik qarzlarning ortishi hisobiga bo'lgan. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi subyektining mablag'lar manbayi joylashuvi yuzasidan ma'lum ishlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## **6.2. Buxgalteriya balansining aktivi va passivi harakatchanligi tahlili**

Buxgalteriya balansining aktivi va passivining harakatchanligiga ko'ra tahlili asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini baholash mumkin. Shu boisdan ham xo'jalik yurituvchi subyekt mablag'lari (aktivi) va manbalari (passivi) harakatchanligiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganiladi:

1. Xo'jalik mablag'lari:
  - doimiy harakatdagi ( $A_1$ );
  - tez sotiluvchi ( $A_2$ );
  - sekin sotiluvchi ( $A_3$ );
  - qiyin sotiluvchi aktivlarga bo'linadi ( $A_4$ ).
2. Xo'jalik manbalari:
  - muddati kelgan ( $P_1$ );
  - qisqa muddatli ( $P_2$ );
  - uzoq muddatli ( $P_3$ );
  - doimiy passivlarga bo'linadi ( $P_4$ ).

Doimiy harakatdagi aktivlar ( $A_1$ ), deb xo'jalik yurituvchi subyektning barcha pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalari va

boshqa joriy aktivlariga aytiladi. Shu boisdan ham doimiy aktivlar ( $A_1$ )ning muddati kelgan passivlar ( $P_1$ )ni qoplashga yetariligi ya'ni tegishli majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Tez sotiluvchi aktivlar ( $A_2$ )ga xo'jalik yurituvchi subyektning debitorlik qarzlari kiritilib, ular zurrur bo'lgan hollarda to'lov vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ular qisqa muddatli passivlar ( $P_2$ )ni qoplashga yetarli bo'lishi ijobiy hisoblanadi.

Sekin sotiluvchi aktivlar ( $A_3$ ), deb xo'jalik yurituvchi subyektning tovar-moddiy zaxiralari, balans tamoyiliga binoan kelgusi davr xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlar kiritilib, ular uzoq muddatli passivlarni qoplashi maqsadga muvofiq. Negaki, sekin sotiluvchi aktivlar ( $A_3$ ) naqd pul mablag'lari yetishmagan hollarda uzoq muddatli to'lov majburiyatlarini qoplashga sarflanishi mumkin.

Qiyin sotiluvchi aktivlar ( $A_4$ )ga xo'jalik yurituvchi subyektning barcha uzoq muddatli aktivlari, xususan: asosiy vositalari; nomoddiy aktivlari; uzoq muddatli investitsiyalari, qimmatli qog'ozlari, sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalari; qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalari; xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalariga investitsiyalari; o'rnatilgan asbob-uskunalari; kapital qo'yilmalari; uzoq muddatli debitorlik qarzlari; uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlari va boshqa oborotdan tashqari aktivlari kiritiladi. Bu mulk turli ishlab chiqarishda uzoq muddat qatnashib, o'z qiymatini asta-sekin yaratilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larga o'tkazib boradi. Shuning uchun ham ularning pulga aylanib, to'lov vositasi bo'lishiga ko'p vaqt talab etiladi. Ammo ularning doimiy passivlar ( $P_2$ )dan kichik bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari manbayi hisobiga ko'proq aktiv shakllanganligini bildiradi.

Buxgalteriya balansining aktivi va passivini harakatchanligiga ko'ra guruhlarga ajratgandan so'ng ularda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1.  $A_1 > P_1$ .
2.  $A_2 > P_2$ .
3.  $A_3 > P_3$ .
4.  $A_4 < P_4$ .

Yuqoridagi shartlarning bajarilishi, xo'jalik yurituvchi subyektning mutlaq moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Ammo, har safar ham bu shartlar bajarilmasligi mumkin. Shu boisdan shartlarning bajarilishiga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati quyidagicha baholanadi va tahlil etiladi (51-jadval):

**Xo'jalik yurituvchi subyekting buxgalteriya balansi aktivi va passivini harakatchanligiga ko'ra tahlili**

Aktiv	Yil boshiga	Yil oxiriga	Passiv	Yil boshiga	Yil oxiriga	To'lash uchun mablag'larining yetishmasligi (+,-)	
						Yil boshiga	Yil oxiriga
1	2	3	4	5	6	7=2-5	8=3-6
1. Doimiy harakatdagi aktivlar (320, 370, 380)	609,8	1465792	1. Muddati kelgan to'lov majburiyatlar (601)	1500353,5	1265314	-1499743,7	200478
2. Tez sotiluvchi aktivlar (210)	306151,6	109541	2. Qisqa muddatli passivlar (600-601)	10900	-	295251,6	109541
3. Sekin sotiluvchi aktivlar (140, 190, 200)	53329,6	81886	3. Uzoq muddatli passivlar (490)	-	1000000	53329,6	-918114
4. Qiyin sotiluvchi aktivlar (130)	1271200,1	1550249	4. Doimiy passivlar (480)	120037,6	942154	1151162,5	608095
<b>Jami</b>	<b>1631291,1</b>	<b>3207468</b>	<b>Jami</b>	<b>1631291,1</b>	<b>3207468</b>	<b>-</b>	<b>-</b>

51-jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik yurituvchi subyekting balansi aktivi va passivini harakatchanligiga ko'ra tahlil etganda quyidagi shart bajarildi:

Yil boshida	Yil oxirida
609,8 < 1500353,5	1465792 > 1265314
306151,6 > 10900	109541 > 0
53329,6 > 0	81886 < 1000000
1271200,1 > 120037,6	1550249 > 942154



Shartlarning bajarilishi	Xo'jalik subyektining moliyaviy holati
1. $A_1 < P_1$ ; 2. $A_2 > P_2$ ; 3. $A_3 > P_3$ ; 4. $A_4 < P_4$ .	Moliyaviy barqaror
1. $A_1 < P_1$ ; 2. $A_2 < P_2$ ; 3. $A_3 > P_3$ ; 4. $A_4 < P_4$ .	Moliyaviy nobarqaror
1. $A_1 < P_1$ ; 2. $A_2 < P_2$ ; 3. $A_3 < P_3$ ; 4. $A_4 > P_4$ .	Krizisli

51-jadval natijalariga binoan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati yil boshida va hisobot davrining oxirida ham bir xil barqaror holatda bo'lgan. Ammo xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati barqaror deb topilgan bo'lsada, bu barqarorlik yil boshidagi natijadan biroz ijobiy tomonga siljigan. Negaki, yil boshida xo'jalik yurituvchi subyekt doimiy harakatdagi aktivlari ( $A_1$ ) bilan muddati kelgan passivlarni ( $P_1$ ) 60,8  $((73945/121536)*100)$  foiz qoplagan. Yil oxirida esa, bu ko'rsatkich 65,6  $((207536/316492)*100)$  foizni tashkil etgan.

Xulosa tarzida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini shu tarzda davom ettirib, mutlaq barqarorlikka erishishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### 6.3. Tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga mablag'lar manbayining yetarliligi yoki yetishmasligi tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga uning tovar-moddiy zaxiralarini mablag'lar manbayi bilan qoplanganlik darajasini o'rganish orqali ham baho beriladi. Odatda, tovar-moddiy zaxiralarini qoplash manbayi bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lar manbayi yoki qisqa muddatli bank krediti va qarzlari hisoblanadi. Shu boisdan xo'jalik yurituvchi subyekt tovar-moddiy zaxiralarini qoplash manbayilarini quyidagicha aniqlashi talab etiladi:

1. Tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga tegishli o'z mablag'lar manbayi ( $U_m$ );

$$U_m = O'z\ mablag'lar\ manbai\ (480 - satr) - Uzoq\ muddatli\ aktivlar\ (130 - satr);$$

2. Tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga tegishli o'z mablag'lar manbayi hamda qisqa muddatli bank krediti va qarzarlar ( $U_{mk}$ ).

$$U_{mk} = U_m + Qisqa\ muddatli\ bank\ krediti\ va\ qarzarlar\ (730 + 740\ satrlar\ yig'indisi)$$

Ma'lumki, uzoq muddatli aktivlarning shakllanishida bankning uzoq muddatli krediti (570-satr) va qarzarlar (580-satr)dan ham foydalaniladi. Shuning uchun tovar-moddiy zaxiralarini qoplash manbalarini aniqlashda uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari hisobga olinadi. Natijada yuqoridagi formulalarni quyidagicha ifodalash talab etiladi:

1. Tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga tegishli o'z mablag'lar manbayi ( $U_m$ );

$$U_m = O'z\ mablag'lar\ manbai\ (480 - satr) - Uzoq\ muddatli\ aktivlar\ (130 - satr);$$

2. Tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga o'z mablag'lar manbayi hamda uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari ( $U_{mu}$ );

$$U_{mu} = O'z\ mablag'lar\ manbai\ (480 - satr) + Uzoq\ muddatli\ bank\ kreditlari\ va\ qarzlari\ (570 + 580\ satrlar\ yig'indisi) - Uzoq\ muddatli\ aktivlar\ (130 - satr);$$

3. Tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga tegishli jami mablag'lar manbayi ( $U_{jm}$ ).

$$U_{jm} = U_m + Qisqa\ muddatli\ bank\ kreditlari\ va\ qarzlari\ (730 + 740\ satrlar\ yig'indisi)$$

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga ijobiy baho berishda yuqoridagi ko'rsatkichlarning barchasi noldan katta yoki teng bo'lishi ( $U_m \geq 0$ ;  $U_{mu} \geq 0$ ;  $U_{jm} \geq 0$ ) talab etiladi. Ushbu shartlarning bajarilishiga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati quyidagicha baholanadi va tahlil etiladi (52-jadval):

Mutlaq barqaror	Barqaror	Nobarqaror	Krizisli
1. $U_m \geq 0$ ;	2. $U_m \leq 0$ ;	2. $U_m \leq 0$ ;	1. $U_m \leq 0$ ;
2. $U_{mu} \geq 0$ ;	3. $U_{mu} \geq 0$ ;	3. $U_{mu} \leq 0$ ;	2. $U_{mu} \leq 0$ ;
3. $U_{jm} \geq 0$ .	3. $U_{jm} \geq 0$ .	3. $U_{jm} \geq 0$ .	3. $U_{jm} \leq 0$ .

**Xo'jalik yurituvchi subyektining tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanganligi tahlili**

(ming so'm hisobida)

No	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farqi (+,-)
1	O'z mablag'lar manbalari, 480-satr	1631291,1	3207468	+1576176,9
2	Uzoq muddatli aktivlar, 130-satr	1271200,1	1550249	+279048,9
3	Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'z bablag'lar manbalari (1-2)	360091	1657219	+1297128
4	Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari, 570 va 580 satrlar yig'indisi	-	1000000	+1000000
5	Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'z mablag'lar manbalari hamda uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari (3+4)	360091	2657219	+2297128
6	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlari, 730-740-750 satrlar yig'indisi	10900	-	-10900
7	Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	370991	2657219	+2286228
8	Tovar-moddiy zaxiralarning jami, 140-satr	51927	81886	+29959
9	Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z mablag'lar manbalarining yetariligi yoki yetishmasligi (3-8)	308164	1575333	+1267169
10	Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z mablag'lar manbalari hamda uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlarning yetariligi yoki yetishmasligi (5-8)	308164	2575333	+2267169
11	Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga jami manbalarining yetariligi yoki yetishmasligi (7-8)	319064	2575333	+2256269

52-jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektida o'z mablag'lar manbasi hisobot davrida 1576176,9 (3207468-1631291,1) ming so'mga ko'paygan. Shuningdek, uning uzoq muddatli aktivlari ham 279048,9 (1550249-1271200,1) ming so'mga ortgan.

Ikki ko'rsatkichning ta'sirida xo'jalik yurituvchi subyektning tovar-moddiy zaxiralarini qoplashi uchun o'z mablag'lar manbasi

1267169 (1575333-308164) ming soʻmga oʻsgan. Bu xoʻjalik yurituvchi uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Shuning bilan birga xoʻjalik yurituvchi subyekting uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlarning hisobot davri oxiriga 1000000 (1000000-0) ming soʻmga ortish, tovar-moddiy zaxiralarini qoplash manbalarini shu miqdorga koʻpaytirgan.

Buxgalteriya balansi maʼlumotlariga koʻra xoʻjalik yurituvchi subyekt qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlarga ega emas. Demak, xoʻjalik yurituvchi subyekt tovar-moddiy zaxiralarini asosan oʻz mablagʻlar manbasi hisobiga shakllantirgani maʼlum boʻlmoqda.

Xoʻjalik yurituvchi subyekting buxgalteriya balansidagi ijobiy siljishlar hisobiga uning tovar-moddiy zaxiralari manbalar bilan ortigʻi bilan taʼminlangan. Buxgalteriya balansi boʻyicha xoʻjalik yurituvchi subyekting tovar-moddiy zaxiralari yil boshida 81886 ming soʻmni tashkil etib, bu koʻrsatkich yil oxiriga nisbatdan 29959 (81886-51927) ming soʻmga koʻp. Shunday boʻlsada xoʻjalik yurituvchi subyekting mablagʻlari va ularni kelib chiqish manbalarining toʻgʻri joylashuvi tovar-moddiy zaxiralarini:

- oʻz mablagʻlari manbasi hisobiga yil boshi va oxirida mos ravishda 308164 hamda 1575333 ming soʻmga;

- oʻz mablagʻlari manbasi, uzoq muddatli bank kreditlari hamda qarzlarning hisobiga yil boshi va oxirida mos ravishda 308164; 2575333 ming soʻmga;

- jami manbalar hisobiga ham yil boshi hamda oxirida mos ravishda 319064; 2575333 ming soʻmga qoplagan.

Xulosa tarzda shuni taʼkidlash kerakki, xoʻjalik yurituvchi subyekt tovar-moddiy zaxiralarini manbalar bilan ilmiy asoslangan holda taʼminlab, bu borada ijobiy natijalarga erishgan.

#### 6.4. Sekin sotiluvchi aktivlarning aylanishi tahlili

Xoʻjalik yurituvchi subyektlarning sekin sotiluvchi aktivlarining aylanuvchanligi tahlilida ularning pulga aylanish tezligi taʼsir etuvchi omillar asosida oʻrganiladi.

Sekin sotiluvchi aktivlarning aylanishi tahlilida quyidagi koʻrsatkichlar omilli oʻrganiladi:

1. Sekin sotiluvchi aktivlarning aylanish koeffitsiyenti ( $A_k$ );

$$A_k = \frac{\text{Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum (2 - shakl, 10 - satr)}}{\text{Sekin sotiluvchi aktivlar (1 - shakl, 140, 190, 200 - satrlar)}};$$

## 2. Sekin sotiluvchi aktivlarning aylanish davri, kun ( $A_d$ ).

$$A_d = \frac{\text{Sekin sotiluvchi aktivlar (1 - shakl, 140, 190, 200 - satrlar)}}{\text{Mahsulot(ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum (2 - shakl, 10 - satr)}} * 360$$

$$\text{yoki } A_d = \frac{360}{A_k} .$$

## 3. Sekin sotiluvchi aktivlarni aylanish salmog'i koeffitsiyenti ( $A_s$ ):

$$A_s = \frac{\text{Sekin sotiluvchi aktivlar (1 - shakl, 140, 190, 200 - satrlar)}}{\text{Mahsulot(ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum (2 - shakl, 10 - satr)}};$$

Sekin sotiluvchi aktivlarini aylanish koeffitsiyenti orqali ularning bir so'miga to'g'ri kelgan mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum miqdori aniqlanadi. Bu ko'rsatkich sekin sotiluvchi aktivlarning aylanish salmog'i koeffitsiyenti bilan teskari proporsional bog'liqlikda. Shu boisdan, sekin sotiluvchi aktivlarning aylanish salmog'i koeffitsiyentida bir so'mlik mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum hisobiga to'g'ri kelgan sekin sotiluvchi aktivlar o'rganiladi.

Sekin sotiluvchi aktivlarni aylanish davri kun o'lchov birligida hisobga olinib, u sekin sotiluvchi aktivlarni necha kunda pulga aylanayotganligini bildiradi. Ushbu ko'rsatkichning qanchalik kichik davrni tashkil etishi xo'jalik yurituvchi subyekt uchun shunchalik ijobiy sanaladi (53-jadval).

53-jadval ma'lumotiga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning sekin sotiluvchi aktivlarining aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilga nisbatan 14,784 (14,792-0,008) birlikka ortgan. Unga mos ravishda sekin sotiluvchi aktivlarning aylanish kuni 44975,663 (24,337-45000) kunga kamaygan.

Shu jamladan, sekin sotiluvchi aktivlarning aylanish salmog'i koeffitsiyenti ham o'tgan yilga nisbatan 123,925 (0,068-123,993) birlikka kamaygan. Mazkur holat xo'jalik yurituvchi subyekt uchun ijobiy holat. Negaki, sekin sotiluvchi aktivlarning aylanish davrini 44975,663 kunga qisqarishi xo'jalik yurituvchi subyektini 151322991,9 ming so'm mablag'ni iqtisod qilishga olib kelgan.

### Xo'jalik yurituvchi subyektning sekin sotiluvchi aktivlarining aylanishi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
1	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm (2-shakl, 010-satr)	430,1	1211239	+1210808,9
2	Seakin sotiluvchi aktivlar, ming so'm (140, 190, 200-satrlar)	53329,6	81886	+28556,4
3	Seakin sotiluvchi aktivlarning aylanish koeffitsiyenti (1/2)	0,008	14,792	+14,784
4	Seakin sotiluvchi aktivlarning aylanish davri, kun ( $(2*360)/1$ )	45000	24,337	-44975,663
5	Seakin sotiluvchi aktivlarning aylanish salmog'i koeffitsiyenti (2/1)	123,993	0,068	-123,925
6	Seakin sotiluvchi aktivlarning aylanishni tezlashishi yoki sekinlashishidan mablag'larning bo'shashligi yoki qo'shimcha jalb qilinishi a) Kunda	x	x	-44975,663
	b) Summada (-44975,663*1211239)/360	x	x	-151322991,9

### 6.5. Xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov qobiliyati tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati davomida turli iqtisodiy aloqalarni, jumladan xomashyo hamda materiallarni, tayyor mahsulot (ish, xizmat)larni xarid yetish va sotish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Ushbu jarayonda hisob-kitob tamoyillariga e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov qobiliyatini tahlil etishni taqozo etadi.

To'lov qobiliyati, deganda xo'jalik yurituvchi subyektning joriy majburiyatlarini bajarishi uchun mablag'larining yetarli yoki yetishmasligi tushuniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning joriy majburiyatlari buxgalteriya balansining 600-satridan olinib, ularni to'lov mablag'lari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- pul mablag'lari (320-satr), qisqa muddatli investitsiyalar (370-satr) - jami pul mablag'lari;
- debitorlik (olishga tegishli) qarzlilar (210-satr);

- jami tovar-moddiy zaxiralari (140-satr).

Yuqoridagi to'lov mablag'laridan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi subyekting quyidagi to'lov qobilyatlarini keltirib, tahlil etish mumkin (54-jadval):

1. Mutlaq to'lov qobilyati ( $T_m$ );

$$T_m = \frac{\text{Joriy pul mablag'lari (320-370-380-satrlar yig'indisi)}}{\text{Joriy majburiyatlar jami (600-satr)}}$$

2. Oraliq to'lov qobilyati ( $T_o$ );

$$T_o = \frac{\text{Jami pul mablag'lari + debitorlik qarzlari}}{\text{Joriy majburiyatlar jami (600-satr)}}$$

3. Umumiy to'lov qobilyati ( $T_u$ ).

$$T_u = \frac{\text{Jami pul mablag'lari + debitorlik qarzlari + tovar-moddiy zaxiralari}}{\text{Joriy majburiyatlar jami (600-satr)}}$$

Amaldagi tartibga binoan, mutlaq to'lov qobilyatining qanchalik birga yaqinlashib borishi, xo'jalik yurituvchi subyekti uchun shunchalik ijobiy holat hisoblanadi. Qolgan to'lov qobilyati turlarining 2 va undan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

54-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyekting to'lov qobilyati tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farqi (+,-)
1	Jami pul mablag'lari, ming so'm	320	609,8	1465792	+1465182,2
2	Qisqa muddatli investitsiyalar, ming so'm	370	-	-	-
3	Debitorlik qarzlari, ming so'm	210	306151,6	109541	-196610,6
4	Tovar-moddiy zaxiralari, ming so'm	140	51927	81886	+29959
5	Joriy majburiyatlar, ming so'm	600	1511253,5	1265314	-245939,5
6	Mutlaq to'lov qobilyati, koeffitsiyent		0,0004	1,1584	+1,158
7	Oraliq to'lov qobilyati, koeffitsiyent		0,203	1,245	+1,042
8	Umumiy to'lov qobilyati, koeffitsiyent		0,237	1,309	+1,072
9	Joriy majburiyatlarda tovar-moddiy zaxiralarning tutgan ulushi, %		3,436	6,472	+3,036

54-jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyekting mutlaq to'lov qobilyati yil boshi va oxirida mos ravishdv 0,0004 va

1,1584 ko'effitsiyentni tashkil etib, bu uning uchun ijobiy holatdir. Negaki, xo'jalik yurituvchi subyekti yil oxiridagi mutlaq to'lov qobilyatini 1,158 (1,1584 -0,0004) ko'effitsiyentga oshirgan.

Shuningdek, oraliq va umumiy to'lov qobilyatlari ham ortgan. Xususan, oraliq to'lov qobilyati 1,042 (1,245-0,203), umumiy to'lov qobilyati 1,072 (1,309-0,237) ko'effitsiyentlarga ortgan.

Demak, xo'jalik yurituvchi subyektini yuqori to'lov qobilyatiga ega, deb hisoblash mumkin va uning bu natijaga erishishida muhim omil sanalgan mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan keladigan tushumini oshirish maqsadga muvofiqdir.

## 6.6. Moliyaviy ko'effitsiyentlar tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga moliyaviy ko'effitsiyentlar asosida ham baho beriladi. Shuning uchun moliyaviy holatni ifodalovchi quyidagi moliyaviy ko'effitsiyentlarni bilish, ularning dinamik o'zgarishiga omilli baho berish tahlilning muhim vazifalaridan sanaladi:

Moliyaviy ko'effitsiyentlar tahlilining ahamiyati, xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya balansini moddalarini bir-biriga bo'lgan munosabati asosida, ularni umumiy qabul qilingan standart ko'rsatkichlar bilan taqqoslashda belgilanadi.

Ular quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti ( $M_k$ ).
2. To'lov qobilyati ko'effitsiyenti ( $T_k$ ).
3. Qarz va o'z mablag'lar manbai o'rtasidagi nisbat ko'effitsiyenti ( $N_k$ ).
4. Tovar-moddiy zaxiralarini mablag'lar manbai bilan qoplanganligi ko'effitsiyenti ( $M_t$ ).
5. Mablag'larning chaqqon harakatchanlik ko'effitsiyenti ( $Ch_k$ ).

Moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti, xo'jalik yurituvchi subyekt mulkining qancha qismi o'z mablag'lari hisobiga shakllanganligini anglatib, bu ko'rsatkichning 0,5 birlikdan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$M_k = \frac{\text{O'z mablag'lar manbai (480 - satr)}}{\text{Jami mulk (400 - satr)}};$$

To'lov qobilyati (umumiy to'lov qobilyati) ham xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga baho beruvchi muhim



ko'rsatkich sanalib, uning 2 dan yuqori bo'lishi ijobiy sanalib, quyidagicha aniqlanadi:

$$T_k = \frac{\text{Jami pul mablag'lari} + \text{debitorlik qarzlari} + \text{tovar-moddiy zaxiralari}}{\text{Joriy majburiyatlarni jami}}$$

Majburiyatlar va o'z mablag'lar manbayi o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti qanchalik 0 ga yaqinlashib borsa, xo'jalik yurituvchi subyekting mulki shunchalik o'ziga tegishli bo'lib boradi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$N_k = \frac{\text{Majburiyatlar (770-satr)}}{\text{O'z mablag'lar manbayi (480-satr)}};$$

Tovar-moddiy zaxiralarini jami mablag'lar manbalari bilan qanchalik darajada qoplanganligi xo'jalik yurituvchi subyekting moliyaviy holatini shu darajada barqarorlashuvini ta'minlab, quyidagicha aniqlanadi:

$$M_t = \frac{\text{Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli jami manbalar}}{\text{Tovar-moddiy zaxiralar (140-satr)}};$$

Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti o'z mablag'lar manbayidan qancha qismi joriy aktivlarga yo'naltirilganini bildirib, quyidagicha aniqlanadi (55-jadval):

$$Ch_k = \frac{\text{O'z mablag'lar manbai} + \text{uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari} - \text{uzoq muddatli aktivlar}}{\text{O'z mablag'lar manbayi}}$$

55-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyekting moliyaviy koeffitsiyentlari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O'zgarishi (+,-)
1	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, (480/400)	0,073	0,294	+0,221
2	To'lov qobiliyati koeffitsiyenti, (320+370+210+140/600)	0,237	0,517	+0,280
3	Majburiyatlar va o'z mablag'lar manbayi o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti, (770/480)	12,589	2,404	-10,185
4	Tovar-moddiy zaxiralarni jami mablag'lar manbalari bilan qoplanganligi koeffitsiyenti, (480+570+580+730+740-130)/140	-21,959	4,786	+26,745
5	Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti, (480+570+580-130)/480	-9,590	0,416	+10,006

## Hisob-kitoblar:

### 1. Moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti:

$$M^0_k = \frac{120037,6}{1631291,1} = 0,073; \quad M^1_k = \frac{942154}{3207468} = 0,294;$$

### 2. To'lov qobilyati (umumiy to'lov qobilyati) ko'effitsiyenti:

$$T^0_k = \frac{609,8+0+306151,6+51927}{1511253,5} = 0,237;$$

$$T^1_k = \frac{1465792+0+109541+81886}{3207468} = 0,517.$$

### 3. Majburiyatlar va o'z mablag'lar manbayi o'rtasidagi nisbat ko'effitsiyenti:

$$N^0_k = \frac{1511253,5}{120037,6} = 12,589; \quad N^1_k = \frac{2265314}{942154} = 2,404.$$

### 4. Tovar-moddiy zaxiralari jami mablag'lar manbalari bilan qoplanganligi ko'effitsiyenti:

$$M^0_t = \frac{120037,6+0+0+0+10900-1271200,1}{51927} = -21,959;$$

$$M^1_t = \frac{942154+1000000+0+0+0-1550249}{81886} = 4,786.$$

### 5. Mablag'larning chaqqon harakatchanlik ko'effitsiyenti:

$$Ch^0_k = \frac{120037,6+0+0-1271200,1}{120037,6} = -9,590;$$

$$Ch^1_k = \frac{942154+1000000+0-1550249}{942154} = 0,416.$$

55-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ko'effitsiyentlarining o'zarishini quyidagicha baholash mumkin:

1. Moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti yil boshiga nisbatdan hisobot davri oxirida 0,221 (0,294-0,073) ko'effitsiyentga ortgan. Bu ko'rsatkich past darajada bo'lsada, usbu yo'nalishda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini o'tgan yilga nisbatdan ijobiy baholash mumkin.

2. Xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy to'lov qobilyati esa, 0,280 (0,517-0,237) ko'effitsiyentga ortgan. Bu xo'jalik yurituvchi subyekt uchun ijobiy holat hisoblanadi.

3. Majburiyatlar va o'z mablag'lar manbayi o'rtasidagi nisbat ko'effitsiyenti ham 10,185 (2,404-12,589) birlikka pasayib, ko'rsat-

kichning holati yaxshi bo'lmada, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatida ijobiy siljishlarni kuzatish mumkin.

4. Tovar-moddiy zaxiralarining jami mablag'lar manbayi bilan qoplanish koeffitsiyenti 26,745 (4,786- (-21,959)) birlikka oshib, bu xo'jalik yurituvchi subyekt uchun ijobiy holat sanaladi.

5. Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti 10,006 (0,416- (-9,590)) ga ortib, bu xo'jalik yurituvchi subyekt uchun yaxshi vaziyat hisoblanadi.

Xulosa tarzida shuni ta'kidlash kerakki, xo'jalik yurituvchi subyektini hisobot yilida faoliyati uchun uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlarni jalb etgan. Natijada, uning ayrim moliyaviy koeffitsiyentlari yuzasidan salbiy xulosaga keelish mumkin. Masalan, mustaqillik yoki majburiyatlar va o'z mablag'lar manbayi o'rtasidagi nisbat koeffitsiyentlariga. Ammo xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa moliyaviy koeffitsiyentlari va ularning o'zgarishiga asosan uning umumiy faoliyatini ijobiy baholaymiz. Sababi faoliyati uchun jalb etilgan uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlardan samarali foydalanishi hisobiga hisobot davrida katta yutuqlarga erishgan. Natijada to'lov qobiliyati, buxgalteriya balansidagi mablag'lar joylashuvi yaxshilangan. Bu tez kunlarda xo'jalik yurituvchi subyektining uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlarni qaytarishidan dalolat beradi.

## **6.7. Buxgalteriya balansi bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili**

Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansining 210 va 601-satrlarda umumlashgan holda aks ettirilgan bo'lib, ular quyidagi ko'rsatkichlardan iborat:

### **1. Debitorlik qarzlari:**

- 1.1. Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (220-satr);
- 1.2. Alohida bo'linmalarining qarzlari (230-satr);
- 1.3. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (240-satr);
- 1.4. Xodimlarga berilgan bo'naklar (250-satr);
- 1.5. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (260-satr);
- 1.6. Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (270-satr);
- 1.7. Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (280-satr);

1.8. Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzlari (290-satr);

1.9. Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari (300-satr);

1.10. Boshqa debitorlik qarzlari (310-satr).

2. Kreditorlik qarzlari:

2.1. Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari (610-satr);

2.2. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan qarzlari (630-satr);

2.3. Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan (kechiktirilgan) majburiyatlar (650-satr);

2.4. Olingan bo'naklar (670-satr);

2.5. Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari (680-satr);

2.6. Sug'urtalash bo'yicha qarzlari (690-satr);

2.7. Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari (700-satr);

2.8. Ta'sischilarga qarzlari (710-satr);

2.9. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari (720-satr);

2.10. Boshqa kreditorlik qarzlari (760-satr).

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida debitorlik va kreditorlik qarzlarning balansi tuziladi va ularning holatiga baho beriladi (56-jadval).

56-jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektining debitorlik qarzlari hisobot davrida 383626 ming so'mni tashkil etib, kreditorlik majburiyatlari esa 316492 ming so'm bo'lgan. Demak, xo'jalik yurituvchi subyektining debitorlik qarzlari kreditorlik majburiyatlaridan 67134 ming so'mga ortiq.

Debitorlik qarzlarning tarkibida xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (46,9 foiz), sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (39,4 foiz), mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (12,2 foiz) asosiy salmoqqa ega. Bizningcha, xo'jalik yurituvchi subyektining birinchi debitorlik qarzlari tarkibida 46,9 foiz salmoqqa ega xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari undirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kreditorlik qarzlarning tarkibi o'rganilganda esa budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari (16,3 foiz), mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari (8,6 foiz), boshqa kreditorlik qarzlari (52,9 foiz) asosiy salmoqqa ega bo'lib, bizningcha ularning xo'jalik yurituvchi subyektlari tomonidan tezda qaytarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

## Xo'jalik yurituvchi subyekting debitorlik va kreditorlik qarzlari holati tahlili

(ning so'linishida)

Debitorlik qarzlari	Summa	Salmog'i, %	Kreditorlik qarzlari	Summa	Salmog'i, %
1. Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (220-satr)	24825	2,0	1. Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari (610-satr)	1115211	88,2
2. Mol yetkazib beruvchilar va pudrat-chilarga berilgan bo'naklar (260-satr)	40	0,0	2. Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlار (680-satr)	27070	2,1
3. Budjetga soliqlar va yig'imgar bo'yicha bo'nak to'lovlari (270-satr)	5731	0,5	3. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari (720-satr)	2537	0,2
4. Xodimlar bilan hisoblashlar (250-300-satrlar)	-	-	4. Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari (700-satr)	907	0,1
5. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (240-satr)	-	-	5. Sug'urtalash bo'yicha qarzlari (690-satr)	-	-
6. Ta'sisчилarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzlari (290-satr)	-	-	6. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan qarzlari (630-satr)	-	-
7. Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (280-satr)	4	0,0	7. Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan (kechiktirilgan) majburiyatlar (650-satr)	-	-
8. Alohida bo'linmalarining qarzlari (230-satr)	-	-	8. Olingan bo'naklar (670-satr)	116857	9,2
9. Boshqa debitorlar (310-satr)	78941	6,2	9. Boshqa kreditorlik qarzlari (710-760-satrlar)	2732	0,2
<b>Jami</b>	<b>109541</b>	<b>8,7</b>	<b>Jami</b>	<b>1265314</b>	<b>100,0</b>
<i>Kreditorlik qarzlarning debitorlik qarzlardan oshiqchiligi</i>	1155773	91,3	<i>Debitorlik qarzlarning kreditorlik qarzlardan oshiqchiligi</i>		
<b>BALANS</b>	<b>1265314</b>	<b>100,0</b>	<b>BALANS</b>	<b>1265314</b>	<b>100,0</b>

Negaki, ularning vaqtida qaytarilmasligi xo'jalik yurituvchi subyektining moliyaviy jarimalarga tortilishiga sabab bo'ladi va ortiqcha xarajatlarni keltirib chiqarib, uning mavqeyini pasayishiga olib keladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining balansi 1265314 ming so'mni tashkil etib, sof kreditorlik majburiyatlarining summasi 1155773 ming so'mni tashkil etgan. Bu xo'jalik yurituvchi subyekt uchun birmuncha ijobiy holat, deb bo'lmaydi. Sababi tahlilda tez pulga aylanuvchi aktivlarning ( $A_2$ ) qisqa muddatli majburiyatlardan ( $P_2$ ) katta bo'lishi ( $A_2 > P_2$ ) maqsadga muvofiq topilgan.

Amaldagi qonunchiligimizga binoan, debitorlik va kreditorlik qarzlarini undirib olish muddati 3 oy qilib yoki 90 kalendar kuni, deb belgilangan. Ushbu muddatdan so'ng, debitorlik va kreditorlik qarzlari muddati o'tgan majburiyatlar sifatida nazoratga olinadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini hisobdan chiqarish muddati sifatida huquqiy shaxslar o'rtasida ham, korxonalar bilan jismoniy shaxslar o'rtasida ham 3 yil muddat qilib belgilangan. Ushbu muddatda to'lanmagan yoki undirib olinmagan qarzlarni xo'jalik yurituvchi subyektining moliyaviy natijasiga olib boriladi va belgilangan tartibda soliqqa tortiladigan bazaga qo'shiladi hamda mas'ullarga tegishli choralar ko'riladi. Shu boisdan muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalariga olib borishdan oldin ularni undirib olish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq sanaladi.

## 6.8. Debitorlik qarzlari aylanishining omilli tahlili

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida debitorlik qarzlarining aylanish davrini o'rganib, ularni necha kunda undirib olinayotganligini bilish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Debitorlik qarzlarining aylanishiga baho berayotganda quyidagi bir qator ko'rsatkichlarni yillar bo'yicha dinamik o'zgarishiga omilli baho beriladi (57-jadval).

1. Debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti ( $D_k$ ).

$$D_k = \frac{\text{Mahsulot(ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum (2 - shakl, 010 - satr)}}{\text{Debitorlik qarzlari (1 - shakl, 210 - satr)}}$$

2. Debitorlik qarzlarining aylanish salmog'i koeffitsiyenti ( $D_s$ );

$$D_s = \frac{\text{Debitorlik qarzlari (1 - shakl, 210 - satr)}}{\text{Mahsulot(ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum (2 - shakl, 010 - satr)}}$$

3. Debitorlik qarzlari aylanish davri kun o'lchov birligida hisobga olinib, quyidagicha aniqlanadi ( $D_a$ ).

$$D_a = \frac{360}{D_k}; \text{ yoki}$$

$$D_a = \frac{\text{Debitorlik qarzlari (1-shakl, 210-satr)}}{\text{Mahsulot(ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr)}} * 360.$$

57-jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik yurituvchi subyektining debitorlik qarzlari aylanish koeffitsiyenti hisobot davrida 11,057 birlikni tashkil etib, bu bir so'mlik debitorlik qarzlari hisobiga 11,057 so'mlik mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum to'g'ri kelganligini bildiradi. Bu ko'rsatkich o'tgan yili 0,001 koeffitsiyentni tashkil etib, xo'jalik yurituvchi subyektining mazkur masaladagi faoliyatini ijobiy baholamaydi. Ushbu ko'rsatkichga mos ravishda debitorlik qarzlarning aylanish salmog'i koeffitsiyenti ham hisobot davrida 0,090 birlikni tashkil etdi. Bu o'tgan yilga nisbatdan 711,724 (0,090-711,814) koeffitsiyentga kam. Debitorlik qarzlari aylanish salmog'i koeffitsiyenti uning aylanish koeffitsiyenti bilan teskari proporsional bog'liqligini inobatga olsak natija ijobiy emas.

57-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektida debitorlik qarzlarning aylanishi tahlili

No	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
1	Debitorlik qarzlari, ming so'm (1-shakl, 210 - satr)	306151,6	109541	-196610,6
2	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum, ming so'm (2-shakl, 010-satr)	430,1	1211239	+1210808,9
3	Joriy aktivlar, ming so'm (1-shakl, 390-satr)	360091	1657219	+1297128
4	Muddati o'tgan debitorlik qarzlari, ming so'm (1-shakl, 211-satr)	-	-	-
5	Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti (2/1)	0,001	11,057	+11,056
6	Debitorlik qarzlarning aylanish salmog'i koeffitsiyenti (1/2)	711,814	0,090	-711,724
7	Debitorlik qarzlarning aylanish davri, kunda ((1*360)/2)	360000	32,55	-359967,45
8	Joriy aktivlar tarkibida debitorlik qarzlarning tutgan ulushi, % ((1/3)*100)	85,021	6,609	-78,412
9	Muddati utgan debitorlik qarzlari ulushi, (4/1*100)%	0,0	0,0	0,0

Kreditorlik qarzlarning aylanishi tahlilida, debitorlik qarzlarning aylanishi tahlilidan farqli o'laroq, sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi ko'rsatkichidan foydalaniladi. Negaki, mazmun-mohiyatiga ko'ra debitorlik qarzlari bevosita mahsulot (ish, xizmat)larni sotish bilan bog'liq bo'lsa, kreditorlik majburiyatlari sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxiga aloqador. Shu boisdan kreditorlik qarzlari aylanishining tahlili mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxiga bog'liq holda o'rganiladi (59-jadval).

59-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyekting kreditorlik qarzlari aylanishi tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
1	Kreditorlik qarzlari, ming so'm (1-shakl, 601-satr)	1500353,5	1265314	-235039,5
2	Sotilgan mahsulot (ish,xizmat)larning tannarxi, ming so'm (2-shakl, 020-satr)	-	717748	+717748
3	Joriy majburiyatlar, ming so'm (1-shakl, 600-satr)	1511253,5	1265314	-245939,5
4	Muddati o'tgan kreditorlik qarzlari, ming so'm (1-shakl, 602-satr)	-	-	-
5	Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti (2/1)	-	0,567	+0,567
6	Kreditorlik qarzlarning aylanish salmog'i koeffitsiyenti (1/2)	-	1,763	+1,763
7	Kreditorlik qarzlarning aylanish davri, kunda ( (1*360)/2)	-	634,921	+634,921
8	Joriy majburiyatlar tarkibida kreditorlik qarzlarning tutgan ulushi, % ( (1/3)*100)	99,279	100,0	+0,721
9	Muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning jami kreditorlik majburiyatlari tarkibidagi salmog'i, % ( (4/1)*100)	-	-	-

59-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyekting kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti hisobot davrida 0,567 birlikni tashkil etib, bu bir so'mlik kreditorlik qarzlari hisobiga 0,567 so'mlik sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini to'g'ri kelganligini bildiradi. Bu ko'rsatkich o'tgan yili 0,0 koeffitsiyentni tashkil etib, bunga xo'jalik yurituvchi subyekting sotilgan mahsulot (ish,xizmat)larning tannarxi bo'lmagani sabab bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichga mos ravishda kreditorlik qarzlarning aylanish salmog'i



ko'ffitsiyenti ham hisobot davrida 1,763 birlikni tashkil etdi. Bu o'tgan yilga nisbatdan 1,763 (1,763-0,0) ko'ffitsiyentga ko'p.

Kreditorlik qarzlarning aylanish davri hisobot yilida 634,921 (634,921-0) kunga ortib ketgan. Bu natijaga binoan, xo'jalik yurituvchi subyekti o'tgan yili kreditorlik qarzlarni vaqtida to'lagan bo'lsa, hisobot yilida 634,921 kunda to'lagani ma'lum bo'ldi. Natijada vaqtida to'lanmagan kreditorlik qarzlari hisobiga turli xil jarimalarga tortilish mumkin.

Yuqoridagi natijalarga, hisobot davrida kreditorlik qarzlarning keskin, ya'ni 235039,5 (1265314-1500353,5) ming so'mga ortishi va sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini 717748 (717748-0) ming so'mga ortishi ta'sir etgan (60-jadval).

60-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektining kreditorlik qarzlari aylanishining omilli tahlili

No	Ko'rsatkichlar	Kreditorlik qarzlari aylanish ko'ffitsiyenti	Kreditorlik qarzlari aylanish davri
1	O'tgan yil	0,0	0,0
2	Shartli ko'rsatkich	0,478	753,138
3	Hisobot yil	0,567	634,921
	<b>Farqi (+,-)</b>	<b>+0,567</b>	<b>+634,921</b>
	- sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxining o'zgarishi hisobiga	+0,478	+753,138
	- kreditorlik qarzlarning o'zgarishi hisobiga	+0,089	-118,217

Hisob-kitoblar:

1. Shartli ko'rsatkichlarning aniqlanishi:

1.1. Kreditorlik qarzlarning shartli aylanish ko'ffitsiyenti ( $K_x^{sh}$ ):

$$K_x^{sh} = \frac{\text{Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi, hisobot yil (2-shakl, 020-satr)}}{\text{Kreditorlik qarzlari, o'tgan yil (1-shakl, 601-satr)}}$$

$$K_x^{sh} = \frac{717748}{1500353,5} = 0,478; \quad K_x^1 = \frac{717748}{1265314} = 0,567; \quad K_x^0 = \frac{0}{1500353,5} = 0,0.$$

1.2. Kreditorlik qarzlarning shartli aylanish davri, kun ( $K_a^{sh}$ ).

$$K_a^{sh} = \frac{360}{K_x^{sh}} = \frac{360}{\frac{\text{Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi (2-shakl, 020-satr) hisobot yil}}{\text{Kreditorlik qarzlari, o'tgan yil}}}$$

yoki

$$K_a^{sh} = \frac{\text{Kreditorlik qarzlarini, o'tgan yil (1-shakl, 601-satr)}}{\text{Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tan narxi (2-shakl, 020-satr), hisobot yil}} * 360.$$

$$K_a^{sh} = \frac{360}{K_{\kappa}^{sh}} = \frac{360}{0,478} = 753,138; \quad K_a^1 = \frac{360}{K_{\kappa}^1} = \frac{360}{0,567} = 634,921;$$

O'tgan yilgi kreditorlik qarzlarining aylanish davri uning aylanish koeffitsiyentining 0,0 bo'lgani uchun iqtisodiy ma'noga ega emas va shu sababli aniqlanmaydi.

60-jadval ma'lumotlariga binoan kreditorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti va davriga omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan:

1. Kreditorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilga nisbatan hisobot davrida 0,567 birlikka ortgan. Bu o'zgarishda sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini 717748 (717748-0) ming so'mga ortishi, o'rganilayotgan ko'rsatkichning 0,478 birlikka ortishini ta'minlagan. Kreditorlik qarzlarining hisobot yilida 235039,5 (1265314-1500353,5) ming so'mga kamayishi esa, o'rganilayotgan ko'rsatkichni 0,089 birlikka kamaytirgan. Ikki omil yig'indisi hisobiga umumiy natija 0,567 (0,478+0,089) birlikni tashkil etgan.

2. Kreditorlik qarzlarining aylanish davri ham unga mos ravishda hisobot yili 634,921 (634,921-0) kunga ortgan. Mazkur ko'rsatkichning o'zgarishida sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxining 717748 (717748-0) ming so'mga ortishi, 753,138 kunga kreditorlik qarzlarini to'lanishini keltirib chiqargan. Ammo kreditorlik qarzlarining hisobot davrida 235039,5 (1265314-1500353,5) ming so'mga kamayishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektda kreditorlik qarzlarini aylanish davri 118,217 kunga qisqargan. Ikki omil yig'indisi kreditorlik qarzlarining aylanish davrini 634,921 kun bo'lishini ta'minlagan.

Tahlil natijalariga binoan xo'jalik yurituvchi subyekti kreditorlik qarzlarini tezroq to'lash choralari ko'rish zarur, deb hisoblaymiz.

## 6.9. Operatsion faoliyatdan pul mablag'larining harakati tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektning pul oqimlari harakatida asosiy salmoqni operatsion faoliyatdan kelgan va ketgan mablag'lar egallaydi. Bu faoliyat natijasida vujudga keladigan pul oqimining hajmi xo'jalik yurituvchi subyektning amalga oshiradigan operatsiya faoliyati natijasida olinadigan pul oqimlari harakati ssudalarni to'lash, xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab turish, dividendlarni to'lash va moliyalashtirishning tashqi

manbalariga murojaat qilinmay yangi investitsiyalar uchun qanchalik yetarli ekanini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Operatsion faoliyatdan keladigan oldingi pul oqimining ayrim qismlari to'g'risidagi axborotdan operatsion faoliyatidan bo'lajak pul oqimlarini prognoz qilish uchun axborotning boshqa turlaridan qo'shib foydalanish mumkin bo'ladi.

Operatsion faoliyatdan pul oqimi xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatidan kelib chiqadi. Odatda xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati mahsulotni sotishga, ishlarni bajarishga yoki xizmat ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Operatsion faoliyatdan asosiy pul oqimiga quyidagilar kiradi:

1. Tovarlarini sotish va xizmat ko'rsatishdan tushgan pul.
2. Royalti, badallar, vositachilik haqi va o'zga yo'llar bilan pul mablag'lari tushumi.
3. Tovarlar va xizmatlar uchun ularni yetkazib beruvchilarga pul to'lovlari.
4. Xodimlarga va xodimlar nomidan to'lovlar.
5. Sug'urta kompaniyasining sug'urta polislarini bo'yicha mukofotlari, talablari, yillik va o'zga to'lovlari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlar.
6. Soliqlar bo'yicha pul to'lovlari yoki uning o'rnini bosuvchi to'lovlar, agar ular investitsiya va moliya faoliyatiga taalluqli bo'lmasa.
7. Savdo yoki dilerlik maqsadlarida tuzilgan bitimlar bo'yicha pul tushumlari hamda to'lovlari va boshqalar (61-jadval).

61-jadval

**Xo'jalik yurituvchi subyektining operatsion faoliyatidan pul mablag'lari harakati tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Kirim		Chiqim	
			ming so'm	%	ming so'm	%
1	Xaridorlardan kelib tushgan pul mablag'lari	010	1065394	82,510	-	-
2	Mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	020	-	-	839215	95,800
3	Xodimlarga va xodimlar nomidan to'langan pul mablag'lari	030	-	-	36789	4,200
4	Boshqa pullik to'lovlar va tushumlar	040	225842	17,490	-	-
<b>Jami</b>		<b>050</b>	<b>1291236</b>	<b>100,0</b>	<b>876004</b>	<b>100,0</b>
	Operatsiya faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi		<b>415232</b>			

Shu o'rinda izohlash kerakki, asosiy vositalar birliklarini sotish kabi ayrim operatsiyalar bo'yicha foyda kelishi yoki zarar ko'rish mumkin, ular moliyaviy natijalar qatoriga kiritiladi. Lekin bunday bitimlar bo'yicha pul oqimi investitsiya faoliyatidan chiqadigan pul oqimlariga kiritiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekti vositachilik yoki savdo maqsadlari uchun qimmatli qog'ozlar yoki ssuda olgan bo'lishi mumkin, bunday holatlarda ular qayta sotish uchun xarid qilingan tovar - moddiy zaxiralarga o'xshash bo'ladi.

61-jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyekting operatsion faoliyatidan pul mablag'larining sof kirimi hisobot yilida 415232 ming so'mni tashkil etgan. Bu ijobiy holatga, hisobot davrida xaridorlardan 1065394 ming so'm, boshqa pullik to'lovlar va tushumlardan 225842 ming so'm pul tushumi bo'lgani sabab bo'lgan. Hisobot yilida xo'jalik yurituvchi subyekting 82,510 foiz pul tushumi xaridorlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Hisobot davrida xo'jalik yurituvchi subyekting operatsiya faoliyatidan pul mablag'larining chiqimi qayd etilgan bo'lib, uning hajmi 876004 ming so'mni tashkil qilgan. Ushbu mablag'larning 95,800 foizi mol yetkazib beruvchilarga to'langan, 4,200 foizi xodimlarga va xodimlar nomidan to'langan pul mablag'lari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tahlil natijalariga ko'ra operatsion faoliyatdan pul mablag'larining kirimi ularning chiqimidan ko'p. Bu operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari kirimini 415232 (1291236-876004) ming so'm bo'lishini ta'minlagan.

## **6.10. Investitsion faoliyatdan pul mablag'larining harakati tahlili**

Xo'jalik yurituvchi subyekt investitsiya faoliyatidan keladigan pul oqimi to'g'risidagi axborotni alohida ko'rsatib beradi. Investitsiya faoliyatidan pul oqimi to'g'risidagi axborot kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar bo'yicha qilingan xarajatlar darajasini ko'rsatadi. Investitsiya faoliyatidan olingan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

1. Asosiy vositalarni, nomoddiy va o'zga uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga pul to'lovlari. Bu to'lovlar tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratilgan sarmoyalashtirilgan xarajatlar, shuningdek, xo'jalik sudi bilan amalga oshirilgan qurilishlar bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni o'z ichiga oladi.

2. Asosiy vositalar, nomoddiy va o'zga uzoq muddatli aktivlarni sotishdan olingan pul tushumi.

3. Boshqa subyektlarning aksiyalari yoki qarz majburiyatlarini hamda qo'shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotib olishga doir pul to'lovlari, pul ekvivalentlari hisoblangan yoki dilerlik maqsadlariga yoki savdo maqsadlariga saqlab qo'yilgan to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovlar (veksellar kabi hujjatlar bo'yicha to'lovlar)dan tashqari.

4. Boshqa subyektlarning aksiyalari va qarz majburiyatlarini hamda qo'shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotishdan kelgan pul tushumlari (pul ekvivalenti hisoblangan yoki dilerlik yoki savdo maqsadlari uchun saqlanayotgan veksel kabi to'lov hujjatlari bo'yicha tushumlar bunga kirmaydi).

5. Boshqa taraflarga berilgan bo'naklar va kreditlar (moliyaviy muassasalarga berilgan bo'naklar va kreditlardan tashqari).

6. Boshqa taraflarga berilgan bo'naklar va ssudalar qaytarilishidan pul tushumlari (moliyaviy muassasalarga berilgan bo'naklar va kreditlardan tashqari).

7. Fyuchers va forvard bitimlari, opsiyon bitimlar va svop bitimlar bo'yicha to'lovlar, ular diler yoki savdo maqsadlari uchun mo'ljallangan holatlar bundan mustasno bo'ladi yoki to'lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

8. Fyuchers va forvard bitimlari, opsiyon bitimlar va svop bitimlar bo'yicha pul tushumlari, ular diler yoki savdo maqsadlariga mo'ljallangan holatlar bundan mustasno yoki to'lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi (62-jadval).

Bitim muayyan pozitsiyani xejlash\* (sug'urtalash) sifatida hisobga olinadi, bitim bo'yicha pul oqimi sug'urta qilinadigan pozitsiyadan pul oqimi sifatida faoliyat turiga kiritiladi (\*Xejlash - Bitimning himoya usuli bo'lib, bunda subyekt taxmin qilingan yo'qotishlarning o'rnini qoplash niyatida xorijiy valutada forvard, fuchers bitimlari va boshqa bitimlar bo'yicha aktivlar yoki majburiyatlarni sotib olish tarzida ifodalangan valuta qiymati farqidan vujudga keladigan yo'qotishlardan o'zini xoli qilish imkoniyatiga ega bo'ladi).

62-jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyekting investitsiya faoliyatidan pul mablag'larining kirimi hisobot davrida bo'lmagan. Faqatgina hisobot davrida investitsion faoliyatning boshqa pul to'lovlari hisobiga 134224 ming so'm pul mablag'larini chiqim qilingan.

## Xo'jalik yurituvchi subyektining investitsiya faoliyatidan pul mablag'larining harakati tahlili<sup>11</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Kirim		Chiqim	
			ming so'm	%	ming so'm	%
1	Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060	-	-	-	-
2	Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070	-	-	-	-
3	Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	080	-	-	-	-
4	Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	090	-	-	28 080	100,0
	<b>Jami</b>	<b>100</b>	-	-	<b>28 080</b>	<b>100,0</b>
	Investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi	-	-	-	-	-

### 6.12. Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'larining harakati tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektining moliyaviy faoliyatidan bo'ladigan pul oqimlari to'g'risidagi axborotlar hisobotda alohida ko'rsatiladi. Bu axborot moliyaviy faoliyatdan bo'lajak pul oqimlarini taxmin qilish uchun zarur bo'ladi. Moliyaviy faoliyatdan keladigan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

1. Aksiyalar yoki o'z mablag'i bilan bog'liq boshqa vositalarni chiqarishdan keladigan pul tushumlari.
2. Subyektlar aksiyalarining haqini to'lash yoki sotib olish uchun ularning egalariga to'lovlar.
3. Ta'minlanmagan obligatsiyalar emissiyasidan, moliya korxonalarini tomonidan berilgan ssudalardan, garovga qo'yilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli zayomlardan pul tushumlari.
4. Zayomlarni to'lash.
5. Moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlarni qisqartirish uchun ijarachilarning to'lovlari va boshqalar (63-jadval).

<sup>11</sup> 62-jadval ma'lumotlari ilovadagi 4-»Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda bo'lmasda talabalarga tushunarli bo'lishi uchun tahlil jadvali tuzilib, faoliyatga baho berilgan.

## Xo'jalik yurituvchi subyekting moliyaviy faoliyatdan pul mablag'larining harakati tahlili<sup>12</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Kirim		Chiqim	
			ming so'm	%	ming so'm	%
1	Olingan va to'langan foizlar	110	-	-	-	-
2	Olingan va to'langan dividendlar	120	117	100,0	2174	100,0
3	Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	130	-	-	-	-
4	Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari	140	-	-	-	-
5	Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	150	-	-	-	-
6	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	160	-	-	-	-
7	Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	170	-	-	-	-
	<b>Jami</b>	180	<b>117</b>	<b>100,0</b>	<b>2174</b>	<b>100,0</b>
	Moliyaviy faoliyatning sof pul kirim/chiqim	-	-	-	-	-

63-jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyekting moliyaviy faoliyatidan pul mablag'larining kirimi hisobot davrida 117 ming so'mni, chiqimi 2174 ming so'mni tashkil etgan. Pul mablag'larining bu harakati olingan va to'langan dividendlar hisobiga yuzaga kelgan. Natijada xo'jalik yurituvchi subyekting moliyaviy faoliyatdan sof pul chiqimi 2057 (2174-117) ming so'm bo'lgan. Tahlil natijalariga binoan boshqa moliyaviy faoliyat turlaridan kirimni, olingan dividendlarni oshirish chora-tadbirlarini belgilashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

### 6.13. Soliqqa tortish va xo'jalik yurituvchi subyekti pul oqimlarining to'g'ri usulda tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyekting daromad (foyda) solig'i bo'yicha pul oqimlari alohida ochib berilishi kerak va ular operatsiya faoliyatlaridan bo'ladigan pul oqimlari qatoriga kiradi (64-jadval). Uyushgan yoki sho'ba korxonada investitsiyalar o'z sarmoyasi yoki

<sup>12</sup> 63-jadval ma'lumotlari ilovadagi 4- «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda bo'lmasada talabalariga tushumari bo'lishi uchun tahlil jadvali tuzilib, faoliyatga baho berilgan.

tannarx usulidan foydalanib hisobga olinadigan bo'lsa, investor pul oqimi to'g'risidagi hisobotda o'zi bilan investitsiya oluvchi o'rtasidagi pul oqimi bilan, masalan, dividendlar va bo'naklar bilan cheklanadi.

64-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektini soliqqa tortishdan pul oqimlarini tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Kirim		Chiqim	
			ming so'm	%	ming so'm	%
1	To'langan daromad (foyda) solig'i	200	-	-	68868	77,245
2	To'langan boshqa soliqlar	210	-	-	20287	22,755
	<b>Jami</b>	<b>220</b>	-	-	<b>89155</b>	<b>100,0</b>
	To'langan soliqlar	-	-	-	-	-

64-jadval ma'lumotlariga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektini hisobot davrida 89155 ming so'm jami soliq to'lagan. Ulardan 77,245 foizi foyda solig'ini, 22,755 foizi boshqa to'langan soliqlarni tashkil etgan.

Pul oqimlari harakatini to'g'ri usulda tahlil etib, xo'jalik yurituvchi subyektining hisobot yili oxiridagi pul mablag'lari qoldig'iga omilli baho beriladi (65-jadval).

65-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyektini pul oqimlarining to'g'ri usulda tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Kirim		Chiqim	
		ming so'm	%	ming so'm	%
1. Operatsiya faoliyatida pul mablag'larining sof kirimi yoki chiqimi	050	415232	100,0	-	-
2. Investitsiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi yoki chiqimi	100	-	-	-	-
3. Moliyaviy faoliyatdagi sof kirim yoki chiqim	180	-	-	-	-
4. To'langan soliqlar	210	-	-	89155	100,0
<b>Jami</b>		<b>415232</b>	<b>100,0</b>	<b>89155</b>	<b>100,0</b>
Sof ko'payish yoki kamayish		326077			
<b>Yil boshidagi pul mablag'lari</b>	<b>230</b>	<b>109</b>			
<b>Yil oxiridagi pul mablag'lari</b>	<b>240</b>	<b>326186</b>			



65-jadval ma'lumotlari asosida joriy davrda xo'jalik yurituvchi subyektining jami pul mablag'larining kirimi 415232 ming so'mni tashkil etib, shundan 100,0 foizi operatsiya faoliyatidagi pul mablag'larining kirimiga to'g'ri kelgan. Xo'jalik yurituvchi subyektining jami pul mablag'lari chiqimi hisobot davrida 89155 ming so'mni tashkil qilgan. 100,0 foiz chiqim to'langan soliqlar hisobiga to'g'ri kelgan.

#### **6.14. Xo'jalik yurituvchi subyekti pul oqimlarining egri usulda tahlili**

Xo'jalik yurituvchi subyektning pul oqimlari ikki, xususan: to'g'ri va egri usullarda tahlil etiladi.

Pul oqimlarining to'g'ri usuli pul mablag'larining harakatini amaldagi (yuqorida keltirilgandek) «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot shakli asosida, ularning kirim qismini chiqimi bilan taqqoslab, sof kirimni (yoki chiqimi) aniqlash orqali o'rganadi.

Egri usulda esa, amalda olingan moliyaviy natijalar (foyda) bilan pul mablag'lari hajmining mutlaq o'zgarishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi. Ya'ni sof foyda ko'rsatkichlari asosida real pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lmagan mos hisoblar (qatorlar) bo'yicha olib boriladi. Xususan, pul oqimlarini tahlil etishning egri usuli faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari harakatining tahliliga asosan tashkil etilgan bo'lib, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyekt foydasi aniq qayerda vujudga kelayotgani yoki «Tirik pullar» qayerga sarflanayotganligini ko'rsatadi. Jumladan, «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotni quyidan (sof foydadan) yuqoriga qarab o'rganishga moslashtirilgan. Shu sababli, bu usulni aksariyat iqtisodchi olimlar «Quyiy» usul, deb ham atashadi.

Pul oqimlarini tezkor boshqarishda egri usulning ahamiyati, moliyaviy natijalar va joriy aktivlar o'rtasidagi o'zaro moslikni o'rnatish imkoniyati bilan belgilanadi.

Egri usul yordamida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatidagi eng muammoli jihatlarni ko'rsatib berish hamda ushbu kritik holatdan chiqish yo'lini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Ammo bu usulning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ma'lum kamchiliklari ham bor. Xususan, tashqi foydalanuvchilar uchun analitik hisobotlar tuzishdagi yuqori mehnat sig'imi talab etilishi va ichki buxgalteriya

hisobi ma'lumotlari (bosh daftarlar)da kamchiliklarning bo'lishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining pul oqimlarini tahlil qilishda ikkala usulning qo'llanilishi ularning real holatini baholashda muhim omil hisoblanadi.

Pul oqimini egri usulda o'rganish uchun alohida analitik hisobot tayyorlanishi zarur bo'ladi. Analitik hisobot tuzishda, «Buxgalteriya balansi», «Moliyaviy natijalar to'g'risida», «Asosiy vositalarning harakati to'g'risida»gi, bosh daftar kabi qator hujjatlardan foydalaniladi.

Pul oqimlari tahlilining egri usuli bo'yicha:

- qaysi manbalardan pul mablag'lari kirim qilindi yoki qanday asosiy yo'nalishlarga sarflandi;

- to'lov mablag'lari (pul zaxirasi) ko'paytirishni ta'minlay oladimi;

- debitorlik qarzlarni undirish hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash holatiga egami kabi qator savollarga javob olish mumkin (66-jadval).

66-jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning pul oqimlarining harakati egri usul bilan tahlil etilib, unga binoan xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larining jami o'zgarishi 11252,5 ming so'mni tashkil etgan.

65-jadval ma'lumotlari (to'g'ri usuldagi pul oqimining tahlili)ga binoan xo'jalik yurituvchi subyektning hisobot davri oxiriga qoldig'i 326186 ming so'mni tashkil etgan. Demak, xo'jalik yurituvchi subyektning 11252,5 (326186-314933,5) ming so'm puli o'zida bo'lmagan mablag'lari hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning pul oqimlarini tahlili natijasida ularning taqchillik sabablari to'g'risida tegishli xulosalar qabul qilinadi.

Xususan: mol-mulk va mahsulot (ish, xizmat)lar sotish rentabeligining pastligi; me'yordan ortiqcha bo'lgan zaxira va xarajatlarni tashkil etishga pul mablag'larining yo'naltirilganligi; joriy mablag'lar aylanishining pastligi; qarzlarni ulushining ortishi hisobiga majburiyatlarni qoplashga hamda foiz to'lovlariga katta miqdorda mablag'larning sarflanishi va boshqalar.


### Xo'jalik yurituvchi subyekti pul oqimining egri usulda tahlili

Ko'rsatkichlar	Pul mablag'larining ko'payishi (+) yoki kamayishi (-)	Hisobot yilidagi summa	Axborot manbayi
1	2	3	4
1. Operatsiya faoliyatidagi pul mablag'larining harakati	xxx	314824,5	Quyidagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
1.1. Sof foyda	+	191597	«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot
1.2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya	+	195022	«Buxgalteriya balansi»
1.3. Tovar-moddiy zaxiralari qoldig'ining ortishi	-	29959	«Buxgalteriya balansi»
1.4. Debitorlik qarzlarning undirilishini kamayishi	-	196610,6	«Buxgalteriya balansi», «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida»gi ma'lumotnoma
1.5. Boshqa joriy aktivlar moddasi qoldig'ining o'sishi	-	-	«Buxgalteriya balansi»
1.6. Kreditorlik qarzlarning o'sishi	+	235039,5	«Buxgalteriya balansi», «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida»gi ma'lumotnoma
1.7. Foydadan to'lanadigan majburiyatlarning o'sishi	-	80264,7	«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot
1.8. Kelgusi davr daromadlarining o'sishi	+	-	«Buxgalteriya balansi»
1.9. Kutilayotgan xarajatlar rezervining o'sishi	+	0,3	«Buxgalteriya balansi»
1.10. Boshqa qisqa muddatli majburiyatlarning o'sishi	+	-	«Buxgalteriya balansi»

1	2	3	4
2. Investitsiya faoliyatidagi pul mablag'larining harakati	xxx		Quyidagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
2.1. Nomoddiy aktivlarning o'sishi	-	-	«Buxgalteriya balansi»
2.2. Yangidan yaratilgan va sotib olingan asosiy vositalar	-	-	«Asosiy vositalar harakati to'g'risida»gi hisobot
2.3. Tugallanmagan qurilish hajmining o'sishi	-	-	«Buxgalteriya balansi»
2.4. Material qiymatliklarga daromadli qo'yimalarni o'sishi	-	-	«Buxgalteriya balansi»
2.5. Boshqa uzoq muddatli aktivlarni o'sishi	-	-	«Buxgalteriya balansi»
3. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'larining harakati	xxx	-	Quyidagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
3.1. Moliyaviy qo'yimalarning o'sishi	-	-	«Buxgalteriya balansi»
3.2. Uzoq muddatli majburiyatlar (kredit va qarz)ning o'sishi	+	-	«Buxgalteriya balansi»
3.3. Qisqa muddatli kredit va qarzlarni o'sishi	+	-	«Buxgalteriya balansi»
3.4. Bankning qisqa muddatli krediti bo'yicha majburiyatlarini o'sishi	+	-	«Buxgalteriya balansi»
4. <i>Hamma faoliyat turlarida: pul mablag'larining jami o'zgarishi</i>	xxx	314933,5	<i>Hisob-kitob qilinadi</i>
5. <i>Hisobot yili boshiga pul mablag'larining qoldig'i</i>	xxx	109	«Buxgalteriya balansi»
6. <i>Hisobot yili oxiriga pul mablag'larining qoldig'i</i>	xxx	326186	<i>Hisob-kitob qilinadi</i>

## 6.15. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning xususiy kapitali tahlili

Iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarishi va xizmatlar ko'rsatishi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kapitalni samarali sarflab foyda olishga qaratilgan iqtisodiy jarayoni bilan bog'liq. Shu jihatdan xo'jalik yurituvchi subyektlar kapitalini - xususiy, jamoa, aralash va davlat shakllarida bo'lishini alohida ta'kidlash zarur. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarining samarali faoliyati va ko'payishi mamlakatda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hajmini yanada oshiradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarining mablag'lar manbai o'zining va chetdan jalb etilgan mablag'lar hisobiga shakllanadi (8-chizma).



8-chizma. Xo'jalik yurituvchi subyektlarining mablag'lar manbayini shakllanishi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining faoliyatida o'z va jalb qilingan mablag'lardan samarali foydalanish talab etilib, har ikkala shakllanish manbayida mulk egalarining manfaati mavjud. Shu boisdan mulk egasining manfaatiga binoan kapital o'z yoki majburiyatlar shaklida faoliyatga yo'naltiriladi. Demak, xo'jalik yurituvchi subyekti har ikkala mablag'lar manbayini inobatga olgan holda hisobot davrini rentabelli yakunlashi zarur. Shu jihatdan xo'jalik yurituvchi subyektlari faoliyatini boshlashdan oldin kapitalning optimal, ilmiy asoslangan manbayini ularning samaradorlik ko'rsatkichlari asosida shakllantirishi zarur, deb hisoblaymiz. Xo'jalik subyektlarining faoliyatiga jalb qilingan mablag'larning samaradorligi ularga belgilangan foiz stavkalari asosida o'rganiladi. Shu jihatdan jami kapitalning strukturasi belgilash borasida moliyaviy dastaklarni ishlab chiqish zarur bo'ladi (67-jadval).

### Kapitalning optimal, ilmiy asoslangan manbayining shakllantirishi

Ko'rsatkichlar	Kapitalning shakllantirishi, % (XK/M)									
	100,0/0,0	90,0/10,0	80,0/20,0	70,0/30,0	60,0/40,0	50,0/50,0	40,0/60,0	30,0/70,0	20,0/80,0	0,0/100,0
1. Faohiyat uchun zarur bo'lgan jami mablag'lar manbaya (kapital), ming so'm hisobida	103802	103802	103802	103802	103802	103802	103802	103802	103802	103802
2. O'z mablag'lar manbayining (XK) qiymati, ming so'm hisobida	103802	93422	83042	72661	62281	51901	41521	31141	20760	103802
3. Majburiyatlar (M), ming so'm hisobida	0	10380	20760	31141	41521	51901	62281	72661	83042	103802
4. Asosiy faoliyatdan olingan foyda	5485	5485	5485	5485	5485	5485	5485	5485	5485	5485
5. Majburiyatlar uchun belgilangan foiz, 17 % ((17*3 ko'rsatkich)/100)	0	1765	3529	5294	7059	8823	10588	12352	14117	17650
6. O'z mablag'lar manbaya rentabelligiga tegishli foyda, ming so'm hisobida	5485	3720	1956	191	-1574	-3338	-5103	-6867	-8632	5485
7. Jami kapital rentabelligi, % (R)	5,3	5,3	5,3	5,3	5,3	5,3	5,3	5,3	5,3	5,3
8. O'z mablag'lar manbaya rentabelligi, % (R <sub>sk</sub> )	5,3	4,0	2,4	0,3	-2,5	-6,4	-12,3	-22,1	-41,6	5,3

67-jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik yurituvchi subyekting faoliyati uchun kerak bo'lgan jami mablag'lar summasi 103802 ming so'mni tashkil etgan. Tahlil natijalariga binoan xo'jalik subyekti faoliyati uchun 0,0-30,0 foiz chegarasida chetdan mablag' jalb etishi mumkin. Sababi faoliyati uchun zarur jami kapitalda chetdan jalb etilgan mablag'lar salmog'i 0,0-30,0 foizni tashkil etganda, ular uchun soliq summasi 0-5294 ming so'mgacha o'sadi. Demak, xo'jalik yurituvchi subyekting asosiy faoliyatdan olgan foydasi 5485 ming so'mni tashkil etganda, majburiyatlar uchun foiz summasi maksimal 5294 ming so'm hajmida bo'lgani maqsadga muvofiq. Bu xo'jalik yurituvchi subyekting 103802 ming so'mlik kapitali tarkibida 30,0 foiz majburiyatlar bo'lishini va shundagina uning o'z mablag'lar manbaya rentabelligi 0,2 foizni tashkil etishi mumkin.

Tahlil jadvaliga binoan, xo'jalik yurituvchi subyekting kapitali 100 foiz o'z mablag'lari hisobiga shakllantirilganda uning rentabelligi ham shunga mos ravishda bo'ladi. Agarda, jami kapital tarkibida majburiyatlar 10 foiz hajmida shakllantirilsa, o'z mablag'lar manbaya rentabelligi 4,0 foizni tashkil etadi. Negaki, jami kapitalning 10380 ming so'mlik chetdan jalb qilingan mablag' hisobiga shakllantirilganligi, o'z mablag'lar manbaya rentabelligini 1,3 (5,3-4,0) foizga kamaytirgan.

Jami kapital tarkibida chetdan jalb qilingan mablag'lar salmog'ining o'sishi bilan o'z mablag'lar manbaya rentabelligi ham pasayib borgan. Shu boisdan, xo'jalik subyekting kapitalini shakllantirishda uning strukturasi optimal, ilmiy asoslangan holda belgilash zarur, deb hisoblaymiz.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining o'z mablag'lari tarkibida uning xususiy kapitali salmoqli hissaga ega. Moliya vazirligining 2004-yil 1-martdagi 36-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 14-milliy standarti (BXMS) «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotga binoan kichik tadbirkorlik subyektlarining xususiy kapitali-ustav, qo'shilgan, rezerv kapitallari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) va boshqa xususiy kapital elementlaridan tashkil topib, shu o'rinda ularning ikki, ya'ni: bevosita va bilvosita tan olinishi xususiyatini inobatga olish zarur.

Xususiy kapitalning bevosita tan olinishi — ustav, qo'shilgan, rezerv kapitallari va taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) hisobi bilan belgilanib, bilvositada uning ma'lum shartlar asosida tan olinishi ta'kidlangan.

Xususan, maqsadli tushumlar - grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari, maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari, boshqa

maqsadli tushumlardan iborat bo'lib, ularning xususiy kapital, deb tan olinishining shartlari quyidagilardan iborat:

- mablag'ning maqsadli yo'nalish bo'yicha ishlatilishi;
- mablag'ning jalb qilinishi bilan bog'liq xarajatlarning yo'qligi;
- belgilangan shartlar bajarilganda qaytarib berilmasligi.

Grant - ijtimoiy xususiyatga ega maqsadlar, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish uchun hukumat, nodavlat, xorijiy hamda xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar tomonidan ko'rsatilgan bepul, gumanitar yoki moddiy-texnik mablag'larni jamlaydi.

Subsidiyalar - iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida belgilangan shartlar uchun xo'jalik yurituvchi subyektiga Davlat tomonidan pul yoki natura ko'rinishida ko'rsatilgan yordam summasi.

A'zolik badallari - xo'jalik yurituvchi subyektlari a'zolarining ta'sis hujjatlarida belgilangan a'zolik badallari jamlanadi.

Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari - maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliq to'lashdan ozod qilingan mablag'lar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining xususiy kapitali yuqoridagilardan tashqari yana quyidagi ikki yo'nalishda shakllanadi:

1. Ichki omillar, jumladan xo'jalik yurituvchi subyektining foydasi hisobiga;

2. Tashqi omillar, ya'ni investitsiyalar hisobiga.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga binoan, xo'jalik yurituvchi subyektining xususiy kapitali quyidagi tarkibdan iborat:

1. Ustav kapitali.

2. Qo'shilgan kapital.

3. Rezerv kapitali.

4. Sotib olingan xususiy aksiyalar.

5. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar).

6. Maqsadli tushumlar.

Ustav kaital - xo'jalik yurituvchi subyektini ta'sis hujjatlarida belgilagan faoliyatini ta'minlash uchun ta'sischi (qatnashchi)larning qo'ygan mablag'lari (ulushlari, aksiyalarning nominal qiymati va boshqalar)ni pul ifodasidagi yig'indisi hisoblanadi.

Qo'shilgan kapital - aksiyalarning nominal qiymatidan yuqori emissiya daromadi va ustav kapitalini shakllantirishda vujudga keladigan kurs farqlari bo'yicha qo'shimcha kapital mavjudligini bildiradi.

Qo'shilgan kapital xo'jalik yurituvchi subyektini ta'sis hujjatlariga binoan sof foyda hisobidan shakllantiriladigan, mulkni



qayta baholashdan keladigan inflyatsiya rezervlari va tekinga olingan mulklar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar.

Ustav kapitaliga nisbatdan kontr - passiv bo'lib, uning miqdorini kamaytiradi

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar, kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)-xo'jalik yurituvchi subyektining barcha yillardagi faoliyati bo'yicha taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarari hisoblanadi.

Maqsadli tushumlar - grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari, maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari, boshqa maqsadli tushumlardan iborat bo'lib, ularning xususiy kapital, deb tan olinishining shartlari quyidagilardan iborat:

- mablag'ning maqsadli yo'nalish bo'yicha ishlatilishi;
- mablag'ning jalb qilinishi bilan bog'liq xarajatlarning yo'qligi;
- belgilangan shartlar bajarilganda qaytarib berilmasligi.

Yuqoridagi fikr - mulohazalardan, xo'jalik yurituvchi subyektining xususiy kapitali to'g'risidagi ma'lumotlarni mulkdorlarga tushunarli, ularning manfaatiga mos uslubini ishlab chiqish, tahlilning maqsadini tashkil etadi.

Negaki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy kapital xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkich sifatida, uning mustaqillik darajasini baholash imkonini yaratadi. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi subyektining faoliyatni kengaytirish va sheriklik faoliyatini yo'lga qo'yishda o'ta muhim masala hisoblanadi.

Belgilangan maqsadga erishishda xususiy kapital tahlilining vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektining kapitali shakllanishiga baho berish. Mulkchilik shakllari bo'yicha xususiy kapitalning shakllanishini o'rganish, baholash.

2. Xususiy kapitalardan samarali foydalanganlikka baho berish.

3. Xususiy kapitalda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash va boshqalar.

Xo'jalik yurituvchi subyektining xususiy kapitali tahlilida «Buxgalteriya balansi», «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot shakllari va boshqa shu kabi hujjatlardan keng foydalaniladi.

## 16. Xususiy kapital holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Xususiy kapital holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ya'ni uning holati, qonuniy va meyoriy hujjatlar asosida tashkil etilganligi, tarkibiy elementlari hamda dinamik o'zgarishi, shuningdek, harakatiga baho beriladi.

Xususiy kapitalning qonuniy va meyoriy hujjatlari quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, 142-m.).

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998-yil 26-iyulda 17-07/86-son bilan tasdiqlangan (ro'yxat raqami 475, 1998-yil 14-avgust, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999-y., 5-son) Moliyaviy qisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998-yil 26-iyulda 17-07/85-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining «Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar» Buxgalteriya hisobi milliy standarti (1-son BHMS)da (ro'yxat raqami 474-son 1998-yil 14-avgust, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999-yil, 5-son).

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2004-yil 1-martda 36-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 14-son BHMS «Xususiy kapital to'g'risida hisobot».

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002-yil 9-sentabrda 103-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 1-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnomasi».

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998-yil 19-oktabrda 52-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 10-son BHMS «Davlat subsidiyalarini hisobga olish va davlat yordamini ochish».

7. Ta'xis hujjatlari va boshqalar.

Xususiy kapitalning harakati tahlilida ularning hisobot davrida qancha kirim bo'lgani yoki chiqib ketish darajalariga baho beriladi. Xususiy kapitalning kirim darajasi ularning hisobot davrida ko'paygan qismini yil oxiridagi qiymatiga, kamaygan qismini yil boshidagi summasiga nisbati orqali aniqlanadi (68-jadval).

### Xo'jalik yurituvchi subyektlarining xususiy kapitali elementlari va harakati bo'yicha tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot davri boshiga	Harakati:		Hisobot davri oxiriga
			kirim	chiqim	
1.	Ustav kapital	108737,7	630519,3	0	739257
2.	Qo'shilgan kapital	0	0	0	0
3.	Rezerv kapitali	2619,7	0,3	0	2620
4.	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	8680,2	191597	0	200277
5.	Maqsadli tushumlar	0	0	0	0
Jami xususiy kapital		120037,6	822116,6	0	942154,2
Xususiy kapitalning harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar:					
1.1.	Xususiy kapitalning kirim darajasi (%)	x	x	x	87,259
1.2.	Xususiy kapitalning chiqib ketish darajasi (%)	x	x	x	0,0

68-jadval ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektining jami xususiy kapitali joriy yilda 822116,6 (942154,2-120037,6) ming so'mga ortgan. Bunday ijobiy natijaga xo'jalik yurituvchi subyektining asosan hisobot davrida taqsimlanmagan foydasining 191597 ming so'mni tashkil etishi, 630519,3 va 0,3 ming so'mlik mablag' ustav hamda rezerv kapitallarini ortishi hisobiga erishgan.

Xususiy kapitalning oboroti bo'yicha sof kirimi 822116,6 ming so'mni tashkil etib, natijada uning kirim darajasi hisobot davrida 87,259 foiz ( $(822116,6 / 942154,2) * 100$ )ni tashkil etgan.

Umuman, xo'jalik yurituvchi subyektining xususiy kapitali va uning holatini ijobiy, deb qarash mumkin.

#### 6.17. Xo'jalik yurituvchi subyektlari mablag'larining xususiy kapital bilan ta'minlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Tahlilda xo'jalik yurituvchi subyektining mol-mulki, ya'ni uzoq muddatli aktivlari tovar-moddiy zaxiralarining xususiy kapital bilan bog'liqligi va ta'minlanganligi ham o'rganiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda xo'jalik yurituvchi subyektining tovar-moddiy zaxiralarini xususiy kapital bilan bog'liqligi va ta'minlanganligi tahlil etilgan. Tahlil natijalariga binoan xo'jalik yurituvchi subyektining moliyaviy

holati «Absolut barqaror», «Barqaror», «Nobarqaror», «Krizisli» bo'lishi ta'kidlangan. Ammo, uzoq muddatli aktivlarning xususiy kapital bilan bog'liqligi va ta'minlanganligiga katta e'tibor qaratilmagan. Shu jihatdan ularning tahlili yuzasidan quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin (69-jadval).

Xo'jalik yurituvchi subyekti mablag'larining xususiy kapital bilan qoplanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

UMM -----; UAK	1 so'mlik uzoq muddatli aktivlarga to'g'ri keladigan xususiy kapital summasi Bu yerda: UMM - xususiy kapital, UAK - uzoq muddatli aktivlar
UMM -----; OAK	1 so'mlik oborot aktivlarga to'g'ri keladigan xususiy kapital sumasi Bu yerda: UMM - xususiy kapital, OAK – joriy aktivlarning qiymati
OUM -----; TZ	1 so'mlik tovar-moddiy zaxiralariga to'g'ri keladigan xususiy kapital Bu yerda: OUM - joriy aktivlariga tegishli xususiy kapital, TZ – tovar-moddiy zaxirasining balans qiymati

Xo'jalik yurituvchi subyektlari mablag'larining xususiy kapital bilan ta'minlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili asosida uning moliyaviy holatini quyidagicha baholash mumkin:

Absolut barqaror:	Barqaror:	Nobarqaror:	Krizisli:
Uzoq muddatli aktivlarning xususiy kapital bilan qoplanganligi (A) $\geq 1$ ;	$1 \geq A \geq 0,8$	$0,7 \geq A \geq 0,6$	$0,5 \geq A$
Uzoq muddatli aktivlarning jami manbalar bilan qoplanganligi (V) $\geq 2$ ;	$2 \geq V \geq 1,8$	$1,7 \geq V \geq 1,6$	$1,5 \geq V$
Tovar zaxiralarining xususiy kapital bilan qoplanganligi (9-ko'rsatkich) $\geq 0$ ;	$\leq 0$	$\leq 0$	$\leq 0$
Tovar zaxiralarining xususiy kapital hamda uzoq muddatli kredit va qarzlilar bilan qoplanganligi (10-ko'rsatkich) $\geq 0$ ;	$\geq 0$	$\leq 0$	$\leq 0$
Tovar zaxiralarining jami manbalar bilan qoplanganligi (11-ko'rsatkich) $\geq 0$ ;	$\geq 0$	$\geq 0$	$\leq 0$

Bizningcha, yuqoridagi ma'lumotlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarining mablag'larini xususiy kapital bilan qoplanganligini tahlil etish ular yuzasidan samarali moliyaviy qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi, deb hisoblaymiz.

**Xo'jalik yurituvchi subyektining uzoq muddatli aktivlarining xususiy kapital bilan ta'minlanishi tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
1.	Xususiy kapital	120037,6	942154	+822116,4
2.	Uzoq muddatli kredit va qarzlilar	-	1000000	+1000000
3.	Uzoq muddatli aktivlarni qoplashga tegishli jami manbalar	120037,6	1942154	+1822116,4
4.	Uzoq muddatli aktivlar	1271200,1	1550249	+279048,9
5.	Uzoq muddatli aktivlarni xususiy kapital bilan qoplanganligi (1-4)	-1151162,5	-608095	+543067,5
6.	Uzoq muddatli aktivlarni jami manbalar bilan qoplanganligi (3-4)	-1151162,5	+391905	+1543067,5

69-jadval ma'lumotlariga binoan xo'jalik yurituvchi subyektining xususiy kapitali uzoq muddatli aktivlarini o'tgan va hisobot yillarida ham qoplay olmagan bo'lib, joriy yilda uzoq muddatli kredit va qarzlari hisobigagina mazkur masalada ijobiy siljishga erishgan.

Umuman, xo'jalik yurituvchi subyektining uzoq muddatli aktivlarini xususiy kapitali hisobiga ortig'i bilan qoplab, bunga asosiy vositalar qiymatining kamligi ham ta'sir etgan. Bizningcha, xususiy kapital qiymati uzoq muddatli aktivlaridan ma'lum qiymatga ko'pligi paytida ularni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**6.18. Xususiy kapital samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning omilli tahlili**

Xususiy kapitalning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat (70-jadval):

- 1 so'mlik xususiy kapitalga to'g'ri kelgan mahsulot;
- 1 so'mlik xususiy kapitalga to'g'ri kelgan daromadlar;
- 1 so'mlik xususiy kapitalga to'g'ri kelgan sof foyda.

Xususiy kapitalning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Xususiy kapital qiymatining o'zgarishi.
2. Mahsulot sotishdan sof tushumning o'zgarishi.
3. Soliq to'langunga qadar foydaning o'zgarishi.
4. Sof foyda va uning o'zgarishi.

<b>Aniqlanishi</b>	<b>Ifodalanishi</b>
(V / UMM)*100	1 so'mlik xususiy kapitalga to'g'ri keladigan sotilgan mahsulotdan sof tushum darajasi Bu yerda: V – mahsulot sotishdan sof tushum, UMM – xususiy kapital
(K / UMM)*100	1 so'mlik xususiy kapitalga to'g'ri keladigan foyda darajasi Bu yerda: K – soliq to'langunga qadar foyda, UMM- xususiy kapital
(F / UMM)*100	1 so'mlik xususiy kapitalga to'g'ri keladigan sof foyda darajasi Bu yerda: F- sof foyda, UMM- xususiy kapital

70-jadval

### Xo'jalik yurituvchi subyekting xususiy kapital foydaliligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Yil boshiga</b>	<b>Yil oxiriga</b>	<b>Farqi (+,-)</b>
1.	Mahsulot sotishdan sof tushum	430,1	1211239	+1210808,9
2.	Soliq to'langunga qadar foyda	10486,5	280473	+269986,5
3.	Sof foyda	8680,2	191597	+182916,8
4.	Xususiy kapitalning qiymati	120037,6	942154	+822116,4
5.	Xususiy kapitalning natijaviyligi (1 : 4) * 100	0,358	128,561	+128,203
6.	Xususiy kapitalning daromadliligi (2 : 4) * 100	8,736	29,769	+21,033
7.	Xususiy kapitalning foydaliligi (3 : 4) * 100	7,231	20,336	+13,105

Xususiy kapitalning samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarning hisob-kitoblari quyidagicha bo'ladi:

<b>№</b>	<b>Davrlar</b>	<b>Xususiy kapitalning natijaviyligi</b>	<b>Xususiy kapitalning daromadliligi</b>	<b>Xususiy kapitalning foydaliligi</b>
1.	O'tgan yil	0,358	8,736	7,231
2.	Shartli ko'rsatkich	1009,049	233,654	159,614
3.	Hisobot yil	128,561	29,769	20,336
	<b>O'zgarishi (+,-)</b>	<b>+128,203</b>	<b>+21,033</b>	<b>+13,105</b>
	<b>Xususiy kapital natijaviyligining o'zgarishi</b>	Sotishdan sof tushum o'zgarishining ta'siri hisobiga +1008,691 (1009,049-0,358)	Xususiy kapitalning o'zgarishi hisobiga -880,488 (128,561-1009,049)	Omillar yig'indisi 1008,691 + +(-880,488)= <b>+128,203</b>
	<b>Xususiy kapital daromadliligining o'zgarishi</b>	Soliq to'langunga qadar foyda o'zgarishining hisobiga 224,918 (233,654-8,736)	Xususiy kapitalning o'zgarishi hisobiga -203,885 (29,769-233,654)	Omillar yig'indisi 224,918 + +(-203,885)= <b>+21,033</b>
	<b>Xususiy kapital foydaliligining o'zgarishi</b>	Sof foydaning o'zgarishi hisobiga 152,383 (159,614-7,231)	Xususiy kapitalning o'zgarishi hisobiga -139,278 (20,336-159,614)	Omillar yig'indisi 152,383 + +(-139,278)= <b>+13,105</b>

70-jadval va uning hisob-kitoblariga binoan xo'jalik yurituvchi subyektning xususiy kapitali samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlari hisobot davrida ijobiy siljishga erishgan. Bunga hisobot davridagi sof foydaning 182916,8 (191597-8680,2) ming so'mga ortishi ijobiy ta'sir etgan. Unga mos ravishda xususiy kapital miqdori ham ortgan bo'lib, samaradorlik ko'rsatkichlarining ma'lum darajada o'zgarishiga ta'sir etgan.

## **Xulosalar**

Doimiy harakatdagi aktivlar ( $A_1$ ), deb xo'jalik yurituvchi subyektning barcha pul mablag'lari, qisqa muddatli investisiyalari va boshqa joriy aktivlariga aytiladi. Tez sotiluvchi aktivlar ( $A_2$ )ga xo'jalik yurituvchi subyektning debitorlik qarzlarini kiritiladi. Sekin sotiluvchi aktivlar ( $A_3$ ) deb, xo'jalik yurituvchi subyektning tovar-moddiy zaxiralari, balans tamoyiliga binoan kelgusi davr xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlar kiritiladi. Qiyin sotiluvchi aktivlar ( $A_4$ )ga xo'jalik yurituvchi subyektning barcha uzoq muddatli aktivlari kiritiladi. Sekin sotiluvchi aktivlarini aylanish koeffisienti orqali ularning bir so'miga to'g'ri kelgan mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum miqdori aniqlanadi. Sekin sotiluvchi aktivlarning aylanish salmog'i koeffisientida bir so'mlik mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum hisobiga to'g'ri kelgan sekin sotiluvchi aktivlar o'rganiladi. Sekin sotiluvchi aktivlarni aylanish davri kun o'lchov birligida hisobga olinib, u sekin sotiluvchi aktivlarni necha kunda pulga aylanayotganligini bildiradi. To'lov qobiliyati, deganda xo'jalik yurituvchi subyektning joriy majburiyatlarini bajarishi uchun mablag'larining yetarli yoki yetishmasligi tushuniladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini quyidagi hollarda, ya'ni o'zaro hisob-kitoblarda tomonlarning to'lov layoqatiga ega emasligi; tovarlarni ortib jo'natish va sotishda hisob-kitoblarning zamonaviy shakllari cheklanganligi; o'zaro shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi kabi sabablarga ko'ra yuzaga keladi.

## **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Moliyaviy holat tahlilining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Moliyaviy holat tahlilining axborot manbalari sanab o'ting.
3. Moliyaviy holat tahlilida qaysi metodlardan foydalaniladi?
4. Moliyaviy hisobot shakllari va ularning mohiyati.
5. Moliyaviy mustaqillik nima?

6. To'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.
7. Balans likvidligi.
8. Korxonalar moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi qanday ko'rsatkichlarni bilasiz?
9. Sekin sotiluvchi aktivlar aylanuvchanligini xarakterlaydigan qanday ko'rsatkichlar mavjud?
10. Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishning qanday yo'llarini bilasiz?
11. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining maqsadi nimadan iborat?
12. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining qanday vazifalari mavjud?
13. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlilida qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?
14. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili qanday olib boriladi?
15. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilida foydalaniladigan qanday ko'rsatkichlar mavjud?
16. Debitorlik va kreditorlik qarzlari holati tahlili qanday o'rganiladi?
17. Debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi tahlilida qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
18. Debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanish davri ko'rsatkichining o'zgarishiga omillar ta'siri qanday o'rganiladi?
19. Debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi ko'rsatkichlarining omilli tahlili qanday amalga oshiriladi?
20. Debitorlik qarzlari oshishi sabablarini sanab o'ting.
21. Kreditorlik qarzlari kamaytirishning qanday yo'llarini bilasiz?
22. Pul oqimlarini to'g'ri usulidagi tahlilini aytib o'ting.
23. Pul oqimining egri usuldagi tahlili va uning mazmunini yoriting.
24. Xususiy kapital ko'rsatkichlari va uning tahlilini aytib bering.
25. Xususiy kapitalni optimal shakllantirish yo'llarini ko'rsatib bering.

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Buxgalteriya balansi; balans aktivi; joriy aktivlar; o'z mablag'lar manbai; majburiyatlar; debitorlik qarzlari; gorizontal tahlil; vertikal tahlil; debitorlik qarzlari; kreditorlik qarzlari; debitorlik qarzlarning aylanish davri; kreditorlik qarzlarning aylanish davri; pul oqimlari; pul



oqimlarining to'g'ri usuldagi tahlili; pul oqimlarining egri usuldagi tahlili; xususiy kapital; xususiy kapitalni shakllantirish manbalari.

## Mavzu bo'yicha testlar

**1. Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarini harakatchanligiga ko'ra mutanosibi bilan bog'lang.**

Tez sotiluvchi aktivlar

Muddati yetib kelgan to'lov majburiyatlari

Qiyin pulga aylanuvchi aktivlar

Qisqa muddatli majburiyatlar

Sekin sotiluvchi aktivlar

O'ta tez sotiluvchi aktivlar

Uzoq muddatli majburiyatlar

Qiyin pulga aylanuvchi passivlar

Kassadagi pul mablag'lari

Xodimlarga berilgan bo'naklar

Kelgusi davr xarajatlari

Budletga to'lovlar bo'yicha qarz

Qisqa muddatli bank krediti

Ustav kapital

Asosiy vositalar

Alohida bo'linmalardan uzoq muddatli qarzlar

Qisqa muddatli investitsiyalar

**2. Tez sotiluvchi aktivlar, deganda nimani tushunasiz?**

- A. Debitorlik qarzlari.
- B. Pul mablag'lari.
- C. Tayyor mahsulot.
- D. Nomoddiy aktivlar.

## VII mavzu. AUDITNING MOHIYATI, UNING MAQSADI VA VAZIFALARI

---

### 7.1. Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati

Turli mulkchilik shakllaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilni audit uzviy ravishda to'ldirib turadi. Shu sababli tegishli tashkilot va mutaxassislar tomonidan mamlakatda auditni tartibga solish hamda rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan holda xo'jalik hayotini aniq, obyektiv baholashga e'tibor qaratilmoqda.

Audit vositasida mulkdorlarning amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjat talablariga asosan mablag'laridan foydalanayotganligi o'rganib boriladi va berilgan maslahatlarga binoan hisob siyosatiga tegishli tartibda o'zgartirishlar kiritiladi.

Audit nazoratning mexanizmi sifatida yuzaga keladi. Biroq, nazoratdan farqli o'laroq to'g'ri ma'lumotlar olishda, berilayotgan axborotlardagi noaniqliklarni aniqlashda mulk egalari auditdan foydalanib, u orqali qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari sifatini oshiradi. Shu sababli mamlakatimizda amalda bo'lgan nazorat-taftish tizimidan asta-sekin voz kechib, audit xizmatlarini yo'lga qo'yish iqtisodiy sohadagi muhim masalalardan biri sifatida qaraldi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 8-avgustdagi qarori bilan «Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Unga muvofiq mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tartibga solish, nazorat qiluvchi organlar tomonidan ularning faoliyatiga asossiz aralashishga yo'l qo'ymaslik belgilangan.

Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini qonunchilikda belgilangan huquqlarga muvofiq amalga oshiriladigan tekshirishlarning hammasi nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi bilan kelishilgan holdagina o'tkaziladi.

Respublika kengashi bilan kelishilmagan holda tekshirishlarni amalga oshiruvchi markazdagi va joylardagi nazorat qiluvchi organlarning rahbarlari belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi:

- reja asosida o'tkaziladigan tekshirishlarning yillik, yarim yillik hamda har bir chorakka mo'ljallangan jadvallarini ishlab chiqib, tasdiqlaydi;

- kompleks tekshirishlar o'tkazishni amaliyotga joriy etib, bunda bir korxonadagi tekshirish barcha vakolatli tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi, shuning hisobiga o'tkaziladigan tekshirishlar soni va masalalarni takrorlashni keskin kamaytiradi.

Ushbu hujjatga asosan, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshiradigan idoraviy taftish xizmatlarining mavjudligi maqsadga muvofiq emas, deb hisoblanib, O'zbekiston Respublikasining vazirliklari, idoralari (Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi bundan mustasno) konsernlar, korporatsiyalar, uyushmalar mavjud taftish xizmatlarini tutib, o'z tarkibidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil etishning auditorlik shakllarini qo'llash ta'kidlangan.

Audit xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy va boshqaruv hisobotlari to'g'riligi va to'liqligini, buxgalteriya hisobi yuritilishini amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos ravishda olib borilayotganligini aniqlash maqsadida vakolatli, xolis shaxs tomonidan o'tkaziladigan mustaqil ekspertiza va iqtisodiy tahlilni bildiradi.

**Audit** – vakolatli, xolis xodim tomonidan miqdoriy baholanadigan va xo'jalik hayotiga taa'lluqli bo'lgan ma'lumotlarni belgilangan me'yorlarga to'g'ri kelishini o'z xulosasida aks ettirish maqsadida to'plash hamda baho berish jarayonidir.

**Audit** - bunga vakolati bo'lgan shaxslar, ya'ni auditorlar (auditorlik firmalar) tomonidan o'tkazilib, ular xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy va boshqaruv hisobotlarining ishonchlilik, to'liqligi va aniqligini, xo'jalik muomalalarini amaldagi qonunchilikka mosligini tekshirish bilan bir qatorda ularga konsalting, ya'ni mijozlarga ikki tomonlama tuzilgan shartnomaga asosan xizmatlar ko'rsatadi.

Shu o'rinda auditing nazorat va taftish tushunchalaridan kengroq mazmunga ega ekanligini ta'kidlash kerak. Chunki audit


nafaqat moliyaviy va boshqaruv hisobi ko'rsatkichlarining to'g'riligini tekshiradi, balki xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qilina-yotgan xarajatlarni maqbullashtirish va qonuniy asosda foydani ko'paytirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi. Shu sababli auditga mutaxassislar tomonidan biznesni o'ziga xos tarzda ekspertiza qilish, deb ham ta'rif berilgan (9-chizma).

Maqsadiga ko'ra:

- audit xo'jalik hayotidagi kamchiliklarni uning ajralmas elementi sifatida aniqlab, keyingi davrlarda unga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash;

- taftish xo'jalik hayotidagi kamchiliklarni oldini olish va bartaraf etish uchun o'tkaziladi.

Huquqiy jihatdan audit - fuqorolik, taftish – ma'muriy huquqqa ega.



9-chizma. Audit va taftishni tafvutlovchi belgilar

Uslubiy jihatdan audit va taftish o'xshash bo'ladi, biroq qo'yilgan maqsadlar xilma-xilligidan kelib chiqib har xil nisbatlarda qo'llaniladi.

Obyekti bo'yicha:

- auditda mijoz (xo'jalik yurituvchi subyekt)ning to'lov layoqatini pasaytirib, uning moliyaviy holatini yomonlashtiradigan;

- taftishda amaldagi qonunchilikka va xo'jalik yurituvchi subyektini hisob siyosatining buzilishiga olib keladigan barcha vaziyatlar obyektlari hisoblanadi.

Natijalariga ko'ra

audit - auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tuzish;

taftish - taftish dalolatnomalari, tashkiliy xulosalar, jarima solish, majburiy ko'rsatmalar va ularning bajarilishini tekshirish bilan yakunlanadi.

Boshqaruv shakliga ko'ra aloqalar:

- auditda gorizontal va ixtiyoriy;

- taftishda vertikal, ma'muriy tayinlash va majburiy tartibda o'rnatiladi.

Amaliy vazifalariga ko'ra

auditda to'lov qobiliyatini mustahkamlashga doir qator vazifalar mijoz;

taftishda xo'jalik yurituvchi subyekti aktivlarining saqlanishi, suiste'mol qilishlarning oldini olish va to'sqinlik qilish bo'yicha vazifalar xo'jalik tizimi tomonidan hal qilinadi.

Boshqa belgilariga ko'ra audit va taftishning farqlari quyidagilardan iborat:

1. Gnoseologik (bilish) jihatlarini bo'yicha:

1.1. Audit - Mijozning buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni haqiqiylikni isbotlaydi;

1.2. Sodir etilgan muomalalarning qonuniyligi va xodimlar tomonidan o'g'riliklar yo'qligini aniqlaydi.

2. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lash tamoyiliga binoan:

2.1. Auditda — xizmat haqi mijoz, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan to'lanadi;

2.2. Taftishda — xizmat haqini yuqori tashkilot yoki davlat to'laydi.

3. Yetarlilik darajasiga ko'ra:

3.1. Auditda xarajatlar va natijalar nisbatiga qarab oqilona, yetarlilik tamoyili.

3.2. Taftishda eng yuqori darajadagi aniqlik va aybdor shaxslarni, so'ralgan zarar ko'lamini aniqlash tamoyili amal qiladi.

Yuqoridagilarga asosan, audit va iqtisodiy tahlilning farqli jihatlarini ham keltirish mumkin. Xususan, audit - buxgalteriya balansi moddalarining realligi, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlashning to'g'riligini isbotlash kabi masalalarni o'rganadi.

Iqtisodiy tahlil - audit nuqtayi nazaridan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tahlil qilib, tegishli va kredit mablag'laridan samarali foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Buxgalteriya hisobi va ichki xo'jalik faoliyati nazorati ikki tomonlama tuzilgan shartnoma asosida amalga oshirilib, moliya-xo'jalik muomalalarining qonunchilikka muvofiqligi tekshiriladi, samarasiz xarajatlarga yo'l qo'ymaslik borasida ekspert konsultatsiyasi o'tkaziladi. Bu auditorlardan keng bilim, mahorat va tajribaga ega bo'lishini talab qiladi. Shu sababli mamlakatda auditorlik faoliyatiga kamida 5 yil bosh buxgalter bo'lib ishlagan, buxgalteriya hisobining barcha jarayonlarini biladigan, tajribali shaxslar jalb etilgan.

## 7.2. Auditning maqsadi va vazifalari

Mamlakatimizda audit (auditorlik faoliyati) mulk ukladlarining shakllanishi, ya'ni aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar va tijorat banklarining tashkil etilishi bilan rivojlanib borib, o'z maqsadini belgiladi.

Har qanday tushuncha, ayniqsa, ilmiy atama o'zining mohiyatini ifodalovchi ta'rifiga ega bo'lishi zarur. Shu jihatdan auditorlik faoliyatining ta'rifiga e'tibor qaratsak, unga manbalarda turlicha yondashilgan. Xususan, M.M. To'laxo'jayevaning «O'zbekiston Respublikasida Moliyaviy nazorat tizimi» nomli kitobida auditga: - «audit – bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog'liq moliyaviy axborotni ushbu hisobot yoki axborotning qonun va boshqa normativ hujjatlarga muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir», deb ta'rif berilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunida: - «Auditorlik faoliyati, deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va ushbu qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi», deb ta'kidlangan.

Birinchi ta'rifda auditning tafsiloti keng bayon etilgan bo'lsa, so'ngisida auditorlik faoliyati tekshiruv o'tkazish jarayoni bo'lishidan tashqari professional xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati ekanligi ta'kidlangan.

O'zbekistonda davlat hoqimiyati va boshqaruvi organlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish qonun bilan taqiqlangan.

Auditor – auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Agar auditor auditorlik tashkilotining shtatida turgan bo'lsa yoki auditorlik tashkiloti u bilan fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnoma

tuzgan bo'lsa, u auditorlik tekshiruvini o'tkazishga jalb etilishi mumkin.

Auditor auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazganligi, tijorat sirini oshkor etganligi hamda boshqa xatti-harakatlari oqibatida auditorlik tashkilotiga zarar yetkazganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkiloti oldida javobgar bo'ladi.

Amaldagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» qonunning 4-moddasiga muvofiq «auditor yordamchisi auditor malaka sertifikatiga ega bo'lmagan va auditorlik hisobotida, auditorlik xulosasida, auditorning ekspert xulosasida hamda auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan boshqa rasmiy hujjatda imzo chekish huquqiga ega bo'lmagan tarzda auditorning topshirig'iga binoan auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan jismoniy shaxsdir».

Auditor yordamchisining mehnat shartlari qonun hujjatlarida qayd etilgan tartibda tuzilgan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi.

Auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda olingan ma'lumotlarni oshkor etmaslik majburiyati auditorning yordamchisiga nisbatan tatbiq etiladi.

Auditorning yordamchisi sifatida ishlangan vaqt auditor malaka sertifikatini olish uchun zarur bo'ladigan ish stajiga qo'shiladi.

O'zbekistonda auditorlik faoliyati mustaqil yuridik shaxs huquqiga ega auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Qonunga ko'ra auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.

Auditning maqsadi - amaldagi qonunchilikka binoan auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga soluvchi tizim asosida, auditor va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma majburiyatlari bilan belgilanadigan aniq masalani yechishdan iboratdir.

Bu maqsadga erishishda auditning vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- tekshirilayotgan davrda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati natijasida buxgalteriya hisobi va hisobotida xarajatlar, daromadlar va moliyaviy natijalar to'liq, ishonchli va aniq aks etilganligini tekshirish;

- buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotni tuzish, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni baholash uslubiga oid qoidalarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikka va me'yoriy hujjatlarga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

- xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy, mehnat, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

- xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida buxgalteriya hisobini to'g'ri, tartibli yuritilishi borasida konsalting xizmatlarini ko'rsatish va h.k.

Boshqaruv va moliyaviy hisobotlar auditining asosiy maqsadi bo'lib, ma'lum bir sanaga tuzilgan, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining natijasi bo'yicha hisobotlarda aktivlar, majburiyatlar, xususiy mablag'lar va moliyaviy natijalarni to'liq, ishonchli va aniq aks ettirilganligiga haqqoniy baho berish, korxonada qabul qilingan hisob siyosatini amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini tekshirishdir.

Auditorlik tekshiruvni davomida boshqaruv va moliyaviy hisobotlarning to'g'ri tuzilganligi, unga ilova qilingan tushuntirish xati ma'lumotlarining ishonchligini tekshirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- hisobotlarda barcha aktivlar va passivlar aks ettirilganligiga;
- hisobot tuzishda barcha hujjatlardan foydalanilganligiga;
- amaldagi tartibga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyekt mol-mulkini qayta baholanganligi holatiga;
- foyda hamda boshqa soliqlar bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani to'g'ri hisoblanganligiga;
- xo'jalik yurituvchi subyektning Nizom kapitali shakllanishi va undagi o'zgarishlarning rasmiylashtirilishi hamda yig'ilish qarorlarini to'liq bajarilganligiga;
- balansning aktiv va passiv hisobvaraqlari bo'yicha sintetik hamda tahliliy hisob ma'lumotlarining bir-biriga mos kelishligiga;
- hisobot, shuningdek, boshqa ma'lumotlarda debitorlik hamda kreditorlik qarzlarning to'liq aks ettirilganligiga;
- daromadlar va xarajatlarni hisobot davrlari bo'yicha to'g'ri aks ettirilishiga;
- buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish bo'yicha joriy xarajatlar (aylanish chiqimlari) va kapital qo'yilmalarni ajratgan holda aks ettirilishiga;
- o'rganilayotgan davrda tahliliy hisob ma'lumotlarining aylanma va qoldiqlarini bir-biriga mos kelishini ta'minlanishiga va h.k.

Auditor tomonidan qo'yilgan asosiy maqsadga erishish va xulosa taqdim etishda uning quyidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini shakllantirishi talab etiladi:

1. Boshqaruv va moliyaviy hisobotlarning talab qilinadigan barcha shartlarga muvofiqligi va bir-biriga zid bo'lgan ma'lumotlarning mavjud emasligiga.



2. Boshqaruv va moliyaviy hisobotlarning asoslanganligiga (ko'rsatilgan summalar asoslangan ravishda hisobotga kiritilganligi).

3. Boshqaruv va moliyaviy hisobotlarning yakunlanganligiga (barcha kerakli bo'lgan summalar hisobotlarga kiritilganligi, xususan aktivlar va passivlarning barchasi ushbu kompaniyaga tegishli bo'lganligi).

4. Boshqaruv va moliyaviy hisobotlaridagi aktivlarning baholanishiga (barcha tabaqalar to'g'ri baholanganligi va xatosiz hisoblanganligi).

5. Boshqaruv va moliyaviy hisobotlarning tabaqalashtirilishiga (hisobvaraqda yozilgan summa asoslangan holda unda qayd etilganligi).

6. Boshqaruv va moliyaviy hisobotlar ajratishga (balans tuzilgan sanadan oldinroq yoki bevosita ushbu sanadan keyin amalga oshirilgan muomalalar amalga oshirilgan davrda to'g'ri aks ettirilganligi).

7. Boshqaruv va moliyaviy hisobotlarning to'g'riligiga (alohida operatsiyalar bo'yicha summalar tahliliy hisob daftar va kitoblarida qayd etilganlarga muvofiqligi, ular to'g'ri raqamlanganligi, yakuniy summalar Bosh kitobda qayd etilgan summalarga muvofiqligi).

8. Moliyaviy hisobotlarning oshkoraligiga (barcha tabaqalash-tirilgan ma'lumotlar moliyaviy hisobotga kiritilganligi hamda hisobot va uning ilovalarida to'g'ri aks ettirilganligi).

### **7.3. Auditning predmeti va obyektlari**

Audit maxsus fan sifatida ma'lum maqsadga qaratilgan va bir qancha vazifalarni bajaradi. Auditning predmeti xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularning faoliyatlari hisoblanadi. Ma'lumki xo'jalik yurituvchi subyektlari o'z ustavlariga asosan faoliyat yuritadilar. Ushbu faoliyat jarayonida moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalaniladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning aktivlari doimiy ravishda daromad, foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Lekin ushbu natijalarga faqat qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilgan holda erishish mumkin. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatlarida me'yoriy hujjatlarga, qabul qilingan qoidalarga rioya qilishlari shart. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekti o'zining hisob siyosatini belgilaydi va unga asosan hisob-kitoblarni yuritadi. Audit paytida xo'jalik yurituvchi subyekti faoliyatining qabul qilingan qonunlarga monandligi, hisob ma'lumotlarini uning moliyaviy-xo'jalik ko'rsatkichlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Auditning predmeti taftishdan farqli o'laroq, xo'jalik yurituvchi subyektining faqat bir faoliyat turi yoki birgina ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Masalan, savdo faoliyati, ishlab chiqarish faoliyati yoki bo'lmasa pul mablag'lari, tovarlar, qimmatli qog'ozlar, valuta operatsiyalari va boshqalar. Auditning predmetiga xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining to'g'riligi, hisob, soliq siyosatiga to'liq amal qilinishlikni tekshirish ham kiradi. Auditning aniq predmeti yoki obyekt mijoz bilan tuzilgan shartnomaga bevosita bog'liq bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining faoliyati kengayib har tomonlama rivojlanmoqda. Shu boisdan, iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida auditning asosiy obyektlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz:

- moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko'rsatkichlar (xarajatlar, daromadlar, foyda (zararlar));
- valuta operatsiyalari;
- tashqi iqtisodiy faoliyat, shu jumladan, xorijiy sarmoyalar;
- hisob-kitob operatsiyalari ( debitorlik, kreditorlik qarzlari);
- qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq jarayonlar.

Shunday qilib auditning predmeti va obyektlarini quyidagi tartibda guruhlash mumkin:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlari;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning aktivlari va majburiyatlari;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning alohida jarayonlari (operatsiyalari).

Auditning asosiy predmeti bo'lgan korxonalarining faoliyatlari quyidagilarga bo'linadi:

- ishlab chiqarish faoliyati;
- savdo faoliyati;
- xizmat ko'rsatish faoliyati.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati o'z navbatida quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- ta'minot jarayoni;
- ishlab chiqarish jarayoni;
- realizatsiya jarayoni.

Jarayonlar xo'jalik operatsiyalari orqali sodir bo'ladi.

Xo'jalik jarayonlarning auditi ma'lum ko'rsatkichlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu ko'rsatkichlarning ikkiga bo'lish mumkin:

- miqdor ko'rsatkichlari;

- sifat ko'rsatkichlari.

Miqdor ko'rsatkichlar - ishlab chiqarilgan mahsulotlar, sotilgan tovarlar, bajarilgan xizmatlar hajmidan iborat.

Sifat ko'rsatkichlar - faoliyat yuritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, foyda, mehnat unumdorligini ifodalaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning alohida jarayonlari va ko'rsatkichlari auditning obyektlari hisoblanadi.

Auditning predmetiga xo'jalik yurituvchi subyektlarga dolzarb masalalarda konsalting xizmatlarini ko'rsatish ham kiradi.

Auditorlar va auditorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'zaro tuzilgan shartnomalarga asosan «Biznes reja» tuzish, hisob siyosatini belgilash, soliqlarni to'g'ri hisoblash, mahsulot tannarxini aniqlash, moliyaviy hisobot tuzish kabi masalalarda yaqindan yordam beradi.

#### **7.4. Auditning usullari**


Auditning o'ziga xos usullari va uslubiyati mavjud. Bu usullar auditning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Xo'jalik yurituvchi subyektda audit o'tkazish mutaxassis auditoridan ma'lum bilim va ish tajribasini talab etadi. Turli mulkka asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlari bir-biridan farq qiladi. Ularning so'nggi moliyaviy natijalari ham turli operatsiyalar va omillar tufayli shakllanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining qabul qilingan qonun-qoidalarga monandligini ekspertiza qilish, baholash, asosli xulosalarga kelish va tavsiyalar berish auditoridan ko'p bilim hamda tajribani talab etadi. Audit natijasida ishonchli xulosaga kelish ushbu jarayonda qo'llaniladigan usullarga bevosita bog'liqdir. Ushbu usullarning turi ham ko'p.

Audit usulining asosida mantiqiy mulohaza, ilm-fan yutuqlari, xo'jalik jarayonining o'zgaruvchanligi yotadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi operatsiyalar tufayli mablag'lar bir shakldan boshqa shaklga o'zgarib turadi. Ushbu jarayon natijasida xo'jalik yurituvchi subyekti samara (naf) olishi kerak. Bu samaraga, o'z navbatida, qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilingan holda erishilgan bo'ladi. Noqonuniy operatsiyalar mijozlarga faqat zarar keltiradi, xolos.

Audit jarayonida iqtisodiyotimizga xos bo'lgan xalqaro amaliyotda keng foydalaniladigan usullar qo'llaniladi. Auditor audit usullarini mustaqil ravishda belgilaydi va qo'llaydi. Ushbu usullar

tarkibi auditning predmeti, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liqdir. Audit nazariyasi va amaliyotida ushbu usullarning quyidagi turlari keltirilgan:

- solishtirish usuli (iqtisodiy hodisalar, ko'rsatkichlarni o'zaro va biznes-reja bilan solishtirish);



10-chizma. Auditorlik faoliyati

- gipoteza usuli (hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha «yashirin iqtisodiyot» natijalarini aniqlashda keng foydalaniladi);

- tahlil va sintez usuli (audit obyekti bo'lgan ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi);

- taftish usuli (xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi);

- inventarizatsiya usuli (xo'jalik yurituvchi subyektidagi aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga monandligi tekshiriladi);

- kalkulyatsiya usuli (bajarilgan ishlar, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi, umumiy ovqatlanish xo'jalik yurituvchi subyektlarda esa taomlarning sotilish bahosi aniqlanadi);

- ekspertiza usuli (hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi);

- buxgalteriya schyotlari va ikkiyoqlama yozuv usuli ( xo'jalik yurituvchi subyekt aktivlari va majburiyatlarining harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi schyotlari orqali tekshiriladi);

- balans usuli (xo'jalik yurituvchi subyektdagi hodisa, jarayonlarni rasmiylashtirish, dastlabki ma'lumotlarni umumlashtirish orqali nazorat qilish).

Auditor tekshirish jarayonida me'yorlashtirish, baholash, guruhlash usullaridan ham foydalaniladi. Audit usullari har bir hodisaning kelib chiqish sabablari, ularning oqibatlari, ho'jalik jarayonlarining qonun-qoidalarga (mezonlarga) muvofiqligini aniqlashga yordam berishi kerak. Auditorlik faoliyatining rivojlanishi tufayli uning uslubi, unda qo'llaniladigan usullar ham takomillashib boraveradi. Keyingi paytlarda maxsus adabiyotlarda auditning quyidagi usullariga katta e'tibor berilmoqda: xodimlar (yoki uchinchi shaxslar) bilan og'zaki so'rovlar o'tkazish; tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt bo'yicha muqobil (alternativ) balans tuzish; audit obyektlari bo'yicha testlar anketalar o'tkazish; kompyuter axborotlari texnologiyalaridan keng foydalanish kabi usullar. Shuni ham qayd qilish kerakki, auditorlar (auditorlik tashkilotlari) audit jarayonida qabul qilingan umumiy (an'anaviy) usullardan foydalanish bilan bir qatorda ular o'zlariga ma'qul bo'lgan yoki boshqalar uchun «tijorat siri» hisoblangan noan'anaviy (lokal) usullardan ham foydalanishlari mumkin. Audit o'tkazishda milliy va xalqaro audit standartlariga asoslanadi. Shunday qilib, auditda qo'llaniladigan usullar uning turi, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liq bo'ladi.

## Xulosalar

Audit – boshqaruv va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining realligi, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlashning to'g'riligini isbotlash kabi masalalarni

o'rganadi. Iqtisodiy tahlil - audit nuqtayi nazaridan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tahlil qilib, tegishli va kredit mablag'laridan samarali foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Xo'jalik hayotining auditi ma'lum ko'rsatkichlarni tekshirish orqali amalga oshirilib, ularni miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bo'lib o'rganiladi.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Auditning ta'rifini keltiring.
2. Auditning maqsadi va vazifalarini aytib, izoh bering.
3. Auditorlik faoliyatining mohiyatini keltiring.
4. Auditning predmeti va obyektlarini ayting.
5. Audit va taftishning farqli jihatlarini keltiring.
6. Auditning usullarini aytib bering.

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Audit; audit predmeti; audit obyekti; auditorlik tashkiloti; auditorlik faoliyati; auditor; auditor yordamchisi; auditorlik sertifikat, audit faoliyati uchun litsenziya.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

1. **Audit haqida tushuncha qanday ma'noni anglatadi?**
  - A. Audit «eshitaman» degan ma'noni bildiradi.
  - B. Audit - bu iqtisodiy tahlil yakunidir.
  - C. Audit - bu moliyaviy tahlil yakunidir.
  - D. Audit raqobatbardosh faoliyat yaratishga qaratilgan tadbirlar majmuyi.
2. **Auditning asosiy vazifalari qaysi javoblarda to'g'ri ko'rsatilgan?**
  - A. Axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirish.
  - B. Axborotdan foydalanuvchilarga ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlashga yordam beradi.
  - C. Iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash.
  - D. Barcha javoblar to'g'ri.

**3. «Audit» fanining predmeti ...**

A. Iqtisodiy, axborot va boshqa tomonlarining holatini o'rganishdan iborat.

B. Realizaliya va moliya natijalarini hukumat qonunlari va qarorlarining bajarishini baholashdan iborat.

C. Ishlab chiqarish, taqsimot va moliyaviy natija yakunlarini qonun va qoidalar asosida yo'lga qo'yilganligini o'rganish.

D. To'g'ri javob yo'q.

**4. Auditning obyektlari ....**

A. Moddiy resurslar.

B. Korxonaning tashkiliy tuzilishi.

C. Boshqaruv funksiyalari.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

**5. Auditda qo'llaniladigan analogiya metodining mazmuni, ... iborat.**

A. Hisobotning unchalik ahamiyatga molik bo'lmagan moddalarini o'rganishdan.

B. Hisobot moddalarini guruhlashdan.

C. Hisobot moddalarini taqqoslashdan.

D. Avval jami hisobotga, keyin hisobot moddalariga nisbatan xatoni belgilashdan.

## VIII mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AUDITORLIK FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

---

### 8.1. O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini me‘yoriy-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlari

O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjatlari mamlakat mustaqillikka erishgan ilk yillaridan boshlangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi Oliy organ sifatida 1992- yil 9-dekabrda «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonunni qabul qildi. Iqtisodiyotdagi tub o‘zgarishlar ushbu qonunga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini taqozo qildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 26-maydagi qarori bilan yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yuqori ijro organi sifatida mazkur qonun ijrosini ta‘minlash maqsadida 2000-yil 22-sentabrdagi 365-sonli «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to‘g‘risida»gi qarori bilan «Auditorlik xulosalarini soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi to‘g‘risida»gi, «Majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazishdan bo‘yin tovlaganligi uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirish tartibi to‘g‘risida»gi hamda «Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish to‘g‘risida»gi Nizomlarni tasdiqladi va auditorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda tartibga solish ushbu me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi auditorlik faoliyatini litsenziyalash bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organi etib tasdiqlangan va unga quyidagi funksiyalar yuklatilgan:

1. O‘z vakolatlari doirasida auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlarni, shu jumladan auditorlik faoliyatining milliy standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

2. Auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish.

3. Auditorlarning respublika jamoat birlashmasi bilan kelishgan holda auditorlar malaka sertifikatini olish uchun o‘qitish dasturlarini va malaka imtihonlari topshirish tartibini tasdiqlash.



4. Auditorlik faoliyatini amalga oshirishga berilgan litsenziyaning, auditorlar malaka sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va bekor qilish.


5. Malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorlar reyestrini va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari hisobini yuritish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan auditorlik faoliyatini olib borish to'g'risidagi litsenziya auditorlik tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi. Negaki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 4-apreldagi PQ-615-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida»gi Nizomga binoan auditorlik tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. Shuningdek, Adliya vazirligida auditorlik tashkilotlarining davlat reyestrini yuritilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi buxgalterlar va auditorlar milliy Assotsiatsiyasi, O'zbekiston Auditorlar Palatasi tomonidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda auditorlik faoliyatining milliy standartlari, auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir uslubiy ko'rsatmalar, tavsiyanomalar ishlab chiqilib, faoliyatda keng qo'llaniladi (11-chizma).

Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi (IFAC)ga a'zo bo'lgan barcha tashkilotlarda 1-10-dekabr kunlari oraliqida professional kunni nishonlashni tavsiya qilingan. Shu sababli O'zbekiston Auditorlar palatasi va O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi hamkorlikda 9-dekabrni mamlakatimizda Buxgalterlar va auditorlar kuni sifatida nishonlashga qaror qildi. Albatta, ushbu bayramga rasmiy tus berilmagan, bu kun korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, fermer xo'jaliklari, xullas, mamlakatimizdagi har bir xo'jalik yurituvchi subyekti, shuningdek, shu sohaga aloqador bo'lgan barcha mutaxassislar mehnatiga nisbatan hurmat ma'nosida nishonlanadi. Mikrofirmalar tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish jarayoni soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan auditorlik tashkiloti jalb qilingan holda tekshiriladi. Bunda mazkur moliyaviy hisobotning to'g'ri tuzilganligi uchun mas'uliyat jalb qilingan auditorlik tashkiloti zimmasiga yuklatiladi. Auditorlik tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdori eng kam oylik ish haqining 1500 baravari miqdorida belgilangan. Bunda yangidan tashkil etiladigan auditorlik tashkilotlari davlat ro'yxatidan

o'tkazilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida ta'xis hujjatlarida nazarda tutilgan sarmoyani shakllantirishlari zarur.



### 11-chizma. Auditorlik faoliyatini tashkil etish va tartibga solish tizimi

Auditorlik xizmatini ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati barqarorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 27-sentabrdagi PQ-475-sonli «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ko'proq bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil etish belgilandi. Ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil etishga doir yagona talablardan kelib chiqib, ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlashtirish talabi kiritildi.

O'zbekistonda ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlashtirish maxsus imtixon asosida amalga oshirilib, unda auditor, soliq maslahatchisi, CAP/CIPA yoki xalqaro e'tirof etiladigan boshqa sertifikatlarga ega bo'lgan, ichki auditor sertifikatini olishni istovchi mutaxassislar ishtirok etishi mumkin. Talabgorlarni malaka darajasini oshirish maqsadida tegishli tashkilotlar tomonidan ichki auditorlarni tayyorlash bo'yicha 80 soatlik kurslarda o'qish ham tashkil etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktabrdagi 215-sonli qaroriga binoan xo'jalik yurituvchi subyektlardagi ichki audit xizmati to'g'risida nizom tasdiqlangan bo'lib, unda ichki audit xizmati xodimlari malaka darajasiga qo'yiladigan talablar belgilangan. Jumladan, ular so'nggi o'n yilda kamida 2 yil buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ish stajiga ega bo'lishlari, ichki auditorning malaka sertifikatiga yoki O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida yoxud qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat ta'lim muassasalarida olingan oliy iqtisodiy ma'lumotga ega bo'lishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston auditorlar Palatasi va O'zbekiston buxgalterlar, auditorlar va konsultantlar federatsiyasi bilan kelishilgan holda ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2012-yil 2-apreldagi 90-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2012-yil 12-mayda 2361-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi to'g'risida»gi Nizomda ichki auditor xizmati sertifikatini berish, amal qilishini uzaytirish, tugatish, bekor qilish, qayta rasmiylashtirish va dublikatini berish tartibi belgilangan.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnoma mijoz va auditorning o'zaro munosabatlarini chegaralab beruvchi rasmiy hujjat hisoblanadi va umumiy jihatlari bilan tadbirkorlik faoliyatida qo'llaniladigan shartnomalardan farq qilmaydi. Bu hujjat boshqa

shartnomalar kabi, tomonlarning o'zaro kelishilgan manfaatlarini huquqiy tomondan tartibga soladi.

Biroq auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomani tadbirkorlikda qo'llaniladigan boshqa shartnomalardan farqli jihatlari mavjud. Ya'ni shartnoma tuzish vaqtida oshkorasiz holda uchinchi tomon (moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar) manfaatlarini hisobga olish mavjud. Agar auditning sifatsiz o'tkazilganligi aniqlansa u holda auditor nafaqat mijoz oldida, balki uning xulosasidan foydalanuvchilar oldida ham javobgarligi belgilangan.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lash shartlari ham ko'rsatilib, O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda auditorlik xizmatlari qiymatini baholash turlarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- akkord to'lovi;
- vaqtbay to'lovi;
- ishbay to'lovi.

Haq to'lashning akkord tizimi ishning butun hajmi uchun ish haqi miqdorini belgilaydi va akkord topshiriqlarining qisqa muddatda bajarilganligi uchun mukofotlashni o'z ichiga oladi.

Vaqtbay ish haqi odatda, xodim mehnatini me'yorga solib bo'lmaydigan yoki bajarilayotgan ishlarni hisobga olib bo'lmagan hollarda qo'llanadi. Agarda ko'zda tutilmagan vaziyatlar natijasida mehnat sarfi hajmi ko'paysa, ishlar qiymati ham mutanosib ravishda oshib boradi.

Ishbay to'lovi odatda buxgalteriya hisobini tiklashda qo'llaniladi. Mehnatga ishbay haq to'lashda vaqt birligi uchun amaldagi baholar asosida haqiqatda bajarilgan ish (tayyorlangan mahsulot) uchun haq to'lanadi.

## **8.2. Auditorlik tashkilotini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari**

O'zbekiston Respublikasida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxslar (auditorlik tashkilotlar) auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini amalga oshiradigan xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida ro'yxatga olinadi. Ular ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari shaklidan tashqari O'zbekiston

Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan har qanday tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lishlari mumkin.

Auditorlik tashkilotlarini tabag'alashtirishda asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- faoliyat tavsifi (bajariladigan vazifalar);
- ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi.

Faoliyat tavsifi (bajariladigan vazifalar) bo'yicha auditorlik tashkilotlari universal va maxsus turlarga ajratiladi.

Universal auditorlik tashkilotlari majburiy audit o'tkazishning u yoki bu turini amalga oshirish uchun bir nechta litsenziyaga ega bo'lishlari va turli xil ishlarni bajarishlari mumkin.

Xususan:

- umumiy audit, bank auditi va boshqa turdagi auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishi;

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yishi, tiklash va yuritishi;

- xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini tahlil qilishi, aktiv va passivlarini baholashi;

- buxgalteriya hisobi bo'yicha maslahatlar berish;

- buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit bo'yicha o'qitishni amalga oshirish;

- buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilni avtomatlashtirish va h.k.

Maxsus auditorlik tashkilotlari nisbatan torroq doirada, lokal ishlarni amalga oshirib, auditorlik faoliyatining ma'lum bir yo'nalishiga ixtisoslashadi (masalan, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish, bu kasb doirasida kadrlar malakasini oshirish va boshqalar).

Auditorlik tashkilotlari universal yoki maxsus bo'lishiga qaramasdan ular albatta, asosiy xizmat turi, ya'ni majburiy auditni amalga oshirishi talab etiladi.

Ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi bo'yicha auditorlik tashkilotlari yirik, o'rta va kichik turlarga ajratiladi. Ko'rsatiladigan xizmatlar hajmiga binoan auditorlik tashkilotlarini turlarga ajratishda mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan tushgan tushum miqdori asosiy mezon qilib olinishi maqsadga muvofiq sanalib, bunda eng kam bir oylik maosh miqdoridan foydalanish mumkin. Biroq mamlakatimizda auditorlik tashkilotlarining hajmi unda band bo'lgan xodimlar sonidan kelib chiqib quyidagicha shakllangan:

- kichik auditorlik tashkilotida 10 kishigacha;

- o'rtacha auditorlik tashkilotida 10 nafardan 20 kishigacha;

- yirik auditorlik tashkiloti 20 nafardan ortiq xodimga ega bo'ladi.

Auditorlik tashkilotining xodimlari bajarayotgan vazifalari bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- auditorlik tekshiruvi rahbarlari;
- katta auditorlar (guruh, brigada rahbarlari);
- auditorlik tekshiruvlarining oddiy ishtirokchilari;
- boshqa mutaxassislar.

Katta bo'lmagan auditorlik tashkilotlari soddalashtirilgan ikki darajali boshqaruv tizimiga ega bo'lish mumkin, ya'ni auditorlik tashkilotning rahbari, tekshiruv rahbari ham hisoblanadi.

Hozirda mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlari tarkibida kichiklari salmoqli hissaga ega bo'lib, faoliyatning rivojlanishi bilan auditorlik uyushmalari, ittifoqlari tashkil etilmoqda. Shu sababli mamlakatda O'zbekiston Respublikasi buxgalterlari va auditorlari Milliy Assotsiatsiyasi, Auditorlar Palatasi faoliyat ko'rsatib, auditorlik tekshiruvi o'tkazishga doir ushuby ko'rsatmalar, tavsiyanomalar va boshqalarni tayyorlash orqali auditning rivojlanishiga salmoqli hissasini qo'shmoqda.

Auditorlik tekshiruvining muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlash maqsadida auditorlik tashkilotlari mijozlarini baholash uchun ishonchli mezonlarga ega bo'lishlari kerak. Chunki amaliyotda mijozni atroflicha o'rganmay tanlash oqibatida qo'shimcha moliyaviy xarajatlarning yuzaga kelishi yoki ma'lum ichki va tashqi omillar hisobiga audit jarayonida ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yilishi bois uning obro'sini pasayishi hamda mavqeyiga putur yetishi kuzatilgan. Shu sababli auditorlik tashkilotlari mijozlarni tanlab olishda ularning ma'lum jihatlarini o'rganadi, ya'ni:

- tarmoq tavsifini baholash;
- mijozning maqsadi va kelajakda uning natijalaridan foydalanish imkoniyatini aniqlash;
- rahbarlarning o'ziga xos bo'lgan tomonlarini aniqlash;
- audit o'tkazish uchun sarflanishi mumkin bo'lgan mehnat hajmi va murakkabligi hamda auditorlik tavakkalchiligiga oldindan baho berish;
- auditorlarning almashtirilishi yoki bir necha marotaba almashtirilishi sabablariga baho berish;
- audit natijalari bo'yicha avvalgi auditorlik xulosalaridagi sharhlar bilan tanishish;

- bo'lajak mijozning soliq idoralari, banklar, hamkorlar, aksiyadorlar va moliyaviy hisobotning boshqa foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqalaridagi tavsiflari va muammolarini aniqlash;

- taqdimnomalar olish (masalan, turli tashkilotlar, mutaxassislar va boshqalardan);

- buxgalteriya hisobi va hisobotining holati, bo'lajak mijozning joriy hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolari bilan oldindan tanishish;

- tegishli xodimlar mavjudligi va h.k.

Yuqoridagi jihatlar yuzasidan audit tavakkalchiligi yuqori darajada bo'lsa, qo'yilgan masala auditor uchun juda ham murakkab va mehnat sarfining hajmi ko'p bo'ladi.

Auditorlik tashkiloti mijozlari bilan o'rnatilgan o'zaro aloqalaridan kelib, auditni yuzaki-rasmiy va norasmiy turlarga ajratiladi.

Yuzaki-rasmiy turdagi auditda mijozlar auditor bilan yaqin aloqa bog'lashni istamaydilar va auditorlik tekshiruvini tezkorlik bilan yakunlashni talab qiladilar. Bu holda auditorlardan mijoz uchun eng kam sarflangan vaqt va xarajatlar bilan, faqat auditorlik xulosasini tayyorlash va taqdim etish talab qilinadi.

Norasmiy turdagi auditda auditor bilan mijoz o'rtasida ish yuzasidan yaqin aloqa o'rnatilib, xo'jalik hayotini yaxshilash uchun auditorning amaliy yordami ko'rsatiladi.

Auditor audit o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzishdan oldin mijozning qaysi turga mansub ekanligini aniqlashi muhim hisoblanadi.

Auditor faoliyatida davomida mijozning tarmoq va subyekti to'g'risidagi bilimlarini xo'jalik yurituvchi subyekt, ichki audit, shu korxonaga xizmat ko'rsatuvchi bank va boshqa xodimlar bilan suhbat o'tkazish orqali shakllantirishi talab etiladi.

Shu o'rinda auditorlardan biznes to'g'risida bilish talab etilib, bu auditorga malakaviy fikr-mulohaza bildirish uchun asos bo'ladi.

Auditorlik xizmati bozorida faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlarini: xorijiy auditorlik va konsalting, o'rta va kichik turlarga ajratish mumkin. Xususan, Ernst & Young, KPMG, Pricewaterhouse Coopers, Deloitte Tohmatsu International kabi taniqli xorijiy auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan xizmatlar narxi mahalliy auditorlik tashkilotlarining xizmatlaridan qimmatroq bo'lsada, ko'pgina investorlar aynan ularning faoliyat yuzasidan xulosalarini tan oladi.

### **8.3. Auditorlik tashkilotining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi**

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar singari auditorlik tashkilotlari ham tegishli huquq va majburiyatlarga, ma'lum javobgarliklarga ega bo'lishi belgilangan. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunga muvofiq auditorlik tashkilotlari:

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot hujjatlari bilan oldindan tanishib chiqish;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish shakllari va usullarini mustaqil belgilash;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazilayotganda xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshirayotgan moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni to'liq hajmda olish, shuningdek, ushbu hujjatlarda hisobga olingan har qanday mol-mulkning amalda mavjudligini hamda har qanday majburiyatlarning amaldagi holatini tekshirish;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish davomida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy javobgar shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish hamda auditorlik tekshiruvini uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olish;

- uchinchi shaxslar tomonidan yozma tasdiqlangan axborotni xo'jalik yurituvchi subyektdan olish;

- ishonchli auditorlik xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan barcha axbopot xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilmagan taqdirda auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazishda ishtirok etishga auditorlar va boshqa mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb etish;

- auditorlik tekshiruvini bilan qamrab olingan davrda xo'jalik yurituvchi subyektga professional xizmatlar ko'rsatish (bundan buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish mustasno);

- auditorlarning respublika jamoat birlashmasiga a'zo bo'lib kirish va boshqa huquqlarga ega.

Xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlari, ya'ni ustavi va ta'sis shartnomasi bilan tanishish auditorga mijozning yuridik maqomi, faoliyat turi va ta'sischilari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Bunda auditor xo'jalik yurituvchi



subyektning ustavida belgilangan faoliyati, ta'sis shartnomasiga muvofiq ta'sischilar, ularning yuridik maqomi, ustav kapitalidagi ishtiroki (ulushi), moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha huquq va majburiyatlari bilan tanishadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektida buxgalteriya hisobining qaysi shaklidan foydalanilishi, buxgalteriyaning tarkibi va tuzilishi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanganligi, uning moliyaviy ahvoli kabilar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun auditor buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan tanishishi zarur.

Auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda mutaxassis xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirayotgan jarayonlar bilan bog'liq hujjatlarni to'liq hajmda olishi, shuningdek, ushbu hujjatlarda hisobga olingan barcha mol-mulkning amalda mavjudligini hamda har qanday majburiyatlarning amaldagi holatini o'rganishi talab etiladi. Shuningdek, auditor ushbu hujjatlarda aks ettirilgan mol-mulklarning haqiqatda mavjudligini va majburiyatlar holatini tegishli usullar (inventarizatsiya qilish, qarama-qarshi tekshiruv va h. k.) bilan o'rganib chiqish huquqiga ega.

Audit davomida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha auditor xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy javobgar shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar hamda zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olishi mumkin. Shuningdek, auditor ish jarayonini boshlashdan oldin moddiy javobgar shaxslar (kassir, omborchi va boshqalar)dan belgilangan tartibda tilxat oladi. Zarur hollarda auditor uchinchi shaxslar tomonidan yozma tasdiqlangan ma'lumotni xo'jalik yurituvchi subyektdan olishga haqli.

Tegishli axborot manbaalari xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan auditorga taqdim etilmagan hollarda mutaxassis 70-«Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot haqidagi auditorlik xulosasi» nomli auditorlik faoliyatining milliy standartiga muvofiq, «Auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasi tuzishdan voz kechish to'g'risidagi arizasi» bilan jarayonni o'tkazishdan bosh tortishi mumkin. Shuningdek, auditorlik tashkiloti zaruratdan kelib chiqib auditda ishtirok etishga boshqa mutaxassislarni ham belgilangan tartibda jalb etish huquqiga ega.

Amaldagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 7-moddasida auditorlik tashkilotlarining majburiyatlari ham belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyati bilangina shug'ullanishi zarur.

2. Auditorlik faoliyatini amalga oshirayotganida ushbu hamda boshqa qonun hujjatlarining talablariga rioya yetishi.

3. Auditni o'tkazishga doir shartnoma tuzishdan oldin buyurtmachining talabiga binoan auditorlik faoliyatini o'tkazish huquqini beruvchi tegishli litsenziyani, auditor (auditorlar)ning malaka sertifikatini taqdim etishi.

4. Xo'jalik yurituvchi subyektning so'roviga binoan auditni o'tkazish bo'yicha qonun hujjatlarining talablari to'g'risidagi, auditorning e'tirozlari asoslangan qonun hujjatlarining normalari to'g'risidagi axborotni taqdim etishi.

5. Auditni amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi.

6. Auditorlik hisobotida moliyaviy-xo'jalik muomalalarining qonuniyligi buzilishi omillarini hamda ularni bartaraf yetish yuzasidan takliflarni aks ettirishi.

7. Auditorlik xulosalari va hisobotlarining nusxalari auditorlik tashkilotida kamida besh yil saqlanishini ta'minlashi.

8. Auditorlarning bir yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o'tishlarini ta'minlashi.

9. Auditorlik tashkilotlarini majburiy reyting baholash uchun auditorlarning respublika jamoat birlashmasi so'roviga ko'ra axborot taqdim etishi.

10. Xo'jalik yurituvchi subyektga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari zarar yetkazganligini aniq tasdiqlab turgan faktlarni aniqlagan taqdirda bu haqda xo'jalik yurituvchi subyektning rahbariyatiga (mulkdoriga) ma'lum qilishi hamda auditorlik hisobotiga tegishli qaydni kiritishi shart. Zarur hollarda audit natijalarini ma'lum qilish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qatnashchilarning (aksiyadorlarning) umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishi.

11. Auditorlik tashkiloti zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Auditorlik tashkiloti amaldagi qonun (8-modda)ga muvofiq, auditorlik tashkilotlari audit buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida moliyaviy hisobot hamda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risida noto'g'ri yakundan iborat bo'lgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida ularga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Auditni sifatsiz o'tkazganligi yoki zarur darajada o'tkazmaganlik oqibatida xo'jalik yurituvchi subyekt yoki auditning buyurtmachisiga yetkazilgan zarar, shu jumladan, boy berilgan foyda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi shart.

Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksining 38-bob, 706-moddasi talablariga ham rioya etilishi zarur.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 24-bob, 336 - moddasiga muvofiq ikki tarafdin shartnomani bajarish oqibatida auditorlik tashkilotining javobgarligi vujudga kelishi mumkin. Ya'ni ikki tarafdin tuzilgan shartnomada auditorlik tashkiloti javobgar bo'lgan vaziyat tufayli uni bajarishi mumkin bo'lmay qolsa, xo'jalik yurituvchi subyekt, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnomadan voz kechishga va shartnomaning bajarilmasligi tufayli yetkazilgan zararni auditorlik tashkilotidan undirib olishga haqli.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya vakolatli davlat organi tomonidan quyidagi hollarda:

- auditorlik tashkiloti litsenziyani bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

- litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi aniqlanganda;

- maxsus vakolatli davlat organining litsenziya berish to'g'risidagi qarorining noqonuniyligi aniqlanganda;

- agar auditorlik tashkiloti unga litsenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilangani haqida xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran uch oy muddat ichida maxsus vakolatli davlat organiga litsenziya berganlik uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmagan yoki litsenziya shartnomasini imzolamagan bo'lsa bekor qilinadi.

#### **8.4. Auditorlik tashkilotlarining reytingi va ularning birlashmalari**

Auditorlar Palatasi hamda Buxgalterlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasi amaldagi O'zbekiston Respublikasi auditorlik tashkilotlari faoliyatining reytingi bahosini o'tkazish bo'yicha nizom talablaridan kelib chiqib, har yili auditorlik tashkilotlarining reytingini aniqlaydi. Shu sababli mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan barcha auditorlik tashkilotlarining reytingda har yili majburiy ishtirok etishi nazarda tutilgan holda, reyting baholash

ko'rsatkichlari ham mos ravishda takomillashtirib borilyapti (71-jadval).

Hisob-kitoblar:

1. Auditorlik tashkilotlari faoliyatini baholaydigan har bir tanlangan ko'rsatkich bo'yicha uning yo'l qo'yiladigan eng kam ( $D_{\min}$ ) va eng ko'p ( $D_{\max}$ ) qiymatlari aniqlanadi.

2. Auditorlik tashkiloti reyting balini ( $P_{ni}$ ) quyidagi shartlarga ko'ra hisob-kitob qiladi:

2.1. Agar auditorlik tashkiloti ko'rsatkichining amaldagi qiymati ( $D_i$ )  $D_{\min} < D_i < D_{\max}$  doirasida bo'lsa, ballar quyidagi formula bo'yicha hisob-kitob qilinadi:

$$P_{ni} = \frac{D_i - D_{\min}}{D_{\max} - D_{\min}} * 100.$$

2.2. Agar  $D_i > D_{\max}$  bo'lsa, ballar quyidagi formula bo'yicha hisob-kitob qilinadi:

$$P_{ni} = \frac{D_i - D_{\min}}{D_{\max}} * 100.$$

2.3. Agar  $D_i \geq D_{\max}$  shartida  $P_{ni}$  qiymati = 100 bo'ladi.

3. Har bir omil bo'yicha ko'rsatkichlarning salmog'ini hisobga olgan holda ballar tarzida kompleks baholanadi:

$$P_{fi} = K_{n1} * P_{n1} + K_{n2} * P_{n2} + \dots + K_{nm} * P_{nm};$$

Bu yerda:

$P_{fi}$  – omilning reyting bali;

$K_{nn}$  – qiymatini jamoatchilik kengashi belgilaydigan n-ko'rsatkichning salmog'i;

$P_{nn}$  – ko'rsatkichning reyting bali.

4. Auditorlik tashkilotining faoliyat reytingining yakuniy kompleks raqamli bahosi ( $P_{ki}$ ) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_{ki} = K_{f1} * P_{f1} + K_{f2} * P_{f2} + \dots + K_{fn} * P_{fn};$$

Bu yerda,  $K_{fn}$  – qiymatini jamoatchilik kengashi belgilaydigan n-omil salmog'i.

5. Keyingi bosqichda auditorlik tashkiloti faoliyatining yakuniy kompleks raqamli bahosi xalqaro amaliyotda umumqabul qilingan harfli bahoga aylantiriladi.

**Auditorlik tashkilotlari faoliyatini baholash  
reytingining omillari va ko'rsatkichlari**

T/r	Omil va ko'rsatkich nomi	2012- yil reytingi omil va ko'rsatkichlari		2013- yil reytingi omil va ko'rsatkichlari	
		omillar salmog'i, %	ko'rsatkichlar salmog'i, %	omillar salmog'i, %	ko'rsatkichlar salmog'i, %
1	2	3	4	5	6
<b>1.</b>	<b>Moliyaviy ko'rsatkichlar</b>	<b>40</b>		<b>35</b>	
1.1.	2013- yildagi mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan sof tushum		50,0		45,0
1.2.	Avvalgi yil bilan qiyoslaganda (2013y.-2012- y.)/2012- y. %da auditorlik xizmatlaridan tushumning o'sish dinamikasi		25,0		12,0
1.3.	Auditorlik tashkiloti xususiy kapitalining miqdori		25,0		-
1.4.	Auditorlik tashkiloti xususiy kapitalining dinamikasi		-		10,0
1.5.	Sof foyda		-		18,0
1.6.	Ustav kapitalining rentabelligi		-		15,0
	<b>Jami</b>		<b>100,0</b>		<b>100,0</b>
<b>2.</b>	<b>Ishbilarmonlik faolligi</b>	<b>30</b>		<b>30</b>	
2.1.	Andit bozorida faoliyat muddati – yillar soni		21,3		25,0
2.2.	Auditorlik tashkilotlarining xalqaro tarmoqqa kirishi (tarmoq veb-sayti nomi va manzili ko'rsatilsin)		21,3		20,0
2.3.	Auditorlarning professional jamo a birlashmasiga a'zoligi (a'zolik bileti nusxasi)		8,5		15,0
2.4.	2011–2013- yillar mobaynida sifat tashqi nazoratidan o'tish (professional tashkilot tomonidan rasmiylashtirilgan)		21,3		22,0
2.5.	2012- yilda MV va DMQ ro'yxatiga kirganlik		10,6		-
2.6.	Tashkilotda bank sertifikatining borligi		10,6		3,0
2.7.	Korporativ veb-saytining borligi va uning tutib turilishi		6,4		15,0
	<b>Jami</b>		<b>100,0</b>		<b>100,0</b>

<b>3.</b>	<b>Korporativ salohiyat</b>	<b>30</b>	<b>35</b>
3.1.	Joriy yil oxirida shtatdagi xodimlar soni	-	14,0
3.2.	Hisobot yili oxirida shtatdagi sertifikatlangan auditorlar soni (to'liq stavkada)	6,3	26,0
3.3.	Quyidagilarga ega bo'lgan shtatdagi sertifikatlangan auditorlarning borligi (2013- y. tahr.): Shtatdagi sertifikatlangan xodimlarning borligi, shu jumladan quyidagilarning borligi (2014-y. tahr.):	48,0	34,0
3.3.1	CIPA sertifikatlari (2013); CIPA, ACCA va CPA sertifikatlari (2014)	8,3	12,24
3.3.2	ACCA va CPA sertifikatlari (2013)	20,8	-
3.3.3	DipIFR sertifikatlari	6,3	6,12
3.3.4	soliq maslahatchisi sertifikatlari	4,2	6,8
3.3.5	SAR sertifikatlari	4,2	6,8
3.3.6	qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisi sertifikatlari	4,2	2,04
3.4.	«Yilning eng yaxshi auditori» tanlovida ishtirok etganlik, shu jumladan:	25	14,0
3.4.1	1-o'rin	12,5	5,6
3.4.2	2-o'rin	8,33	4,2
3.4.3	3-o'rin	4,17	2,24
3.4.4	2-turda ishtirok etish	-	1,26
3.4.5	1-turdan o'tish	-	0,7
3.5.	Tashkilot rahbarining 3 yil mobaynida attestatsiyadan o'tishi	20,7	12,0
	<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Hammasi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining shakllanishi va rivojlanishida professional jamoat tashkilotlari muhim o'rin tutadi.

Xususan:

1. O'zbekiston buxgalterlar va auditorlarining Milliy assotsiatsiyasi (keyingi o'rinlarda - O'BAMA) — buxgalterlar, auditorlar, ilmiy va pedagogik xodimlar, soliqlar bo'yicha maslahatchilarning respublika jamoat tashkiloti bo'lib, o'z a'zolarini

ular manfaatlari va maqsadlarining umumiyliigi, hududiy yoki professional tamoyillar bo'yicha birlashtiradi.

O'BAMA O'zbekiston Respublikasida buxgalterlar va auditorlarning kasb malakasini rivojlantirish hamda ularni xalqaro standartlar talablariga moslashtirishni ta'minlaydi. Shuningdek, buxgalterlar va auditorlarni professional himoyalashda amaliy yordam ko'rsatadi.

O'BAMA buxgalteriya hisobi, auditorlik faoliyati, soliqqa tortish, xususiylashtirish, qimmatli qog'ozlar bozori, xo'jalik yurituvchi subyektning moliya - xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlili va moliyaviy menejmenti bo'yicha qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi. Shuningdek, Ustavida belgilangan faoliyat turlari bo'yicha maslahatlar beradi.

2. O'zbekiston Auditorlar Palatasi (keyingi o'rinlarda - O'AP) – malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil notijorat jamoat tashkiloti. Auditorlar Palatasining asosiy maqsadi - auditorlarning professionallik darajasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga yordam ko'rsatish, o'z a'zolarining kasbga oid manfaatlarini davlat hamda jamoat organlarida himoya qilish, shuningdek, kasbga oid talablar bo'yicha barcha o'zgarishlar to'g'risidagi axborot ta'minoti bo'yicha aloqa o'rnatishdan iborat.

Auditorlar Palatasining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- audit sohasiga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o'quv dasturlarini hamda malakaviy imtixonlarni topshirish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- auditorlik malaka sertifikatini olish uchun da'vogarlar uchun malakaviy imtihonlarni o'tkazish;

- auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv markazlari tashkil etish;

- auditorlarni kasb axloqi kodeksi qoidalariga rioya qilishini nazorat qilish;

- O'zbekiston auditorlar palatasi a'zoligiga malakali auditorlarni jalb etish uchun xalqaro tashkilotlar va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilish;

- O'zbekiston Respublikasi auditorlarining boshqa davlatlar jamoat tashkilotlari tomonidan tan olinishiga erishish va h.k.

3. O'zbekiston buxgalterlar, auditorlar va konsultantlar federatsiyasi (keyingi o'rinlarda-O'BAKF)ga 2010-yilda, O'zbekiston Biznes fanlar o'qituvchilari assotsiatsiyasi negizida tashkil etilgan va

2010-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan. O'BAKF «Professional ravnaq» trening-konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda buxgalterlarni xalqaro dasturlar asosida ikki darajadagi, xususan CAP (Sertifikatga ega amaliyotchi-buxgalter) va CIPA (Xalqaro darajadagi sertifikatga ega buxgalter) sertifikatini olish uchun, shuningdek, buxgalteriya hisobining Milliy standartlari (keyingi o'rinlarda - BXMS) asosida buxgalteriya hisobining asoslariga o'qitadi.

CIPA dasturiga binoan buxgalterlar:

1. CAP (Sertifikatga ega amaliyotchi-buxgalter) sertifikatini olish uchun:

1.1. Moliyaviy hisob-1 (Moliyaviy hisobotning Xalqaro standartlari asosida);

1.2. Boshqaruv hisobi-1;

1.3. Soliq va huquq (O'zbekiston Respublikasining tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida)dan chuqur bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

2. Xalqaro darajadagi sertifikat (CIPA) talabgorlari:

2.1. Moliyaviy hisob-2 (Moliyaviy hisobotning Xalqaro standartlari asosida);

2.2. Boshqaruv hisobi-2;

2.3. Moliya;

2.4. Audit (Xalqaro audit standartlari asosida)ni chuqur bilishlari zarur.

O'BAKFning Ustaviga ko'ra federatsiya buxgalter, auditor va konsultant kasblari mavqeyini ko'tarish, Buxgalterlar Xalqaro Federatsiyasi (International Federation Accountans - IFAC) va buxgalteriya hisobining Xalqaro standartlari bo'yicha kengash (International Accounting Standards Board - IASB) tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy standartlar va kasb etikasini joriy yetish hamda undan foydalanish maqsadida tashkil etilgan.

Ta'kidlash kerakki, O'BAKF CIPA dasturini ta'sis etgan Yevroosiyo sertifikatga ega buxgalterlar va auditorlar kengashining a'zosi sifatida, mazkur kasblarning keng rivojlanishiga munosib hissasini qo'shmoqda.

## **8.5. O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining Milliy Standartlari**

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari,



farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, tegishli vazirlik Hay'ati qarorlari, buyruqlari bilan bir qatorda qabul qilingan Auditorlik faoliyatining Milliy Standartlari<sup>13</sup> (AFMS) ham katta o'rin tutadi. Auditorlik faoliyatining Milliy Standartlari mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlari o'z kasbiy faoliyatlarida amal qilishlari kerak bo'lgan asosiy tamoyillarni belgilaydigan hujjatdir. Auditorlik faoliyatining Milliy Standartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri buyrug'i bilan tasdiqlanadi hamda tegishli tartibda Adliya Vazirligida ro'yxatga olinadi. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining Milliy Standartlari (AFMS) Auditning Xalqaro Standartlari – AXS (International Standards of Auditing - ISA) negizida ishlab chiqiladi va ular auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish qoidalarini belgilaydi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida uning standartlariga rioya qilish audit sifatini va uning natijalari ishonchligini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan auditorlik faoliyatining Milliy Standartlari quyidagilardan iborat:

- 3-sonli AFMS «Auditni rejalashtirish», deb nomlanib, (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 14-oktabrdagi 54-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 1999-yil 10-noyabrda 837-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2000-yilning 1-yanvaridan boshlab kuchga kiritilgan;

- 4-sonli AFMS «Auditorlik tashkilotlarining ichki standartlariga qo'yiladigan talablarni tasdiqlash to'g'risida», deb nomlanib, (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2006-yil 21-avgustdagi 76-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2006-yil 2-sentabrda 1624-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2006-yilning 5-oktabridan boshlab kuchga kiritilgan;

- 5-sonli AFMS «Auditor ishining sifatini nazorat qilish», deb nomlanib, (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 4-avgustdagi 62-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 1999-yil 3-sentabrda 811-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2000-yilning 1-yanvaridan boshlab, auditor ishining sifati ushbu hujjat talablari asosida nazorat qilinadi;

---

<sup>13</sup> Standart (inglizcha «standard» — me'yor, namuna, o'lchov), keng ma'noda boshqa ob'ektlarni solishtirish uchun qo'llaniladigan namuna, etalon, model; vakolatli organ tomonidan standartlashtirish ob'ektiga nisbatan talab, me'yor, qoidalar majmuasini belgilaydigan standartlash bo'yicha me'yoriy-texnik hujjat.

- 6-sonli AFMS «Auditni hujjatlashtirish» deb nomlanib, (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 4-avgustdagi 61-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 1999-yil 3-sentabrda 812-raqam bilan ro‘yxatga olingan) 2000-yilning 1-yanvaridan boshlab, auditni hujjatlashtirish ushbu hujjat talablari asosida rasmiylashtiriladi;

- 9-sonli AFMS «Jiddiylik va auditorlik riski», deb nomlanib, (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 4-avgustdagi 63-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 1999-yil 3-sentabrda 813-raqam bilan ro‘yxatga olingan) 2000-yilning 1-yanvaridan kuchga kiritilgan;

- 10-sonli AFMS «Moliyaviy hisobot tarkibidagi boshqa axborotlar», deb nomlanib, (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 9-sentabrdagi 75-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 1999-yil 2-sentabrda 822-raqam bilan ro‘yxatga olingan) 2000-yilning 1-yanvaridan kuchga kiritilgan;

- 11-sonli AFMS «Ma‘lumotlarni kompyuterda ishlash (MKI) sharoitida audit o‘tkazish», deb nomlanib, (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 9-sentabrdagi 76-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 1999-yil 23-sentabrda 823-raqam bilan ro‘yxatga olingan) 2000-yilning 1-yanvaridan kuchga kiritilgan;

- «Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash», deb nomlangan 12-sonli AFMS (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2006-yil 29-dekadagi 108-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2007-yil 12-aprelda 1673-raqam bilan ro‘yxatga olingan) 2007-yilning 22-apreldan kuchga kiritilgan;

- 13-sonli «Tahliliy amallar», deb nomlangan AFMS (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 4-avgustdagi 64-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 1999-yil 3-sentabrda 814-raqam bilan ro‘yxatga olingan)da, tahliliy amallardan foydalanish tartibi ko‘rsatib berilgan bo‘lib, 2000-yilning 1-yanvaridan kuchga kiritilgan;

- «Auditorlik tanlash» nomli 14-sonli AFMS (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 27-iyuldagi 59-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 1999-yil 3-sentabrda 815-raqam bilan ro‘yxatga olingan) 2000-yilning 1-yanvaridan kuchga kiritilgan;

- 16-sonli «Ekspert ishidan foydalanish», deb nomlangan AFMS (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 27-iyuldagi 60-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 1999-yil 3-

sentabrda 816-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2000-yilning 1-yanvaridan kuchga kiritilgan;

- «Moliyaviy hisobotning buzib ko'rsatilganligi aniqlanganida auditorlik tashkilotining ish tutishi», deb nomlangan 24-sonli AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2001-yil 31-maydagi 49-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2001-yil 30-iyunda 1045-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2000-yilning 10-iyulidan kuchga kiritilgan;

- 25-sonli «Auditorlik tekshiruvini o'tkazilishda normativ huquqiy hujjatlarga rioya etilishini tekshirish», deb nomlangan AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 27-yanvardagi 14-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2003-yil 28-fevralda 1223-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2003-yilning 10-martidan kuchga kiritilgan;

- «Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati (biznesi) bilan tanishish», deb nomlangan 31-sonli AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2001-yil 30-maydagi 48-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2001-yil 21-iyunda 1043-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2001-yilning 1-iyulidan kuchga kiritilgan;

- 50-sonli «Auditorlik dalillar», deb nomlangan AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 3-apreldagi 48-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2002-yil 18-aprelda 1128-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2002-yilning 29-apreldan kuchga kiritilgan;

- «O'zaro bog'liq shaxslar o'rtasidagi bitimlar bo'yicha auditorlik dalillarini olish bosqichlari» deb nomlangan 55-sonli AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 27-yanvardagi 15-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2003-yil 3-martda 1224-raqam bilan ro'yxatga olingan) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgandan keyin o'n kundan so'ng kuchga kiritilgan;

- 56-sonli «Moliyaviy hisobot tuzilganidan keyingi hodisalar», deb nomlangan AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 9-apreldagi 54-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2003-yil 23-aprelda 1236-raqam bilan ro'yxatga olingan) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgandan keyin o'n kundan so'ng kuchga kiritilgan;

- «Boshqa auditor ishi natijalaridan foydalanish», deb nomlangan 60-sonli AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 27-yanvardagi 16-sonli buyrug'i bilan

tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2003-yil 20-fevralda 1221-raqam bilan ro'yxatga olingan) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgandan keyin o'n kundan so'ng kuchga kiritilgan;

- 70-sonli «Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot haqidagi auditorlik xulosasi» deb nomlangan AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2001-yil 14-fevraldagi 20-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2001-yil 10-martda 1016-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2001-yilning 20-martidan kuchga kiritilgan;

- «Maxsus masalani tekshirish natijalari bo'yicha auditor hisoboti», deb nomlangan 80-sonli AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 27-yanvardagi 13-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2003-yil 19-fevralda 1220-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2003-yilning 1-martidan kuchga kiritilgan;

- 90-sonli «Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari», deb nomlangan AFMS (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2001-yil 14-fevraldagi 19-sonli buyrug'i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2001-yil 10-martda 1017-raqam bilan ro'yxatga olingan) 2001-yilning 21-martidan kuchga kiritilgan.

Auditorlik milliy standartlarini qabul qilinishi va amaliyotda qo'llash auditning yuqori sifatli bo'lishini, yangi ilmiy yutuqlarni auditorlik amaliyotiga joriy qilish va auditorlarning turli vaziyatlardagi harakat yo'nalishlarini belgilab berishni ta'minlaydi.

## **8.6. Auditorlik faoliyati bo'yicha qabul qilingan xalqaro standartlar**

Auditning xalqaro standartlari (AXS) – (International Standards of Auditing – ISA) Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasi (BXF) - (International Federation Accountants – IFAC) tarkibidagi Auditorlik Amaliyoti bo'yicha Xalqaro Komitet – AAXK (International Auditing Practice Committee - IAPC) tomonidan ishlab chiqiladi.

BXF 1977-yil 7-oktabrda tashkil topgan bo'lib, federatsiyaga dunyodagi 100 dan ortiq mamlakatlar, xususan, O'zbekistondan ham milliy buxgalterlik, auditorlik jamoat tashkilotlari a'zo bo'lgan.

AXSga muvofiq auditorlik faoliyati halollik, haqqoniylik, mustaqillik, mahfiylik va puxta bilimga ega bo'lish (kompetentlilik) kabi qator tamoyillarga asoslangan.

Standartlashtiriladigan har bir obyekt 3 xonali raqam (pozitsiya) bo'yicha shakllangan. Standartlash obyektlari 11 ta bo'lgani uchun

jami 1100 standart ishlab chiqilishi mumkin. Amaliyotda bunday miqdordagi standartlar uchun ehtiyoj bo'lmaganligi sababli ularning ko'pchiligidan foydalanilmaydi. Masalan, «Rejalashtirish» (300-399) deb nomlangan standartlash obyekti uchta standartdan iborat: 300 - «Rejalashtirish»; 310 - «Mijoz biznesini bilish»; 320 - «Auditda muhimlik». Demak, rejalashtirish masalalari bo'yicha yana 7 ta standart va har bir standartga 10 tagacha substandart ochish mumkin. Bizga ma'lum bo'lgan manbalar bo'yicha AXSlari quyidagi guruhlar bo'yicha shakllangan:

1. Kirish (100-199 standartlar):
  - 1.1. 100-«Xizmatlarni kafolatlash»;
  - 1.2. 110-«Glossariy»;
  - 1.3. 120-«Auditning xalqaro standartlarini konseptual asoslari».
2. Majburiyatlar (200-299 standartlar):
  - 2.1. 200-«Moliyaviy hisobotlar auditining maqsadi va umumiy tamoyillari»;
  - 2.2. 210-«Audit o'tkazishning kelishuv shartlari»;
  - 2.3. 220-«Audit ishi sifatini nazorat qilish»;
  - 2.4. 230-«Hujjatlashtirish»;
  - 2.5. 240-«Moliyaviy hisobotlar auditi jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar bo'yicha auditorning majburiyatlari»;
  - 2.6. 250-«Moliyaviy hisobotlar auditi jarayonida qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish»;
  - 2.7. 260-«Boshqaruvchiga, mulkdorga audit natijalari yuzasidan axborot berish».
3. Rejalashtirish (300-399 standartlar):
  - 3.1. 300-«Rejalashtirish»;
  - 3.2. 310-«Mijoz biznesini bilish»;
  - 3.3. 320-«Auditda muhimlik».
4. Ichki audit nazorati (400-499 standartlar):
  - 4.1. 400-«Riskni baholash va ichki nazorat tizimi»;
  - 4.2. 401-«Kompyuter axborot tizimi sharoitida audit»;
  - 4.3. 402-«Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar xizmatlaridan foydalanuvchi subyektlar auditi».
5. Auditorlik dalillar (500-599 standartlar):
  - 5.1. 500-«Auditorlik dalillar»;
  - 5.2. 501-«Auditorlik dalillar — alohida bandlarni qaytadan ko'rib chiqish»;
  - 5.3. 505-«Tashqi tasdiqlash»;
  - 5.4. 510-«Dastlabki audit-dastlabki qoldiq»;

- 5.5. 520-«Tahliliy amallar»;
- 5.6. 530-«Auditorlik tanlash va boshqa tanlash amallari»;
- 5.7. 540-«Baholanadigan kattaliklar auditi»;
- 5.8. 550-«Manfaatdor tomonlar»;
- 5.9. 560-«Keyingi davrdagi voqeeliklar»;
- 5.10. 570-«Korxonada uzluksiz faoliyat yuritishini yoʻl qoʻyish»;
- 5.11. 580-«Boshqaruv xodimlarining arizasi».
6. Uchinchi shaxs ishidan foydalanish (600-699 standartlar):
  - 6.1. 600-«Boshqa auditorlar ish natijalaridan foydalanish»;
  - 6.2. 610-«Ichki audit xizmati ishini koʻrib chiqish»;
  - 6.3. 620-«Ekspert xizmatidan foydalanish».
7. Auditorlik xulosa va takliflar (700-799 standartlar):
  - 7.1. 700-«Moliyaviy hisobotlar yuzasidan auditorlik xulosasi»;
  - 7.2. 710-«Taqqoslash»;
  - 7.3. 720-«Tekshirilgan moliyaviy hisobotning boshqa hujjatlardagi maʼlumotlari».
8. Auditning maxsus boʻlimlari (800-899 standartlar):
  - 8.1. 800-«Maxsus auditorlik vazifasi yuzasidan auditor hisoboti»;
  - 8.2. 810-«Rejalashtirilgan moliyaviy axborotlarni tekshirish».
9. Chalkash xizmatlar (900-999 standartlar):
  - 9.1. 910-«Moliyaviy axborotlarni sharhlash boʻyicha vazifalar»;
  - 9.2. 920-«Kelishuv shartlarining bajarilishi yuzasidan vazifalar»;
  - 9.3. 930-«Moliyaviy axborotlarni tayyorlash boʻyicha vazifalar».
10. Xalqaro auditorlik amaliyoti boʻyicha nizom (1000-1100 standartlar):
  - 10.1. 1000-«Banklararo tasdiqlovchi amallar»;
  - 10.2. 1001-«Avtonom mikrokompyuterlar»;
  - 10.3. 1002-«Interaktiv kompyuter tizimi»;
  - 10.4. 1003-«Maʼlumotlar bazasi»;
  - 10.5. 1004-«Inspektorlarning bank xodimlari va tashqi auditorlar bilan hamkorligi»;
  - 10.6. 1005-«Kichik korxonalarda auditning oʻziga xos jihatlari»;
  - 10.7. 1006-«Bankning moliyaviy hisobotlari auditi»;
  - 10.8. 1007-«Mijoz rahbari bilan aloqalar»;
  - 10.9. 1008-«Riskni baholash va ichki nazorat tizimi-jarayonni avtomatlashtirish va u bilan bogʻliq savollar»;
  - 10.10. 1009-«Kompyuterlardan foydalanishda audit metodlari»;
  - 10.11. 1010-«Moliyaviy hisobotlar auditida ekologik savollar hisobi»;

10.12. 1012-«Moliyaviy unsurlar ishlab chiqarish auditi»;

10.13. 1013-«Elektron tijorat: moliyaviy hisobotlar auditiga ta'siri».

Yuqoridagi standartlar xalqaro miqyosda auditorlik faoliyatining sifati va mavqeyini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu standartlar va me'yorlar bir qancha sohalar bo'yicha ishlab chiqiladi:

- a) audit bo'yicha xalqaro me'yorlar;
- b) boshqaruv hisobining xalqaro amaliy qoidalari;
- v) jamoat sektori bo'yicha xalqaro me'yorlar.

IFAC hisob va auditga doir barcha faoliyatini o'zining komitetlari orqali tashkil etadi va amalga oshiradi. Hozirgi vaqtda bular jumlasiga: auditorlik amaliyoti bo'yicha komitet, o'qitish bo'yicha komitet, etika (axloq) bo'yicha komitet, moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi bo'yicha komitet, rejalashtirish bo'yicha komitet, jamoat sektori bo'yicha komitet va boshqalar.

Butun dunyo auditorlari mazmunan o'xshash ishni bajarsalarda, har bir mamlakatda auditorlik faoliyatini tashkil etish o'zining milliy xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari va me'yori esa u yoki bu mamlakatning milliy standartlari va me'yorlarini bekor qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham 1999-yildan boshlab milliy standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlari IFAC talablari asosida ishlab chiqilib, soha rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda.

## **Xulosalar**

Auditorlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni (yangi tahriri), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Moliya, Adliya vazirliklari, auditorlik jamoat tashkilotlari va boshqa hukumat organlari tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, tavsiyalar, yo'riqnoma kabilar asosida tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining Milliy standartlari mavjud va ular mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha auditorlik tashkilotlarining professional faoliyatlarida rioya etishi kerak bo'lgan asosiy tamoyillardir. Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish lisenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir. O'zbekiston Auditorlar Palatasi, Buxgalterlar va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi, Buxgalterlar, auditorlar va konsultantlar federatsiyasi malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda

birlashtiruvchi, mustaqil notijorat jamoat tashkilotidir va ular soha rivojiga munosib hissa qo'shmoqdalar. Xususan CAP (Sertifikatga ega amaliyotchi-buxgalter) va CIPA (Xalqaro darajadagi sertifikatga ega buxgalter) sertifikatini olish uchun, shuningdek, buxgalteriya hisobining Milliy standartlari (keyingi o'rinlarda - BXMS) asosida buxgalter, auditorlarni tayyorlab, ularni xalqaro integratsiyalashuvini ta'minlamoqda. Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvni buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida moliyaviy hisobot hamda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risida noto'g'ri yakundan iborat bo'lgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida ularga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyati, deganda nima tushuniladi?
2. Auditning mohiyati nimalardan iborat?
3. Qanday nazorat turlarini bilasiz? Ularning qisqa tavsifini bering?
4. Auditorlik faoliyatining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Auditor va mijoz o'rtasidagi o'zaro aloqalar nimalardan iborat?
6. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlarini sanab o'ting.
7. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni va uning mohiyati nimadan iborat?
8. Auditorlik faoliyatining milliy standartlari nima maqsadda qabul qilingan?
9. Auditorlik tashkilotlari qanday huquqlarga ega?
10. Auditorlik jamoat tashkilotlari va ularning vazifalarini aytib o'ting.
11. Auditorlik tashkilotining majburiyatlari va javobgarligi nimalardan iborat?
12. Auditorlik xalqaro standartlari to'g'risida tushuncha bering.
13. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan auditorlik Milliy standartlari va ularning mohiyati.
14. Auditorlik tashkilotlarining reytingi va uni belgilovchi ko'rsatkichlar tizimini izohlang.



15. Buxgalterlarning kasb bayrami va u qachon e'lon qilingan?

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Auditorlik faoliyatini tartibga solish tizimi; auditorlik tashkilotining javobgarliklari; auditorlik tashkilotining huquqlari; auditorlik tashkilotining majburiyatlari; auditorlik faoliyatining Milliy standartlari; Xalqar auditorlik standartlari; auditorlik tashkilotlarining reytingi; CIPA; CAP; Assotsiatsiya; Federatsiya; Palata.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

1. Auditorlik faoliyati ...

A. Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini auditi bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati.

B. Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini auditi va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati.

C. Xo'jalik yurituvchi subyektning auditi va moliyaviy hisobotga xulosa berishi, natijalarni yuqori tashkilotga taqdim qilishiga doir faoliyati.

D. To'g'ri javob yo'q.

2. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash ...

A. Audit sohasidagi qonunchilikka rioya qilinishi ustidan davlat nazorati o'rnatish.

B. Auditorlar palatasi tomonidan audit o'tkazishga ruxsat berish.

C. Moliya Vazirligining auditorga audit qilishga ruxsat berishi.

D. Malaka sertifikatini berishni nazorat qilish.

3. O'zbekistonda davlat hokimiyati organlari auditorlik tekshiruvlarini...

A. O'tkazishlari mumkin.

B. O'tkazishlari mumkin emas.

C. Litsenziyaga ega bo'lsa o'tkazishlari mumkin.

D. Sud qarori bilan o'tkazishlari mumkin.


## X mavzu. AUDITORLIK TEKSHIRUVINING TURLARI VA SHAKLLARI

### 9.1. Auditning turlari va shakllari to'g'risida tushuncha

Audit mazmun va mohiyati jihatidan turli shakl hamda turlarga ajratiladi. Shu sababli ularni umumlashtirib, bir tizimga keltirish va muhim tomonlarini aniqlab, ushbu fanni istiqbolda yanada takomillashtirish mumkin.

Auditning turi - ma'lum belgilari, xossalari, vazifalari, o'tkazish muddati, qabul qilinayotgan qarorlarning xarakteri, obykti, subykti va boshqa shu kabi sifatlari bilan umumiy bo'lgan guruhlar yoki bir butunlikni tashkil etgan yaxlit xillar asosida shakllantiriladi.

Audit shakllari - o'ziga xos bo'lgan tashqi ko'rinishi, qiyofasi bilan birga o'z mazmuni va usullariga ega bo'ladi (12-chizma).



12-chizma. Auditning belgilariga ko'ra turlari

Makon nuqtayi nazaridan audit ichki va tashqi turlarga ajratiladi.

Ichki audit boshqaruv nazoratining ajralmas va muhim elementi bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi audit esa, maxsus auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi.

Ko'lamiga ko'ra yoppasiga yoki tanlanma audit turlariga ajratilib, bu xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini kompleks yoki ma'lum bir jarayonning auditi bilan izohlanadi.

Tarmoq nuqtayi nazaridan auditni: qishloq xo'jaligi; sanoat; savdo va xizmat ko'rsatish; transport; qurilish sohalarida faoliyat ko'rsatadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar auditi turlariga ajratish mumkin.

O'tkazilishiga ko'ra majburiy va ixtiyoriy audit turlariga ajratiladi.

Majburiy audit — amaldagi qonunchilikka muvofiq audit o'tkazilishi majburiy, deb belgilangan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari, faoliyati har yili audit qilinadi.

Tashabbus tarzidagi audit — kerak bo'lgan holda xo'jalik yurituvchi subyektning qarori bilan amalga oshiriladigan auditni bildiradi.

Subyektiga binoan auditning quyidagi turlarini qayd etish mumkin:

- ekologik audit;
- kompyuter va lokal tarmoq auditi;
- marketing auditi va boshqalar.

Mazmuniga ko'ra:

- iqtisodiy tashxis qo'yuvchi;
- auditorlik tashkilotlariga ajratish mumkin.

Tekshiruvni amalga oshirish davriga ko'ra:

- dastlabki audit;
- qaytariluvchi (kelishilgan) audit.

Dastlabki audit auditorlik tekshiruvi yoki uning konsalting xizmatidan birinchi bor foydalanayotgan korxonada amalga oshiriladi. Bu jarayon auditor yoki auditorlik tashkiloti uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki dastlabki natijalarga qarab mijoz shu auditor yoki auditorlik tashkilotining xizmatidan kelgusida foydalanish yoki foydalanmaslik to'g'risida xulosa chiqaradi.

Qaytariluvchi (kelishilgan) audit auditorlik tashkilotini mijoz bilan uzoq vaqt mobaynida hamkorlik qilishi natijasida yuzaga kelib, uning ahamiyati va beradigan samarasi juda katta bo'ladi.

Faoliyatni qamrab olish davriga ko'ra:

- yakuniy audit;
- ma'lum davrni qamrab olgan audit;
- davomli audit;
- muolaja tarzida o'tkazilgan audit.

Auditni kompyuterlashtirish jarayoniga qarab:

- a'nanaviy (qo'lda) amalga oshiriladigan audit;
- kompyuter texnikasida amalga oshiriladigan auditga bo'linadi.

Tasdiq talab qilinishiga ko'ra:

- tasdiq talab qiluvchi audit xizmatlari;
- tasdiq talab qilmaydigan audit xizmatlariga bo'linadi va h.k.

Shu o'rinda audit o'tkazishning shakllari mavjud bo'lib, ular audit turlaridan farq qiladi. Amaliyotda auditning quyidagi shakllari mavjud:

- operatsion audit (xo'jalik faoliyatini auditi);
- muvofiqlik auditi;
- moliyaviy hisobot auditi.

Operatsion auditda xo'jalik yurituvchi subyektning alohida bo'limlarini ishi, ularning samaradorligi, ishonchliligi hamda boshqaruv uchun foydaliligini baholash maqsadida amalga oshiriladi.

Muvofiqlik auditida xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatida amaldagi qonunchilikka oid hujjatlar va yo'riqnomalar bilan belgilangan me'yorlarga hamda xodimlar uchun ishlab chiqilgan tartib va qoidalarga, shuningdek, uning mulkdorlari va aksiyadorlari buyurtmasiga asosan tavsiya qilingan boshqaruvga doir me'yorlarga, korxonaning Nizomiga ma'muriyat (rahbariyat) tomonidan qay darajada rioya etilayotganligi audit qilinadi.

Moliyaviy hisobotning auditida buxgalteriya hisobi va hisobotida qayd etilgan ma'lumotlarning belgilangan mezonlarga muvofiqligi o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, audit turlarida ma'lum darajadagi metodologik mushtaraklik bo'lsa, uning shakllarida o'ziga xoslik mavjud. Shu sababli ularning turlari va shakllarini to'g'ri belgilash auditning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **9.2. Majburiy audit**

Audit o'tkazilishiga ko'ra majburiy va tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditga bo'linadi. Shuningdek, audit nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra ham o'tkazilishi mumkin.

Quyidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisoboti har yili majburiy auditdan o'tkazilishi shart:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- sug'urta tashkilotlari;
- investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar va ularning boshqaruv kompaniyalari;

- manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallaridan tashkil topgan xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;

- mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy ajratmalaridan tashkil topgan budjetdan tashqari fondlar;

- o'z Nizom jamg'armasida davlatga tegishli ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 10-moddasiga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi kerak bo'lgan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar oldingi yil uchun yillik moliyaviy hisobotlarini joriy yilning 1-mayigacha auditorlik tekshiruvidan o'tkazadilar. Auditorlik tekshiruvi yakunlanganidan so'ng xo'jalik yurituvchi subyekt auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan bir nusxasini 15 kun ichida tegishli soliq organlariga topshirishi kerak. Agar auditorlik xulosasining nusxasi soliq organiga o'z vaqtida taqdim etilmasa, xo'jalik yurituvchi subyekt soliq organiga buning sababi ko'rsatilgan tushuntirish xatini taqdim etadi. Yuqorida ko'rsatilgan toifalardan biriga mansub xo'jalik yurituvchi subyekt hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayigacha yillik moliyaviy hisobotini auditdan o'tkazmagan va auditorlik xulosasiga ega bo'lmasa, u majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlagan hisoblanadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvidan bo'yin tovlagan xo'jalik yurituvchi subyektlarga soliq organi tomonidan jarima solinadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari esa majburiy auditorlik tekshiruvidan bo'yin tovlaganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Undirilgan jarima, jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 10 kun ichida to'lanib, to'liq miqdorda respublika budjetiga o'tkaziladi. Agar jarima o'z vaqtida to'lanmasa, soliq qonunchiligiga muvofiq penya hisoblangan holda so'zsiz undirib olinadi.

Jarima undirilishi xo'jalik yurituvchi subyektni majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishidan ozod qilmaydi.

Majburiy auditorlik tekshiruvidan bo'yin tovlanligi uchun undiriladigan jarimalar stavkalari xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobot yilida mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olgan yalpi tushumining miqdoriga qarab, eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan 500 baravarigacha quyidagicha tabaqalashtirilgan (Budjetdan tashqari va xayriya jamg'armalarining amaldagi tushumlari (a'zolik badallarini ham qo'shgan holda) jarima hisoblashda asos bo'ladigan yalpi tushum hisoblanadi):

1. Eng kam oylik ish haqining 100 baravari miqdoridagi jarima – xo'jalik yurituvchi subyektning bir yildagi mahsulot (ish, xizmat)larini sotishdan olingan yalpi tushum miqdori (QQS bilan birga) eng kam oylik ish haqi miqdorining 500 baravarigacha bo'lganda qo'llaniladi.

2. Eng kam oylik ish haqining 300 baravari miqdoridagi jarima – xo'jalik yurituvchi subyektning bir yildagi mahsulot (ish, xizmat)larini sotishdan olingan yalpi tushum miqdori (QQS bilan birga) eng kam oylik ish haqi miqdorining 500 baravaridan - 15 ming baravarigacha bo'lganda qo'llaniladi.

3. Eng kam oylik ish haqining 500 baravari miqdoridagi jarima – xo'jalik yurituvchi subyektning bir yildagi mahsulot (ish, xizmat)larini sotishdan olingan yalpi tushum miqdori (QQS bilan birga) eng kam oylik ish haqi miqdorining 15 ming baravaridan yuqori bo'lganda qo'llaniladi.

Belgilangan jarima summasi uni belgilash to'g'risidagi qaror chiqarilgan sanadagi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kelib chiqib undirib olinadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt jarima solish to'g'risidagi qaror bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Ta'kidlash kerakki, amaldagi qonunchilikda auditorlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 179-moddasida auditorning qonun hujjatlari buzilganligi hollarini yashirishi, bila turib soxta auditorlik hisobotini yoki auditorlik xulosasini tuzganligi uchun ma'muriy javobgarlik ko'zda tutilgan. Shuningdek, kodeksning 179<sup>1</sup>-moddasida majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish uchun ham ma'muriy jazo belgilangan.

### 9.3. Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) audit

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga muvofiq, «Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi subyektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'tkaziladi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkilotlari o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi».

Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) audit odatda xo'jalik yurituvchi subyektning qaroriga ko'ra o'tkaziladi. Tashabbus tarzidagi audit o'tkazishda xo'jalik yurituvchi subyekt o'z oldiga quyidagilarni maqsad qilib qo'yishi mumkin:

- buxgalteriya hisobini tashkil etishning amaldagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash;
- butun buxgalteriya hisobi tizimini yoki uning ayrim bo'limlarining ahvolini nazorat va tahlil qilish;
- buxgalteriya hisobi bo'yicha ish yuritishni tashkil etish;
- buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobot tuzish ishlarining me'yoriy ta'minlanganligini aniqlash;
- hisobni kompyuterlashtirishda qo'llaniladigan vosita va ushblarni baholash;
- soliq qonunchiligiga rioya qilinishi va soliqqa tortishga doir hisob-kitoblar ahvolini tekshirish va h.k.

Tashabbus tarzidagi audit har xil sabablarga ko'ra o'tkazilishi mumkin. Birinchidan, mulk egalari, investorlar va aksiyadorlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatining ahvoli to'g'risidagi xolis axborotlarni talab qilishlari natijasida tekshirilishi mumkin. Ikkinchidan, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va islohotlarning chuqurlashtirilishi munosabati bilan me'yoriy hujjatlarning tez-tez o'zgarib turishi va yangilarining qabul qilinishi va h.k.

Majburiy auditorlik tekshiruvi to'liq (kompleks) o'tkaziladi. Tashabbus tarzidagi audit to'liq yoki qisman o'tkazilishi mumkin.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi subyekt bilan auditorlik tashkiloti o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnoma asosida o'tkazilib, u Fuqarolik kodeksining 703-moddasida ko'rsatib o'tilgan haq evaziga

xizmat ko'rsatish shartnomalari turiga kiradi. Bunda auditorlik xizmati mijozga shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq sifatli xizmat ko'rsatish majburiyatini olsa, buyurtmachi tashkilot shartnomada ko'rsatilgan xizmat haqini o'z vaqtida to'lashga majbur bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, 2007-yildan nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvi uchun haq to'lash auditorlik tekshiruvini belgilagan organ hisobidan amalga oshiriladi.

Ta'kidlash kerakki, faqat tashabbuskorlik asosida auditni amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari uchun eng kam oylik ish haqining 1500 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda ustav kapitali shakllantirilishi talab etiladi. Agar ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari xo'jalik yurituvchi subyektlarda tashabbuskorlik asosida va majburiy auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirmoqchi bo'lsa, auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining 3000 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda ustav kapitalini shakllantirishi talab etiladi.

Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditni o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlariga eng kam oylik ish haqining 5 ming baravaridan kam bo'lmagan miqdordagi ustav fond kapitalini shakllantirishi zarur bo'ladi.

Auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida ellik foizi muassislar (ishtirokchilar)ning pul mablag'laridan, qolgan qismi esa auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan moddiy boyliklardan shakllantiriladi.

#### **9.4. Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko'ra audit o'tkazish xususiyatlari**

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 15-moddasiga muvofiq audit nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra auditorlik tashkiloti tomonidan, ular o'rtasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish yuzasidan tuzilgan shartnomaga asosan o'tkaziladi. Shuningdek, auditni o'tkazish bo'yicha ishlarga haq to'lash auditni belgilagan organ hisobidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligiga muvofiq huquqni muhofaza qilish organlari (tergov organlari, sud va arbitraj sudi) xo'jalik yurituvchi subyektlarni



auditorlik tekshiruvdan o'tkazishga topshiriq berishlari mumkin. Bunday topshiriq huquqni muhofaza qilish organlarida qo'zg'atilgan (qayta ko'rilayotgan) jinoiy ishlar, arbitraj sudining idoraviy tasarrufidagi ishlar mavjud bo'lganida, fuqarolik ishini qabul qilish (qayta ko'rish)da zarurat tug'ilganda beriladi.

Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan beriladigan bunday topshiriqlar mazmuni jinoiy ish qo'zg'atish (qayta ko'rish), fuqarolik ishini qabul qilish (qayta ko'rish), arbitraj sudining idoraviy tasarrufidagi ishlar uchun asos bo'lgan holatlarga mos kelishi zarur. Bunday topshiriqlarga muvofiq o'tkaziladigan audit muddati auditorlik tashkiloti bilan kelishilgan holda aniqlanib, odatda 1 oydan oshmasligi kerak.

Auditni o'tkazishga topshiriq bergan huquqni muhofaza qilish yoki nazorat qiluvchi organlar uni o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishlari, zarur hollarda auditorlar va ularning oila a'zolarini shaxsiy xavfsizliklarini ham ta'minlashi kerak. Shuningdek, oldin o'rganilgan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati oldingi auditni o'tkazgan auditorlik tashkiloti tomonidan aynan bir xil asoslarga ko'ra qayta auditdan o'tkazilishiga ruxsat etilmaydi.

Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra o'tkazilgan audit jarayonida olingan ma'lumotlar faqat mazkur organlar ruxsati bilan va ular ruxsat qilgan hajmda oshkor qilinishi mumkin.

Huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra o'tkazilgan audit natijalari bo'yicha tuzilgan auditorlik xulosasi O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq tayinlangan sud-buxgalteriya ekspertizasi xulosasiga tenglashtiriladi.

Sud-buxgalteriya ekspertizasi ayrim o'ziga xos xususiyatlari bilan auditdan tubdan farq qiladi. Ko'p hollarda ekspertiza ekspert muassasalarining maxsus xonalarida o'tkaziladi. Zarur hollarda ekspertiza o'tkazish joyi ekspert tomonidan, ekspertizani tayinlagan organ bilan kelishilgan holda aniqlanadi.

Xulosa tuzish uchun zarur bo'lgan dastlabki va yig'ma buxgalteriya hujjatlari, hisob registrlari va hisobot shakllari ekspertiza obyektlari bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, ekspertiza o'tkazish jarayonida taftish dalolatnomasi, ekspert xulosalari, ayblanuvchilar, jabrlanuvchilar va guvohlarning ko'rsatmalari va ishdagi boshqa materiallarda keltirilgan ma'lumotlardan ham foydalanish mumkin.

Sud-buxgalteriya ekspertizasini amalga oshirishda quyidagilarni aniqlashga doir masalalar hal etiladi:

- tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag'larining kamomadi yoki oshiqcha chiqishi va moddiy zarar summalari bilan bog'liq ma'lumotlarning haqqoniyligi;

- tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish, saqlash, sotish va pul mablag'larining harakatiga doir muomalalarni rasmiylashtirishning to'g'riligi;

- moliya-xo'jalik faoliyatiga doir muomalalarni hujjatlarda aks ettirishning buxgalteriya hisobi xalqaro va milliy standartlari hamda boshqa tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi;

- tergov olib borilayotgan ishga aloqador shaxslar ko'rsatmalarining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga muvofiqligi;

- materiallar, tayyor mahsulotlar, tovarlar va pul mablag'larini kirimi, chiqimi hamda hisobdan o'chirilishini hujjatlar bilan asoslanganligi, hisobga olinmay qolgan mahsulotlar hajmi va qiymatini texnologlar, tovarshunoslar va boshqa mutaxassislar xulosalarini hisobga olgan holda aniqlash;

- fuqarolik sudlov ishlari tartibida hal etiladigan da'volarga doir summalar miqdorining hujjatlar bilan asoslanganligi;

- tovar-moddiy zaxiralar va pul mablag'larining kamomadi yoki oshiqcha chiqishi vujudga kelgan davrda moddiy javobgar hisoblangan shaxslar hamda ekspertiza jarayonida buxgalteriya hisobi va nazorat talablariga rioya qilinmaganligi aniqlanganda, buning uchun mas'ul shaxslar;

- moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan yoki uning o'z vaqtida aniqlanishiga to'sqinlik qilgan buxgalteriya hisobi va nazorat tizimining kamchiliklari.

## **9.5. Operatsion audit**

Operatsion audit keng ko'lamda olib boriladigan va xo'jalik jarayoni samaradorligi hamda unumdorligiga baho beruvchi audit shakli hisoblanadi. Shu sababli operatsion auditda mutaxassislar tomonidan mulk egalari yoki rahbarlarining samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tegishli ma'lumotlarning ishonchliligi va yetarliligini, shuningdek, jarayonga doir hujjatlar aylanmasining sifati o'rganiladi. Demak, operatsion auditda xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishining auditi bilan chegaralanib qolinmaydi.

Operatsion audit – xo‘jalik hayotini, unda sodir bo‘layotgan muomalalarni, xo‘jalik tizimida foydalanilayotgan metodlar, shuningdek, unumdorlik va samaradorlikni oshirish bo‘yicha maqsadli dasturlar auditi.

Unumdorlik – xo‘jalik yurituvchi subyektning oldiga qo‘ygan maqsadga erishishni xarakterlasa, samaradorlik shu maqsadga erishishda barcha resurslar (mehnat, moliyaviy, moddiy...) dan unumli foydalanishni belgilaydi.

Operatsion audit natijalari auditning boshqa shakllari (muvojiqlik va moliyaviy hisobot auditi) natijalariga nisbatan murakkabroq izohlanadi. Negaki, moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillariga mos ravishda to‘ldirilganligini izohlashdan ko‘ra xo‘jalik hayotida amalga oshirilgan muomala samaradorligi va unumdorligini baholash qiyin jarayon hisoblanadi. Shu sababli operatsion audit ko‘proq xo‘jalik yurituvchi subyektning boshqarish uchun maslahat beradi, deb hisoblash mumkin.

Operatsion audit xo‘jalik tizimlari samaradorligi va unumdorligining har xil qirralarini o‘rganadi, shuning uchun undan turli yo‘nalishlarda foydalaniladi. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyektning reklamasi samaradorligini yoki ishchilarining mehnat unumdorligini aniqlash operatsion audit elementi bo‘lishi mumkin.

Operatsion auditning uchta kategoriyasi mavjud. Xususan:

1. Funksional operatsion audit.
2. Tashkiliy operatsion audit.
3. Maxsus operatsion audit.

Ularning har biri ichki xo‘jalik nazoratini unumdorligi va samaradorligi nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

Funksional operatsion audit – bajaradigan xizmat vazifalariga ko‘ra faoliyat turiga ajratish mumkin. Masalan, ta‘minot yoki ishlab chiqarish xizmat vazifalari mavjud bo‘lib, ularni turli shaxslar yoki bo‘limlar bajaradi. Xizmat vazifalarini, masalan, buxgalteriya hisobining vazifalarini, turlarga ajratishning ko‘plab usullari bor. Funksional auditning afzalligi auditorlarni ma‘lum yo‘nalishlarda ixtisoslashishiga imkoniyat beradi. Ba‘zi ichki xo‘jalik auditorlari ishlab chiqarish texnologiyasi va shu kabi yo‘nalishlarda yuqori malakaga erishadilar. Mahsulot ishlab chiqarish va boshqa xo‘jalik faoliyatida bir-biri bilan funksional bog‘liq (masalan, mahsulot ishlab chiqarish va qadoqlash...) jarayonlar mavjud bo‘lsada, operatsion audit ular orasidagi aloqalarni baholay olmaydi va bu uning kamchiligi hisoblanadi.

Tashkiliy operatsion audit. Xo'jalik tizimini operatsion auditida xo'jalik yurituvchi subyektning tarkibi, xususan, bo'limlari, sexlari, sho'ba korxonalari o'rganiladi. Tashkiliy operatsion auditda asosiy e'tibor xizmat vazifasini bajaruvchilarning naqadar samarali va unumli o'zaro hamkorlik qilayotganligiga qaratiladi. Bu audit uchun faoliyatni tashkiliy rejalashtirish va muvofiqlashtirish metodi alohida ahamiyatga ega.

Maxsus operatsion audit. Maxsus operatsion audit ma'muriyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, turli xil o'tkazilishi mumkin. Masalan, ma'lumotlarni elektron qayta ishlash tizimining samarasiz ishlash sabablarini aniqlash, bo'limlarda suiste'molliklarga yo'l qo'yilishi imkoniyatlarini o'rganish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxini pasaytirish bo'yicha takliflarni kiritish.


Operatsion audit odatda xo'jalik ichki auditorlari, auditorlik tashkilotlari va maxsus auditorlar tomonidan o'tkaziladi.

## 8.6. Muvofiqlik auditi

Muvofiqlik auditi (Compliance Audit) xo'jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo'ladigan ba'zi muomalalarning amaldagi me'yorlarga, shartnoma shartlariga yoki andozalarga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Masalan, mehnatga haq to'lash darajasini belgilashda eng kam ish haqi haqidagi qonunchilik hujjatlarini bajarilishi auditi, tuzilgan shartnomalarni amaldagi qonun me'yorlariga mosligini baholash, sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatini o'rnatilgan qoidalarga mosligi auditi, auditorning soliq idorlarini soliq qonunchiligiga rioya qilishlarini o'rganishi, kompyuter servis markazi faoliyatining o'rnatilgan ichki nazorat tizimiga mosligi auditi, budjet mablag'lari yoki maqsadli moliyalashtirish manbalari hisobiga amalga oshirilayotgan loyiha va dasturlar auditi va h.k. (13-chizma).

Muvofiqlik auditi natijalari odatda keng foydalanuvchilar e'tiboriga emas balki audit o'tkazilgan bo'limning mas'ul xodimlariga yetkaziladi. Audit natijalaridan tashqi foydalanuvchilardan farqli ravishda, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini belgilangan qoidalarga mos kelishidan manfaatdor bo'lgan asosiy guruh subyekt ma'muriyati hisoblanadi. Shu sababli, ushbu auditning asosiy qismini bo'limlarning o'zi yollagan auditorlar o'tkazadi. Shu bilan birga, istisno tariqasida o'rnatilgan talablarga bo'ysunishi zarur bo'lgan shaxslar yoki tashkilotlarni ushbu talab-

larga rioya etayotganini o'rganish uchun auditorni xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi yollaydi.



### 13-chizma. Muvofiqlik auditining subyekti va obyeksi

Muvofiqlik auditi xo'jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo'ladigan muomalalarning amaldagi me'yorlarga, shartnoma shartlariga yoki andozalarga muvofiqligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida muvofiqlik auditini o'tkazishga talab ortib bormoqda. Kelajakda muvofiqlik auditi turli sohalarda, jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida keng qo'llanilishi kutilmoqda.

## 8.7. Moliyaviy hisobot auditi

Moliyaviy hisobot auditida moliyaviy hisobot ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchliligi, ularni amaldagi qonunchilikka muvofiqligi o'rganiladi. Shu sababli moliyaviy hisobot auditida buxgalteriya

hisobi va hisobotini isloh yetish borasidagi hukumatimiz tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlardan keng foydalaniladi.

Moliyaviy hisobot auditini amalga oshirishda mutaxassislar quyidagi dastlabki hujjatlar va hisob registrlaridan foydalanadi:

1. Dastlabki hujjatlar.
2. Buxgalteriya balansi (1-son shakl).
3. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-son shakl).
4. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot (3-son shakl).
5. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-son shakl).
6. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-son shakl).

7. Moliyaviy hisobot shakllariga ilovalar, xususan, «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida», «Budjetga to'lovlar to'g'risida», «Valuta mablag'lari to'g'risida»gi qator ma'lumotnomalar;

8. Jurnal-orderlar va hisob-kitob schyotlari bo'yicha hisob qaydnomalari va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoida»ga muvofiq moliyaviy hisobot mulkchilikning barcha shakllariga mansub bo'lib, amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra yuridik shaxs hisoblangan korxonalar va tashkilotlar (bundan sug'urta, budjet tashkilotlari va banklar mustasno), shuningdek, mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balans va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchi hisoblanadigan alohida bo'linmalar taqdim etadi. Buni moliyaviy hisobot auditini o'tkazuvchi mutaxassis bilishi talab etiladi.

Asosiy vositalarni qayta baholash hisobot yilining birinchi sanasi holatiga o'tkazilsa, qayta baholash natijalarining ko'rsatkichlari hisobot yilining boshiga shakllanadigan moliyaviy hisobotga qabul qilinadi. Bunda o'tgan yilning oxiridagi ma'lumot hisobot yilining boshidagi ko'rsatkichga mos kelmasligi, asosiy vositalarni hisobot yilining birinchi sanasiga o'tkazilgan qayta baholashning natijasi, deb tushuniladi va joriy davrning moliyaviy hisobotidagi tushuntirish xatida bayon etiladi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003-yil 12-noyabrda 1209-1-son bilan ro'yxatga olingan).

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuniga binoan aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va boshqa kredit tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi

boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar, mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish budjetdan tashqari fondlar, ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalari, fond va tovar birjalari soliq organlariga auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kun davomida, lekin hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay, moliyaviy hisobotning to'g'riligi to'g'risida auditorlik xulosasi nusxasini taqdim etishlari zarur.

Audit o'tkazish uchun asos bo'ladigan moliyaviy hisobot shakllari belgilangan talablar doirasida to'ldirilgan bo'lishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida ma'lum aktivlar, passivlar, jarayonlar mavjud bo'lmagandagina moliyaviy hisobotlarda ularni aks ettiruvchi tegishli ko'rsatkichlarni to'ldirilmaslikka ruxsat beriladi.

Auditor moliyaviy hisobot shakllarining rekvizitlari, xususan: «Korxonalar, tashkilot» (KTUTga ko'ra uning kodi); «Tarmoq» (XXTUTga ko'ra tarmoq kodi); «Tashkiliy-huquqiy shakl» (THTga ko'ra tashkiliy-huquqiy shaklning kodi); «Mul'kchilik shakli» (MShTga ko'ra mul'kchilik shaklining kodi); «Vazirliklar, idoralar va boshqalar» (moliyaviy hisobot yo'naltiriladigan organning nomi hamda DBPBTga ko'ra ushbu organning kodi); «Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami» (STIR bo'yicha korxonaning identifikatsiya raqami); «Hudud» (MHOBT bo'yicha kod); «Manzil» (korxonaning to'liq yuridik manzili) to'liq, aniq ko'rsatilishi zarur.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning alohida mustaqil balansga ajratilmagan bo'linmalarining faoliyat ko'rsatkichlari moliyaviy hisobot shakllari ma'lumotlarida aks ettirilishi talab etiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt balansining moddalari aktivlar va majburiyatlar bo'yicha o'tkazilgan inventarizatsiya natijalariga asoslangan bo'lishi zarur. Inventarizatsiya O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999-yil 19-oktabrda EG/17-19-2075-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi 19-son «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 2-noyabrda 833-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan)da belgilangan tartibda o'tkaziladi. Bunda asosiy e'tibor, moliyaviy hisobotlarni taqdim etishga qadar inventarizatsiya

komissiyasi tomonidan aniqlangan aktivlarni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan tafovutlari tartibga solinishiga qaratiladi.

Moliyaviy hisobot shakllariga xo'jalik yurituvchi subyektning rahbari va bosh buxgalteri imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Moliyaviy hisobotlar aniq, tuzatishsiz rasmiylashtirilishi kerak. Undagi xatolar tuzatilganda tegishli qaydlar qilinib, ular moliyaviy hisobotlarga imzo chekkan shaxslar tomonidan tuzatish sanasi ko'rsatilgan holda yana tasdiqlanadi.

Joriy hamda o'tgan yilning moliyaviy hisobot ma'lumotlaridagi (ular tasdiqlanganidan keyin) tuzatishlar ularning ma'lumotlaridagi buzishlar aniqlangan davr uchun tuzilgan shakllarni to'ldirishda amalga oshiriladi.

Yillik moliyaviy hisobotni tekshirish chog'ida daromadlarni yashirish yoki ular bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni davr xarajatlariga (yoki muomala chiqimlariga) kiritish natijasida foydani kamaytirib ko'rsatish aniqlangan holda buxgalteriya hisobi hamda o'tgan yilning moliyaviy hisobotlariga tuzatishlar kiritilmaydi va ular joriy yilda hisobot davrida aniqlangan o'tgan yillarga tegishli foyda, deb tan olinadi.

Moliyaviy hisobot auditida mutaxassis moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarning buzib ko'rsatilmashligini ta'minlashga e'tiborini qaratib, hodisani ataylab qilingani yoki bilmasdan sodir etilganini farqlay bilishi kerak. Negaki, ataylab qilingan buzib ko'rsatishlar xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlarining oldindan, ongli harakatini bildiradi va bu moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itish deb, tan olinadi. Shu sababli xo'jalik yurituvchi subyekt xodimi tomonidan moliyaviy hisobotlarning ataylab buzib ko'rsatilishiga vakolatga ega bo'lgan idora tomonidan xulosa beriladi.

Moliyaviy hisobotni bilmagan holda buzib ko'rsatishlar o'rganilayotgan jarayon xodimlari tomonidan bilmasdan turib harakat qilishi sanaladi. Negaki, bu holat, buxgalteriya hisobi yozuvlari va hisob-kitoblardagi xatolar, xo'jalik hayotidagi voqeliklar, mol-mulkning mavjudligi va holati noto'g'ri aks ettirilishi natijasida yuzaga keladi.

Moliyaviy hisobotlar auditida auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish tavakkalchiligini baholashi zarur. Bunda buzib ko'rsatishlar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatiga mansub ichki omillar quyidagilar sanaladi:

- past rentabelli tarmoqlarga katta miqdorda moliyaviy qo'yilmalarni amalga oshirish;



- xo'jalik yurituvchi subyekt ishlab chiqarishining tez o'sishiga yoki foydaning ko'p miqdorda kamayishiga aylanma mablag'larning nomuvofiqligi;

- bir vaqtning o'zida xo'jalik yurituvchi subyektning bir yoki bir nechta buyurtmachilar yoki mol yetkazib beruvchilarga qaram bo'lishligi;

- buxgalteriya hisobi siyosatidagi o'zgarishlar;

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan moliyaviy natijalarga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi kelushuvlarni amalga oshirish;

- bajarilgan xizmatlarga ochiqdan-ochiq nomuvofiq to'lovlarning mavjudligi;

- buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotni tayyorlashda belgilangan qoidalardan chetga chiqishlar va h.k.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida buzib ko'rsatish aniqlangan holda auditorlik tashkiloti ularni tekshirilayotgan hisobotga barcha ahamiyatli tomonlardan ta'sirini baholashi lozim. Moliyaviy hisobot auditida ahamiyatli buzib ko'rsatish aniqlasa, u holda auditor ushbu masalani xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati bilan muhokama qilishi kerak. Auditor moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatilgani yuzasidan xulosa chiqarsa va buni xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tuzatishdan bosh tortsa, mutaxassis o'z nuqtayi nazari to'g'risida ijrochi Hay'atga yozma ma'lumot taqdim etishi va keyingi harakatlar to'g'risida o'z huquqshunosi bilan maslahatlashishi talab etiladi.

Audit jarayonida moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarining buzib ko'rsatilishi aniqlaganda auditorlik tashkiloti ularni tegishli ravishda rasmiylashtirilgan ishchi hujjatlarida batafsil aks ettirishi kerak.

Auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotda aniqlangan buzib ko'rsatishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni majburiy audit o'tkazishda moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik xulosasiga, tashabbus tarzida audit o'tkazishda esa auditorlik hisobotiga kiritishi talab qilinadi.

## **8.8. Ichki va tashqi audit**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktabrdagi 215-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Korxonalarda ichki audit xizmati to'g'risida»gi Nizom (keyinchi o'rinlarda – Nizom), xo'jalik yurituvchi subyektning kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan bo'limning ish rejasi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ichki audit xizmati amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Ichki auditga bo'lgan talab avvalo yirik korxonalarda paydo bo'ladi, chunki ularning oliy organi tomonidan xo'jalik jarayoni va boshqaruvning quyi bo'linmalari faoliyatini kundalik nazorat qilish imkoniyati chegaralangan. Xo'jalik yurituvchi subyektning ichki audit xizmati bunday faoliyat to'g'risida ma'lumotlarni va hisobotlarning haqqoniyligi to'g'risida tegishli xulosalarni beradi. Ichki audit xizmatining asosiy vazifasi aktivlar kamomadini oldini olish, korxonada zururiy o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun tegishli takliflar kiritish hisoblanadi.

**Ichki audit** – xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va me'yoriy-huquqiy manbalariga, uning ta'sis etuvchi va ichki hujjatlariga rioya qilinishi monitoringini yuritish, ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi va hisobotlarda to'liq, ishonchli aks ettirilishini ta'minlash bo'yicha tarkibiy bo'linmaning mustaqil faoliyati.

Ichki audit xo'jalik muomalalari sodir etilayotgan hamda hujjatlar bilan rasmiylashtirilayotgan paytda mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ularning oldini olish maqsadida tegishli chora-tadbirlarni qabul qilish imkoniyatini beradi.

Maqsadidan kelib chiqib, ichki audit xizmati quyidagi vazifalarni bajaradi:

- xo'jalik yurituvchi subyektdagi nazorat tizimlarining o'zaro mosligini baholash, ya'ni boshqaruv (nazorat) bo'g'inlarini o'rganish, aniqlangan kamchiliklarni bartafar etish bo'yicha tavsiyalar va boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha asoslangan takliflarni ishlab chiqish;

- faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga baho berish va ularni yaxshilash bo'yicha asoslangan tavsiyalarni tayyorlash.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, ichki auditorlik faoliyatini xo'jalik yurituvchi subyekt boshqaruvi uchun mulk egasi yoki korxonada rahbariga maslahat berish jarayoni hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, amaldagi tartibga binoan xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit xizmati kuzatuv Kengashi tomonidan tashkil etilib, unga tegishli tartibda topshiriladigan hisobotda quyidagilar:

- kuzatuv Kengashini ishonchli axborotlari asosida tayyorlangan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarini;

- ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalarini bo'lishi talab etiladi.

Tashqi audit buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit, iqtisodiy matematik modellar, davlat siyosati, soliqlar, istiqbolni belgilash, qonunchilik, ruhshunoslik yo'nalishlarida mukammal bilimga ega bulgan, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo'lgan mustaqil auditor yoki auditorlik tashkiloti tomonidan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

**Tashqi audit** – o'zaro tuzilgan shartnoma shartlari asosida mijozning buxgalteriya hisobi va hisobotlarini haqqoniyligini baholash, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish hamda auditorlik faoliyati bilan bog'liq boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish.

Tashqi audit yuzaga chiqib bo'lgan xatoliklar va kamchiliklarni o'rgansa, ichki audit shu kamchiliklarni ro'yobga chiqarmaslik ustida ishlaydi va bu jarayonga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Biroq ichki va tashqi auditlarning farqli tomonlari ham mavjud. Bu ularning o'rganish obyektlari kabi qator elementlarida yaqqol ko'rinadi (73-jadval).

73-jadval

### Ichki va tashqi auditning farqli jihatları

Taqqoslash elementlari	Ichki audit	Tashqi audit
Obyekti bo'yicha	Rahbariyat tomonidan belgilanadi. Rivojlanishning boshida maqsadi aktivlarni saqlash va zarar qo'rishning oldini olishdir. Axborotlar tizimining funksional auditiga ko'proq e'tibor beriladi.	Maqomi bilan aniqlanadi. Asosan moliyaviy hisobot va axborotni ishonchligining auditi katta o'rin tutadi. Ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish faoliyatining auditi rivojlangan.
Malakasi bo'yicha	Boshqaruv strukturasi tomonidan aniqlanadi. Mustaqilligi cheklangan va malakasi kamroq.	Qat'iy belgilangan. Yuqori darajada mustaqillikka ega.
Metodlari bo'yicha	Asosan har xil metodlar qo'llaniladi.	Farqi tekshirishlarni detallashtirishda va aniqligida.

Maqsadi bo'yicha	Reja yoki rahbariyat tomonidan belgilanadi.	Qonunlardan, sud organlaridan va tashqi talablardan kelib chiqadi.
Hisobot berish bo'yicha	Rahbariyat, mulk egalari oldida.	Manfaatdor guruh yoki tashkilot rahbariyati oldida. Bundan tashqari qo'shimcha xizmat sifatida bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ichki auditorlarning e'tibori asosan boshqaruv hisobi va hisobotlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tashqi auditorlar moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlarini o'rganadi. Lekin tashqi auditorlarning huquqlari ichki auditorlarnikidan ancha keng. Negaki, ular xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotlarida aks ettirilgan malumotlar to'g'riligini aniqlash uchun boshqaruv hisobining turli yo'nalishlari bo'yicha to'plangan ma'lumotlardan foydalanadi.

### **8.9. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari**

Auditorlik tashkilotlari majburiy va tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvlaridan tashqari O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni va 90 - «Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari» nomli AFMSda ko'rsatilgan istalgan professional xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin. Bunday xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- a) buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish;
- b) moliyaviy hisobotni tuzish;
- v) milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish;
- g) xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;
- d) buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmatini tashkil etish;
- e) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalarni tuzish;
- j) auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatining milliy standartlarida nazarda tutilgan boshqa professional xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin.

Ushbu xilma-xil professional xizmatlarning sifatli ko'rsatilishi uchun mutaxassislarning quyidagi talablarga javob berishi talab etiladi:

- halollik va haqqoniylik;
- professional kompetentlilik va zarur tajriba hamda malakaga egalik;

- professional axloq normalariga rioya qilish va belgilangan standartlar (shu jumladan xo'jalik yurituvchi subyektidagi ham) talablarini bajarish;

- o'z professional majburiyatlarini bajarish chog'ida xodimlarga ma'lum bo'lgan axborotlarni mahfiy (sir) tutish prinsipiga rioya qilish va h.k.

Auditorlik tashkiloti tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish. Buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish xizmati ko'plab tadbirlarni va avvalo uzoq muddatli hisob siyosatini aniqlash, buxgalterlik hisobining shaklini, texnik vositalar majmuyini tanlash, buxgalterlik xizmatining tuzulmasini shakllantirish, hujjatlar aylanish jadvalini, shuningdek, buxgalter xodimlarning xizmat vazifalarini ishlab chiqish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadbirlarni o'tkazish natijasida buyurtmachi xo'jalik yurituvchi subyektida buxgalteriya hisobini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Mazkur xizmat turining o'zi bir martalik xususiyatga ega bo'lib, yangidan tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda alohida auditorlik tashkilotlari tomonidan buxgalteriya (moliyaviy, boshqaruv) hisobini tashkil etish texnologiyasiga talab juda katta. Buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatiladigan professional xizmatning davomi sifatida auditorlik tashkiloti mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekti buxgalteriyasi uchun bo'lim buxgalterlaridan tortib to bosh buxgalter va moliya ishlari bo'yicha xodimlarni tanlashi va o'qitib berishi ham mumkin.

Buxgalteriya hisobini qayta tiklash xizmati ham ma'lum davr ichida bajariladi va bir martalik xususiyatga ega.

Hisobni qayta tiklash — ancha murakkab ish bo'lib, u auditorlik tashkilotining eng malakali mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi qonunning 7 - moddasiga muvofiq o'zining buxgalteriya xizmatiga ega bo'lmagan tashkilotda buxgalteriya hisobi shartnoma asosida ixtisoslashtirilgan buxgalteriya markazi yoki tarkibiga buxgalteriya

subyekti ham kiradigan xo'jalik birlashmasining hisobga olish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, auditorlik tashkilotlari bunday ixtisoslashtirilgan tashkilot rolini muvaffaqiyat bilan bajarishlari mumkin.

Auditorlik tashkiloti o'z mijoziga hisob yuritishi uchun hisob siyosatini ishlab beradi, buxgalterlik hisobining ishchi schyotlar rejasini tuzadi, analitik schyotlar va hisob registrlarining tarkibini loyihalashtiradi, hisob yuritish shaklini tavsiya etadi.

Agar mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekti professional xizmatlar uchun shartnoma tuzilayotgan paytda zarur tashkiliy texnikalar — kompyuterlar, printerlar, aloqa vositalariga ega bo'lmasa, u holda auditorlik tashkiloti xodimlari o'z mijoziga uchun qulay texnik vositalarni tanlash bo'yicha tavsiya berishi yoki tanlab, o'rnatib va dastur ta'minotini tuzib berishi hamda ma'lumotlar bazasini to'ldirishga doir ishlarni bajarishi mumkin.

Auditorlik tashkilotining xodimi (xodimlari) mijoz xohishiga ko'ra bevosita buyurtmachining ish joyida ishlab, buyurtmachi auditorlarni zarur uskunalar bilan ta'minlash, ish joyini tashkil etish va boshqa majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Agar mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekti tashkiliy texnikalarni sotib olish uchun yetarli mablag'ga ega bo'lmasa yoki uni sotib olishni maqsadga muvofiq emas deb hisoblasa hamda auditorlik tashkiloti xodimlari mijozning ish joyida ishlashlari uchun shart-sharoitlar bo'lmasa, u holda buyurtmachi dastlabki hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha majburiyatlarni to'liq zimmasiga oladi. Dastlabki hujjatlarni auditorlik tashkilotiga yetkazib berish, hujjatlarning saqlanishini ta'minlash, kompyuter yordamida hujjatlarga ishlov berish, analitik va sintetik hisob registrlarini yuritish, dastlabki hujjatlar, tuzulgan buxgalteriya hisobi registrlarini mijozga yetkazib berish va boshqalarga doir ishlarni auditorlik tashkiloti o'z zimmasiga oladi.

Hisob yuritish hisobning barcha turlari va uchastkalari (to'liq hisob yuritish) kabi, hisobning alohida uchastkalari va bo'limlari bo'yicha ham (moddiy boyliklar harakatini hisobga olish — agar buyurtmachining ombori uning markaziy ofisidan uzoqda joylashgan bo'lsa; mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar va boshqalar bo'yicha) amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu professional xizmat bayonidan ko'rinib turibdiki, buyurtmachi-xo'jalik yurituvchi subyektida buxgalteriya xizmati yo'q, natijada hisobot tuzish, soliq deklaratsiyalarini to'lg'azish, buxgalteriya hisobotlari va soliq deklaratsiyalarini davlat soliq inspeksiyasi (DSI) va boshqa muassasalarda himoya qilishni

topshirish mumkin bo'lgan malakali xodimi ham yo'q. Shuning uchun qoidaga ko'ra mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekti buxgalterlik (moliyaviy) hisobotini tuzish, buxgalterlik (moliyaviy) hisobotlar va soliq deklaratsiyalarini davlat soliq inspeksiyasi (DSI)da himoya qilish kabi xizmat turlarini ham shartnomaga kiritishi mumkin.

2. Moliyaviy hisobotni tuzish. Professional xizmatning ushbu turi asosan ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchidan, auditorlik tashkiloti tomonidan buxgalterlik hisobini yuritishga doir bajarilgan ishlar majmuyining yakunida hisobot ham tuzib berilishi mumkin. Ikkinchi holatda auditorlik tashkilotining mustaqil ishi sifatida, ya'ni buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan buxgalterlik registrlarining ma'lumotlari asosida faqatgina hisobotning o'zi tuzib berilishi ham mumkin.

Auditorlik tashkilotlar mijoz — xo'jalik yurituvchi subyektiga buxgalterlik (moliyaviy) hisobotni tuzib berish bilan birga budjetdar tashqari fondlar va statistika organlariga topshiriladigan hisobotlarni tuzish bo'yicha ham xizmat ko'rsatishi mumkin.

3. Milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun milliy moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar «O'qiy oladigan til»ga — moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga yoki investor faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi umumqabul qilingan hisob prinsiplari (masalan, GAAP tizimi)ga o'tkazish zarur. Buning uchun auditor MHXS yoki investor mamlakatidagi GAAP tizimini, ularning xususiyatlarini va milliy moliyaviy hisobotlarimiz bilan qiyosiy tahlilini chuqur bilishi zarur.

Milliy iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb qilishdan maqsad faqat o'zaro manfaatlarni qondirish emas, balki investorning investitsiya obyektini hisoblangan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan o'zaro munosabatlarni o'rnatishdan iborat.

Nazorat o'rnatish yoki jiddiy ta'sir ko'rsatish uchun qilingan investitsiyalar hisobi, faqat birgina maqsadni — qo'shimcha daromad olishni ko'zlab qilingan investitsiyalar hisobidan farq qiladi. Bunday tafovutning negizida investor va investitsiya oluvchi xo'jalik yurituvchi subyekt o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yotadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) tizimida har xil moliyaviy qo'yilmalarni investor tomonidan hisobga olish tartibini belgilaydigan bir qancha standartlar mavjud. №25-MHXS

«Investitsiyalar hisobi», №27-MHXS «Umumlashtirilgan moliyaviy hisobot va shu'ba kompaniyalarga qilingan investitsiyalar hisobi», №28-MHXS «Birlashgan kompaniyalarga qilingan investitsiyalar hisobi», №31-MHXS «Hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etish to'g'risidagi moliyaviy hisobot», №32-MHXS «Moliyaviy dastklar: axborotlarni bayon qilish va taqdim etish», №39-MHXS «Moliyaviy dastklar: tan olish va baholash» shular jumlasidandir.

4. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish masalalariga so'nggi yillarda talab kuchaymoqda. Bu bir necha yillar davomida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, o'zlarining moliyaviy ahvoriga baho berish, iqtisodiy barqarorlikka erishish va mahsulot (ish, xizmat)larning qaysi turi eng ko'p daromad (yoki zarar) keltirishi va shu kabilarni bilishni istaydilar. Aksariyat xo'jalik yurituvchi subyektlarining xizmat xodimlari uning moliyaviy ahvolni, balansining likvidligi va to'lov layoqatini tahlil qilish hamda moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bilan bog'liq usullarni bilmaydilar. Biznes-rejalar tuzish tajribasiga ega emas.

5. Buxgalteriya hisobi, soliqqa tortish, rejalashtirish, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati. Ushbu masalalarga doir professional xizmatlar: soliqqa tortish bo'yicha tushuntirishlar (yozma va og'zaki shaklda) tayyorlash, soliq qonunchiligini buzganlik uchun jarima hisob-kitobi hamda jarima undirishning to'g'riligini (yoki noto'g'riligini) asoslash, dastlabki hisobni tashkil etish, mijozning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan tuziladigan xo'jalik shartnomalari (bitimlari)ni takomillashtirish kabi ishlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi bozor konyunkturasidan foydalanib tezroq boylik orttirishni o'ylamasdan, xo'jalik yurituvchi subyektni uzoq yillar davomida jiddiy va barqaror rivojlantirishni maqsad qilib qo'yan tadbirkorlar yangidan tuzayotgan shartnomalari va bitimlarini oldindan ekspertiza qildirishdan manfaatdordirlar.

Amalda majburiy auditorlik tekshiruvi, ko'pincha, yillik buxgalterlik (moliyaviy) hisobotlar tuzilib, tasdiqlanib va hatto tegishli organlarga topshirilganidan so'ng o'tkaziladi. Qoidaga ko'ra ularga hamda tekshiruv o'tkazilayotgan davrga tegishli hisob registrlariga ham tuzatish kiritish mumkin emas.

Shuning uchun hozirgi paytda professional xizmatlarning yuqorida qayd qilingan turlari bo'yicha konsalting xizmatiga talab oshmoqda. Agar mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalterlik (moliyaviy) hisobotlarini topshirmasdan konsalting xizmati bo'yicha



auditorlik tashkilotiga murojaat qilsa, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilib, qabul qilingan hisob siyosatidan chetga chiqmasliklari mumkin.

6. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar, hisobotlar va deklaratsiyalarni tuzish, ularni soliq inspeksiyasiga hamda boshqa tegishli organlarga topshirish ko'p hollarda buxgalter uchun nohush jarayon sifatida kechadi.

Birinchidan, mazkur ishning murakkabligi bo'lsa, ikkinchidan, hisobot va deklaratsiya topshiruvchi buxgalterning vaqtini oladigan-navbat kutish hamda ayrim soliq xodimlarining muomilasizligi va shunga o'xshashlar bunga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari ma'lumki, agar davlat statistika organlari va budjetdan tashqari fondlarga (bandlik xizmati va h.k.) tegishli hisobot shakllari topshirilganligi to'g'risida buxgalterlik (moliyaviy) hisobot muqovasiga belgi qo'yilmagan bo'lsa, uni soliq inspeksiyasi qabul qilmaydi.

Bunday ishlarni, ya'ni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar, hisobotlar va deklaratsiyalarni tuzish hamda tegishli organlarga topshirishni auditorlik tashkiloti to'liq o'z zimmasiga oladi.

Shuningdek, auditorlik tashkiloti soliq inspeksiyasining tekshiruv dalolatnomalarini ham o'rganib, agar nohaq kamchiliklar ko'rsatilgan bo'lsa, ular bo'yicha e'tiroz xati tayyorlashi mumkin.

Hisobotlarni muvaffaqiyatli topshirish va himoya qilish, auditorlik tashkiloti hisobotlarni tuzishga doir ishlarni malakali va sifatli bajarganligidan dalolat beradi hamda professional xizmat bozorida uning obro'sini oshiradi.

7. Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar, ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar va boshqa shakldagi tadbirlar ham o'tkazishi mumkin. Bu maqsadda auditorlik tashkiloti davlat soliq inspeksiyasi, Moliya Vazirligi va boshqa mutasaddi idoralardan tajribali uslubiyotchi va amaliyotchi xodimlarni hamda oliy o'quv yurtlaridan yetakchi professor-o'qituvchilarni taklif etishi mumkin.

Bu toifa xizmatlarning buxgalterlarni o'qitish bilan bog'liq boshqa xizmatlardan farqi, u seminar ishtirokchilaridan ma'lum malaka talab qiladi.

Auditorlik tashkiloti xodimlari ma'ruza va seminar ishtirokchilariga fuqarolik, soliq va boshqa qonunchiliklarda ro'y bergan o'zgarishlarni, buxgalterlik hisobini yuritishga doir me'yoriy hujjatlar (buxgalteriya hisobi va hisobotining xalqaro hamda milliy

standartlari, nizomlar, qarorlar, yo'riqnomalar va boshqalar)ni sharhlab beradilar. Shuningdek, bunday tadbirlarda hisob yuritish va hisobot tuzishda ko'p sodir bo'ladigan xatolar muhokama qilinadi va seminar ishtirokchilarining savollariga javob beradilar.

Yuqorida keltirilgan professional xizmatlardan tashqari auditorlik tashkiloti belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi, audit, moliya-xo'jalik faoliyati tahlili, soliqqa tortish bo'yicha o'quv qo'llanmalar va o'quv-uslubiy materiallar tayyorlashi hamda chop ettirishi mumkin. Bu tarzdagi xizmatlar, odatda, mazkur masalalar bo'yicha bosmaxona, uslubiy tavsiyalar va boshqa ommabop adabiyotlarni ishlab chiqaradigan mualliflar hamda tahririyat jamoasiga ega yirik auditorlik tashkilotlari tomonidan bajariladi.

Shuningdek, auditorlik tashkiloti mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektlariga davriy nashr adabiyotlari: «Soliq to'lovchining jurnali», «Soliq va bojxona xabarlari», «Xo'jalik huquqi», «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» va boshqalarga obuna bo'lishdan tortib, to kompyuter uchun «Huquq tizimi» va h. k. ma'lumotlargacha bo'lgan qo'llanmalarining maqbul to'plamini tanlash bo'yicha maslahatlar ham berishi mumkin.

## Xulosalar

Auditning turi - ma'lum belgilari, xossalari, vazifalari, o'tkazish muddati, qabul qilinayotgan qarorlarning xarakteri, obyekt, subyekt va boshqa shu kabi sifatleri bilan umumiy bo'lgan guruhlar yoki bir butunlikni tashkil etgan yaxlit xillar asosida shakllantiriladi. Audit shakllari - o'ziga xos bo'lgan tashqi ko'rinishi, qiyofasi bilan birga o'z mazmuni va usullariga ega bo'ladi Auditorlik tekshiruv majburiy va tashabbus tarzida (ixtiyoriy) o'tkaziladi. auditorlik tekshiruvlariga bo'linadi. Aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va boshqa kredit tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, investisiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari, manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar, mablag'larning hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish budjetdan tashqari fondlar, ustav fondi (kapitali)da davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiy audit o'tkaziladi. Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) audit odatda xo'jalik yurituvchi

subyektning qaroriga ko'ra o'tkaziladi. Auditor nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish tashkilotlarining tashabbusiga ko'ra ham o'tkaziladi. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlariga quyidagilar kiradi: buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish; moliyaviy hisobotni tuzish; milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish; xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish; buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklarasiyalarni tuzish; auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatining milliy standartlarida nazarda tutilgan boshqa professional xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin. Ichki audit – xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va me'yoriy-huquqiy manbalariga, uning ta'sis etuvchi va ichki hujjatlariga rioya qilinishi monitoringini yuritish, ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi va hisobotlarda to'liq, ishonchli aks ettirilishini ta'minlash bo'yicha tarkibiy bo'linmaning mustaqil faoliyati. Tashqi audit – o'zaro tuzilgan shartnoma shartlari asosida mijozning buxgalteriya hisobi va hisobotlarini haqqoniylikini baholash, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish hamda auditorlik faoliyati bilan bog'liq boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish. Operatsion audit – xo'jalik hayotini, unda sodir bo'layotgan muomalalarni, xo'jalik tizimida foydalanilayotgan metodlar, shuningdek, unumdorlik va samaradorlikni oshirish bo'yicha maqsadli dasturlar auditi. Muvofiqlik auditi xo'jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo'ladigan muomalalarning amaldagi me'yorlarga, shartnoma shartlariga yoki andozalarga muvofiqligini belgilaydi. Moliyaviy hisobot auditida moliyaviy hisobot ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchligi, ularni amaldagi qonunchilikka muvofiqligi o'rganiladi.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Auditning turlari va shakllari hamda ularning farqli taraflarini keltirib o'ting.
2. Operatsion audit va uning mazmunini aytib bering.
3. Muvofiqlik auditi va uning o'ziga xos jihatlari sanab o'ting.
4. Moliyaviy hisobot auditi va uning mazmunini keltiring.

5. Majburiy auditning mazmuni, mohiyatini ayting va u kimlar tomonidan olib boriladi?

6. Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvi qachon o'tkaziladi va uning mazmunini ayting.

7. Auditorlik kasbiga qanday malakaviy talablar qo'yiladi.

8. Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?

9. Ichki audit va uning mazmunini yoriting.

10. Tashqi audit va uning mazmunini aytib bering.

11. Auditorlik tashkilotlari qanday professional xizmatlarni amalga oshiradi?

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Audit turlari va shakllari; majburiy audit; tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) audit; operatsion audit; moliyaviy hisobot auditi; muvofiqlik auditi; auditorlik kasbiga malakaviy talablar; auditorlik tashkilotining professional xizmatlari.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

**1. Auditning mamlakat qonunlariga muvofiqligi uning qaysi turida ko'rib o'tiladi?**

- A. Operatsion audit.
- B. Mos keluvchanlik auditi.
- C. Majburiy audit.
- D. Tashabbuskorlik tarzidagi audit.

**2. Auditning rivojlanishiga qarab qanday turlari mavjud?**

- A. Tasdiqlovchi, operatsion audit.
- B. Mos kelish yoki tizimli audit.
- C. Operatsion yoki tizimga solingan audit.
- D. Tasdiqlovchi, mos kelish yoki kelmaslik hamda tizimli, tavakkalchilikka asoslangan audit.

**3. Auditning shakllarini aniqlang.**

- A. Operatsion, mos keluvchanlik, moliyaviy hisobotlar auditi.

- B. Nodavlat, davlat va aralash audit.
- C. Nodavlat, xususiy, jamoa va aralash audit.
- D. Shaxsiy, nodavlat, paychilik, aksionerlik korxonalar auditi.

**4. Auditning dastlabki rivojlanish bosqichi... .**

- A. Tizimli audit.
- B. Tasdiqlovchi audit.
- C. Tavakkalchilikka asoslangan audit.
- D. Baholovchi audit.

## X mavzu. AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH

---

### 10.1. Auditni rejalashtirishning bosqichlari


Audit samradorligi bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlarga ko'rsatilgan xizmat turlarini sifatli, o'z vaqtida bajarilishiga bog'liq holda auditorlik tashkilotining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, aniq tuzilgan reja asosidagi faoliyatiga bog'liq. Chunki auditni rejalashtirishda auditorning ish faoliyati to'liq nazorat qilinsa, ikkinchidan, audit uchun qulay sharoit yaratiladi, uchinchidan, tekshirish o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risidagi iqtisodiy ma'lumotlar bilan tanishib boradi. Shuningdek, audit o'tkazish rejasi tuzilayotgan mijozning xo'jalik faoliyatini o'rganish, iqtisodiy tahlil qilish tartibi, audit xulosasini yozish kabi ishlar hisobga olinib audit muddatlari bilan taqqoslanib chiqiladi.

Rejalashtirish audit o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanib, audit o'tkazishning kutilayotgan hajmi, jadvallari va muddatlarini ko'rsatgan holda auditorlik tashkiloti tomonidan auditning umumiy rejasini ishlab chiqishdan, shuningdek, auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti to'g'risida xolis va asosli fikr shakllantirilishi uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalarini amalga oshirish hajmi, turlari va izchilligini belgilaydigan auditorlik dasturini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Auditni rejalashtirish asosan olti bosqichda amalga oshiriladi: dastlabki rejalashtirish; mijoz haqida umumiy ma'lumotlarni to'plash; mijozning huquqiy majburiyatlari haqida axborot olish; xatoliklar va tavakkalchilik (risk)ni baholash; ichki nazorat tizimi bilan tanishish va nazorat bo'yicha xavf (risk)ni baholash; auditning umumiy rejasi va dasturini tuzish. Auditni rejalashtirishning dastlabki beshta bosqichi so'nggi bosqich - auditning umumiy rejasi va dasturini tuzishda auditorga yordam berish uchun o'tkaziladi (14-chizma).

Dastlabki rejalashtirish auditning boshlang'ich davrida (zarur bo'lsa— mijoz idorasida) o'tkaziladi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektida auditni boshlash yoki davom ettirishga rozilik berish

haqida qaror qabul qilinadi, mijozning audit o'tkazish bo'yicha buyurtmasini asoslovchi sabablar aniqlanadi, auditni o'tkazish uchun xodimlar tanlanadi va yozma majburiyat tuziladi.



*14-chizma. Auditni rejalashtirish bosqichlari*

Xo'jalik yurituvchi subyektda auditni boshlash yoki davom ettirishga rozilik berish. Auditorlik tashkilotiga yuklatilgan huquqiy va kasbiy mas'uliyat o'ta jiddiy bo'lgani sababli mijoz tanlashga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Shu sababli yangi mijozlar taklifi auditorlik tashkilotlari tomonidan mazkur xo'jalik yurituvchi subyekt haqidagi ma'lumotlarni o'rganish asosida qabul qilinadi.

Mijozning audit o'tkazish bo'yicha buyurtmasini asoslovchi sabablarni aniqlash. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar va ularning hisobotdan foydalanish maqsadlari asoslovchi hujjatlar yig'ishni belgilab beradi.

Auditni o'tkazish uchun xodimlar tanlash va yozma majburiyatni tuzish. Audit texnik tayyorgarlikka va kasbiy sifatga ega shaxs yoki shaxslar tomonidan, ya'ni asosiy auditor, auditor

yordamchilari va assistentlaridan iborat guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Yozma majburiyat - xo'jalik yurituvchi subyekt va auditorlik tashkiloti o'rtasidagi audit o'tkazish va u bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish haqidagi kelishuv. Ushbu kelishuv tomonlarning shartlarni bir xilda tushunishiga va jarayondan keyin vujudga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab anglashilmovchiliklarni oldini olishga imkon beradi (1-ilova).

Mijoz haqida umumiy ma'lumotlarni to'plash. Xo'jalik yurituvchi subyektning nima uchun aynan shu auditor tashkilotiga murojaat qilayotganligi sabablarini aniqlash jarayonning muhim bosqichi bo'lib, bunda auditor mijozning moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy muhitda mijozning mavqeyi, mijozning bundan oldingi auditorlik firmasi bilan munosabatlarini huquqshunoslar, boshqa auditorlik tashkilotlari, tadbirkorlar va boshqalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalangan holda bilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mijozning huquqiy majburiyatlari haqida axborot olish. Bu jarayonda auditor xo'jalik yurituvchi subyektning tashkil etish to'g'risidagi ma'lumotlar va uning ustavi, direktorlar kengashi va aksionerlar yig'ilishi bayonnomalari hamda tuzilgan shartnomalardan iborat bo'lgan o'zaro bog'liq huquqiy va arxiv hujjatlaridan foydalanadi.

Xatoliklar va tavakkalchilik (risk)ni baholash. Auditda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni kamaytirishga auditorlik risklarini o'z vaqtida aniqlash hisobiga erishiladi va shu sababli bu bosqich jarayonda muhim ahamiyatga ega. Chunki auditorlik risklarini aniqlash hisobiga jarayonni o'tkazish bo'yicha maqbul yo'l tanlanib, auditorlik riski minimallashtiriladi.

Ichki xo'jalik riski — buxgalteriya schyotida, balans moddasida, moliyaviy hisobotda jiddiy kamchiliklarning ichki nazorat tizimi vositalari yordamida aniqlangunga qadar yoki ichki nazorat umuman yo'q bo'lganda auditor tomonidan aniqlash ehtimoli mavjudligini bildiradi.

Nazorat riski, birinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektning ichki nazorat tizimini xatoliklarni oldini olish yoki aniqlash nuqtayi nazaridan baholashni, ikkinchidan, auditorning ushbu bahoni maksimal darajada pastroq belgilashga intilishini bildiradi.



Xatolarni aniqlanmaslik riski, bu moliyaviy hisobotlarda mavjud xatoliklarni audit davomida aniqlanmay qolinishini auditor tomonidan o'z zimmasiga olish darajasini ko'rsatuvchi riskdir.

Ichki nazorat tizimi bilan tanishish va nazorat bo'yicha xavf (risk)ni baholash.

Nazorat bo'yicha riskni baholashdan oldin, ichki nazorat tizimini muhim jihatlari bilan tanishib chiqish zarur. Bunda nazorat o'rinlari belgilab olinib, tizimning zaif taraflari aniqlanadi. Shu asosda auditor tomonidan nazorat riski baholanadi.

## **10.2. Auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish**

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni va 3-sonli «Auditni rejalashtirish» nomli AFMSga binoan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti auditini rejalashtirish paytida auditorlik tashkilotlari tomonidan qo'llaniladigan me'yorlarni belgilash talab etiladi.

Amaldagi 3-sonli «Auditni rejalashtirish» nomli AFMSda «Auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish» ga bag'ishlangan alohida bo'lim mavjud va unda mazkur masalaga oid jarayonlarga alohida to'xtalgan.

Xususan, mazkur standartning 24-bandida auditning umumiy reja audit dasturida ko'zda tutilgan masalalarni amalga oshishida auditorga yordam berishi kerak.

Mazkur standartning talablari uning natijalari bo'yicha rasmiy auditorlik xulosasi tayyorlashni nazarda tutmaydigan auditni o'tkazish paytida, shuningdek, auditni turdosh xizmatlar (konsalting xizmatlari) ko'rsatilishi paytida tavsiya tusida bo'ladi. Aniq topshiriqni bajarish paytida mazkur standartning majburiy talablaridan chetga chiqilgan taqdirda auditorlik tashkiloti buni o'zining ish hujjatlarida va audit yoki unga turdosh bo'lgan xizmatlarga buyurtma bergan xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yozma hisobotda majburiy tartibda qayd etishi shart.

Umumiy rejada auditorlik tashkiloti auditni o'tkazish muddatlarini nazarda tutishi va auditni o'tkazish muddatlarini, hisobot (xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasini tuzishni nazarda tutishi shart.

Auditorlik tashkiloti umumiy rejada ichki audit rolini, shuningdek, audit o'tkazish jarayoniga ekspertlarni jalb etish zaruratini belgilaydi.

Auditning umumiy rejasi: mijoz faoliyati bilan tanishish; dastlabki rejalashtirish; mijoz - xo'jalik yurituvchi subyektning ichki audit tizimini baholash; tanlash hajmi va jiddiylik darajasini aniqlash; audit dasturini tayyorlash, auditni bevosita o'tkazish jarayoni (dasturni bajarish); bajarilgan ishlar natijalarini iqtisodiy tahlil qilish; barcha oraliq va umumiy hujjatlarni tayyorlash; tekshiruv natijalarini mijozga taqdim etish va hokazolarni o'z ichiga olgan holda audit o'tkazishning barcha bosqichlarini aks ettirishi kerak.

Standartda ko'rsatilishicha, auditor umumiy rejada audit o'tkazish muddatlari va audit o'tkazish jadvalini, auditorlik hisoboti (xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasi tuzishni nazarda tutishi zarur. Rejalashtirish chog'ida auditor quyidagilarni hisobga olishi talab etiladi:

- kelgusi davrdagi vaqt sarfi hisob-kitobi (takroriy audit o'tkazish hollarida) va haqiqiy mehnat xarajatlari;
- muhimlik darajasi;
- auditorlik guruhini tuzish, audit o'tkazishga jalb qilinadigan auditorlar soni va malakasi;
- auditorlarni, ularning malakaviy darajalari va lavozimlariga muvofiq audit o'tkaziladigan muayyan uchastkalarga taqsimlash;
- auditorlik guruhining barcha a'zolariga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularni mijozning moliya-xo'jalik faoliyati bilan tanishtirish;
- auditorlik guruhi rahbarining reja bajarilishi va yordamchi auditorlar ishlari sifati ustidan nazorat o'rnatishi;
- auditorlik amallarini bajarish bilan bog'liq uslubiy masalalarni tushuntirish.

Xo'jalik yurituvchi subyektda auditni o'tkazishning namunaviy umumiy rejasi quyidagicha shakllanadi:

1. Tekshiriladigan tashkilot.
2. Audit davri kishi-soatlar miqdori.
3. Auditorlik guruhining rahbari.
4. Auditorlik guruhining tarkibi.
5. Rejalashtirilgan auditorlik riski.
6. Rejalashtirilgan jiddiylik darajasi.

Auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xulosasini imzolash huquqiga ega rahbar auditni amalga oshirish chog'ida ko'p hollarda mijoz faoliyatini 100 foiz, to'liq tekshirish mumkin bo'lmaydi. Shu boisdan, rejada auditorlik tanlash qay tarzda amalga oshirilishini ko'rsatish zarur.

Audit umumiy rejasi va dasturining ayrim bo'limlarini xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati bilan kelishishi ko'zda tutilgan bo'lib, bunda auditorlik tashkiloti audit uslublari va usullarini tanlashda mustaqil bo'lib qoladilar. Ko'p hollarda bunday kelishish, mijoz faoliyatining ayrim jarayonlarini batafsilroq iqtisodiy tahlil etish bilan bog'liq masalalarni rejalashtirish bosqichida ko'zda tutish, auditorning tekshiruv chog'idagi hatti - harakatlari mijoz-rahbariyati uchun tushunarli bo'lishi, shuningdek, auditorning ish jadvaliga muvofiq talab qilinadigan hujjatlar mijoz tomonidan tezkorlik bilan taqdim qilinishi va auditning u yoki bu bosqichida zarur bo'ladigan moliyaviy xizmat xodimlarini ishdan ozod yetishi maqsadga muvofiqdir.

<b>№</b>	<b>Rejalashtirilgan ishlar turlari</b>	<b>O'tkazish davri</b>	<b>Bajaruvchi</b>	<b>Eslatma</b>
1.	Mijoz faoliyati bilan tanishish	10.12.2014	B.Esanov	Audit rahbari
2.	Ichki audit tizimini baholash	16.12.2014	B.Esanov	Audit rahbari
3.	Auditorlik dalillar	22.12.2014	T.Atayev	Auditor yordamchisi
4	Jiddiylik va risk darajasini aniqlash	24.12.2014	T.Atayev	Auditor yordamchisi
5.	Auditorlik tanlash	28.12.2014	B.Saidov	Assistent
6.	Audit dasturi	28.12.2014	B.Saidov	Assistent
7.	Auditni bevosita o'tkazish jarayoni (dasturni bajarish)	07.01.2015	Audit guruhi	
8.	Bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, barcha oraliq va umumiy hujjatlarni tayyorlash	16.01.2015	Audit guruhi	
9.	Tekshiruv natijalarini mijozga taqdim etish va h.k.	29.01.2015	B.Esanov	Audit rahbari

Audit umumiy rejasi va dasturini tayyorlash paytida auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotni ishonchli, deb hisoblash imkonini beradigan jiddiylik va auditorlik tavakkalchiligi uchun maqbul darajasini belgilashi kerak.

Auditorlik tashkiloti auditorlik tavakkalchiligini rejalashtirar ekan, xo'jalik yurituvchi subyekt auditidan qat'iy nazar, ushbu hisobotga xos bo'lgan moliyaviy hisobotning ajralmas tavakkalchiligi va nazorat tavakkalchiligini belgilaydi. Belgilangan tavakkalchiliklar va jiddiylik darajasi yordamida auditorlik tashkiloti audit uchun ahamiyatli sohalarni aniqlaydi va zarur auditorlik qoidalarini rejalashtiradi. Audit jarayonida rejalashtirish paytida belgilangan auditorlik tavakkalchiligi va jiddiylik darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan holatlar yuzaga kelishi mumkin.

### **10.3. Audit dasturini tayyorlash va tuzish**

O'zbekiston Respublikasining 3-sonli «Auditni rejalashtirish» nomli AFMSda audit dasturi - audit umumiy rejasini rivojlantirish hisoblanishi va audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik qoidalari mazmunining batafsil ro'yxatini o'z ichiga olishi, shuningdek, dasturning auditor assistentlari uchun batafsil yo'riqnoma bo'lib xizmat qilishi va bir vaqtning o'zida auditorlik tashkiloti hamda auditorlik guruhining rahbarlari uchun ish sifatini nazorat qilish vositasi hisoblanishi ta'kidlangan.

Auditor auditni taxmin qilinayotgan ko'lam va o'tkazish tartibini bayon etgan holda, auditning umumiy rejasini ishlab chiqishi va rasmiylashtirishi kerak. Audit dasturini ishlab chiqishda qo'llanma bo'lib xizmat qilishi uchun audit umumiy rejasining hujjatli aks ettirilishi yetarli darajada batafsil bo'lishi kerak, bunda uning aniq shakli va mazmuni subyekt kattaligi, auditning murakkabligi hamda auditor qo'llayotgan aniq uslubiyat va texnologiyaga bog'liq.

Auditor auditning umumiy rejasini amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan, rejalashtirilgan auditorlik jarayonlarning tavsifi, muddati va hajmini belgilovchi audit dasturini ishlab chiqishi va hujjatli rasmiylashtirishi kerak. Audit dasturi auditda ishtirok etayotgan auditor yordamchilari uchun yo'riqnomalarda to'plami hamda ishni tegishli ravishda bajarilishi va aks ettirilishi yuzasidan nazorat qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, audit dasturi auditning har bir bo'limi bo'yicha belgilangan vazifalar va auditning turli jabhalari yoki muolajalariga ajratilgan soatlar miqdori ko'rsatilgan vaqt budjetidan iborat bo'lishi mumkin.

Auditning dasturi audit rejasining rivojlanishi hisoblanib, auditning har bir aniq bo'limi uchun kerakli bo'lgan auditorlik jarayonlar ro'yxatidan iboratdir. Auditorlik dasturlar quyidagi ikki turda bo'ladi:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektning ichki nazorat tizimi to'g'risidagi ma'lumotni to'plash uchun tarkib topgan nazorat testlari dasturi.

2. Bevosita schyotlardagi qoldiqlar to'g'risida ma'lumotni to'plash uchun tarkib topgan schyotlardagi qoldiqlarni tekshirish dasturi.

Auditda muhimlik darajasini to'g'ri belgilab olish talab etiladi. Chunki 9-sonli «Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi» nomli AFMSning 8-bandiga ko'ra muhimlik - moliyaviy hisobotni buzishning eng yuqori darajasini belgilab, mazkur hisobotning foydalanuvchilari uning asosida to'g'ri xulosalar chiqarishi va samarali qarorlar qabul qilishga qodir bo'lmasligini anglatadi.

Xalqaro standartlarda muhimlik - buxgalteriya ma'lumotlarini noto'g'ri yoki noaniq aks ettirish yoki o'tkazib yuborish, deb talqin qilinadi. Chunki xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyat ko'lamining turli-tumanligi va inflyatsiya darajasi bunga ta'sir qiladi. Ba'zi auditorlar muayyan miqdordan yuqori bo'lgan xatoni har qanday sharoitda muhim bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi.

Amaliyotda ko'pincha, nisbiy ko'rsatkichlar ishlatiladi. Ular yoki muayyan aniq foizda yoki oraliqni aks ettirishi mumkin. Masalan, balans foydasining 4 % miqdorida bo'lsa, bu aniq chegarani ko'rsatib turadi, agar balans foydasining 2-4 % atrofida deyilsa, bu muayyan oraliqni ko'rsatadi. Muhimlik mezonlari hisobotga qanaqa belgilansa, uning elementlari bo'yicha ham shu tartibda belgilanadi. Hisobotning muhim bo'lgan qatorlar auditida albatta auditorlik tanlovi o'tkaziladi.

Auditorga muhimlikning juda ham past yoki juda ham yuqori darajasini qo'llash tavsiya etilmaydi. Birinchi holatda tekshirish ko'p vaqt va kuch talab qiladi. Bunday tekshiruv qimmatga tushishi va uzoq vaqtga cho'zilishi mumkin. O'ta yuqori muhimlik darajasi holatida kam auditorlik amallari qo'llanilishi va amalga oshmaslik tавvakalchiligi (daxlsizlik tavakkalchiligi) yuqori bo'lishi mumkin. Shu boisdan g'arbda auditorlik tashkilotlari muhimlik darajasiga yaqin yoki maqbulini tanlash uchun yarim empirik yo'ldan borishadi. Auditorlik tekshiruvi har doim tavakkalchilik bilan hamohang tarzda bo'ladi. Auditor tavakkalchilik nima bilan tugashi, uning mohiyati, tarkibiy qismlari va jarayonning maksimal

chegarasini anglashi kerak. Auditorlik tavakkalchiligi va auditorlik muhimligi o'rtasida quyidagi qarama-qarshi bog'liqlik mavjud:

- qat'iyroq muhimlik darajasi mavjud bo'lganda auditorlik tavakkalchiligi past bo'ladi;

- muhimlik darajasi unchalik qat'iy bo'lmagan sharoitda auditorlik tavakkalchiligi yuqori bo'ladi.

Eng muhim ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni olish va ularga nisbatan qo'llaniladigan foizlarni tavsiya sifatida belgilash mumkin (74-jadval).

74-jadval

**Moliyaviy hisobotning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha jiddiylik darajasini hisoblash**

Asosiy ko'rsatkichlar	Asosiy ko'rsatkich qiymati (m.s.)	%	Jiddiylik darajasining summasi, (m.s)
Mahsulot (ish, xizmat) larni sotishdan olingan sof tushum (2-shakl, 010-satr)	723491,0	5	36175,
Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) larning ishlab chiqarish tannarxi (2-shakl, 020-satr)	177826,0	3	5335,0
Jami davr xarajatlari (2-shakl, 040-satr)	32833,0	3	985,0
Xo'jalik yurituvchi subyektning xususiy kapitali (1-shakl, 460-satr)	241567,0	10	4831,0
Balansning umumiy summasi (1-shakl aktividagi 380-satr yoki passividagi 700-satr)	135945,0	5	13595,
Tugallanmagan ishlab chiqarish (1-shakl, 150-satr)	322762,0	3	6455,0
Taqsimlanmagan foyda	23819,0	2	476,0

Muhimlik darajasi auditorlik tavakkalchiligi hamda auditorlik amallarga chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu darajani to'g'ri

belgilash audit vaqtini to'g'ri belgilash tekshirishga saflanadigan xarajatlarni optimal taqsimlash imkonini beradi.

### AUDIT DASTURI

Audit o'ttkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt \_\_\_\_\_

Audit davri \_\_\_\_\_

Kishi-soatlar soni \_\_\_\_\_

Auditorlik guruhi rahbari \_\_\_\_\_

Auditorlik guruhi tarkibi \_\_\_\_\_

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari \_\_\_\_\_

Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi \_\_\_\_\_

No	Audit bo'limlari bo'yicha auditorlik tadbirlari ro'yxati	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Auditorning ish hujjatlari	Izohlar
1.	Mijoz faoliyati bilan tanishish	10.12.2014 yil	B.Esanov	Xo'jalik yurituvchi subyekt Ustavi, mulkdorlar yig'ilishida qabul qilingan qarorlar bayoni	Asl nusxalari
2.	Ichki audit tizimini baholash	16.12.2014 yil	B.Esanov	Ichki audit tizimining ish rejasi, bajarilgan ishlar yuzasidan hisoboti daliliy ashyolari bilan, uning xulosasiga binoan olib borilgan ishlar	Hujjatlar nusxasi olinadi

Xulosa qilib aytganda, jiddiylik va tavakkalchilik darajasini baholash auditorlik tekshiruvini muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Uning malakali amalga oshirilishi nafaqat sifatli auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish, auditorlik tashkiloti hamda mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

#### 10.4. Auditni rejalashtirishning asosiy tamoyillari

Auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyektga kelishuv xati yo'llagunga va u bilan shartnoma tuzilgunga qadar auditni rejalashtirib olishi kerak.

Auditni rejalashtirish audit o'tkazishning umumiy va xususiy tamoyillari asosida:

- komplekslilik, rejalashtirishning barcha bosqichlarini – dastlabki rejalashtirishdan auditning umumiy rejasi va dasturini tuzishgacha - o'zaro aloqadorligini va mosligini nazarda tutib;

- uzluksizlik - auditorlar guruhiga bir-biriga bog'liq topshiriqlar berish va audit bosqichlarini rejalashtirishni muddatlari hamda o'zaro bog'liq xo'jalik yurituvchi subyektlar (bo'limlari, filiallari, sho'ba korxonalarini)ni hisobga olgan holda tuzishda ifodalanadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt bilan auditorlik tashkilotini uzoq muddatli shartnoma asosida audit o'tkazish rejalashtirilganda yil davomida audit rejasi va dasturiga mijozni moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlar hamda oraliq auditorlik o'rganishlari natijasiga ko'ra tegishli o'zgartirishlar kiritib;

- rejalashtirishni maqbullashtirish – auditorlik tashkilotining o'zi belgilagan mezonlar asosida auditning umumiy rejasi va dasturining eng maqbulini tanlashga imkoniyat yaratish uchun ularning ko'p variantlilikini ta'minlab amalga oshiriladi.

Auditorlik tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar quyidagilardan iborat:

### 1. Mustaqillik.

Tashkilot ta'sisчилari va rahbarlari tijorat, moliya va davlat tuzilmalariga nisbatan javobgar bo'lmagan mustaiil shaxslardir. Auditorlikni o'tkazish va auditorlik xulosalarini amalga oshirishda tashkilot mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt, shuningdek, auditor fikrining to'g'riligiga ta'sir yetishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxsga nisbatan mustakillik tamoyiliga asoslanadi.

### 2. Tijorat siri.

Mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektlardan olinayotgan ma'lumotlarni qat'iy mahfiy tarzda saqlash auditorlik faoliyatining eng muhim tamoyillaridan sanaladi. Chunki faoliyat davomida olinayotgan va tuzilayotgan hujjatlarning saqlanishi ta'minlanadi, amaldagi qonunchilik va kasbiy etikaga binoan, o'z egasining ruxsatisiz ma'lumotlar oshkor etilmaydi. Mijozlar bilan tuzilgan shartomaga asosan, maxfiylik shartnomaning eng asosiy shartidir.

### 3. Professional layoqatlilik (kompetentlilik).

Auditor xizmat ko'rsatish uchun yetarli darajada professional layoqatga, bilimlarga va mahoratga egaligiga ishonch hosil qilishi, aks holda auditorlik xizmatini ko'rsatishdan bosh tortishi kerak. Auditor professional xizmatlarni yetarli darajadagi e'tibor, layoqat



bilan va sidqidildan ko'rsatishi, professional bilimlari va mahoratini uzluksiz oshirib borishni, ularni buyurtmachi amaliyotidagi zamonaviy ishlanmalar va qonunchilikka asoslangan, kompetentli va professional xizmatlar olishini kafolatlaydigan darajada ushlab turishi kerak.

#### 4. Professionallik.

Auditorlarga audit sohasidagi professional xizmatlar ko'rsatishi uchun mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqa manfaatdorlar tomonlardan aniq belgilangan talablar qo'yiladi. Auditor shu talablarga javob bera olishi zarur.

#### 5. Ishonch.

Mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekti shunga ishonch hosil qilishlari kerakki, auditorlar xech qachon kasbga oid axloq tamoyillarini va amaldagi me'yoriy — huquqiy talablarni buzmasdan, o'zlariga ko'rsatayotgan audit xizmatlarini sifatli bo'lishiga shubha qilmasliklari kerak.

#### 6. Ishonchlilik.

Buyurtmachilar foydalanadigan axborotlar ishonchliligiga va ularni olishni ishonchli usullariga ehtiyoj sezishadi. Shu sababli auditorlar tomonidan taqdim etilayotgan har bir axborot ishonchli bo'lishi zarur.

#### 7. Obyektivlik.

Auditor avvalombor xaqgo'y, to'g'riso'z bo'lishi kerak va boshqa omillar uning obyektivligiga ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

#### 8. Halollik.

Auditor o'zining kasbga oid majburiyatlarini bajarish chog'ida halol bo'lishi zarur.

O'ylaymizki, yuqoridagi tamoyillar asosida auditning rejalashtirilishi va dasturda belgilangan vazifalarning vaqtida olib borilishi, faoliyatning samarali, sifatli bo'lishini ta'minlab, auditorning iqtisodiy subyektlar orasida mavqeyini oshiradi.

### **10.5. Auditorlik amallar va auditorlik dalillar manbalari**

Auditorlik faoliyatini olib borish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlarini ko'rib chiqishda asosan buxgalteriya hisobining dastlabki hujjatlaridan foydalaniladi. Xo'jalik yurituvchi subyektida buxgalteriya hisobini yuritishdagi salbiy holatlarni oldini olish va xato kamchiliklarni aniqlash uchun

50-sonli «Auditorlik dalillar» nomli AFMSdan foydalaniladi va u O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish elementi bo'lib hisoblanadi. Maskur AFMSGa binoan, auditorlik faoliyatining Respublika va xalqaro amaliyotida olinadigan dalillarning yetarlilik darajasini hamda ularni to'plashga nisbatan qo'yilgan talablar belgilangan.

Auditor moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini asoslashi uchun quyidagi amallarni bajarishi natijasida yetarli auditorlik dalillarini to'playdi:

- schyotlar bo'yicha aylanmalar va qoldiqlarning moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirilishini batafsil o'rganish;
- tahliliy amallar;
- ichki nazorat vositalarini ko'rib chiqish va boshqalar.

Auditorlik dalillarni to'plash uchun zarur bo'lgan auditorlik amallari va ularning hajmi audit dasturida ko'rsatiladi.

**Auditorlik dalillar** – bu auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvlar vaqtida to'plangan va auditorlik xulosasini asoslovchi axborot.

Auditorlik dalillar audit qilinayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt va uchinchi shaxslardan olingan axborotlar hamda ularni tahlil qilish natijalari sifatida, moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida auditorlik xulosasini tayyorlashga asos bo'ladi.

Dalillarning yetarliligi ularning miqdori va sifati bilan belgilanadi. U tanlash ko'lami va to'plamdagi muayyan elementlarning tavsifi bilan belgilanadi. Dalillarning yetarliligini aniqlashda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur: mustaqil manbalar (uchinchi shaxslar)dan olingan dalillarning mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlaridan olingan dalillarga nisbatan ishonchliroq ekanligi; auditorlik tashkilotining mustaqil faoliyati yoki tahlili natijasida olingan ma'lumotlarning uchinchi shaxslardan olingan ma'lumotlarga qaraganda ishonchliroq ekanligi; hujjatlar va yozma ko'rsatmalar shaklidagi auditorlik dalillarining og'zaki ko'rsatmalarga qaraganda ishonchliroq ekanligi, shuningdek, turli manbalardan olingan dalillardan foydalanish natijasida qilingan xulosalarni taqqoslash imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

To'plangan dalillar tekshirilayotgan hisobot tuzilgan sanaga qanchalik yaqin bo'lsa, ular shunchalik ishonarli bo'ladi.

Auditda to'planadigan dalillar turli-tuman bo'lib, ular turi, manbasi va olinishiga ko'ra turkumlanadi.

Auditorlik dalillar turlariga ko'ra yozma va og'zaki dalillarga bo'linadi. Yozma ravishda olingan dalillar (hujjatlar va yozma tushuntirishlar) og'zaki shakldagi dalillarga qaraganda ishonchliroq bo'ladi, biroq shuni ta'kidlash kerakki og'zaki dalillar orqali ham muhim va foydali axborotlar shakllanadi.

Hujjatlashtirilgan dalillar moliyaviy hisobotlar va hisob registrlarini to'ldirishga asos bo'lgan dastlabki hujjatlarni o'rganish bilan to'planadi.

Har xil manbalardan olingan va turli shakldagi auditorlik dalillar auditorlik riskini pasaytiradi.

To'plangan auditorlik dalillar buxgalteriya hisobining yo'lga qo'yilishini va ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash to'g'risidagi yozuvlar, bayonnomalar, jadvallar va blankalar shaklida auditorning ishchi hujjatlarida aks ettirilishi kerak. Ishchi hujjatlarda auditorlik amallarining rejalashtirilishi va bajarilishi ham aks ettiriladi. Auditorlik dalillarini to'plash ketma-ketligini quyidagicha:

1. Auditorlik dalillarini to'plashning maqsadi umumiy audit rejasi va dasturidagi jarayonni to'liq, sifatli bajarilishini ta'minlaydi. Shuningdek, tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlaridan kelib chiqqan holda boshqa maqsadlar, jumladan, buxgalteriya hisobini tashkil etishning samaradorligini baholash, to'lov layoqatini, rentabellikni va boshqalarni bashoratlash ham aniqlanishi mumkin.

2. Tanlangan auditorlik amallari 3-sonli «Auditni rejalashtirish» nomli AFMSga muvofiq, mutaxassis tomonidan auditorlik dasturida ko'rsatilishi kerak. Bunda auditor faoliyatida foydalaniladigan aniq auditorlik amallarini va ularni qaysi jarayonda qo'llanilishini belgilashi zarur.

3. Auditorlik dalillarini olish usullari, xususan, qayta hisoblash, inventarizatsiya, xo'jalik muomalalarini hisobga olish qoidalariga rioya qilinishi, tasdiqlash, og'zaki so'rov, hujjatlarni tekshirish, kuzatib chiqish, analitik amallardan keng foydalanishi kerak.

4. Audit uchun axborotlarni to'plash. Buning uchun audit dasturidagi har bir bo'lim bo'yicha normativ-savolnoma va hisob-hisobot ma'lumotlarining zarur ro'yxati tuziladi. Normativ-savolnoma ma'lumotlar ro'yxati asosida shakllantiriladi. Auditor bu ro'yxatni o'rganilayotgan obyektga nisbatan tuzadi. Auditda ishtirok etadigan xodimlar ushbu ro'yxatdagi hujjatlarning mazmuni bilan tanishtirilgan bo'lishlari kerak. Auditni boshlashdan oldin hisob-

hisobot ma'lumotlari — mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektdan talab qilib olinadigan hujjatlar va registrlarning ro'yxati ham tuziladi.

5. Auditorlik amallarni bajarish va audit jarayonida aniqlangan dalillarni bayon qilish. Bu bosqichda auditor auditni rejalashtirish chog'ida belgilangan tanlov hajmidan kelib chiqadi. Aniqlangan tafovutlar ularni aniqlash amallari yoki kodlari va audit jarayonida aniqlangan dalillarning batafsil bayoni ko'rsatilgan holda ishchi hujjatlarda ro'yxatga olinadi. Bayon qilish vaziyatdan kelib chiqqan holda, ixtiyoriy holda bo'lishi mumkin yoki maxsus ishlab chiqilgan ishchi hujjatlar shakllarini to'ldirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

6. To'plangan dalillarni baholash deganda ularning audit maqsadiga erishish va ishonchliligini aniqlashdagi rolini belgilash tushuniladi.

Dalillarni baholashda quyidagilarni aniqlash zarur: manbaning mustaqilligi, olingan dalillar va boshqa ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanish mumkinligi (ya'ni buning qonunga zid emasligi); mazkur dalilning o'rganiladigan obyektga taalluqliligi; tanlash hajmi va metodologiyasi; mazkur dalilning obyekt bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan aloqadorligi; ushbu aloqadorlikning ko'lami va tavsifi; olingan dalillarning keyingi audit jarayonida qo'llanilish imkoniyatlari; aniqlangan tafovutlarning jiddiylik darajasi; olingan dalillar to'plamining samarali qaror qabul qilish uchun yetariligi va h.k.

Auditor auditorlik dalillarini to'plashda har xil usullardan, xususan, mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektning arifmetik hisob-kitoblarini tekshirish (qayta hisoblash), inventarizatsiya, ayrim xo'jalik muomalalarini hisobga olish qoidalariga rioya qilinishini o'rganish, tasdiqlash, xo'jalik yurituvchi subyekt va mustaqil (uchinchi) tomonlar xodimlarini og'zaki so'rovdan o'tkazish, hujjatlarni tekshirish, ko'rib chiqish, tahliliy amallar, muqobil balans tuzish kabilardan foydalanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning arifmetik hisob-kitoblarini tekshirish (qayta hisoblash) da tegishli hujjatlar va buxgalteriya yozuvlarining arifmetik aniqligi auditor tomonidan mustaqil hisob-kitoblarni bajarib o'rganadi.

50-«Auditorlik dalillar» nomli AFMSda qayta hisoblashlar tanlab amalga oshirilishi tavsiya qilingan. Tanlash ko'lami va uning elementlari auditor tomonidan ichki nazorat tizimining ahvolini hisobga olgan holda mustaqil aniqlanadi.

Hujjatlarni rasmiylashtirishdan hisobot tuzilgunga qadar ma'lumotlarni shakllantirish ustidan o'rnatilgan samarali ichki nazorat tizimi (moddiy javobgar shaxslarni o'zaro qarama-qarshi tekshirish, rahbariyat, bosh buxgalter va buxgalterlar tomonidan nazorat) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan arifmetik xatolar oldini olinishi va natijada auditorlik riskini pasaytiradi.

Qo'lda to'ldiriladigan buxgalteriya hisobining hujjatlari va hisob registrlari (ma'lumotnomalar va hisob-kitoblar, kassa hisobotlari, bo'nak hisobotlari, hisoblashuv-to'lov vedomostlari va boshqalar) qayta hisoblashdan o'tkaziladi.

Agar mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektda buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan bo'lsa, dastlabki hujjatlar va hisob registrlaridagi arifmetik hisoblashlarni tekshirish zaruratini oshirib, bu kompyuter dasturlarini ataylab noto'g'ri tuzish va arifmetik xatolarni kompyuter klaviaturasidan noto'g'ri kiritish bilan izohlanadi. Arifmetik hisob-kitoblarni tekshirish kompyuter dasturiga kiritilgan hisob-kitoblar algoritmini nazorat qilishni taqozo etadi. Agar xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya hisobi kompyuterlashtirilgan bo'lsa, hisob-kitoblarni tekshirish ham kompyuterdan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Auditor u yoki bu xo'jalik muomalasining hujjatlar bilan qanday rasmiylashtirilayotganligi va bu ma'lumotlarni hisob registrlarida aks ettirishning ketma-ketligini ham kuzatadi. Bu xo'jalik yurituvchi subyektning ichki nazorat tizimi holatiga, shuningdek, unda buxgalteriya hisobini yuritish tartibiga rioya qilinishini baholashga imkon beradi.

Tasdiqlovchi auditorlik dalillari - hisob-kitob va valuta schyotlaridagi, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, buyurtmachilar, turli debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar schyotlaridagi qoldiqlarning haqqoniyligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olishda foydalaniladi.

50 - AFMSGa muvofiq, auditorlik tashkiloti pul mablag'lari, debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga oladigan qator schyotlarning qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlovchi auditorlik dalillarini mustaqil (uchinchi) tomonlardan yozma ravishda oladi. Hisob-kitob va valuta schyotlaridagi qoldiqlar bank ko'chirmalari bilan, debitorlik va kreditorlik qarzlarning haqqoniyligi esa taqqoslash dalolatnomalari bilan solishtiriladi. Auditor hisob-kitoblarning holati, savdo ishlarining shartlari va shu kabi jarayonlarni tasdiqlovchi ma'lumotlarni olish uchun uchinchi-

boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli tartibda, so'rovnomaga jo'natib murojaat qilishi mumkin.

Ma'lumotlarni tasdiqlash uchun jo'natiladigan so'rovlar mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati nomidan tayyorlanib, unda tasdiqlovchi javobni auditorlik tashkilotiga jo'natish so'raladi. Shunday qilib, mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun uchinchi tomonga jo'natilgan so'rovning yozma tasdig'ini auditorlik tashkiloti oladi.

Zarur hollarda auditorlik tashkiloti tasdiqlatish uchun so'rov jo'natilgan uchinchi tomon bilan bevosita aloqa o'rnatishi ham mumkin.

Agar auditorlik tashkiloti salbiy javob olsa yoki umuman javob olmasa, u holda mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt ma'lumotlarining haqqoniyligini aniqlashtirish uchun qo'shimcha auditorlik amallari qo'llaniladi.

Xodimlardan og'zaki so'rov o'tkazish – audit qilinayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlari yoki uchinchi shaxslar bilan og'zaki muloqat va javoblarni baholash yo'li bilan tasdiqlovchi ma'lumotlarni olish. Mazkur usul auditorga ichki nazorat tizimini baholash, risk chegaralarini aniqlash va auditorlik tenkshiruvining strategiyasini ishlab chiqish chog'ida fikr yuritish uchun keng ko'lamdagi ma'lumotlarni beradi. Mijoz va uchinchi tomon xodimlari hamda rahbariyati orasida so'rov o'tkazish auditning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin.

50-«Auditorlik dalillar» nomli AFMSGa muvofiq og'zaki so'rov natijalari bayonnoma yoki qisqacha konspekt ko'rinishida yozib borilib, unda so'rov o'tkazgan auditorning familiyasi hamda so'ralgan shaxsning nashnomasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Og'zaki so'rovlar o'tkazish uchun har xil muammolar (masalan, ayrim muomalalarni uchastkalar, faoliyat turlari yoki bo'linmalar bo'yicha hujjatlar bilan rasmiylashtirish tartibi va hujjatlar aylanishini baholash) bo'yicha anketalar oldindan tayyorlangan bo'lishi mumkin. Auditorlik tashkilotlari savollar ro'yxati bilan standart testlar tayyorlab, unda so'ralgan shaxslarning javoblari ko'rsatiladi.

Hujjat bilan ishlashda uning kim tomonidan tuzilganligi muhim ahamiyatga ega. Mijoz tomonidan tayyorlangan va ishlov berilgan hujjatlar ichki hujjatlar hisoblanadi. Auditorlik tashkilotiga qay darajada ishonish mijozni bunday hujjatlarni tuzish va ishlov berish ustidan o'rnatilgan ichki nazorat vositalarining ishonchligiga bog'liq. Uchinchi shaxslar tomonidan tayyorlangan va xo'jalik

yurituvchi subyektlarga yuborilgan tashqi hujjatlar ichki hujjatlariga qaraganda ishonchliroq hisoblanadi.

Hujjatlarni o'rganishda ularning o'z vaqtida va aniq rasmiylashtirilganligi, majburiy rekvizitlarning mavjudligi va to'g'riligini aniqlash ham zarur. Auditorlar hujjatlarni o'rganishda ularning buxgalteriya hisobi registrlariga o'z vaqtida, aniq va to'liq aks ettirilishiga ham e'tibor berishlari kerak.

Kuzatib chiqish dastlabki hujjatlardan sintetik va analitik hisob registrlariga, bosh daftarga va hisobotlarga tomon, yoki ko'p hollarda uchraydigan, teskari tomon yo'nalishida amalga oshiriladi. Auditor kuzatib chiqish uchun dastlabki hujjatlarni 14-«Auditorlik tanlash» nomli AFMSGa muvofiq tanlab oladi va jarayonni yo'lga qo'yadi.

## **10.6. Analitik protseduralar (tahliliy amallar)**

Auditorlik tashkiloti mijoz faoliyatini auditi bo'yicha umumiy reja va dasturini ishlab chiqishga kirisharkan, xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risidagi dastlabki bilimlarga va o'tkazilgan tahliliy amallar natijalarini ham inobatga olishi zarur. Chunki tahliliy amallarni o'tkazish yordamida auditorlik tashkiloti audit uchun ahamiyatli bo'lgan jihatlarni aniqlaydi.

Auditorlik tashkiloti tahliliy amallarning murakkabligi, hajmi va o'tkazish muddatlarini xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti ma'lumotlarining hajmi va murakkabligiga qarab o'zgartiradi.

Audit umumiy rejasi va dasturini tayyorlash jarayonida auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyektda amal qilayotgan ichki nazorat tizimining samaradorligini baholaydi va ichki nazorat tizimi xatarini (nazorat xatarini) baholashni amalga oshiradi. Agar ichki nazorat tizimi noto'g'ri axborot paydo bo'lgani to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirsa, shuningdek, noto'g'ri axborotni aniqlasa, uni samarador, deb hisoblash mumkin. Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholar ekan, auditorlik tashkiloti auditorlik isbot-dalillarining yetarli miqdorini to'plashi shart. Agar auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotning ishonchliligi xususida yetarli darajada ishonch hosil qilish uchun ichki nazorat tizimiga va buxgalteriya hisobi tizimiga asoslanishga qaror qilsa, u bo'lg'usi audit hajmini tegishli tarzda tuzatishi kerak bo'ladi.

**Tahliliy amallar** — bu mijoz korxonaning buxgalteriya hisobotlarida ma'lumotlarning auditor tomonidan mushohada qilinishi va o'z fikrini shakllantirishi.

Tahliliy amallar mijoz korxonaning muhim moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini, kutilmagan va buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks ettirilgan xo'jalik muomalalarini aniqlash, shuningdek, bunday xatolar va chalkashliklarning sabablarini aniqlashni nazarda tutadi.

Tahliliy amallar iqtisodiy tahlilning taqqoslash, nisbatlar va koeffitsiyentlarni baholash kabi elementlari hamda usullaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Tahliliy amallarning eng ko'p tarqalgan usuli taqqoslash bo'lib, bunda quyidagilar taqqoslanadi: turli davrlar uchun schyotlardagi qoldiqlar; haqiqatdagi ko'rsatkichlar biznes-reja ma'lumotlari bilan; hisobot moddalarining o'tgan davrlar ma'lumotlari o'rtasidagi nisbat; xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ko'rsatkichlari iqtisodiyotning tegishli tarmog'idagi o'rtacha ko'rsatkichlar bilan va boshqalar.

Masalan, asosiy vositalar qiymatining ko'payishi odatda amortizatsiya summalarining o'zgarishiga ham olib keladi. Nomuvofiqlik aniqlanganda auditor tegishli dalillarni topishi kerak. Jumladan, asosiy vositalar kirimini tekshirib, mijozning bu aktivlarni budjetdan moliyalashtirish hisobiga sovg'a shartnomasi bo'yicha olganligini aniqlandi. Bunday obyektlar bo'yicha esa amortizatsiya hisoblanmaydi. Shunday qilib aniqlangan nomuvofiqlikka auditor tomonidan qoniqarli isbot topilgan. Tahliliy amallar mijoz faoliyati auditi jarayonida va uni yakunlash bosqichida qo'llaniladi.

Haqiqatga yaqin tahliliy amallardan biri balans hisob-kitoblari hisoblanadi. Xususan, auditor tayyor mahsulotlarning hisobda haqqoniy va to'liq aks ettirilishi to'g'risidagi dalil-isbotlarga ega bo'lish uchun tez-tez xomashyolar, materiallar va tayyor mahsulot olinishi balansini tuzadi.

Xomashyo va materiallar balansini tuzish quyidagilarni nazarda tutadi: mahsulotning bir birligi uchun norma bo'yicha sarflangan xomashyo va materiallar, haqiqatda olingan mahsulotlar hisob-kitobi; xomashyo va materiallarni haqiqiy sarfi bilan taqqoslash; xomashyo va materiallarni sarflashda tafovutlarni aniqlash va h.k.

Muqobil balans tuzish — auditorlik ishining muhim elementidir. U auditni boshlashdan oldin sintetik va analitik hisob registrlarining



yoki bosh daftarning ma'lumotlari bo'yicha tuziladi. Natijada auditor tasdiqlanishi kerak bo'lgan muqobil, yangi balansga ega bo'ladi. Agar rasmiy va muqobil balanslar o'rtasida tafovutlar vujudga kelsa, bu tofovutlar mijoz hisobotida bosh buxgalterning ataylab qilgan chalkashliklarini bildiradi.

Bayon qilinganlarni umumlashtirish asosida ta'kidlash zarurki, auditorlik tekshiruvlarining samaradorligi ma'lum darajada auditorlik dalillarni to'plashda qo'llaniladigan usullarni qanday mahorat bilan qo'llashga ham bog'liq.

## **Xulosalar**

Rejalashtirish audit o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanib, audit o'tkazishning kutilayotgan hajmi, jadvallari va muddatlarini ko'rsatgan holda auditorlik tashkiloti tomonidan auditning umumiy rejasini ishlab chiqishdan, shuningdek, auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti to'g'risida xolis va asosli fikr shakllantirilishi uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalarini amalga oshirish hajmi, turlari va izchilligini belgilaydigan auditorlik dasturini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. Audit umumiy rejasini va dasturini tayyorlash jarayonida auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyektida amal qilayotgan ichki audit tizimining samaradorligini baholaydi va ichki audit tizimi xatarini (nazorat xatarini) baholashni amalga oshiradi. Audit dasturi audit umumiy rejasini rivojlantirish hisoblanadi va audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalarini mazmunining batafsil ro'yxatini o'z ichiga oladi. Auditorlik dalillar — bu auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvlar vaqtida to'plangan va auditorlik xulosasini asoslovchi axborot. Auditni rejalashtirish audit o'tkazishning umumiy va xususiy tamoyillari asosida: komplekslik; uzluksizlik; rejalashtirishni maqbullashtirish amalga oshiriladi. Tahlil qilish — bu mijoz korxonada buxgalteriya hisobotida faktlarning auditor tomonidan mushohada qilinishi va o'z fikrini shakllantirishi.

## **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Auditni rejalashtirishning ahamiyati nimadan iborat?
2. Auditning umumiy rejasini qanday tuziladi?
3. Audit dasturining mohiyati nimadan iborat?

4. Auditni rejalashtirishning umumiy va xususiy tamoyillarini aytib bering.

5. Auditorlar guruhiga kiradigan mutaxassislar tarkibi qanday shakllantiriladi?

6. Auditor uchun qaysi hujjatlar xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risida axborot olish uchun manbayi hisoblanadi?

7. Auditorlik dalillar va ularning mazmunini yoriting.

8. Auditorlik tashkilotining ish mezonlarini keltiring.

9. Moliyaviy hisobotning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha jiddiylik darajasi qanday hisoblanadi?

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Auditni rejalashtirish bosqichlari; auditning umumiy rejasi; audit dasturi; rejalashtirishning kompleksligi; rejalashtirishning uzluksizligi; rejalashtirishning maqbulligi; tahliliy amallar; auditni rejalashtirish tamoyillari; auditorlik dalillar; muhimlik; ishonchlilik; auditorlik tashkilotining ish mezonlari; jiddiylik ko'rsatkichlari.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

**1. Quyidagilardan qaysi biri auditorlik dalillar turlariga kiradi?**

A. Og'zaki dalillar.

B. Yozma dalillar.

C. Rasmiy dalillar.

D. A va B javoblar.

**2. Quyida keltirilgan auditorlik dalillaridan qaysi biri ishonchliroq?**

A. Og'zaki dalillar.

B. Hujjatli dalillar.

C. Yozma dalillar.

D. Rasmiy dalillar.

**3. Hisob siyosati to'g'risidagi taqdim etilgan buyruq (farmoyish) auditning qaysi usuliga ko'ra o'rganiladi?**

A. Skanerlashga.

B. Inventarizatsiyaga.

C. Kuzatishga.

D. Test sinoviga.

**4. Quyidagilardan qaysi biri auditorlik dalillarga qo'yilgan talablardan hisoblanmaydi?**

- A. Tahliliy amallar.
- B. Ichki nazorat vositalarini o'rganish.
- C. Aylanmalar va qoldiqlar moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirilishini tekshirib o'rganish.
- D. Amaldagi Nizomlarga muvofiqligini o'rganish.

**5. Qaysi javobda ekspertga to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A. Auditor tashkilotining shtatida turadigan, buxgalteriya hisobi va auditdan boshqa ma'lum sohalarda yetarli darajadagi bilim va tajribaga ega, taalluqli masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan shaxs.
- B. Auditor tashkilotining shtatida turmaydigan, faqat buxgalteriya hisobi sohalarida yetarli darajadagi bilim va tajribaga ega shaxs.
- C. Auditor tashkilotining shtatida turmaydigan, buxgalteriya hisobi va auditdan boshqa ma'lum sohalarda yetarli darajadagi bilim va tajribaga ega, taalluqli masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan shaxs.
- D. Auditor tashkilotining shtatida turadigan, audit sohasi bo'yicha yetarli darajadagi bilim va tajribaga ega shaxs.

## XI mavzu. AUDITORLIK TEKSHIRUVINING YAKUNIY BOSQICHI

---

### 11.1. Auditor axloqi (etikasi)

Auditor (axloqi) etikasi auditorning faoliyatidan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'naviy-axloqiy jihatlarini tavsiflaydi. Barcha axloqiy talablar umuminsoniy negizga ega bo'lishiga qaramasdan ayrim kasb turlari uchun ularning o'ziga xos axloqiy me'yorlari shakllangan. Bunday kasb egalari sohani ham nazariy, ham uslubiy, ham amaliy jihatdan yuksak professional darajada bilishlari bilan birga shakllangan, me'yoriy-huquqiy asosga ega axloqiy jihatlar bilan ham boshqalardan ajralib turadi. Auditorlik faoliyati shunday murakkab kasblardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan auditorlik jamoat tashkilotlari tomonidan «O'zbekiston auditorlarining kasb etikasi kodeksi» loyihasi ishlab chiqilib, unda quyidagi: vijdonlilik va obyektivlik; axloqiy nizolarni hal etish; professional kompetentlilik; maxfiylik; soliq amaliyoti; xalqaro faoliyat; omma uchun axborotni taqdim etish; mustaqillik; kasbiy layoqatlilik va auditor bo'lmagan shaxslardan foydalanishga bog'liq majburiyatlar; shartnoma bo'yicha va komission to'lovlar; auditor amaliyotiga muvofiq kelmaydigan faoliyat; boshqa auditorlar bilan munosabatlar; yangi xodimlarni qabul qilish; reklama va xizmatlarni taklif qilish; manfaatlar nizosi; hamkasblarni qo'llab-quvvatlash; professional kompetentlilik; axborotlarni taqdim etish; intizomiy choralar kabi auditor axloqlariga batafsil to'xtalgan.

Auditor uchun asosiy axloqiy me'yor — mamlakatimizda qabul qilingan qonunlarni ustun qo'yish, ishonchga sazovor aniq dilillarga asoslangan auditorlik xulosasini tuzish, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni tahlil qilib, ularni tuzatish yo'llarini aniqlash, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini yaxshilaydigan tavsiyalarni vijdonan va obyektiv berishdan iborat.

Auditoridan mustaqil bo'lishi talab etilib, auditorlik tashkiloti va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda auditga ta'sir etadigan moliyaviy, qarindosh-urug'chilik yoki shaxsiy tobelik, boshqaruv organlari yoki umumiy loyihalarda qatnashish, buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha oldindan xizmat ko'rsatish kabi sabablar ta'sir ko'rsatadigan

bo'lsa, mutaxassis faoliyatdan voz kechishi zarur va bu uning axloqiy me'yorlaridan biri sanaladi.

Audit o'tkazish yoki professional xizmat ko'rsatishda auditor professional kompetentlikka rioya qilishi talab etiladi. Chunki audit o'tkazish yoki professional xizmat ko'rsatish majburiyatini olgan auditor bu sohada o'zining kompetent<sup>14</sup>ligiga ishonch hosil qilishi kerak. Xususan, o'z majburiyatini vijdonan bajarishi, auditorlik xizmatlarini kafolatlay olishi uchun zamonaviy metodikaga asoslangan va amaldagi barcha me'yoriy hujjatlar qoidalaridan xabardor, yetarli darajadagi bilim va tajribaga ega bo'lishi zarur. Aks holda, auditor audit o'tkazmasligi va professional xizmatlar ko'rsatmasligi, shuningdek, murakkab masalalar yechimida malakali ekspert-mutaxassislarni jalb qilishi kerak. Shu sababdan auditorlar buxgalterlik hisobi, soliqqa tortish, moliyaviy faoliyat va fuqarolik huquqi, buxgalterlik hisobi va auditorlik faoliyatining milliy va xalqaro standartlari, ularga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va o'zgarishlaridan xabardor bo'lib, o'z sohasidagi bilimlarini doimo yangilab, malakalarini oshirib borishlari talab etiladi.

Audit o'tkazish yoki professional xizmat ko'rsatishda auditor halol bo'lishi, jarayonni shaxsiy adovatlarga yo'l qo'ymasdan, xolisona, auditorlik faoliyatining xalqaro va milliy standartlari talablariga rioya qilgan holda olib borishi kerak.

Auditor soliq qonunchiligining barcha jihatlariga qat'iy rioya qilishi zarur. Soliqqa tortish bo'yicha professional xizmat ko'rsatish chog'ida auditor mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt manfaatlarini himoya qiladi. Lekin u mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt soliqni yashirish va soliq organini aldash maqsadida hujjatlarni qalbakilashtirishga yo'l ko'rsatmasligi kerak. Soliq hisob-kitoblari va to'lanishi bo'yicha audit jarayonida aniqlangan barcha xato-kamchiliklar to'g'risida mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt ma'muriyatiga bildirishi zarur.

Auditor faoliyati jarayonida olingan mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati to'g'risidagi barcha axborotlarni u bilan aloqa to'xtatilgan yoki davom etayotganligidan qat'iy nazar cheklanmagan vaqt davomida maxfiy saqlashi kerak. Auditor ushbu axborotlarni o'z foydasi uchun yoki har qanday uchinchi tomon foydasi uchun hamda mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt manfaatlariga zid ravishda

---

<sup>14</sup> Kompetentlik (lot. competens — mos keluvchi, talabga javob beradigan, qobiliyati, bilimdon) - biron bir yo'nalishda keng bilimga va o'z fikriga ega inson sifati.

ishlatishga haqli emas. Auditorlik tashkilotining barcha xodimlari maxfiy axborotlarning saqlanishi uchun javobgar hisoblanadi.

Quyidagi hollarda mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektlarning maxfiy axborotlarni chop etish va boshqa shaklda oshkor qilishi professional etikani buzish hisoblanmaydi:

1. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik Faoliyati Milliy standartlariga rioya qilishda.

2. Sudlashuv jarayonlarida auditorlarning professional manfaatlarini himoya qilishda.

3. Tashkilot, ishtirokchi yoki professional organ tomonidan o'tkazilgan sharhlar sifatining muvofiqligini tekshirishda.

4. Tashkilot, ishtirokchi yoki tartibga soluvchi organ tomonidan o'tkazilgan so'rov yoki tergov jarayonida savollarga javob berishda.

Auditorlik tashkiloti o'z professional xizmatlarining shart-sharoitlari va haq to'lash tartibini mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt bilan oldindan kelishib, shartnomada aks ettirishi zarur. Auditorlik xizmatlari uchun to'lanadigan haq ko'rsatiladigan xizmatlarning hajmi va sifati bilan aniqlanib, ularning murakkabligi, auditorlarning malakasi, tajribasi, professional obro'si va mas'uliyatlilik darajasiga bog'liq. Auditorlik xizmatlarini reklama qilish halol, odob doirasidan chetga chiqmagan, mijozlarni aldash va adashtirish ehtimolidan uzoq bo'lishi zarur.

Auditorlar hamkasblari bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari, ular bilan auditorlik tajribalarini almashishlari, ular faoliyatini asossiz tanqid qilmasliklari lozim. Hamkasblarining kamchiliklarini ko'rsatish faqat do'stona va samimiy tarzda bo'lishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan axloq me'yorlariga rioya qilish auditorlarning yuqori axloqi va professional mas'uliyatlari jamoatchilik fikrida ushbu kasbga hurmat va ishonchni saqlashning obyektiv zarurligi bilan kafolatlanadi.


## **11.2. Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mustaqilligi**

Auditorlik faoliyatida mustaqillik Auditning Xalqaro Standartlari – AXS (ISA)da belgilangan muhim tamoyillardan bo'lib hisoblanadi.

Auditorlarning mustaqilligi auditor tomonidan o'rganilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt bo'yicha moliyaviy yoki mulkiy qiziqishi bo'lmasligi, auditor o'zi egalaridan biri bo'lgan mijoz yoki rahbarlaridan biri bilan qarindoshlik aloqasi bo'lganda uni audit qila olmaydi. Auditor o'z xulosasining mustaqilligi va obyektivligiga hech qanday ikkilanish bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Auditor yoki auditorlik tashkilotining mustaqilligi qator yo‘llar bilan ta‘minlanadi. Jumladan, huquqiy mas‘uliyat, audit standartlariga qat‘iy rioya etish, auditorlarni mijozlar bo‘yicha o‘zgartirib turish, auditorni mulkdorlar tomonidan tasdiqlanishi, audit sifatini doimiy nazorat qilib turish va boshqalar.

Huquqiy muhitning o‘zgarishi, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning auditorlar mas‘uliyatini ko‘proq tushunishi, buxgalteriya hisobi va auditing murakkablashishi auditorning huquqiy mas‘uliyatini oshirishga olib kelmoqda. Shu sababli auditor huquqiy mas‘uliyatga ta‘sir etuvchi quyidagi jihatlarni inobatga olishi kerak. Bu jihatlarning auditorning mustaqilligini ta‘minlovchi asosiy shart bo‘lgan huquqiy mas‘uliyatni oshirish sabablarini ko‘rsatadi (15-chizma).



15-chizma. Auditorning huquqiy mas‘uliyatini oshiruvchi jihatlar

Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektiga nisbatan mustaqilligini belgilovchi asosiy mezonlar «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasida keltirilgan. Jumladan:

1. Audit o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning rahbarlari va (yoki) boshqa mansabdor shaxslari bilan yaqin qarindosh bo'lgan shaxsga.

1. Audit o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektda mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy manfaatlari bo'lgan shaxsga.

2. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, shuningdek, xo'jalik boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga.

3. Audit o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt xodimiga.

4. Auditorlik tashkiloti va auditorlarga:

5.1. O'zlari mulkdori, qatnashchisi, aksiyadori, kreditori, sug'urtalovchisi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan, shuningdek, ushbu auditorlik tashkilotlari va auditorlar ularga nisbatan mulkdor, qatnashchi, aksiyador hisoblanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan;

5.2. Mulkdori, qatnashchisi, aksiyadori ayni bir paytning o'zida ushbu auditorlik tashkilotining mulkdori, qatnashchisi, aksiyadori bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan.

5.3. Mazkur xo'jalik yurituvchi subyektga audit o'tkaziladigan davrda professional xizmatlar ko'rsatganlarga auditni o'tkazish taqiqlanadi.

Audit qilinayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning rahbarlari va (yoki) mansabdor shaxslari bilan yaqin qarindosh, deb ularning ota-onalari, turmush o'rtoqlari, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'il-qizlari hamda turmush o'rtoqlarining ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari tan olinadi.

Agar auditorlik xizmati uchun shartnoma tuzilganidan yoki topshiriq berilganidan so'ng yuqorida keltirilgan holatlar yuzaga kelsa yoki ma'lum bo'lsa, shartnoma bekor qilinishi kerak.

Auditorlar auditni o'tkazish hamda uning natijalari asosida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tuzishda mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektga, shuningdek, istalgan uchinchi tomonlarga, jumladan auditni topshirgan davlat organlariga tobe bo'lmasliklari kerak.

Shuningdek, auditorlik tashkiloti aynan bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini ketma-ket uch yildan ortiq auditdan o'tkazishga haqli emas.



Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining ishonchligini tasdiqlash uchun maxsus ekspertlar va boshqa soha mutaxassislarini jalb qilish talab etilgan hollarda ham auditorlarning mijoz - xo'jalik yurituvchi subyektdan mustaqil bo'lish mezonlariga rioya qilinishi talab etiladi.

### **11.3. Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish**

Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish audit o'tkazish hamda professional xizmat ko'rsatish chog'ida audit standartlari va O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga soladigan boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinishini tekshirish uchun qo'llaniladigan tashkiliy tadbirlar, uslublar va amallar tizimidan iborat.

Qayd etish kerakki, har bir auditorlik tashkiloti ishlari sifati ustidan nazorat o'rnatish qoidalarini ishlab chiqib, qabul qilish va amalda qo'llanilishini ta'minlashi, shuningdek, uni umumqabul qilingan auditning milliy, xalqaro standartlari bilan qarama-qarshiliklari bo'lmasligi zarur.

Auditorlik faoliyatining yuqori sifati uning dastlabki, joriy va keyingi nazoratini ta'minlashi kerak.

Dastlabki nazorat auditorlar va auditorlik tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish hamda litsenziyalash bosqichida bajariladi.

Joriy nazorat ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: alohida auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish va auditning umumiy nazorat qilish.

Alohida auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish: auditorlarning mustaqilligi, professionalligi va kompetentligini ta'minlashni; ularning ishlarini joriy nazorat qilishni; mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektini buxgalteriya hisobining eng muammoli masalalarini bilishi; bajarilgan ishlarning standartlarga mos kelishini, hujjatlashtirishning yetarilishini, audit maqsadiga erishilganlikni tekshirishni nazarda tutadi.

Auditning sifatini umumiy nazorat qilish: auditorning ma'lum shaxsiy xususiyatlariga (halollik, obyektivlik, mustaqillik, professionallik, kompetentlilik); auditorlik guruhi a'zolari o'rtasida ishlarning asosli taqsimlanganligiga; sifat standartlariga rioya qilinishi bo'yicha auditorlarning ishlari ustidan nazoratga; sifatni nazorat qilish siyosati va amallarining samaradorligi ustidan nazorat o'rnatishiga asoslanadi.

Joriy nazorat asosiy auditorning assistentlar ishlari ustidan nazorati, auditorlik tashkilotining auditorlar ishlari ustidan nazorati shakllarida amalga oshiriladi.

Auditorlik tashkilotining auditorlar ishlari ustidan nazorati, birinchidan, tekshiruv o'tkazish dasturining asoslanganligini muhokama qilish, ikkinchidan, auditning tashkiliy-axloqiy tamoyillariga qat'iy rioya qilish, uchinchidan, asosiy auditor tomonidan xulosa berilganidan so'ng auditorlik tashkilotining boshqa auditori tomonidan mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekti hisobotining ayrim ko'rsatkichlari (hisob bo'limlari)ni tanlab qayta audit yordamida amalga oshiriladi.

Auditorlik tashkilotining ish sifatini nazorat qilishga talablar va muayyan auditni o'tkazish davrida faoliyatning talab darajasidaligini ta'minlash 5- «Auditor ishining sifatini nazorat qilish» nomli AFMSda aks ettirilgan. Unga muvofiq auditor ishlarining sifatini nazorat qilish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- auditorning yordamchilari ishlarini nazorat qilishi;
- auditorlik tashkilotining auditor ishi ustidan nazorati;
- tashqi nazorat.

Asosiy auditor audit o'tkazish jarayonida yordamchilari tomonidan bajariladigan ishlarni doimiy ravishda nazorat qilib, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirib turadi.

Auditor yordamchisi, deganda professionallik darajasi bo'yicha asosiy auditoridan farq qiladigan xodim tushuniladi.

Asosiy auditorning yordamchisidan farqi, u auditning bajarilishi uchun to'liq javobgardir.

Asosiy auditorlar yordamchilariga ish topshirayotganida, ularning javobgarliklari va bajarishlari kerak bo'lgan ishlarning maqsadi to'g'risida, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati va auditorlik amallarning mohiyati, auditni o'tkazish vaqti va miqyosiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, hisob va auditga oid muammolar haqida tegishli tarzda tushuntirishlarni berishi kerak.

Auditorlik tashkilotining auditor ishi ustidan nazorati quyidagi vositalarda amalga oshiriladi:

1. Mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektida audit o'tkazishni umumiy rejasi va dasturining asoslanganligini muhokama qilish va tekshirish.

2. Tashkiliy-axloqiy auditorlik tamoyillariga, xususan, mijozga professional xizmat ko'rsatgan, maslahat bergan yoki uning buxgalterlik hisobini yo'lga qo'ygan auditorni, yana o'sha xo'jalik

yurituvchi subyektini tekshirishga yuborilmasligi kabilarga qat'iy rioya qilinishi.

3. Asosiy auditor tomonidan audit o'tkazilib, auditorlik xulosasi berilganidan so'ng auditorlik tashkilotining boshqa auditori tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektini hisobotining ishonchliligini qaytadan, mijoz uchun bepul tekshiruvdan o'tkazish.

Auditor ishlari sifatini nazorat qilish ikkita asosiy yo'nalishga ega:

- ayrim auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish;
- sifatni umumiy nazorat qilish.

Ayrim auditorlik faoliyatlarini nazorat qilish quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi:

1. Vakolatlarni berish. Auditorlarning mustaqilligini, professionaliligini va kompetentligini ta'minlash, auditorlar uchun zarur hisoblangan faoliyat erkinliklarini kafolatlash, auditning yozma dasturidan foydalanishi.

2. Nazorat. Auditorlar ishlarining joriy nazoratini ta'minlash, tegishli tarzda (adekvat) ish tutish uchun xo'jalik yurituvchi subyekt buxgalterlik hisobining eng muammoli masalalarini bilish.

3. Tekshirish. Auditorlar tomonidan bajarilgan barcha ishlarni, ular bajarilishining standartlarga muvofiqligi, hujjatlarning yetarliligi va auditorlik tekshiruvlar maqsadiga erishishni ta'minlash uchun tekshirish.

Audit sifatini umumiy nazorat qilish quyidagi elementlarning mavjudligiga tayanadi:

1. Mustaqillik. Qoida va amallar barcha pog'onalar xizmatchilarining mustaqilligi saqlanganligi haqida asosli ishonchni ta'minlashlari zarur. Ushbu talabni bajarishi uchun auditorlik tashkiloti yilda bir marta o'z mijozlarining ro'yxatini tarqatishi va o'z xizmatchilaridan mustaqillik to'g'risidagi arizani imzolashlarini talab qilishi mumkin.

2. Xizmatchilarga topshiriqlar. Qoida va amallar ishlarning maxsus tayyorgarlik va tajribaga ega shaxslar tomonidan bajarilishi haqida asosli ishonchni ta'minlashlari kerak. Ushbu talabni bajarish uchun auditorlik tashkiloti ishlarni oldindan, o'z xizmatchilari uchun mos topshiriqlarni aniqlay oladigan qilib rejalashtirishi kerak.

3. Konsultatsiyalar. Auditorlik tashkiloti muayyan shaxslar uchun audit, buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotni soliqqa tortish va konsultatsiya xizmatlari kabi sohalarida

tashkilotining eksperti qilib tayinlashi mumkin. Bu jarayonda muayyan shaxslardan kerakli, ishonchli maslahatlar olinadi.

4. **Nazorat.** Qoida va amallar auditorlik tashkilotining joriy faoliyati unda o'rnatilgan sifat standartlariga javob berishi haqida asosli ishonchni ta'minlashlari zarur. Auditorlik tashkilotining nazorat amallarini o'rnatishi uchun javobgarligi, audit o'tkazuvchi, rejalashtirish va shartnoma bo'yicha muayyan majburiyatlarni, bajaruvchi muayyan shaxslar javobgarligidan alohida ajratilgan. Ushbu nazorat talabini bajarish uchun auditorlik tashkiloti barcha ish hujjatlarini, hisobotlarni talab qilishlari va ularni o'rganish uchun tegishli nazorat qiluvchi va texnik xodimlarga taqdim qilishi mumkin.

5. **Ishga yollash.** Qoida va amallar ishga yollangan xizmatchilarning malakali mutaxassislar ekanligi haqida asosli ishonchni ta'minlashlari zarur. Ushbu nazorat talabini bajarish uchun auditorlik tashkiloti minimal malakaviy talablarni o'rnatishi mumkin (masalan, buxgalteriya yozuvlarini buxgalteriya ixtisosligi bo'yicha bilim darajasi yaxshi, o'rtacha yoki o'rtacha bo'lgan kollej bitiruvchisi yuritishi mumkin).

6. **Professionallik darajasini oshirish.** Qoida va amallar auditorlik tashkilotining xizmatchilari o'z xizmat majburiyatlarini bajarishlari uchun yetarli bilimlarga egaligi haqida asosli ishonchni ta'minlashlari zarur. Ushbu talablarni bajarish uchun auditorlik tashkiloti professional ta'limni davom ettirishi va o'z malakasini oshirishni xohlovchi xizmatchilarga yordam ko'rsatish uchun sharoitlar yaratishi mumkin.

7. **Lavozimini ko'tarish.** Qoida va amallar xizmati bo'yicha ko'tarilayotgan xodimlarning yangi lavozim egallashlari mumkin ekanligi haqida asosli ishonchni ta'minlashlari zarur. Ushbu talabni bajarish uchun xodimlarni, ular tomonidan har gal majburiyatlarini bajarganlaridan so'ng baholash va ularning lavozimini hech qanday marta ko'tarishga maslahat berish zarur.

ma'qulligi va ular bilan munosabatlarning va amallar auditorlik tashkiloti rahbariyati xo'jalik yurituvchi subyekt bilan bog'lanib o'sishi ishonchni ta'minlashlari zarur. Auditorlik talabini bajarishi uchun bo'lg'usi mijoz bilan ish bank xodimi, yurist va boshqa shaxslardan

9. Tekshirib (nazorat o'tkazib) turish. Qoidalar va amallar auditor ishlarining sifatini nazorat qilish samarali o'tkazilayotganligi haqida asosli ishonchni ta'minlashlari zarur. Ushbu talabni bajarish uchun har bir xizmatchining majburiyatlarini tanlash, ushbu majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan, boshqa hamkorlar yoki xizmatchilar tomonidan o'tkazilgan bo'lishi kerak. Ma'muriy ishlar va xodimlar yuritadigan ishlarni ham nazorat asosida tekshirilishi zarur. Auditorlik tashkiloti tomonidan nazorat qilib turish natijalarini hujjatlar bilan tasdiqlaydigan tavsiyalar bildirilishi kerak. Hujjatlar shakli va hajmi auditorlik tashkilotining katta-kichikligi, faoliyat ko'rsatuvchi bo'limlar soni, faoliyat tavsifi va boshqa omillarga bog'liq.

Hamkor yoki hamkorlar, xo'jalik yurituvchi subyekt hajmiga ko'ra mazkur auditorlik tashkilotida amal qilayotgan, sifat ustidan nazorat qilish tizimining samaradorligi uchun javobgar bo'lishlari kerak.

Auditor ishlari sifatini nazorat qilish qoidalari hamda amallarining tavsifi va miqyoslari quyidagi shart-sharoitlarga bog'liq:

- auditorlik tashkilotining hajmiga;
- auditorlik tashkiloti xizmatchilari va funksional bo'linmalarining mustaqillik darajasiga;
- amaliy faoliyat mohiyatiga, uning: ochiq aksiyadorlik jamiyatlari auditi; yopiq aksiyadorlik jamiyatlari auditi; buxgalteriya hisobi va xo'jalik faoliyati tahlili sohasidagi xizmatlar; foyda solig'ining hajmini aniqlashga doir xizmatlar; o'zaro audit o'tkazish bo'yicha majburiyatlar kabi komponentlarini e'tiborga olgan holda;
- auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qoidalari va amallarini ishlab chiqish va qo'llash bilan bog'liq bo'lgan, olingan foydaga nisbatan xarajatlar darajasiga.

Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qoidalari va amallarini o'rnatishda auditorlik tashkiloti tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi zarur:

- auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qoidalari va usullarini amalga oshirish bo'yicha malakali xizmatchilar o'rtasida vazifalarini taqsimlash;
- auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qoidalari va amallarini xizmatchilar e'tiboriga yetkazish;
- qoidalar va amallar, ularni qo'llash uslublariga va xizmatchilarga yetkazish amaliyotiga oldingiday mos kelish-kelmasligi.

aniqlash uchun auditor ishlari sifatini nazorat qilish tizimining samaradorligini o'rganish.

Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qoidalari va amallari yozma shaklda ifodalangan bo'lishi shart emas. Ular xodimlarni ishga qabul qilishda og'zaki yetkazilishi va auditorlik tashkilotining umumiy majlisida yilda bir marta takrorlanishi mumkin.

Ayni paytda auditorlik tashkiloti o'z qoidalari va amallarini hujjatlar bilan mustahkamlashi tavsiya qilinadi. Hujjatlashtirish turlari va hajmi, eng avvalo auditorlik tashkilotining hajmi va uning faoliyati xususiyatiga bog'liq.

#### **11.4. Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash**

Auditorlik hisoboti va xulosasini shakllantirish audit rejasi va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati natijalarini umumlashtirish hamda baholash jarayonida vujudga keladi.

Audit natijalarini baholash ishlari asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishchi hujjatlarni sharhlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash;

- aniqlangan kamchiliklarning jiddiylik darajasini baholash;

- auditorlik dalillarning yetarfiligini baholash;

- faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt tamoyili bilan bog'liq omillarni baholash;

- buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish;

- hisobot tuzilganidan so'ng sodir bo'lgan hodisalarni baholash;

- tekshiruv natijalari bo'yicha auditorning mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga taqdim qiladigan yozma axborotini tuzish;

- hisoboti va xulosasini tuzish.

uzatish jarayonida o'rganilayotgan xo'jalik yurituvchi

hujjatlabki hujjatlari, hisob registrlari va hisobotlarida aks

va ma'lumotlar tahlil qilinadi va baholanadi. Faqat

va auditorlar taxmin va hisob-kitoblarga asoslangan

natijalarni baholaydilar.

Ta'kidlash kerakki, tekshiruv natijalari va xo'jalik yurituvchi subyekt mutaxassislarining hisob-kitoblarini baholashda auditorlar ma'lum darajada professional ehtiyotkorlikka rioya qilishlari zarur.

Auditor quyidagi katta nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlarni obyektiv baholashi zarur:

- xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlariga ma'lum bo'lgan, ammo auditor tomonidan ochilmagan xatolarni aniqlash dalillari;
- audit uchun zarur bo'lgan, auditorga o'z vaqtida taqdim qilinmagan dastlabki hujjatlar yoki ma'lumotlarga doir xo'jalik muomalalari;
- mutaxassislarining hisob-kitoblaridagi nomuvofiqliklar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlanib, dalolatnoma va taqqoslash vedomostlari bilan rasmiylashtirilgan, lekin yetarli darajada tahlil qilinmagan va tuzatilmagan katta tafovutlar;
- katta tafovutlarning tasdiqlanmaganligi va auditor so'rovlariga kutilgan javoblar olinmaganligi;
- tekshiruv uchun tanlab olingan, zarur dastlabki hujjatlar yoki tegishli ruxsat etuvchi ko'rsatmalar taqdim qilinmagan xo'jalik muomalalari.

Auditor to'plangan dalillar yetarililigini baholashda ushbu holatlar aniqlangan bosqichni (rejalashtirish, audit o'tkazish) hisobga olishi kerak. Shuningdek, katta xatolar xatarini dastlabki baholash va batafsil tekshirish rejalari ham e'tiborga olinishi kerak.

Agar bunday holatlar rejalashtirish bosqichida aniqlangan va hisobga olingan bo'lsa, unda auditor to'plangan dalillarning yetarililigiga va rejalashtirilgan hamda qo'shimcha auditorlik amallarini bajarishning maqsadga muvofiqligiga baho berishi zarur.

Auditning asosiy bosqichlarini o'tkazish natijalari audit o'tkazishdan qo'yilgan maqsadga erishilganlik darajasini baholagan holda auditorning ishchi hujjatlarida qayd qilinishi kerak. Masalan, audit o'tkazish dasturining «Debitor va kreditor qarzlarini auditi» bo'limi bo'yicha o'tkazilgan audit natijalarini baholashda quyidagi auditorlik amallarini tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Keyingi pul kirimlari va tegishli schyotlar qoldiqlaridan to'langan to'lovlarga doir dastlabki hujjatlarni o'rganish. Auditorlar odatda buxgalteriya balansi tuzilgandan keyin ham amalga oshirilgan to'lovlarni o'rganadi. Bu audit natijalari hisob ma'lumotlarining ishonchliligini joriy majburiyatlarni balansda aks ettirishning to'liqligi va haqqoniyligini baholashga imkon beradi. Ushbu

amallarni bajarish natijasida joriy majburiyatlar to'liq va haqqoniy aks ettirilganligi to'g'risida olingan dalillar, buxgalteriya hisoboti tuzilganidan so'ng to'langan qarzlarga nisbatan yetarli darajada, deb baholanishi mumkin. Shundan so'ng auditor to'lovi tasdiqlangan va tasdiqlanmagan qarzlarning summalari hajmini baholaydi.

2. Schyotlarni buxgalteriya hisoboti tuzilganidan so'ng tayyorlangan moddiy javobgar shaxslar hisobotlari bilan, hisob ma'lumotlari bo'yicha qoldiqlarni taqqoslash. Buxgalteriya hisoboti tuzilgan kundan oldin olingan barcha schyotlar (yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun) joriy davrdagi hisobda aks ettirilishi kerak. Shuning uchun buxgalteriya balansini tuzilgan sanadan so'ng tayyorlangan materiallar harakati to'g'risidagi hisobotlar va schyotlardagi sanalar, mulklar va majburiyatlarning balansda to'g'ri aks ettirilganligini o'rganish maqsadida taqqoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi;

3. Mavjud qoldiqlarni schyot-fakturalar ma'lumotlari, moddiy javobgar shaxslar hisobotlari va to'lov hujjatlari bilan solishtirish. Agar debitor va kreditor qarzlarning hajmi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli uchun sezilarli darajada ta'sir etsa, auditorlar ularni hisobga olishning to'g'riligi va aniqligini o'rganishi, shuningdek, hisob ma'lumotlari bo'yicha majburiyatlarning oshirib ko'rsatilmaganligini aniqlashi zarur. Bu holda dastlabki hujjatlar ma'lumotlarini analitik hisob registrlari (jurnallar, oborot yoki saldo vedomostlari)da aks ettirilgan axborotlar bilan, oldin eng katta qoldiqlaridan boshlab (chunki ular bo'yicha oshirib ko'rsatish ehtimoli ko'proq) solishtiriladi. Olingan ma'lumotlar bo'yicha hisob yozuvlarida (masalan, bitta schyotni hisob registrida ikki marta aks ettirish va shunga o'xshash) majburiyatlar (debitor va kreditor qarzlari)ni oshirib ko'rsatilish holatlarining katta-kichikligini baholash zarur.

4. Mol yetkazib beruvchilar va boshqalar bilan hisob-kitoblarni tasdiqlash. Audit o'tkazish chog'ida bunday tasdiqni olish majburiy emas. Lekin ushbu amal ko'pchilik hollarda katta naf keltiradi. Chunki mol yetkazib beruvchilardan olingan javoblar quyidagilarni tasdiqlashda foydalanilishi mumkin:

- mol yetkazib beruvchilar bo'yicha debitor qarzlarning asosli da'vosi hisoblanadi;

- buxgalteriya hisobi ma'lumotlari mol yetkazib beruvchilarga barcha mavjud qarzlarni o'zida aks ettiradi;



- sotib olingan moddiy resurslar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar tegishli hisobot davrida aks ettirilgan. Bunda audit o'tkazish chog'ida mol yetkazib beruvchilar va boshqalardan tasdig'ini olish zarurligi to'g'risida guvohlik beradigan omillarni belgilab qo'yish kerak: xaridlarni ichki nazorat qilish tuzulmasining bo'shligi; moliyaviy muammolar; tovar-moddiy boyliklar bo'yicha qoldiqlar chiqarishda yoki qarzdorlarni tekshirishda yo'l qo'yilgan xatolar to'g'risidagi dalillar; bir necha mol yetkazib beruvchilardan qilingan katta xaridlar; xaridlar to'g'risidagi hujjatlarning moliyaviy hisobotlar tuzish sanasiga tayyorlanmaganligi va boshqalar. Tasdiqlash ishlarining natijalarini umumlashtirib, eng avvalo, ularning ishonchliligini baholash zarur.

Yozma shaklda olingan dalillarni eng ishonchli, deb tan olish qabul qilingan. Yozma tasdiqlarning ishonchliligi ularning to'g'ri rasmiylashtirilishiga bog'liq. Tasdiqlar ishonchliligining tahlilidan kelib chiqib, tasdiqlangan va tasdiqlanmagan summalarning hajmi, shuningdek, majburiyatlarning ishonchliligi to'g'risida auditor fikrini shakllantirish uchun olingan dalillar yetariligi baholanadi.

5. Debitor va kreditorlik qarzlarning analitik hisobi ma'lumotlarining tengligini tekshirish. Dastlabki hujjatlarni tekshirib chiqish yoki debitor va kreditorlik qarzlarni tasdig'ini olish munosabati bilan auditorlar hisob-kitoblarni hisobga oladigan analitik hisob registrlarini tekshirib chiqishi hamda ularni Bosh daftar ma'lumotlari bilan taqqoslashi kerak. Hisob-kitob muomalalari hisobga olinadigan schyotlarni tahlil qilishda quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- mol yetkazib beruvchilar schyotlari bo'yicha debet qoldiqlar;
- mansabdor shaxslar, direktorlar, raislar, sho'ba va tobe xo'jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa o'zaro bog'liq tomonlardan qarzlarni summalari;
- mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarga doir haddan tashqari katta tuzatishlar;
- da'vo muddati o'tib ketgan yoki o'tayotgan to'lanmay qolgan schyot-fakturalar.

Barcha belgi qo'yilgan summalar yakuniy ishchi hujjatlarini tayyorlashda tahlil qilinishi va hisobga olinishi kerak. Ushbu ishlarining natijalarini boshqa olingan dalillar bilan taqqoslash maqsadga muvofiq. Masalan, da'vo muddati o'tib ketayotgan to'lanmay qolgan schyotlar va mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debet qoldiqlarning aniqlangan summalariga ma'lumotlar muvofiqligi to'g'risida tasdiq olinishi mumkin. Bu

holda auditor analitik hisob ma'lumotlarining ishonchliligi haqida yetarli dalillarga ega bo'ladi.

Agarda olingan tasdiqlar natijalariga ko'ra mol yetkazib beruvchi va boshqalarda bunday qarzdorlikning yo'qligi aniqlansa, auditor tegishli hisob ma'lumotlarini ishonchsiz, deb baholashi mumkin.

Hisob registrlari ma'lumotlarini Bosh daftar bilan taqqoslash, mijoz tomonidan vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan nazorat tadbiri bo'lib hisoblanadi. Qoidaga ko'ra auditorlar aniqlangan g'ayrioddiy summalarni tahlil qiladi, jami summalarni qayta jamlab chiqadi.

### **11.5. Auditorlik hisoboti va uni tuzish tartibi**

Auditning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, umumlash-tirilgan va baholangan audit natijalarini kamida ikkita hujjat bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir:

- audit haqidagi shartnomada ko'zda tutilgan davr ichidagi xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyatini auditdan o'tkazish to'g'risida hisobot;

- buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi.

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuniga binoan, auditorlik hisoboti auditning borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoida buzarliklar to'g'risidagi to'liq, aniq ma'lumotlardan, shuningdek, audit o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan va xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdoriga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishiga yo'llangan hujjat.

70-AFMS «Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risida auditorlik xulosasi» nomli standartga muvofiq auditorlik hisobotining tarkibi quyidagicha:

- nomi («Auditorlik hisobot» yoki «Auditorlik tashkilotining hisoboti» degan har ikkala nom bir xil ma'noga ega);

- adresat nomi;

- kirish qismi;

- tahlil qismi;

- yakuniy qism.

Auditorlik hisoboti moliyaviy hisobotni auditdan o'tkazgan auditorlar tomonidan betma-bet imzolanishi kerak. Auditorlik

hisoboti auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga, buyurtmachining barcha zarur rekvizitlari ko'rsatilgan holda jo'natiladi.

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkilotining rekvizitlari, shu jumladan, auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditda qatnashgan boshqa shaxslar haqida ma'lumotlar hamda auditni o'tkazish uchun asos va xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining umumiy tavsifi ko'rsatiladi.

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi auditorlik faoliyati milliy standartiga tayanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektida ichki nazoratning ahvolini tekshirish natijalari (batafsil bayoni);

- buxgalteriya hisoboti va moliyaviy hisobotning ahvolini o'rganish natijalari;

- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya qilinishini o'rganish natijalari;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini o'rganish natijalari;

- aktivlar (mablag'lar) saqlanishini o'rganish natijalari.

Xo'jalik yurituvchi subyektidagi ichki nazoratning ahvolini o'rganish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ichki nazorat tizimi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati tavsifi va miqyoslariga mos kelishini umumiy baholash;

- audit davrida aniqlangan, ichki nazorat tizimining xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining tavsifi va miqyoslariga mos kelmaslik holatlarini bayon qilish.

Xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini auditi natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- buxgalteriya hisobining yuritilishi va moliyaviy hisobotni tuzishning belgilangan tartiblarga mosligini baholash;

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini auditdan o'tkazish jarayonida aniqlangan sezilarli kamchiliklarni bayon qilish.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining qonunchilikka mos kelishini baholash;

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik muomalalarini auditdan o'tkazish jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklarni bayon qilish.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini auditi natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzilgan, tegishli organlarga taqdim qilingan hisob-kitoblarning to'g'riligini baholash;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisoblashning belgilangan tartibi buzilishini, soliqqa tortiladigan bazani aniqlashdagi xatolarni bayon qilish.

Aktivlar saqlanishini o'rganish natijalarini ularni inventarizatsiyasiga asoslanib, haqiqatda mavjudligi hamda butligi to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismida - aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha auditorlik tashkilotining tavsiyalari hamda xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha maslahatlari va takliflari aks ettiriladi.

70-AFMSGa muvofiq auditorlik tashkiloti tuzilgan auditorlik hisoboti uchun qonunchilikka muvofiq javobgar hisoblanadi. Shuningdek, auditorlik hisobotidagi axborotlar maxfiy hisoblanadi va uni oshkor etish mumkin emas. Ushbu axborotlarga aloqador shaxslar ma'lumotlarni oshkor qilganligi uchun qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Audit natijalari asosida tuzilgan hisobotda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati va uning umumiy natijalari, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishning holati, iqtisodiy tahlil ishlarining darajasi hamda tegishli xodimlarning tavsifi aks ettiriladi. Auditorlik hisoboti - xo'jalik yurituvchi subyektining istiqboldagi faoliyatini aks ettirib, uning holatiga sun'iy baho berishdan yiroq bo'lishi talab etiladi.

Auditor hisobotida jarayonda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan takliflarini bo'lishi kerak. Biroq bu takliflar xo'jalik yurituvchi subyektning dastlabki buxgalteriya hisobi hujjatlarini, hisob registrlari va buxgalteriya hisobotlaridagi xatolarni qalbakilashtirilishiga qaratilgan bo'lishi kerak emas. Ta'kidlash kerakki, auditorlarga audit xulosasini buzib, mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt uchun manfaatli qilib berishga majburlash, ruhiy, jismoniy yoki boshqa tazyiqlar o'tkazishga qonuniy yo'l qo'yilmaydi.

Auditor aniqlangan xato yoki kamchiliklar to'g'risida xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga ma'lumot kiritib, ularni bartaraf yetish bo'yicha aniq tavsiyalarni beradi.

Agar buxgalteriya hisobini yuritish, tegishli hisobotlarni tuzish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklar audit o'tkazish chog'ida buyurtmachi xo'jalik yurituvchi subyekti tomonidan tuzatilmasa, buxgalteriya hisobotining ishonchliligini tasdiqlash mumkin emasligi to'g'risida audit xulosasida bayon beriladi.

## **11.6. Auditorlik xulosasi va uni tuzish tartibi**

Audit xulosasi buxgalteriya hisobotining tarkibiy qismi bo'lib, undan foydalanuvchilar uchun ushbu hisobot ma'lumotlarining ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar auditorlik xulosasida bayon qilingan fikrga tayanib, auditorga yoki auditorlik tashkilotiga ishonch bildiradi. Ushbu ishonch auditor tomonidan bajarilgan ishning sifati bilan qo'lga kiritiladi va oqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunida belgilanishicha, auditorlik xulosasi - moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikrini yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat.

Auditorlik xulosasi auditorlik hisoboti asosida tuziladi.

Auditorlik xulosasi auditor (auditorlar), auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan va auditorlik tashkiloti muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Auditorlik tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladigan auditorlik xulosasini tayyorlash ishlarida auditorlik faoliyatining milliy standartlari qoidalarining talablarini inobatga olish zarur. Auditorlik xulosasini tayyorlashda asosan 70-AFMS «Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risida auditorlik xulosasi» nomli standartidan foydalaniladi.

Audit natijalari xo'jalik yurituvchi subyektdagi jarayonlar va moliya-xo'jalik faoliyati natijalarini tashkil etish va hisobga olishni xolisona aks ettirishi zarur.

Davlat organlari topshirig'iga binoan o'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha tuzilgan auditorlik xulosasi O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligiga muvofiq tayinlangan ekspertiza xulosasiga tenglashtiriladi.

Auditorlik xulosasi uchta: kirish, ta'kidlovchi va yakunlovchi qismdan iborat bo'lishi kerak.

1. Auditorlik xulosasining kirish qismida auditdan o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar ro'yxati, sanasi va hisobot davri ko'rsatilgan holda aks ettirilishi kerak. Shuningdek, kirish qismida auditdan o'tkaziladigan hisobotning tayyorlanishi va ishonchliligi uchun ma'suliyat xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yuklatilishi, mazkur moliyaviy hisobot bo'yicha berilgan auditorlik xulosasi uchun esa auditorlik tashkiloti javobgar ekanligi ko'rsatilishi zarur.

2. Auditorlik xulosasining ta'kidlovchi qismida auditorlik xulosasi AFMSga muvofiq o'tkazilganligi ta'kidlanishi zarur.

Ta'kidlovchi qism moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning ishonchliligini va qonunchilikka hamda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining haqiqiy ahvoriga muvofiqligini baholashini ko'rsatishi kerak. Shuningdek, ta'kidlovchi qismda o'tkazilgan auditga fikr bildirish uchun yetarli asos berishi to'g'risida auditorlik tashkilotining tasdig'i aks ettirilishi zarur.

3. Auditorlik xulosasining yakunlovchi qismida xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya hisobotlari ishonchliligi va qonunchilikka muvofiqligini tasdiqlash to'g'risida bayon beriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faqat auditorlik xulosasining yakuniy qisminigina manfaatdor shaxslarga taqdim qilishi lozim. Shu munosabat bilan auditorlik xulosasining tahliliy qismi va yakuniy qismi alohida imzolanishi va muhrlanishi mumkin. Auditorlik xulosasining ikkita turi mavjud: a) ijobiy auditorlik xulosasi; b) salbiy auditorlik xulosasi.

Ijobiy auditorlik xulosasida buxgalteriya hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi auditor tomonidan tasdiqlanadi. Qoidaga ko'ra ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holati va sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini ishonarli aks ettiradi, degan fikrga kelingan vaqtda tuzilishi kerak.

Salbiy auditorlik xulosasi moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyektining moliyaviy ahvoli to'g'risida ishonarli ma'lumot bermagan va buxgalterlik hisoboti hamda uning moliya-xo'jalik

faoliyati hisobi amaldagi me'yoriy qonunchilik talablariga mos kelmagan holda yuritilgan vaqtda tuziladi. Bunday xato-kamchiliklar o'z vaqtida tuzatilmasa, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin.

Salbiy auditorlik xulosasi tuzish auditorlik amaliyotida kamdan kam uchraydigan holat bo'lib, bunga quyidagi muayyan vaziyatlar sabab bo'lishi mumkin:

- auditor tomonidan aniqlangan buxgalteriya hisobotidagi xato-kamchiliklar jiddiy va salmoqli bo'lgan holatlar; ayrim mijoz-xo'jalik yurituvchi subyektlarda bunday holatlar ularning iqtisodiy nochorligi bilan birgalikda prinsipining buzilishiga olib boradi;

- moliyaviy hisobotni tasdiqlash uchun zarur bo'lgan dastlabki hujjatlar, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va hisob registrlari hamda boshqa hujjatlarning katta qismi xo'jalik yurituvchi subyekti ma'muriyati tomonidan taqdim etilganda; bunda auditorlik tashkiloti vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan holda 70-AFMSga muvofiq auditorlik xulosasini tuzishdan voz kechishi ham mumkin;

- ijobiy auditorlik xulosasi tuzishga to'sqinlik qiladigan boshqa obyektiv vaziyatlar;

- mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt ma'muriyati moliyaviy hisobot ma'lumotlarini asosan to'g'ri, deb auditorlik xatolar va noaniqliklar to'g'risidagi asosiy xulosalari bilan rozi bo'lmasdan, tegishli hisob yozuvlarini tuzatishni batamom rad etish holatlari va hakoza.

Salbiy auditorlik xulosasi xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sodir etilgan moliyaviy va xo'jalik muomalalari moliyaviy hisobotda ishonarli aks ettirilgan, ammo qonunchilikka mos kelmaydigan hollarda ham tuziladi.

Salbiy auditorlik xulosasini tuzishga, qoidaga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tashkiloti tomonidan aniqlangan xato-kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida moliyaviy hisobotga o'zgartishlar kiritish to'g'risida bildirilgan fikrga noroziligi sabab bo'ladi.

Auditorlik tekshiruv natijasida aniqlangan xato-kamchiliklar xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan tuzatilganda salbiy auditorlik xulosasi tuzilmaydi.

Auditor buxgalteriya hisobi va hisobotining sifati to'g'risida ishonch bilan auditorlik xulosasi tuza olish uchun yetarli darajada ishonchli dalillar to'play olmagan vaqtda xulosa tuzmaydi. Bunday holat audit hajmining cheklanganligi oqibatida moliyaviy hisobot

to'g'risida fikr bildirish uchun auditorlik dalil-isbotlar yetarli bo'lmaganida yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shartnoma tuzuvchi auditorlik tashkiloti va mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt tadbirkorlik subyektlari sifatida teng huquqli bo'lsa ham maqomi bo'yicha teng bo'la olmaydilar, chunki auditorlik tashkiloti o'rganiladigan xo'jalik tizimini nazorat qiladi. Bundan mijoz-xo'jalik yurituvchi subyekt ma'muriyati auditorlik tashkilotining xulosa tuzishdan voz kechish ehtimoli oldindan aniqlanib qo'yilishiga rozi bo'lishi kerak, degan xulosa kelib chiqishi mumkin. Umuman olganda, bunday ehtimollik juda kam uchraydi, ammo qonunchilikda belgilab qo'yilgan.

Auditorlik xulosasi tuzishdan voz kechish ayrim maxsus hollarda yuzaga keladi. Bular - auditor mustaqilligini yo'qotishi, balans tuzilgan sanadan keyigi sodir bo'lgan jiddiy hodisalar yoki vaziyatning noaniqligi, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan yoki ayrim murakkab vaziyatlar tufayli audit o'tkazish sohasining cheklab qo'yilishi.

Auditorning xulosa tuzishdan voz kechishi yozma ravishda, 70-AFMSda ko'rsatilgan shakl bo'yicha rasmiylashtirilib, uning mazmuni juda ham puxta asoslangan bo'lishi lozim.

Audit hajmining cheklanganligi - bu xo'jalik yurituvchi subyekt vakillari yoki uchinchi shaxslarning boshlab qo'yilgan auditorlik tekshiruvini auditor auditorlik xulosasi tayyorlash uchun yetarli, deb hisoblaydigan hajmda o'tkazishga to'sqinlik qilishga qaratilgan ochiqdan-ochiq ko'rsatadigan xatti-harakatlari yoki harakatsizligidir.

Auditorlik xulosasi tuzishdan voz kechish ariza ko'rinishida bo'lib, «Auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasi tuzishdan voz kechish to'g'risidagi arizasi» deb nomlanadi.

Agar salbiy xulosa tuzilsa yoki xulosa tuzilmasa, auditor ta'kidlovchi qismda tekshiruv natijalarini, aniqlangan amaldagi qonunchilik buzilishi faktlarini va korxonada faoliyatidagi boshqa kamchiliklarni batafsil bayon qiladi.

Auditorlik xulosasi kamida uch nusxada tuzilib, uning ikki nusxasi audit buyurtmachisi, ya'ni korxonada rahbariyatiga taqdim qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar audit yakunlanganidan so'ng 15 kun ichida auditorlik xulosasining bir nusxasini o'zlari joylashgan hududdagi soliq organiga taqdim qiladilar.

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lib, unda auditorning ikkilanish va (yoki) noroziligidan



kelib chiqqan cheklashlar aniq ko'rsatilishi lozim. Auditorlik xulosasi barcha moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar olish imkoniga ega bo'lgan ochiq axborot hisoblanadi. Auditorlik xulosasi tegishli moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan chop ettirilishi mumkin.

Agar ko'rsatilgan kamchiliklar buxgalteriya hisobotining haqqoniyligiga ta'sir qilmaydigan bo'lsa, auditor xulosa tuzishga kirishadi. Aks holda auditor buxgalteriya hisobining yuritilishi va xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim qilingan hisobotlar to'g'riligini tasdiqlashdan bosh tortishi kerak. Faqat ko'rsatilgan kamchiliklar tugatilgandan so'nggina tekshiruvlarni yakunlashi va ularning natijalari bo'yicha xulosa tuzish mumkin. Buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishdagi kamchiliklarni tugatish uchun xo'jalik yurituvchi subyektga berilgan vaqt, odatda, agar bunday ishlarining jiddiyligi va sermehnatligi real baholansa, ikki — uch oydan oshmasligi zarur.

Auditorga barcha zarur ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilmagan yoki buzib ko'rsatilgan holda taqdim etilganligini u bilmagan bo'lsa, bunga auditor javobgar hisoblanmaydi. Bu hollarda barcha javobgarlik zarur ma'lumotlarni auditorga taqdim etishi kerak bo'lgan, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt ma'muriyati va uning ma'sul xodimlariga yuklatiladi.

Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari va moliya-hisob xizmati xodimlari oldindan, auditorlik xulosasini oxirgi tahrirda tuzgunga qadar tanishib chiqishlari, agarda ularda ayrim holatlarga nisbatan norozilik, mulohaza yoki qandaydir takliflari bo'lsa, ushbu bildirilgan fikrlar diqqat bilan eshilib, xodimlari ishtirokida muhokama qilinishi va asoslangan holda chiqarib tashlanishi yoki e'tiborga olinib, xulosaning oxirgi tahririda inobatga olinishi kerak.

Auditda noqonuniy holatlar aniqlanmagan bo'lsada, xulosalarni ochiqdan-ochiq yoki niqoblangan ishoralar bilan shakllantirish mumkin emas. Ammo, shunga qaramasdan xo'jalik yurituvchi subyekt ishida suiste'mol hollari uchrasa, sudlov-tergov tashkilotlari tomonidan chuqur tekshirilib, ular ochib tashlanadi. Ta'kidlash kerakki, auditor xulosada faqat qo'l ostidagi hujjatlar yoki aniq formulalar, retsepturalar, normalar, limitlar va boshqa ma'lumotlarga asoslangan, benuqson, aniq hisob-kitoblar bilan tasdiqlangan dalillarni keltirishi kerak.

Audit yakunlanganidan so'ng barcha materiallar (ishchi va analitik jadvallar, hisob-kitoblar, auditorlik tekshiruvi va xulosalar hamda ekspertiza dalolatnomalarining birlamchi nusxalari, hisob

xodimlari, moddiy javobgar shaxslar va boshqalarning tushuntirish xatlari) har bir tekshirilgan xo'jalik yurituvchi subyekt uchun maxsus ochilgan papkalarda saqlanishi kerak.

Navbatdagi auditdan oldin ushbu materiallar audit eng boshidan aniq maqsadga yo'naltirilgan va samarali bo'lishi, buning ustiga uni mazkur xo'jalik yurituvchi subyektning o'rganishdan oldin ishtirok etmagan yangi mutaxassislariga yaqindan yordam berishi mumkin.

Bulardan tashqari, oydinlashtirilishi kerak bo'lgan ayrim savollar yoki o'rganilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan da'volar (masalan, auditorlar tomonidan mijoz-korxonaning hisob va hisobotlarini tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa aniqlanganda) paydo bo'lishi mumkin. Bunday hollarda haqiqatni qaror toptirish uchun auditorlik hisoboti va xulosasidagi ishchi materiallarga murojaat qilinadi.

Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi uchun javobgarlik. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunga muvofiq auditorlik tekshiruvini o'tkazmay tuzilgan yoxud auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha tuzilsada, lekin auditorlik tekshiruv davomida auditor (auditorlar) tomonidan olingan va o'rganilgan xo'jalik yurituvchi subyekt hujjatlari mazmuniga muvofiq bo'lmagan auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan soxta tuzilgan hisoblanadi.

Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan soxta tuzilganligi auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyaning amal qilishini belgilangan tartibda tugatishga, shuningdek, aybdor shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi. Auditning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, umumlashtirilgan va baholangan tekshiruv natijalarini kamida ikkita hujjat bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir: audit haqidagi shartnomada ko'zda tutilgan davr ichidagi xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish to'g'risida hisobot; buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi.

## **Xulosalar**

Auditorlar auditorlik tekshiruv o'tkazish hamda uning natijalari asosida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzishda tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi subyektga, shuningdek, istalgan uchinchi tomonlarga, jumladan tekshiruv o'tkazishni topshirgan davlat organlariga tobe bo'lmasiliklari kerak. Mijoz xo'jalik yurituvchi subyektlarning maxfiy axborotlari: O'zbekiston Respublikasi Auditorlik

Faoliyati Milliy standartlariga; sudlashuv jarayonlarida auditorlarning professional manfaatlarini himoya qilishda; tashkilot, ishtirokchi yoki professional organ tomonidan o'tkazilgan sharhlar sifatining muvofiqligini tekshirishda; tashkilot, ishtirokchi yoki tartibga soluvchi organ tomonidan o'tkazilgan so'rov yoki tergov jarayonida savollarga javob berishda oshkor qilinishi professional etikani buzish hisoblanmaydi. Audit sifatini umumiy nazorat qilish quyidagi elementlarning mavjudligiga tayanadi: mustaqillik; xizmatchilarga topshiriqlar konsultatsiyalar; nazorat; ishga yollash; professionallik darajasini oshirish; lavozimini ko'tarish; mijozlarning ma'qulligi va ular bilan munosabatlarning davomiyligi; tekshirib (nazorat o'tkazib) turish. Auditorlik hisobotini va xulosasini shakllantirish audit rejasi va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish hamda baholash jarayonida vujudga keladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt faqat auditorlik xulosasining yakuniy qisminigina manfaatdor shaxslarga taqdim qilishi lozim. Shu munosabat bilan auditorlik xulosasining tahliliy qismi va yakuniy qismi alohida imzolanishi va muhrlanishi mumkin. Auditorlik xulosasining ikkita turi mavjud: a) ijobiy auditorlik xulosasi; b) salbiy auditorlik xulosasi. Ijobiy auditorlik xulosasida buxgalterlik balansi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi auditor tomonidan tasdiqlanadi. Qoidaga ko'ra ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holati va sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini ishonarli aks ettiradi, degan fikrga kelingan vaqtda tuzilishi kerak. Salbiy auditorlik xulosasi moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyektining moliyaviy ahvoli to'g'risida ishonarli ma'lumot bermagan va buxgalterlik hisoboti hamda uning moliya-xo'jalik faoliyati hisobi amaldagi me'yoriy qonunchilik talablariga mos kelmagan holda yuritilgan vaqtda tuziladi. Bunday xato-kamchiliklar o'z vaqtida tuzatilmasa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Auditorning mustaqilligi to'g'risida fikrlaringizni bayon eting.
2. Auditorning kasbiy etikasi va u to'g'risida tushuncha bering.
3. Qaysi vaqtlarda auditorlik maxfiylik sirini oshkor qilish audit etikasini buzish hisoblanmaydi?

4. Audit sifatini umumiy nazorat qilish qaysi elementlarga tayanadi?

5. Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash qaysi hujjatlar yordamida amalga oshiriladi?

6. Auditorlik hisoboti qanday tuziladi?

7. Auditorlik hisobotining tarkibi qanday?

8. Auditorlik xulosasi qanday tuziladi?

9. Auditorlik xulosasining qanday turlari mavjud?

10. Auditorlik xulosasiga qo'yilgan talablar va ularni izohlang.

11. Ijobiy auditorlik xulosasi va uning mazmunini aytib bering.

12. Salbiy auditorlik xulosasi va uning oqibatlarini izohlang.

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Auditor mustaqilligi; kasb etikasi; maxfiylik; mustaqillik; xizmatchilarga topshiriqlar; konsultatsiyalar; nazorat; ishga yollash; professionallik darajasini oshirish; lavozimini ko'tarish; mijozlarning ma'qulligi va ular bilan munosabatlarning davomiyligi; tekshirib (nazorat o'tkazib) turish; auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish; auditorlik hisoboti; auditorlik xulosasi; ijobiy auditorlik xulosasi; salbiy auditorlik xulosasi; auditorlik xulosasini berishdan bosh tortish.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

**1. Auditorlik hisobotini va xulosasini shakllantirish qaysi jarayonda vujudga keladi?**

A. Audit rejasining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida.

B. Audit dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida.

C. Audit rejasi va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish jarayonida.

D. Audit rejasi va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida.

**2. Auditor qaysi hollarda katta nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlarni obyektiv baholashi shart emas?**

A. Audit uchun zarur bo'lgan, auditorga o'z vaqtida taqdim qilinmagan dastlabki hujjatlar yoki ma'lumotlarga doir xo'jalik muomalalari mavjud bo'lganda.

B. Mutaxassislar hisob-kitoblarida nomuvofiqliklar bo'lganda.

C. Inventarizatsiya natijasida aniqlanib, dalolatnoma va taqqoslash vedomostlari bilan rasmiylashtirilgan, lekin yetarli darajada tahlil qilinmagan va tuzatilmagan katta tafovutlar bo'lganda.

D. Katta tafovutlarning tasdiqlanmaganligi va auditor so'rovlariga kutilgan javoblar olinmaganida.

## XII mavzu. AKTIVLAR AUDITI

---

### 12.1. Aktivlar auditini tashkil etish bosqichlari

Aktivlar auditini xo'jalik subyektlari faoliyati auditining muhim qismi bo'lib, aktivlarga egalik qilish huquqining paydo bo'lishi (sotib olish, ta'sischi tomonidan kiritilishi, hadya qilinishi, qarz evaziga olinishi va h.k.), ulardan foydalanish, ishchi holatda tutib turish, saqlash, egalik huquqining bekor bo'lishini aks ettiruvchi barcha jarayonlarni amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan talablar darajasida rasmiylashtirilganligini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladi. Audit davomida aktivlarning mavjudligi, saqlanishi, harakatiga doir hujjatlarning shakllantirilishi, ularga doir barcha muomalalarning buxgalteriya hisobvaraqlarida o'z vaqtida va to'liq aks ettirilganligiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Aktivlar auditida quyidagi holatlar inobatga olinishi zarur:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosati mavjudligi.
2. Aktivlar inventarizatsiyasi va uning natijalari bilan tanishish.
3. Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga binoan aktivlarning qiymatda aks ettirilganligi.
4. Aktivlarning hisobdan chiqarish bo'yicha doimiy komissiya faoliyati.
5. Aktivlar harakati bilan bog'liq shartnoma shartlarining bajarilishi va boshqalar.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida aktivlar auditini amalga oshirish quyidagi test jadvalini to'ldirishdan boshlanadi (75-jadval).

Aktivlarni dastlabki hujjatlashtirish amaldagi tasdiqlangan hujjat shakllarida rasmiylashtirilgan bolishi kerak.

Auditda hisob registrlari va dastlabki hujjatlarda aktivlarga javobgar mas'ul shaxslar imzolarining mavjudligi va haqiqiyliqi aniqlanib, barcha rekvizitlarning to'g'ri to'ldirilganligiga ishonch hosil qilish zarur.

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatini tasdiqlash to'g'risidagi buyruqda aktivlarni hisobga olish uslubiyati aks ettirilganligi aniqlanadi. Shuningdek:

- aktivlarni uzoq muddatli va joriy turlar sifatida tan olinishi uchun qiymati bo'yicha me'yorlarning belgilanganligi;

- uzoq muddatli aktivlar qatoriga qiymat me'yoriga mos bo'lmagan taqdirda ham olib borilishi mumkin bo'lgan obyektlarning belgilanganligi;

- aktivlardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlarni tan olish usullari;

- tegishli aktivlar qiymati yilning boshlanishiga qayta baholanishi nazarda tutilganligi;

- aktivlar inventarizatsiyasi muddatlari ko'rsatilganligi;

- aktivlar mavjudligi va harakatiga doir amaliyotlarni hisobga olish uchun hisobvaraqlar ishchi rejasida ko'zda tutilgan hisobvaraqlar ro'yxati hisob siyosatida aks ettirilganligi o'rganiladi.

75-jadval

### Aktivlar auditidan oldin o'tkaziladigan test<sup>15</sup>

№	Test savolining mazmuni	Javoblar:		
		ha	yo'q	eslatma
1.	Aktivlarni hisobdan chiqarish bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risidagi buyruq bormi?			
2.	Buxgalteriya hisobini yuritish siyosati to'g'risidagi buyruqda aktivlarni inventarizatsiya qilish usullari va muddatlari ko'rsatilganmi?			
3.	Inventarizatsiya belgilangan muddatlarda o'tkazilganmi?			
4.	Aktivlar oxirgi marta qachon inventarizatsiyadan o'tkazilgan?			
5.	Inventarizatsiya natijalari hisobda aks ettirilganmi?			
6.	Aktivlarni saqlash va ishlatish joylari hisob registrlarida aks ettirilganmi?			
7.	Aktivlarni foydalanish joylarida saqlanishi uchun mas'ul shaxslarni tayinlash to'g'risida buyruqlar bormi?			
8.	Aktivlarni saqlash bo'yicha mas'ul shaxslar bilan moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilganmi? va h.k.			

Aktivlar auditi quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi zarur:

1. Uzoq muddatli aktivlar auditi.

2. Nomoddiy aktivlar auditi.

3. Moliyaviy qo'yilmalar auditi.

<sup>15</sup> Tegishli javob ustunlarga belgi (+,-) qo'yish orqali belgilanadi.

4. Qimmatli qog'ozlar auditi.
5. Joriy moddiy aktivlar auditi.
6. Joriy moliyaviy aktivlar auditi.

Aktivlar mavjudligi va harakatini hisobga olishda qo'llaniladigan va auditor tomonidan ish jarayonida foydalaniladigan hisob registrlari turlari xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobi shakliga bog'liq. Tegishli hisobvaraqlar bo'yicha yuritiladigan sintetik hisob registrlari, sintetik va analitik hisob bo'yicha aylanma vedomostlar, hisobvaraqlar bo'yicha qoldiqlar aks ettiriladigan vedomostlar bunga misol bo'ladi.

Uzoq muddatli aktivlar harakati dastlabki hujjatlarning unifikatsiyalangan (yagona shaklga keltirilgan) shakllaridan tashqari xo'jalik yurituvchi subyektda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi mumkin.

Aktivlar auditida moliyaviy hisobot shakllarida aks ettirilgan ma'lumotlardan ham foydalaniladi. Bunda buxgalteriya balansi; moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot; pul oqimlari to'g'risidagi hisobot; xususiy kapital to'g'risida hisobot; izohlar, hisob-kitoblar, tushuntirishlar axborot uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektga mulkiy huquq asosida tegishli yoki uning tezkor (operativ) boshqaruvida bo'lgan, bir yildan ortiq xizmat qiladigan aktivlar buxgalteriya balansining I — «Uzoq muddatli aktivlar» bo'limida tegishli moddalarda aks ettiriladi. Bunda mol-mulk tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati, eskirish summasi va qoldiq qiymatlari ko'rsatilib, balans yakunini hisoblashda ularning qoldiq qiymati hisobga olinadi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi yuritiluvchi hisobraqamlar registrlaridan quyidagi:

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni alohida turlarining hisobot davrining birinchi va so'nggi sanasiga bo'lgan qoldig'i, hisobot davri davomidagi harakati (kirimi, chiqimi);

- hisobot davrining birinchi va so'nggi sanasiga ijara berilgan, konservatsiyaga qo'yilgan asosiy vositalar haqidagi ma'lumotlar olinadi.

Moliyaviy qo'yilmalar auditida xo'jalik yurituvchi subyektning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari investitsiyasini me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mosligi o'rganiladi. Xususan, mablag'larni investitsiyalarga yo'naltirish faoliyati tavakkalchilik



bilan bog'liq bo'lib, bu mablag' kiritilayotgan subyektning moliyaviy holatini, uning rivojlanish tendensiyalarini bilishni talab etadi.

Qimmatli qog'ozlar auditida mablag'larni qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish faoliyati yuqori tavakkalchilikka asoslangani uchun emitentning moliyaviy holati va bozor konyunkturasi (fond birjasi ma'lumotlari) doimiy ravishda monitoring qilib borilishi zarur.

Joriy moddiy aktivlar auditida xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar moddiy zaxiralarini hisobot davrining birinchi va so'nggi sanasiga bo'lgan qoldig'i, hisobot davri davomida qabul qilinishi va sarflanishi o'rganiladi. Joriy moliyaviy aktivlar auditida esa kassa va hisobraqamlardagi milliy, xorijiy valutadagi mablag'larning mavjudligi, kirimi, chiqimi, xorijiy valutadagi mablag'larning qayta baholanishi jarayonning obyekti sanaladi.

Yuqorida ko'zda tutilgan yo'nalishlar aktivlar auditining bosqichlarini tashkil etib, ularga keyingi o'rinlarda batafsil to'xtab o'tiladi.

## **12.2. Uzoq muddatli aktivlar harakatining buxgalteriya hisobida yuritilishi auditi**

Uzoq muddatli aktivlar tarkibida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar salmoqli ulushga ega. Shu sababdan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar auditini alohida yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Asosiy vositalar auditini o'tkazishda qiymati xo'jalik yurituvchi subyektda hisob siyosati bo'yicha qiymati qabul qilingan me'yordan kam bo'lgan obyektlar, qiymatidan qat'iy nazar xizmat qilish davri bir yil (12 oy)dan kam muddatni tashkil etgan obyektlarni asosiy vositalar sifatida qabul qilinmaganligi, inventar va xo'jalik ashyolari tarkibiga asosiy vositalarni kiritilmaganligi va aksincha holatlarga yo'l qo'yilmaganligi aniqlanadi. Obyekt qiymatining me'yorga mos kelishi uni sotib olish yoki foydalanishga qabul qilish sanasida hisobga olinadi.

Asosiy vositalarga bo'lgan mulkiy huquq me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan talablar bo'yicha rasmiylashtirilganligi audit jarayonida alohida o'rganiladigan holatlardan sanaladi.

Asosiy vositalar auditida ularini qurish, barpo etish, sotib olish, ijaraga berishda rasmiylashtirilishi talab etiladigan barcha hujjatlarning mavjudligi, sifati ham o'rganiladi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lanadigan mol-mulk solig'ining summasi, ishlab chiqarayotgan mahsulot (ish, xizmat)larining tannarxini tartibga solishda asosiy vositalarni qayta baholanishi muhim masalalardan hisoblanib, bu faoliyatning moliyaviy natijasiga ta'sir etadi. Shu sababdan asosiy vositalarni qayta baholash auditori yoppasiga yoki tanlab o'tkazilgan holda ularni amaldagi qoidalarga, obyektlarini sotib olish usuliga muvofiq amalga oshirilgani o'rganiladi.

Asosiy vositalar auditida ba'zi xarajatlarni ular qiymatiga qo'shishning qonuniyligi, tugallangan qurilish obyektlari inventar qiymatining to'g'ri aniqlanganligi, xususan, qo'shimcha yoki qayta qurilganidan, jihozlanganidan, qisman tugatilganidan so'ng aktiv qiymatining to'g'ri shakllanganligi baholanadi. Bunda auditor xuddi shunday asosiy vositalarni ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning yozma ma'lumotlaridan yoki axborot vositalari, maxsus adabiyotlarda e'lon qilingan baholardan, ekspert xulosalaridan foydalanadi.

Bu jarayonda asosiy vositalarning to'liq yoki qisman qayta baholanganligi, shu mazmundagi yer uchastkalari va tabiiy foydalanish obyektlarini qayta baholanganligi, aktivlarni qanday usullar (indeksatsiya yoki hujjat bilan tasdiqlangan bozor baholari) bilan baholanganligi, qayta baholashdan so'ng ularning eskirganlik darajasi o'zgarishi, qayta baholash natijalarining inventar kartochkalarida aks ettirilganligi, qayta baholash natijalarining buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligi, qayta baholash natijalarining hisobot tuzishda hisobga olinganligiga aniqlik kiritiladi.

Auditda xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi iqtisodiy faoliyatidan kirim qilingan aktivlari, xususan, xorijiy valutalar hisobiga sotib olingan asosiy vositalar qiymatining O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankini ushbu chet el valutasiga jarayonni amalga oshirish davrida belgilagan kursi bo'yicha shakllantirilgani, shartnoma shartlariga muvofiq mulkka egalik huquqining to'g'ri aniqlanganligi, xarid bilan bog'liq bojxona to'lovlarining mulk qiymatida aks etganiga e'tibor qaratiladi.

Asosiy vositalar auditida aktivlar butligi, saqlanaishi ularning inventarizatsiyasi, ya'ni inventarizatsiyaning dastlabki hujjatlari (inv-1, inv-10, inv-18 shakllar), inventarizatsiya komissiyasining majlis bayonnomalari, inventarizatsiya natijalari bo'yicha rahbar qarori orqali o'rganiladi. Bu jarayonda, 19 — sonli «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli Buxgalteriya hisobining milliy

standarti (keying o'rinlarda BHMS)ning umumiy qoidalariga, BHMSning 24-29 bandlariga rioya qilinganligiga baho beriladi. Shuningdek, inventarizatsiya natijasida aniqlangan asosiy vositalar kamomadi yoki ortiqcha aktivni hisob raqamlarda aks ettirilishi va soliqqa tortilishining to'g'riligi o'rganilib, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2001-yil 23-iyundagi 1054-raqam bilan ro'yxatga olingan «Inventarizatsiyada aniqlangan mulklar kamomadi va oshiqcha chiqishini buxgalteriya hisobida aks ettirish va soliqqa tortish to'g'risidagi qarori»ga rioya qilingani o'rganiladi.

Asosiy vositalar auditida davomida moddiy javobgar shaxslar va ular bilan tuzilgan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalarning mavjudligi va kamomadlarni qoplash yuzasidan ham tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Asosiy vositalar auditida har bir obyekt bo'yicha tuzilgan qabul qilish - topshirish dalolatnomasini sinchiklab o'rganish talab etiladi. Chunki dalolatnomada asosiy vositaning tavsifi, turgan joyi, sotib olingan manbasi, chiqarilgan yoki qurilgan yili, ishga tushirilgan vaqti, obyektning sinov natijalari, uning texnik talablarga muvofiqligi kabi ma'lumotlar bo'lib, ular auditida ma'lum xulosalar olinishiga olib keladi.

Foydalanishga qabul qilingan asosiy vositalarga metall jeton, o'chmaydigan bo'yoq yoki boshqa yo'llar bilan inventar raqami berilgan bo'lishi kerak va bu belgilarning aktiv foydalanishda bo'lgan jami davr ichida saqlanishi talab qilinadi. Asosiy vositaga berilgan inventar raqam buxgalteriya hisobining dastlabki hujjatlarida va hisob registrlarida aks ettirilib, mazkur inventar raqami yangi kirim qilingan asosiy vositalarga ular hisobdan chiqarilgan taqdirda ham berilmaydi.

Asosiy vositalar hisobdan chiqarilganida tegishli tartibda, maxsus komissiya tomonidan dalolatnoma tuzilib, ma'lumotlar tegishli inventar kartochkalarida rasmiylashtirilib, bu inventar kartochkalar kartotekadan olib qo'yiladi.

Asosiy vositalar tekenga olish hisobiga ham shakllanadi va bu muomalalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tegishli me'yoriy hujjatlariga binoan quyidagicha belgilangan:

1. 2003-yilning 1-yanvaridan iqtisodiyotning nodavlat sektoridagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bepul olingan asosiy vositalar qo'shilgan kapital hisobraqamiga kirim qilinib,

aktivlar qiymati soliqa tortiladigan bazaga qo'shiladi. Auditor bepul olingan mulklar qiymatini soliqa tortiladigan bazaga kiritilganligini o'rganishi zarur.

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2002-yil 5-sentabrdagi 92/72 sonli xatiga muvofiq davlat ukladidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki tizimida o'zaro bir-biridan bepul olingan asosiy vositalar qo'shimcha daromad, deb tan olinmaydi va ularning qiymati soliq solish bazasiga kiritilmaydi.

Asosiy vositalarning kirimiga oid muomalalar auditida aktivning dastlabki qiymati to'g'ri shakllangan bo'lishi zarur. Chunki mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini shakllanishida asosiy vositalar amortizatsiyasi muhim o'rin tutib, u aktivlarning dastlabki qiymatidan hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga qo'shilmaydi. Biroq amaldagi qoidalarga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i (keying o'rinlarda – QQS) asosiy vositalar qiymatiga imtiyozli mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun hisob va hisobot tizimining soddalashtirilgan rejimida ishlaydigan kichik tadbirkorlik subyektlari aktivlarni budjet ajratmalari hisobidan sotib olgan bo'lsa, shuningdek, korxonada yangi qurilish pudrat usulida amalga oshirilganda, qurilish bo'layotgan vaqtda pudratchiga to'langan QQS qurilayotgan obyektning inventar qiymatida o'z aksini topadi.

Auditda asosiy vositalarni qismlarga ajratish uchun qilingan xarajatlar, eskirish summasini hisobdan o'chirish va natijalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish ham o'rganiladi. Biroq asosiy vositalarni tugatishga doir muomalalar auditining ayrim xususiyatlari mavjud. Xususan, auditor to'liq amortizatsiya qilinmagan asosiy vositalarni tugatishning moliyaviy natijasi to'g'ri hisobdan o'chirilganligiga e'tibor berishi zarur. Asosiy vositani hisobdan o'chirishda uning tiklash qiymati va eskirishi ikki qismga bo'linadi, ya'ni asosiy vositalarni qayta baholash paytiga bo'lgan va o'tkazilgan qayta baholash natijasida yuzaga kelgan tiklash qiymatlari va eskirish summalari. Shuning uchun asosiy vositalarni tugatishda aniqlangan yo'qotishlar qisman foyda, qisman qo'shilgan kapital hisobiga hisobdan o'chiriladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi hisobiga qo'shma korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarining tashkil etilishi nomoddiy aktivlar auditiga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi.

Nomoddiy aktivlar auditida obyektlarning nomoddiy aktivlar qatoriga to'g'ri kiritilganligi, intellektual mulk, sanoat namunalari va shu kabilarni o'rganish, ular harakati, amortizatsiya hisoblashga oid muomalalarning buxgalterlik hisobida to'g'ri aks ettirilgani, shuningdek, inventarizatsiya o'tkazish borasidagi jarayonlar o'rganiladi.

Nomoddiy aktivlar jismoniy shaklga ega bo'lmagan, biroq korxonada faoliyatida boshqa aktivlar qatori daromad keltiruvchi patentlar, litsenziyalar, savdo markalari, savdo belgilari, mualliflik huquqlaridan iborat.

**Nomoddiy aktivlar auditidan maqsad** — xo'jalik yurituvchi subyektda nomoddiy aktivlar hisobi va ularni soliqqa tortish bilan bog'liq muomalalarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash.

Nomoddiy aktivlar auditida mutaxassisdan:

- nomoddiy aktivlar mavjudligi va butligi;
- nomoddiy aktivlar qatorining to'g'ri shakllantirilgani;
- nomoddiy aktivlarga doir hujjatlarning to'g'ri rasmiylashgani va ularga oid muomalalarning to'g'ri yuritilgani;
- nomoddiy aktivlarni qayta baholash jarayonini;
- nomoddiy aktivlar inventarizatsiyasi va bu ma'lumotlarning buxgalteriya hujjatlarida aks etgani;
- nomoddiy aktivlarning kirimi va chiqimiga doir muomalalarni;
- nomoddiy aktivlar kiringa olinishi va chiqim qilinishiga doir muomalalarni soliqqa tortish masalalarini;
- nomoddiy aktivlarga belgilangan xizmat muddatining ilmiy asoslanganligini;
- nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashda qo'llanilgan usullarning qonuniyligi va ilmiy asoslanganligini hamda amortizatsiya ajratmalarining buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini o'rganishi talab etiladi.

Nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati ularni quyidagi qabul qilish yo'nalishlari asosida:

1. Pul o'tkazish yo'li bilan sotib olingan nomoddiy aktivlar qiymati - ularni sotib olish va rejalashtirilgan maqsadlar uchun foydalanishga yaroqli holga keltirish uchun qilingan haqiqiy xarajatlar bo'yicha.

2. Korxonada ishlab chiqarilgan nomoddiy aktivlar qiymati - tayyorlash uchun qilingan haqiqiy xarajatlar bo'yicha.

3. Tekinga olingan nomoddiy aktivlar qiymati - ularning bozor qiymati va rejalashtirilgan maqsadlar uchun foydalanishga yaroqli holga keltirishga doir haqiqiy xarajatlar bo'yicha.

4. Ustav kapitaliga ulush sifatida olingan nomoddiy aktivlar qiymati - ta'sis shartnomasiga muvofiq shakllantiriladi.

Nomoddiy aktivlar buxgalteriya balansida boshlang'ich, eskirishi, qoldiq qiymatlarida aks ettirilib, 1-shaklga beriladigan tushuntirishlarda: - nomoddiy aktivlarning ayrim guruhlari bo'yicha foydali xizmat muddatlari; - qiymati qoplanmaydigan (eskirish hisoblanmaydigan) nomoddiy aktivlar; - amortizatsiya ajratmalari hisoblash usullari to'g'risidagi ma'lumotlarning mohiyati batafsil bayon qilinishi zarur.

Auditda nomoddiy aktivlarni sotib olish bilan bog'liq muomalalar buxgalteriya hisobiga, soliqqa tortishga doir qonun va qonunosti talablariga muvofiq olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiq nomoddiy aktivlarning ayrim turlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan.

Sotib olingan nomoddiy aktivlar bo'yicha QQS summasi quyidagi hollarda budjetga o'tkaziladi:

- sotib olingan nomoddiy aktivlar qiymati mol yetkazib beruvchilarga to'langanida;
- nomoddiy aktivlar hisobga qabul qilinganida;
- nomoddiy aktivlar ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatilganida.

Buxgalterlik hisobining umumiy tamoyillariga ko'ra har qanday nomoddiy aktiv kirimi tegishli dastlabki hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi. Bunday dastlabki hujjatlashtirish o'zining mazmuni va tavsifiga ko'ra asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi kabi hujjatlarga o'xshash bo'lishi zarur. Hujjatlarda obyektlarning batafsil xususiyatlari, dastlabki qiymati, foydalanishga topshirilgan vaqti, eskirish normasi va xarajatga olib borilishi, nomoddiy aktivdan foydalanadigan bo'linma va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

Nomoddiy aktivlarni kirim qilishda dastlabki hujjatlar bilan birga ularni o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi hujjatlar ham bo'lishi zarur. Bunday hujjatlarga nomoddiy aktivlardan foydalanishni tavsiflovchi hujjatlar kiradi.

### 12.3. Uzoq muddatli ijaraga olingan va berilgan aktivlar auditi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalari o'ziga qarashli yoki ijara asosida foydalanilayotgan bo'lishi mumkin. O'ziga qarashli asosiy vositalar xo'jalik yurituvchi subyektga egalik huquqi asosida, ijaraga olinganlari esa shartnoma shartlariga binoan qisqa yoki uzoq muddatli bo'ladi. Tomonlar (ijaraga oluvchi va ijaraga beruvchi) o'rtasidagi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va ijara munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hamda qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

**Ijara** - shartnoma asosida yerga, boshqa tabiiy resurslarga, shuningdek, xo'jalik faoliyatini va o'zga faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish uchun ijarachiga zarur bo'lgan mol-mulkka haq evaziga muddatli egalik qilish hamda undan foydalanishdan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilmagan faoliyatning hamma sohasida mulkchilikning barcha shakl, turidagi mol-mulkka nisbatan qo'llaniladi.

Quyidagilar ijara munosabatlarining obyektlari bo'ladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar, ayrim ishlab chiqarishlar, sexlar, fermalar, boshqa bo'linmalar, tashkilotlar;

- ayrim binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari, inventarlar, asboblari, boshqa moddiy boyliklar;

- yer (qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan yerlar ijaraga faqatgina qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun beriladi) va boshqa tabiiy resurslar.

Ijara munosabatlarining subyektlari bo'lib ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi hisoblanadi.

Mol-mulk egasi yoki u vakil qilgan idora, shu jumladan, chet el yuridik va jismoniy shaxslari mol-mulkni ijaraga berish huquqiga ega bo'lgan ijaraga beruvchi hisoblanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, qo'shma korxonalar, xalqaro uyushmalar va tashkilotlar, shuningdek, xorijiy davlatlar ijaraga oluvchi bo'lishlari mumkin.

Tomonlarning ixtiyoriyligi va to'la tenghuquqliligi asosida ma'lum muddatga tuziladigan ijara shartnomasi ijara munosabatlarining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Bunda qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish uchun yerni, boshqa tabiiy resurslarni ijaraga olish uzoq muddatga — kamida 5 yilga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Ijara shartnomasida:

- ijara berilayotgan mol-mulkning tarkibi va qiymati, uni ijara berish tartibi;

- ijara muddati;

- ijara haqi shartlari va miqdori, uni to'lash muddatlari;

- ijara beruvchi ijara oluvchiga berishi kerak bo'lgan mol-mulkning holati;

- ijara oluvchining mol-mulkdan foydalanish shartlari;

- shartnomaning amal qilishi to'xtatilganidan keyin ijara oluvchining mol-mulkni ijara beruvchiga qanday holatda va qay tartibda qaytarishi;

- ijara berilgan mol-mulkni tiklash va ta'mirlash yuzasidan tomonlarning majburiyati;

- to'la amortizatsiyadan so'ng mol-mulk kimga qarashli bo'lish shartlari;

- ijara olingan mol-mulk keyinchalik sotib olish sharti bilan topshirilayotgan bo'lsa, uni sotib olish shartlari, tartibi va muddati;

- ijara olingan mol-mulkni ikkilamchi ijara berish sharti, tartibi va imkoniyati;

- ijara oluvchi ijara beruvchiga taqdim etadigan axborotning ko'lami va axborotni berish muddatlari;

- tomonlarning mas'uliyati ko'zda tutiladi.

Yerni va boshqa tabiiy resurslarni ijara olish shartnomasiga tabiiy obyektidan mo'ljallangan maqsadga muvofiq holda oqilona foydalanish yuzasidan ijarachining majburiyatlari ko'zda tutilgan qoidalar ham kiritiladi.

Ijara shartnomasida ijara beruvchining noishlab chiqarish sohasiga taalluqli mol-mulk obyektlari va ularning qiymati alohida ajratib ko'rsatiladi, tomonlarning ushbu obyektlarga nisbatan majburiyatlari (ularni asrash va saqlab turish) ham aytib o'tiladi.

Qisqa muddatli ijara olingan asosiy vositalar auditida, asosiy e'tibor tomonlar o'rtasida shartnomalar tuzilganligi, ularni qonun va qonunosti talablari doirasida rasmiylashtirilganligi, tomonlarning huquq hamda majburiyatlari to'liq ta'minlanganligiga qaratiladi.

Qisqa muddatli ijara shartnomasi asosida qabul qilingan asosiy vositalar balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinadi. Qisqa muddatli ijara beruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarlarda hisoblangan amortizatsiya ajratmalari ijara to'lovini kamaytirishga olib keladi. Ushbu ijara to'lovlaridan o'rnatilgan tartibda qo'shilgan qiymat solig'i to'lanishi zarur. Asosiy vositalarni qisqa muddatli ijara oluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar ijara to'lovini mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga qo'shadi.



Qisqa muddatli ijara obyektlarini joriy ta'miri ijaraga oluvchi, kapital ta'mirlash shartnoma shartlariga binoan belgilangan tomonlaridan amalga oshiriladi. Uzoq muddatli ijara shartnomasida asosiy vositalarni shartnoma muddati tugagandan so'ng ijarachi tomonidan sotib olish nazarda tutilgan bo'lsa, obyekt ijaraga oluvchining balansida aks ettiriladi va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi. Auditda uzoq muddatli ijaradagi asosiy vositalar bo'yicha hisob-kitoblar holatini, muomilalarning buxgalteriya hisobi va hujjatlarda to'g'ri aks ettirilishi o'rganiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar jismoniy shaxslardan asosiy vositalarni ijaraga olganda ijara to'lovlaridan daromad solig'i hisoblanishi va davlat budjetiga o'tkazilishi e'tiborga olinishi zarur. Bunda budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar hisoblanmaydi.

Shartnoma xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar bilan tuzilgan bo'lsa, obyektning ijara to'lovi summasidan daromad solig'i hisoblanmaydi. Bunda auditor o'tkazib berilgan ijara to'lovlari haqida har chorakda soliq idoralari xabardor qilinganligini o'rganishi zarur.

Ijara munosabatlarining o'ziga xos jihatlari (murakkabligi)ni hisobga olib, ularni batafsil, barcha amaliyotlarini to'liq o'rganib chiqish talab etiladi. Shu sababli ijara munosabatlari auditida tegishli davrdagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, ushbu davr uchun hisoblangan koeffitsiyentlarni belgilangan me'yorlarga mosligini, buxgalteriya hisobi va hisoboti ko'rsatkichlarini shartnomalar va boshqa hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlar bilan, biznes - reja va istiqbolga mo'ljallangan ko'rsatkichlardan farqini aniqlash zarur.

Ijara munosabatlari auditida muqobil manbalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaliyotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijara munosabatlarining murakkabligi bir qator kamchiliklarni nisbatan ko'proq uchrashiga olib keladi. Xususan:

- ijara munosabatlarini zarur bo'lgan hollarda litsenziyasiz amalga oshirish;
- xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatiga ijara munosabatlariga oid bandlarning kiritilmaganligi;
- me'yoriy hujjatlarga zid bo'lgan ijara muomalalarini sodir etish;
- ijaraga olingan asosiy vositalarni o'z vaqtida va to'g'ri kirim qilmaslik;
- ijaraga olingan asosiy vositalardan foydalanish shartlariga rioya qilmaslik;
- ijaraga olingan asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlarini mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga asossiz qo'shish;

- ijaraga olingan asosiy vositalar bo'yicha soliqlarning noto'g'ri hisoblanishi va to'lanishi.

Yuqorida ko'zda tutilgan kamchiliklarga yo' qo'ymaslik maqsadida, audit oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Umumiy masalalar - ijara munosabatlariga kirishish uchun litsenziyaning mavjudligi, tomonlar o'rtasida tuzilgan ijara shartnomalarning qonun va qonunosti hujjatlariga muvofiqligini.

2. Ijaraga olingan va berilgan asosiy vositalar auditi - ijara shartnomasi bo'yicha asosiy vositalar harakatining hisobi, eskirishining hisoblanishini.

3. Ijara obyektlari tannarxining shakllanishi - ijara obyektini sugurtalash, ta'mirlash xarajatlarining hisobi to'g'riligini.

4. Ijara xizmatlarini sotish - ijara shartnomalari bo'yicha daromadlarning tan olinishini.

5. Ijara munosabatlari bo'yicha hisob-kitoblar - turli debitor va kreditorlar, budjet va budjetdan tashqari fondlar bilan hisob-kitoblarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini.

6. Ijara obyektlarini soliqqa tortish - ijara obyektlarini sotib olish va sotish, ijaraga berish bo'yicha olingan daromadlar bo'yicha soliq to'lanishini o'rganish va h.k.

#### **12.4. Uzoq muddatli aktivlardan foydalanish jarayonidagi xarajatlar auditi**

Uzoq muddatli aktivlardan foydalanishda yuzaga keladigan xarajatlar turlicha bo'lib, doimiy tUSDagi xarajatlardan biri amortizatsiya ajratmalaridir. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya ajratmalari hisoblashning auditida asosiy e'tibor qonun va qonunosti hujjatlarda belgilangan me'yorlarga rioya qilinayotganligiga qaratiladi. Dastlab, amortizatsiya ajratmalari hisoblash to'xtatilgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar aniqlab olinishi zarur. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan hisob siyosatida nazarda tutilgan hollardagina tezlashtirilgan amortizatsiya ajratmalari hisoblashni qo'llash mumkinligiga e'tibor qaratish zarur.

Uzoq muddatli aktivlarga xarajatlarini hisoblash auditida, amortizatsiya ajratmalarini hisoblash qoidalariga rioya qilinishini, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning tegishli guruhlariga mos ajratma me'yorlarini qo'llanilishini, mazkur muomalalar bo'yicha hisob-kitoblarni hamda ularni hisob raqamlarida muddatida, to'liq, to'g'ri kiritilishini o'rganiladi. Audit jarayonida konservatsiyaga qo'yilgan, tezlashtirilgan amortizatsiya ajratmalari hisoblash

qo'llanilayotgan, xizmat muddati tugagan, lekin foydalanishda bo'lgan, amortizatsiya ajratmalari hisoblanmaydigan, uzoq muddatli ijaraga olingan, noishlab chiqarish sohasida foydalanilayotgan asosiy vositalar to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlashtirib olinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatida qabul qilingan amortizatsiya ajratmalarini hisoblash, ya'ni chiziqli, kamayib boruvchi qoldiq, foydali ishlatish muddati davomidagi yillari yigindisi bo'yicha qiymatini hisobdan o'chirish, qiymatni mahsulot (ish, xizmat)lar hajmiga mutanosib ravishda hisobdan o'chirish usuli qo'llanilayotganligi e'tiborga olinishi kerak.

Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo'lgan mol-mulk bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash amaldagi Soliq Kodeksida nazarda tutilgan quyidagi eng yuqori normalar doirasida amalga oshiriladi:

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlarning tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
I		Binolar, imoratlar va inshootlar	5
II		Uzatish qurilmalari	8
III		Quvvatli mashinalar va uskunalar	8
IV		Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchan transportdan tashqari)	15
V		Harakatlanuvchan transport	
	1	Temir yo'lining harakatdagi tarkibi	
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	8
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	
	5	Yengil avtomobillar	20
	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	10
	8	Maxsus vaxta vagonlari	20
	9	Boshqa transport vositalari	20
VI		Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari	20
VII		Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar	
	1	Ko'p yillik dov-daraxtlar	10
	2	Boshqalar	15

Uzoq muddatli aktivlarning xizmat qilish muddati to'g'ri belgilanganligi tanlab o'rganish yordamida aniqlanadi. Xizmat qilish muddati va uzoq muddatli aktiv turiga qarab belgilangan amortizatsiya ajratmalari me'yorlarining o'zgarishi mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga jiddiy ta'sir etadi.

Amortizatsiya ajratmalarini ajratishning boshlanish va to'xtatish vaqti, ularning muntazamligi, oshirib va pasaytib hisoblashning asoslanganligini o'rganib chiqish zarur.

Ajratmalar to'g'ri hisob-kitob qilinganligini tanlab olish yo'li bilan o'rganiladi.

Uzoq muddatli aktivlarga ammortizatsiya ajratmalarini hisoblashda ularning dastlabki qiymatini noto'g'ri aniqlash, asosiy vositalarga faqat chorakda bir marta amalga oshirilishi, zarar ko'rib ishlaganida amortizatsiya ajratmasini hisoblamaslik, xizmat qilish muddati o'tgan asosiy vositalarga ammortizatsiya ajratmalarini hisoblash, me'yoriy hujjatlarga mos kelmagan hollarda tezlashtirilgan ammortizatsiya ajratmalari hisoblash kabi kamchiliklarga ko'p yo'l qo'yilishini hisobga olib, ushbu masala auditor tomonidan jiddiy o'rganilishi talab etiladi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibidagi asosiy vositalar joriy, o'rta, kapital ta'mirlash, modernizatsiyalash va qayta jihozlash yo'llari bilan tiklab boriladi.

Asosiy vositalarni tiklashga sarflangan xarajatlarni o'rganishda hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi, mazkur masalani xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatida aks ettirilganligiga e'tibor qaratiladi.

Ta'mirlash xarajatlari me'yorlar bo'yicha mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga qo'shish, ta'mirlash maqsadlari uchun tashkil qilingan zaxiralar hisobidan, oldindan to'langan xarajatlar sifatida hisobga olib, bir me'yorda tannarxga qo'shib borish usullari bilan qoplanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatida ta'mirlash uchun zaxira tashkil etilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, zaxiraga ajratmalarining asoslanganligi, ularning asosiy vositalar turlari bo'yicha miqdori yoki yagona normasining o'rnatilganligi, zaxiraga ajratmalarining har oyda hisoblab borilishi alohida o'rganiladi. Ta'mirlash xarajatlar tashkil etilgan zaxira hisobidan qoplanib, ta'mirlash ishlari tugallangandan so'ng yil oxirida zaxiraning qoldiq summasiga tegishli hisobvaraqlarga tuzatish yozuvi kiritiladi.

Audit davomida ta'mirlashning pudrat yoki xo'jalik usulida amalga oshirilganligini va ularning o'ziga xos jihatlarning buxgalteriya hisobida aks etgani o'rganilishi talab etiladi.

Xususan, pudrat usulida bajarilgan ta'mirlash ishlari tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlari asosida pudratchilar tomonidan bajariladi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlarda aks ettiriladi. Tasdiqlangan ta'mirlash ishlarini bajarish smetasiga binoan (ko'zda tutilgan bo'lsa) bajarilgan ishlar ishlab chiqarish xarajatlari sifatida tan olinadi. Jismoniy shaxslar bilan tuzilgan pudrat shartnomalariga ko'ra bajarilgan ishlar uchun qilingan xarajatlar xo'jalik yurituvchi subyektning sof foydasi hisobidan qoplanadi va pudratchidan belgilangan tartibda davlat budjetiga daromad solig'i hisoblanib, o'tkaziladi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ta'mirlash ishlari me'yorlar asosida mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda maxsus ta'mirlash xizmatlari tashkil etilgan bo'lsa, xarajatlar ta'mirlash turlari bo'yicha alohida hisob raqamda jamlanib, qabul qilingan hisob siyosatiga ko'ra ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi yoki tashkil etilgan ta'mirlash zaxiralari hisobidan qoplanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt uzoq muddatli aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ularni modernizatsiyalash yoki qayta jihozlash usullaridan foydalanadi. Bunda qilingan xarajatlar boshqa kapital sarflar sifatida husobga olinib, asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini oshirganligi va shunga mos ravishda qo'shilgan kapitalining ko'payishi hisobvaraqlarda aks etganligi ko'rib chiqilishi kerak.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibidagi nomoddiy aktivlar ishlab chiqarish faoliyatida foydalanilayotgan va daromad keltirayotganda ular bo'yicha hisoblangan amortizatsiya ajratmalari mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga olib boriladi.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga binoan, nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalarini hisoblash uchun qabul qilinadigan muddatlari, obyektining foydali xizmat ko'rsatish davri, bu davrni aniqlash imkoni bo'lmagan hollarda esa 5 yil davomida, lekin har ikki holda xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat yuritish davri chegarasida belgilanadi.

Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya ajratmalarini hisoblash to'g'ri chiziqli (yoki bir tekis), kamayib boruvchi qoldiq, ishlab

chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmidan kelib chiqadigan (ishlab chiqarish) usullarda olib borilishi mumkin.

Uzoq muddatli aktivlardan foydalanish jarayonidagi xarajatlar auditi natijasida aniqlangan me'yoriy hujjatlardan chetlashish holatlari auditorlik hisobotida umumlashtiriladi.

## **12.5. Moliyaviy qo'yimlar (investitsiyalar) auditi**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida ularni moliyaviy qo'yimlar (investitsiyalar)ga yo'naltiradi.

Shu sababli auditda xo'jalik yurituvchi subyekning moliyaviy qo'yimlari (investitsiyalari)ni to'liqligi, mavjudligi o'rganiladi. Bundan maqsad, moliyaviy qo'yimlar (investitsiyalar)ning, sotib olingan qimmatli qog'ozlar va berilgan qarzlarning, ularning hisobraqamlardagi qoldig'i va aylanmalarining harakatini buxgalteriya hisobi va hisobotida to'g'ri va to'liq aks ettirilgani, ishonchliligi, tegishli hujjatlarning mavjudligiga ishonch hosil qilishdir.

Mazkur maqsadga erishishda audit quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

1. Moliyaviy qo'yimlar (investitsiyalar)ni hisobga olish va nazorat qilish holatini o'rganish, xususan:

1.1. Xo'jalik yurituvchi subyekt aktivlarini moliyaviy qo'yimlar qatoriga to'g'ri olib borilganini.

1.2. Hujjatlashtirish jarayonini.

1.3. Baholanishining aniqligini.

1.4. Inventarizatsiya o'tkazilishini.

2. Moliyaviy qo'yimlar (investitsiyalar) harakatini hisobga olishga doir muomalalarning to'liqligi va to'g'riligi, soliqqa tortish mezonlariga mosligini aniqlash, ya'ni:

2.1. Harakatini hisob registrlarida aks ettirilishi;

2.2. Qimmatli qog'ozlar hisobini tashkil etilishi;

2.3. Soliqqa tortish mezonlariga mosligi;

2.4. Qayta baholash maqsadida zaxira tashkil etilganligi;

2.5. Berilgan qarzar bo'yicha mablag'lar hisobini yuritilishi.

3. Moliyaviy qo'yimlar (investitsiyalar)dan olingan daromadlarning hisobraqamlarda to'liq aks ettirilganligini o'rganish, jumladan, bu:

3.1. Olinishi kerak bo'lgan daromadlarning hisobvaraqlarda aks ettirilgani;

3.2. Soliqqa tortish ba'zasining to'g'ri aniqlangani;

3.3. Hisoblangan soliq summasini belgilangan davrlarda o'tkazib berilganligini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar)ga oid muomalalar ta'sis hujjatlari (ta'sischi sifatida investitsiyalarni amalga oshirishda), qimmatli qog'ozlarga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, mablag'larni uzoq muddatga qarzga berish shartnomasi, bo'sh pul mablag'larini depozitga qo'yish shartnomasi, qimmatli qog'ozlarni garovga berish bilan bog'liq hujjatlarga asoslanib amalga oshiriladi. Audit jarayonida yuqorida keltirilgan hujjatlar shartlarining moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar) harakatiga oid qonun va qonunosti hujjatlariga zid kelmasligi aniqlashtiriladi.

Audit davoida moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar)ni xo'jalik yurituvchi subyektning hozirgi va kelajakdagi moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganish uchun moliyaviy hisobotlardan keng foydalaniladi. Moliyaviy hisobotlardan olingan ma'lumotlar auditorlarga to'liq va aniq axborotga ega bo'lishlarida asos bo'ladi. Xususan, ularga xarid qilingan qimmatli qog'ozlar summasi; ulardan olingan daromadlar; ayrim guruhlariga kiritilgan qimmatli qog'ozlar hisob siyosatida ko'zda tutilgan bo'lsa, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qimmatli qog'ozlar qiymatini taxmin qilish yo'li bilan belgilanadigan bozor qiymati; qimmatli qog'ozlar qiymatining o'zgarishi; ularni sotish natijasida olingan, rejalashtirilmagan, sezilarli salmoqqa ega bo'lgan moliyaviy natija; investitsiyalar tarkibida katta ulush tutgan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lar va boshqalar kiradi.

Qimmatli qog'ozlar mavjudligi, saqlanishi, daromadlilikini nazorati ularning inventarizatsiyasini o'tkazib borish orqali ta'minlanadi. Buning uchun xo'jalik yurituvchi subyektida tashkil etilgan maxsus komissiyaning har oyda kamida bir marta qimmatli qog'ozlar inventarizatsiyasini o'tkazganligi, tegishli moddiy javobgar shaxslar o'zgariganda, kamomad aniqlanganda, bo'lib o'tgan yong'in yoki tabiiy ofatdan keyin inventarizatsiya o'tkazilishi kerak. Bunda qimmatli qog'oz nomi, emitenti, seriyasi, raqami, nominal va bozor qiymati, so'ndirish muddati, summasi inventarizatsiya natijalari bo'yicha tuziladigan hujjatlarda aks ettiriladi.

Inventarizatsiyadan so'ng, mavjud qimmatli qog'ozlar hisob ma'lumotlari bilan taqqoslanadi va natijalari bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyekt boshqaruviga ma'lum qilinadi. Audit xulosasiga binoan xo'jalik yurituvchi subyekt boshqaruvi tomonidan

kamomadlarni qoplash va ortiqcha chiqqan qimmatli qog'ozlarni kiritish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Auditda qimmatli qog'ozlarning tasdiqlangan, himoyalangan maxsus shakldagi qog'ozda tayyorlanganligiga e'tibor qaratilib, ko'zda tutilgan ma'lumotlar to'liq aks ettirilganligini o'rganib chiqiladi. Tegishli ma'lumotlarning to'liq keltirilmaganligi qimmatli qog'ozlarni yaroqsiz, deb hisoblashga asos bo'ladi. Shundan kelib chiqib, qimmatli qog'ozlarni rasmiylashtirilishi belgilangan talablarga javob berishi o'rganiladi.

Qimmatli qog'ozlarni baholashda ularni xarid qilishda amalga oshirilgan xarajatlar tuzilgan shartnoma shartlari bo'yicha sotuvchiga o'tkazib berilgan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlarni xarid qilishda olingan ma'lumotlar va maslahatlar uchun to'lovlar, vositachilik hamda foiz to'lovlari va boshqa sotib olish uchun qilingan bevosita sarflardan iborat bo'ladi. Bunda qimmatli qog'ozlar xaridi bilan bog'liq xarajatlar tarkibi, ularni moliyaviy qo'yilma (investitsiya)larga olib borilishi to'g'riligi, xarajatlarga doir hujjatlarning talablar doirasida rasmiylashtirilganligiga e'tibor qaratiladi.

Bepul olingan qimmatli qog'ozlar qabul qilish paytiga shakllangan bozor bahosida hisobga olinadi. Moliyaviy qo'yilma (investitsiya)lar xorijiy valutada kiritilsa, bu jarayon valuta muomalalarini tartibga solish bo'yicha amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga javob berishi o'rganiladi. Bu, moliyaviy qo'yilma (investitsiya)lar Markaziy Bank belgilagan, hisobga olinayotgan kun uchun amalda bo'lgan xorijiy valutaning so'mga nisbatdan kursi bo'yicha hisobraqamlarga kiritiladi.

Auditda moliyaviy qo'yilma (investitsiya)lar bo'yicha xorijiy valuta kursi tafovutini aniqlash va uni hisobda aks ettirishga alohida e'tibor berish zarur. Xo'jalik yurituvchi subyektning ustav kapitaliga ulush sifatida kiritilgan moliyaviy qo'yilma (investitsiya)lar tomonlar o'rtasida kelishilgan va ta'sis shartnomasida ko'rsatilgan qiymat bo'yicha hisobga olinib, xorijiy valuta kursining o'zgarishi tomonlar ulushini o'zgartirmaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar)dan oladigan daromadlari dividend, foiz, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olinadigan daromadlar sifatida «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida nizom»ga muvofiq moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar qatoriga kiritiladi.



## 12.6. Joriy moddiy aktivlar auditi

Joriy moddiy aktivlar auditi mas'ulyati yuqori bo'lgan yo'nalishlardan biri hisoblanib, tovar-moddiy zaxiralar butligi, saqlanishi va ishlatilishi bo'yicha doimiy nazoratning o'rnatilmaganligi aktivlarning kamomidiga olib kelish ehtimoli yuqoriligi uchun mutaxassisdan alohida e'tibor bilan yondashishni talab qiladi.

Joriy moddiy aktivlar auditioning mohiyati tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya registrlarida hisobga olinishi, xo'jalik jarayonlarining me'yoriy hujjatlarga mosligi, ularning harakati hisobotlarda to'liq va aniq aks ettirilishiga baho berish bilan bog'liq.

**Joriy moddiy aktivlar auditioning maqsadi** - tovar-moddiy zaxiralar hisobini to'g'ri yuritilishi, ularning mavjudligi va harakati, shuningdek, ishlab chiqarishda foydalanish me'yorlariga amal qilinishi, moddiy resurslarni ho'jalik faoliyatiga to'liq safarbar qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektga zarur bo'lmagan aktivlarni aniqlash.

Ko'rsatilgan maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

1. Buxgalteriya balansida joriy moddiy aktivlarning to'g'ri aks ettirilishini.

2. Tovar-moddiy zaxiralar mavjudligi va saqlanishini.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektning tovar-moddiy zaxiralar bilan ta'minlanganligi hamda omborda hisobga olinishini.

4. Joriy moddiy aktivlar harakatiga doir boshlang'ich hujjatlarning rasmiylashtirilishini.

5. Olingan tovar-moddiy zaxiralarni to'liq, vaqtida kirim qilinishi va jarayonni buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettirilishini.

6. Joriy moddiy aktivlarni ishlab chiqarishga berilishini asoslanganligi va ularni buxgalteriya registrlarida to'g'ri olib borilishini.

7. Tovar-moddiy zaxiralarni baholish usullari aniqlanishini.

8. Hamkor xo'jalik yurituvchi subyektlarga daval xomashyoni qayta ishlashga berilishi va boshqa joriy moddiy aktivlarni sotilishini to'g'ri hujjatlashtirilishini.

9. Joriy moddiy aktivlar inventarizatsiyasini muddatida, to'g'ri o'tkazilishini.

10. Tabiiy kamayish me'yoridan oshiqcha bo'lgan hamda baholarni pasayishidan ko'rilgan yo'qotishlarni hisobdan chiqarishga asos hisoblangan bayonnomalar, boshqaruv qarorlari kabi hujjatlarni o'rganish.

Auditda zarur bo'lgan ma'lumotlar balans, bosh kitob, buxgalteriya hisobi registrlari, boshlang'ich hujjatlar (ishonchnoma, kirim orderi, materiallarni kirim qilish, kamomad va yo'qotishlar, tabiiy kamayishlarga oid, ularni buzilishiga doir bayonnomalar va h.k.)dan olinadi.

Tovar-moddiy zaxiralar auditini ombordagi moddiy boyliklar inventarizatsiyasini o'tkazishdan boshlash maqsadga muvofiq. Bunda tovar-moddiy zaxiralar ombori hamda o'lchov vositalarining holati va foydalanilishi, ularni olib kirish va chiqishi nazoratining samaradorligi, qo'riqlash va yong'in xavfsizligini ta'minlash qurilmalarining mavjudligi, moddiy javobgar shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar, but bo'lmagan, buzilgan materiallarning mavjudligi, kirim va chiqimiga oid hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirilganiga e'tibor qaratiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatiga tovar-moddiy zaxiralarni baholash usullari albatta kiritilgan bo'lishi zarur. Xususan, tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi bo'yicha, AVECO<sup>16</sup>, FIFO<sup>17</sup> va boshqa usullar (xalqaro amaliyotda LIFO<sup>18</sup> usulidan ham foydalaniladi) qo'llanilishi mumkin.

Bu jarayonda tayyor mahsulot auditiga ham alohida e'tibor qaratilishi zarur. Chunki tayyor mahsulotlar tovar-moddiy zaxiralar tarkibida salmoqli ulushga ega bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari mavjud. Xususan:

- tayyor mahsulotni baholashda hisob siyosatida nazarda tutilmagan usullardan foydalanish;

- jo'natilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)larni baholash usuli hisob siyosatida ko'zda tutilgan usullarga mos kelmasligi;

---

<sup>16</sup> Tovar-moddiy zahiralarni o'rtacha tortilgan qiymati bo'yicha baholash usuli.

<sup>17</sup> FIFO (First In, First Out — «birinchi kirim — birinchi chiqim») — Tovar-moddiy zahiralarni birinchi kirim qilingani ishlab chiqarishga birinchi sarflanishini bildiruvchi baholash usuli.

<sup>18</sup> LIFO (Last-In-First-Out «so'nggi kirim — birinchi chiqim») - Tovar-moddiy zahiralarni so'nggi kirim qilingani ishlab chiqarishga birinchi sarflanishini bildiruvchi baholash usuli.

- o'zi ishlab chiqargan hamda daval hom-ashyodan tayyorlangan tayyor mahsulotni buxgalteriya hisobida to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri holda aks etirilishi;

- buxgalteriyada tayyor mahsulot harakati va jo'natilishini noto'g'ri hisobga olinishi kabi kamchiliklar uchraydi.

Tovarlar hisobi auditida ham yuqorida ko'rib o'tilgan jihatlariga e'tibor qaratilib, ulgurji, chakana, savdo – vositachilik faoliyat turlari xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

Audit natijasida joriy moddiy aktivlar yuzasidan aniqlangan kamchiliklar xo'jalik yurituvchi subyekt boshqaruvi e'tiboriga yetkaziladi.

## 12.7. Pul mablag'lari auditi


Pul mablag'lari auditida xo'jalik yurituvchi subyektning kassa, hisob-kitob, valuta va boshqa maxsus pul mablag'lari bo'yicha banklarda ochilgan hisobraqamlaridagi mablag'larining holati, harakati, ishlatilishi o'rganiladi. Audit jarayoni xo'jalik yurituvchi subyektning kassasidagi naqd pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar inventarizatsiyasi o'tkazish bilan boshlanib, mavjud boyliklarning haqiqatdagi qoldig'i ro'yxati tuziladi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan inventarizatsiya natijalarini solishtirib, tafovutlar aniqlanadi.

Banklarda ochilgan hisob raqamlar qoldig' haqida ma'lumot olinib, xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriyasidagi ma'lumotlar bilan solishtirib o'rganiladi. Bunda, hisobraqamlar bo'yicha ma'lumotlar tegishli hisob registrlari, boslang'ch hujjatlar va hisobot shakllaridan olinishi mumkin.

Ma'lumotlarni solishtirish orqali aniqlangan tafovutlar sabablari kassa hujjatlari, bank hisobvarag'idan ko'chirmalar tuzilgan hisobotlarni batafsil o'rganish orqali aniqlashtiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larining auditida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratiladi (16-chizma).

Auditda xo'jalik yurituvchi subyektning kassa muomalalari auditini ikki bosqichda, xususan, milliy va xorijiy valutalarda o'tkaziladi. Bunda, kassa hujjatlarini rasmiylashtirilishiga, ya'ni har bir hujjatda naqd pul oluvchilar imzosi, kirim hujjatlarida «olindi», chiqim hujjatlariga «to'landi» degan yozuvlarning, sananing borligi, ularda o'chirilgan, tuzatilgan izlarning yo'qligi aniqlanadi.



*16-chizma. Pul mablagʻlari auditining yoʻnalishlari*

Shuningdek, kassaning har chorakda oʻrganilishi, hisobotlarni oʻz vaqtida topshirilishi va ularga ilova qilingan hujjatlarni tekshirishga qabul qilinganligi toʻgʻrisida bosh buxgalter imzosining borligi, ish haqi berish, xizmat safari va boshqa maqsadlar uchun bankdan olingan naqd pul mablagʻlarining sarflanishi, kassadagi naqd pul mablagʻlari qoldiqlarining belgilangan limitga toʻgʻri kelishi, berilmagan ish haqi va faoliyatdan tushgan naqd pul mablagʻlarining bankka oʻz vaqtida topshirilishi, naqd pul mablagʻlarining begona shaxslar tomonidan ishonchnoma orqali olinishi, cheklarning saqlanishi, kassa muomalalarini buxgalteriya hisobida toʻgʻri aks ettirilishi, toʻlanmagan summalarning oʻz vaqtida deponentga oʻtkazilishini oʻrganish talab etiladi.

Hisob raqam muomalalarining auditi ham ikki, jumladan, milliy va xorijiy valutalar boʻyicha pul oʻtkazmalarining amaldagi hisoblashish tamoyillari asosida amalga oshirilganligiga baho beriladi.

Bunda bankdagi hisobraqamlarga doir muomalalar milliy va xorijiy valuta harakatiga oid maʼlumotlar hamda ularga ilova qilingan soliq hisoboti asosida oʻrganiladi. Shuningdek, xoʻjalik yurituvchi subyektning bankda ochilgan hisobraqamlar soni va raqami, qaysi bankda ochilganligi aniqlanib, ular boʻyicha bank koʻchirmalari tahlil etiladi, tomonlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning huquqiy asoslarini amaldagi qonun va qonunosti talablarga muvofiqligi baholanadi.

Bankdagi hisobraqamlar boʻyicha pul mablagʻlarining harakati bank koʻchirmalari (bank tomonidan tasdiqlanib ilova qilingan

hisob-kitob to'lov hujjatlarining shakllari bilan), to'lov topshiriq-nomasi, to'lov talabnomasi, to'lov topshiriq-noma-talabnomasi, to'lov orderi, inkassa topshiriqnomasi (farmoyishi), hisobraqamiga naqd pul topshirish uchun ariza, valutani majburiy sotish uchun topshiriq-noma, valuta sotib olish uchun topshiriq-noma, rezidentning sotib olingan valutani so'mga aylantirish to'g'risidagi farmoyishi, amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligini asoslovchi hujjatlarga ko'ra amalga oshiriladi.

Bankdagi hisobraqamlardan roziliksiz (akseptsiz) pul mablag'lari chiqarilishiga yo' qo'yilmaydi (qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollardan tashqari).

Bankdagi boshqa hisobraqamlar auditida, akkreditivlar, chek daftari, boshqa to'lov hujjatlari, maqsadli moliyalashtirish bo'yicha alohida ochilgan hisobvaraqlar bo'yicha o'tkazilgan muomalalar o'rganiladi.

Bunda hisob-kitoblarning akkreditiv shakli to'g'ri va qonuniy qo'llanilganligi, har bir akkreditiv faqat bitta mol yetkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilish uchun ishlatilganligi, muddatidan o'tib ketmaganligi, akkreditivni yopilishi to'g'ri rasmiylashtirilishi, akkreditivni tasdiqlovchi hujjatlar va bank ko'chirmalari mavjudligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, cheklar bilan amalga oshirilgan hisob-kitoblar me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar doirasida rasmiylashtirilganligi, maqsadli moliyalashtirish yo'nalishida olingan mablag'lar bo'yicha hujjatlarning to'liqligi, alohida balansga ega bo'lmagan tarkibiy tuzilmalarga joriy bankhisobvaraqlarining qonuniy ochilganligi, alohida balansga chiqarilgan tarkibiy tuzilmalarning hujjatlari to'liqligi, banklardan sotib olingan depozit sertifikatlarining (agar shunday muomalalar amalga oshirilgan bo'lsa) mavjudligi auditdan o'tkaziladi.

## Xulosalar

Aktivlar auditida ularning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda turlarga ajratilib, ushbu turlarga binoan audit bosqichlari shakllantirilgan holda olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, jarayonning ma'lum belgilar asosida turlarga ajratib auditning o'tkazilishi faoliyat samarasini oshirib, berilgan xulosalar sifatini oshiradi. Shu sababdan aktivlar auditini:

1. Uzoq muddatli aktivlar (asosiy vosita va nomoddiy aktivlar) auditida.

2. Uzoq muddatli ijaraga olingan va berilgan aktivlar auditi.
3. Moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar) auditi.
4. Qimmatli qog'ozlar auditi.
5. Joriy moddiy aktivlar auditi.
6. Joriy moliyaviy aktivlar auditi yo'nalishlarida tashkil etish zarur.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Aktivlar auditini tashkil etish yo'nalishlarini belgilang.
2. Aktivlar auditini tashkil etish bosqichlarini sanab o'ling.
3. Uzoq muddatli aktivlar harakatining buxgalteriya hisobida yuritilishi auditini izohlang.
4. Uzoq muddatli ijaraga olingan va berilgan aktivlar auditi to'g'risida fikringizni bayon eting.
5. Uzoq muddatli aktivlardan foydalanish jarayonidagi xarajatlar auditi, deganda nimani tushunasiz?
6. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar) auditini izohlang.
7. Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazing.
8. Joriy moddiy aktivlar auditi, deganda nimani tushunasiz?
9. Joriy moliyaviy aktivlar auditini bayon eting.

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Uzoq muddatli aktivlar auditi; uzoq muddatli ijaraga olingan va berilgan aktivlar auditi; uzoq muddatli aktivlardan foydalanish jarayonidagi xarajatlar auditi; moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar) auditi; qimmatli qog'ozlar auditi; joriy moddiy aktivlar auditi; joriy moliyaviy aktivlar auditi.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

1. Asosiy vositalar auditida tanlashni amalga oshirishda olingan natijalarni butun tekshirilayotgan jamlanmaga tatbiq etish nima deb ataladi?
  - A. Difraksiyalash.
  - B. Dispersiyalash.
  - C. Ekstrapolyatsiyalash.
  - D. Determinlash.

**2. Investitsiyalar auditini rejalashtirishning asosiy qoidalarini ko'rsating.**

- A. Komplekslilik, uzluksizlik, maqbullik.
- B. Aniqlilik, uzluksizlik, maqbullik.
- C. To'liqlik, uzluksizlik, maqbullik.
- D. Komplekslilik, aniqqlik, maqbullik.

**3. Auditor tovar-moddiy zaxiralarni to'g'ri baholanishini qaysi Milliy standartga muvofiq o'rganishi zarur?**

- A. 1-BHMS.
- B. 5-BHMS.
- C. 15-BHMS.
- D. 4-BHMS

## XIII mavzu. MAJBURIYATLAR AUDITI

---

### 13.1. Majburiyatlar auditining bosqichlari

Majburiyatlar auditini xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya balansining 2-«Majburiyatlar» bo'limi asosida olib borilib, ular asosida auditni o'tkazish bosqichlari shakllantiriladi. Majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilar, alohida bo'linmalar, soliqlar va majburiy to'lovlar, bank kreditlari kabilardan tashkil topib, ularning bajarilishi yuzasida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ularga binoan xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan majburiyatlarning vaqtida, tegishli tartibda bajarilmasligi uning moliyaviy holatini, mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini pasaytiradi.

**Majburiyatlar auditining maqsadi** – xo'jalik yurituvchi subyektning majburiyatlari to'liqligi, mavjudligi, aniqligi, davrining cheklanganligi, hisob-kitob tamoyillariga amal qilinganligini o'rganib, xulosa va takliflar tayorlash.

Bunda majburiyatlarga oid muomalalarning buxgalteriya hisobi va hisobotida to'liq aks ettirilganligi, majburiyatlar hajmi va ularni shaklan, qonuniylik, haqqoniylik mezonlariga mosligi, mehnat haqi va undan ushlanmalar, xizmat safari bo'yicha sutkalik xarajatlar va boshqalarning to'g'ri hisoblanganligi, majburiyatlarni vujudga kelish davrida buxgalteriya hisobvaraqlarida yuritilgani, me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq bayon qilingan, turkumlangan va taqdim qilinganligi audit qilinadi.

Majburiyatlar auditida quyidagi vazifalarga e'tibor qaratiladi:

1. Majburiyatlarga doir muomalalarni hisobga olish va bu jarayon samaradorligini baholash.
2. Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha majburiyatlarni hisob va hisobot ma'lumotlarida to'g'ri, ishonchli rasmiylashtirilganligini o'rganish.




3. Hisobdor shaxslar bilan majburiyatlarga doir hisob va hisobot ma'lumotlarining ishonchliligini baholash.

4. Davlat budjetidan tashqari fondlar (ijtimoiy sug'urta va ta'minot fondlari...) bilan majburiyatlarni o'rganish.

5. Bank kreditlari, boshqa qarzar bo'yicha majburiyatlar holatiga baho berish va h.k.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib majburiyatlar auditing yo'nalishlari shakllanadi (17-chizma).



17-chizma. Majburiyatlar auditi yo'nalishlari

Majburiyatlar auditing yo'nalishlari asosida uni o'tkazish bosqichlari shakllantiriladi. Xususan:

1. Uzoq muddatli majburiyatlar auditi:

1.1. Uzoq muddatli kreditorlik qarzlari auditi:

1.1.1. Muddati kechiktirilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzar auditi;

1.1.2. Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarzar auditi;

1.1.3. Alohida bo'linmalardan uzoq muddatli qarzar auditi;

1.1.4. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan uzoq muddatli qarzar auditi;

1.1.5. Muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar auditi;

1.1.6. Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlar auditi;

1.1.7. Muddati kechiktirilgan boshqa uzoq muddatli majburiyatlar auditi;

1.1.8. Xaridorlar, buyurtmachilardan olingan bo'naklar va boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari auditi.

1.2. Uzoq muddatli bank krediti, qarzlari auditi:

1.2.1. Uzoq muddatli bank kreditlari auditi;

1.2.2. Uzoq muddatli qarzlari auditi.

2. Qisqa muddatli majburiyatlar auditi:

2.1. Qisqa muddatli kreditorlik qarzlari auditi:

2.1.1. Muddati o'tgan (kechiktirilgan) joriy kreditorlik qarzlari auditi;

2.1.2. Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari auditi;

2.1.3. Alohida bo'linmalardan qarzlari auditi;

2.1.4. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan qarzlari auditi;

2.1.5. Muddati kechiktirilgan daromadlar auditi;

2.1.6. Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan (kechiktirilgan) majburiyatlar auditi;

2.1.7. Muddati o'tgan (kechiktirilgan) boshqa majburiyatlar auditi;

2.1.8. Olingan bo'naklar auditi;

2.1.9. Budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlari auditi;

2.1.10. Sug'urtalash bo'yicha qarzlari auditi;

2.1.11. Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari auditi;

2.1.12. Ta'sisshilarga qarzlari auditi;

2.1.13. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari auditi;

2.1.14. Boshqa kreditorlik qarzlari auditi.

2.2. Qisqa muddatli bank krediti, qarzlari auditi:

2.2.1. Qisqa muddatli bank kreditlari auditi;

2.2.2. Qisqa muddatli qarzlari auditi.

Yuqoridagi tartib asosida majburiyatlar auditi yuzasidan samarali boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi ta'minlanadi.

### **13.2. Uzoq muddatli majburiyatlar auditi**

Uzoq muddatli majburiyatlar — xo'jalik yurituvchi subyektning bir ishlab chiqarish davri bilan bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladigan va so'ndirish muddati 12 oydan ortiq bo'lgan majburiyatlar.

Uzoq muddatli majburiyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Uzoq muddatli qarzarlar.
2. Uzoq muddatga berilgan veksellar.
3. Obligatsiyalar bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar.
4. Uzoq muddatli ijara majburiyatlari.
5. Soliqlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar.
6. Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari.

Audit jarayonida uzoq muddatli majburiyatlarning tarkibi chuqurroq o'rganiladi. Jumladan, uzoq muddatli qarzar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- banklarning milliy valutatdagi uzoq muddatli kreditlari;
- banklarning xorijiy valutatdagi uzoq muddatli kreditlari;
- banklarning xorijiy valutatdagi muddati kechiktirilgan uzoq muddatli kreditlari;
- milliy va xorijiy valutatdagi boshqa uzoq muddatli qarzarlar.

Ushbu qarzarlar bo'yicha banklarga qarzdorlikning mavjudligi, qaytarish vaqti, kreditlardan foydalanganligi uchun foizlarni to'g'ri hisoblanganligi o'rganiladi. Bunda, uzoq muddatli majburiyatlarning olinishini hisobvaraqlarda aks ettirilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu ma'lumotlar asosida olingan uzoq muddatli qarzlarning hajmi aniqlanadi.

Uzoq muddatli qarzlarning ishlatilishi investitsiyalar, bankdagi hisob raqamlar, xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlardagi yozuvlarni o'rganish bilan bog'liq holda auditdan o'tkaziladi.

Qarzlarning o'z vaqtida so'ndirilishi, ularning harakatini hisobvaraqlarda rasmiylashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Uzoq muddatli qarzar auditida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Majburiyatlar vujudga kelishining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mosligi.

2. Olingan qarzar summasini asoslanganligi.

3. Majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilganligi.

4. Majburiyatlar harakati bilan bog'liq muomalalarni buxgalteriya yozuvlarida to'g'ri rasmiylashtirilgani.

5. Majburiyatlar bo'yicha diskontlarning to'g'ri qo'llanilganligi va boshqalar.

Uzoq muddatli ijara majburiyatlari auditining o'ziga hos xususiyatlari bo'lib, unda uzoq muddatli ijara majburiyatlari moliyaviy va moddiy ijara majburiyatlariga bo'lib o'rganiladi.

Soliqlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar auditi soliqlarning shakllanishi, ularni kechiktirilish sabablari, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan to'lanish muddatlari haqqoniy belgilanganligini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar auditida, boshqa kreditorlar, qaytarish sharti bilan olingan moliyaviy yordam, yuqoridagilardan farq qiluvchi xo'jalik muomalalari bo'yicha vujudga kelgan hisob-kitoblar ko'rib chiqiladi.

Ushbu majburiyatlarning yuzaga kelish haqqoniylikini aniqlashda dastlabki hujjatlardagi yozuvlarning to'g'riligi, ularning hisobvaraqlarda aniq aks ettirilishi baholanadi.

Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlarini auditi, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida mehnat ta'tili to'lovlarini ta'minlash, qo'shimcha pensiya to'lovlarini to'lash, kafillik bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini, moddiy rag'batlantirishni ta'minlash holatini o'rganishni o'z ichiga oladi.

### **13.3. Qisqa muddatli majburiyatlar auditi**

Qisqa muddatli majburiyatlar auditida bank tashkilotlari tomonidan berilgan qisqa muddatli kreditlar va boshqa qarzlarning holati, hajmi, harakatining buxgalteriya hisobida aks ettirilishining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga mosligi o'rganiladi. Qisqa muddatli majburiyatlar to'lov muddati yetib kelgan majburiyatlardan tubdan farq qilib, ular xo'jalik yurituvchi subyektning joriy aktivlarini shakllantirish uchun tegishli tashkilotlardan olinadi. Shu sababli auditda qisqa muddatli bank kreditlari va boshqa qarzlarning haqqoniyligi, hujjatlashtirilganligi, ular olinishining asoslanganligi, maqsadli foydalanishi, hisobvaraqlarda aks ettirilishi, to'liq va o'z vaqtida qaytarilishiga baho beriladi.

Auditda o'z mablag'lari bilan qarz mablag'larning nisbati aniqlanib, xo'jalik yurituvchi subyektning mablag'lar manbayida qisqa muddatli majburiyatlarning tutgan ulushi, kredit layoqati baholanadi va tegishli xulosalar olinadi.

Qisqa muddatli qarzlarni jalb qilish, xo'jalik yurituvchi subyekt va bank hamda boshqa tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro majburiyatlari va huquqini belgilaydigan kredit shartnomalarga asosan tartibga solinadi. Shu sababdan auditda kredit shartnomalarining mavjudligi, ularning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari doirasida, kredit

munosabatlarini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan banklar yoki boshqa kredit tashkilotlari bilan rasmiylashtirilgani o'rganiladi.

Qisqa muddatli qarzarlar auditida kredit berishning maqsadi, muddatlari, uni berish va qaytarish tartibi hamda shartlari, majburiyatlarni ta'minlash shartlari, foiz stavkalari, foizlarni to'lash tartibi va muddatlari, tomonlarning huquqlari va ma'suliyatlari e'tibor qaratiladi. Bunda, asosiy e'tiborni muddati o'tib ketgan qisqa muddatli qarzarlar mavjudligi, ularni o'z vaqtida qaytarilmaslik sabablari va bu borada amalga oshirilgan ishlar monitoring etilib, muddati o'tib ketgan majburiyatlar uchun shakllantirilgan foiz stavkalarining o'zgarishi tahlil etiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt qisqa muddatli majburiyatlarini hisob-kitob, valuta schyotlaridan pul o'tkazish yoki qimmatli qog'ozlarini berish yo'li bilan qaytaradi va ulardan foydalanganlik uchun foiz to'laydi. Auditda, to'langan foiz summalarining qaysi manbalar hisobidan qoplanganligini o'rganish jarayonning asosiy qismi hisoblanadi. Negaki, tartibga ko'ra qisqa muddatli majburiyatlar uchun foiz to'lovlari xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalarining «To'langan foizlar» qatorida aks ettirilishi zarur.

Xorijiy valutada olingan qisqa muddatli kredit, qarzlarning auditida ularning ba'zi xususiyatlari hisobga olinadi. Chunki ular valuta muomalalari sifatida xorijiy valutaning kurs tafovutlarini aniqlash va hisobda aks ettirishning amaldagi «Chet el valutasida amalga oshiriladigan muomalalarni buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotda aks ettirish TARTIBI»ga muvofiqligi o'rganiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekti faoliyatida boshqa qarzar beruvchilarning mablag'laridan ham foydalanadi va uning o'ziga xos jihatlari mavjud. Xususan, qisqa muddatli kreditlar hamma vaqt foizli bo'lib, qarzarlar foizli yoki foizsiz xo'jalik yurituvchi subyektga berilishi mumkin.

Qisqa muddatli majburiyatlar auditida kredit munosabatlarini asoslovchi hujjatlarning yo'qligi, moliyaviy natijalarda foiz stavkalarining noto'g'ri aks ettirilgani xato hisoblanadi.

### **13.4. To'lov muddati kelgan majburiyatlar auditida**

Xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov muddati kelgan majburiyatlari auditida mehnatga haq to'lash, mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan davolar, budjetga to'lovlar, muddati o'tgan (kechiktirilgan) joriy kreditorlik, alohida bo'linmalardan,

sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan, muddati kechiktirilgan daromadlari, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan (kechiktirilgan), sug'urtalash, olingan bo'naklar, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlari, ta'sischi'larga qarzlari o'rganiladi.

Mehnatga haq to'lash xarajatlari xo'jalik yurituvchi subyekt ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxida salmoqli hissaga ega. Shu sababli auditda ish haqi fondi, uning shakllanishi va sarflanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Mehnatga haq to'lash masalasida mutaxassisdan mehnatning tavsifi, mehnat xarajatlarini va uning natijalarini o'lchash, baholash, rastsenkalar, mukofotlarni belgilash bilan bog'liq ko'plab nozik va o'ziga xos tafsilotlarni bilish talab etiladi. Xususan:

1. Xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlarining shtat jadvalida belgilangan oylik maoshlariga rioya qilinishi, jumladan: shtat jadvalida boshqaruv kengashida tasdiqlanganligi; o'rindoshlik asosida mehnatga haq to'lashning to'g'riligi; shtat intizomiga rioya qilinishi; mehnat bitimlari bo'yicha haq to'lashning asoslanganligi.

2. Xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlariga mukofotlar tayinlash tartibi va asoslanganligi, mukofot tayinlash sabablarini aniqlash va mehnat jamoasi tomonidan qabul qilinib, tasdiqlangan mukofotlash tizimining yo'lga qo'yilgani.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektda ishbay haq to'lash holati, ya'ni, bajarilmagan ishlar uchun mablag'ning ajratilgani, haq to'lashning akkord tizimi qo'llanilganligi, akkord naryadlarining tegishli butun ish uchun qilingan kalkulyatsiya bilan asoslanishi, akkord topshiriqlarining belgilangan muddatda bajarilganligi o'rganiladi.

Shuningdek, mehnatga haq to'lash jarayonida: mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar; xizmat safari uchun berilgan bo'naklar; umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar; kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzlari; berilgan qarzlarni bo'yicha xodimlarning qarzlari; moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzlari; deponentlangan mehnat haqi; hisobdor shaxslarga to'lanadigan qarzlarni holati va harakatining amaldagi buxgalteriya hisobi talablariga mosligi baholanadi.

Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditida, hisob registrlarida dastlabki hujjatlar va shartnomalarning raqamlari hamda tuzilgan sanalari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligi; hisob registrlarida ko'rsatilgan shartnomalar va dastlabki hujjatlarning haqiqatda mavjudligi; dastlabki hujjatlar va

hisob registrlaridagi ma'lumotlarning mosligi, moddiy qiymatlik (ish, xizmat)lar uchun o'z vaqtida va to'liq haq to'lanishi, olingan moddiy qiymatlik (ish, xizmat)larning to'liqligi va to'g'ri kirim qilinishi kabilar o'rganiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullansa, xorijdan olingan import mahsulot (ish, xizmat)larni kirim qilish sanasiga amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining valuta kursi va to'lovning amalga oshirilishi, ushbu valuta kursi farqlari, qo'shilgan qiymat solig'i summasi va tovarni xaridorga yetkazib berishda transport xarajatlarini qoplash hamda hisob-kitob qilish shartlarining to'g'riligi baholanadi.

Da'volar auditda, da'volar bo'yicha hajmi, vujudga kelish muddatlari, da'vo qilingan va qarzdor tomonidan tan olinishi, da'volarning vujudga kelish sabablariga baho beriladi.

Da'vo muddati o'tib ketgan va undirib olish imkoni bo'lmagan boshqa qarzlarning hisobdan o'chirilishi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksining 154-moddasiga muvofiq, bosqaruvchining buyrug'iga ko'ra moliyaviy natijalar hisobidan va boshqa shu kabilar hisobidan amalga oshiriladi.

Budjet bilan hisob-kitoblar auditida xo'jalik yurituvchi subyektning soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha to'lanadigan soliqlarning to'g'ri, vaqtida, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida hisoblanganligi, to'langanligi o'rganiladi va soliqlarni hisob-kitob qilishda buxgalteriya hisobi tamoyillari, soliq stavkalarining qo'llanilishi, soliqqa tortiladigan bazaning aniqlanishi, soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlar, penya va jarimalarning hisobga olinishiga baho beriladi. Bu jarayonda yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foйда) solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va yer ostidan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar, yagona yer solig'i (qishloq xo'jalik subyektlarida), mahalliy soliqlar va yig'implar, mol-mulk solig'i asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urta va ta'minotga doir majburiyatlar auditida har bir fond va sug'urta turi bo'yicha to'lov (badal) hisoblash uchun qabul qilingan bazaning ishonchliligi, tegishli fondlar bo'yicha sug'urta badallari stavkalarini qo'llashning to'g'riligi, sug'urta badallarini hisoblash manbalari o'rganiladi.

Muddati yetib kelgan to'lov majburiyatlarining muddatlariga e'tiborsizlik hisob-kitob tamoyillarining buzilishi sanaladi va ularning da'volari bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilish tartibi mavjud. Shu sababli bu jarayon chuqur audit qilinib, aniqlangan kamchiliklarning tez bartaraf etilishi talab etiladi.

## **Xulosalar**

Majburiyatlar auditini ularning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda 1. Uzoq muddatli majburiyatlarni: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari auditi; uzoq muddatli bank krediti, qarzlari auditi, 2. Muddati yetib kelgan to'lov majburiyatlari auditini: muddati o'tgan (kechiktirilgan) joriy kreditorlik qarzlari auditi; mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari auditi; alohida bo'linmalardan qarzlari auditi; sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan qarzlari auditi; muddati kechiktirilgan daromadlar auditi; soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan (kechiktirilgan) majburiyatlar auditi; muddati o'tgan (kechiktirilgan) boshqa majburiyatlar auditi; olingan bo'naklar auditi; budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari auditi; sug'urtalash bo'yicha qarzlari auditi; Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari auditi; ta'sischi'larga qarzlari auditi; mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari auditi; boshqa kreditorlik qarzlari auditi, 3. Qisqa muddatli bank kreditlari va boshqa qarzlari auditi yo'nalishlarida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Muddati kechiktirilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari auditini bayon eting.
2. Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarzlari auditini izohlang.
3. Alohida bo'linmalardan uzoq muddatli qarzlari auditini yoriting.
4. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan uzoq muddatli qarzlari auditiga izoh bering.
5. Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlar auditini bayon eting.
6. Uzoq muddatli bank krediti, qarzlari auditini izohlang.
7. Qisqa muddatli kreditorlik qarzlari auditini bayon eting.



8. Qisqa muddatli bank kreditlari auditini yoriting.
9. Qisqa muddatli qarzlarni auditini izohlang.

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Qisqa muddatli bank krediti, qarzlarni; uzoq muddatli kreditorlik qarzlarni auditini; muddati kechiktirilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlarni auditini; mahsulot yetkazib beruvchilarni va pudratchilardan uzoq muddatli qarzlarni auditini; alohida bo'linmalardan uzoq va qisqa muddatli qarzlarni auditini; sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan uzoq va qisqa muddatli qarzlarni auditini; muddati kechiktirilgan uzoq va qisqa muddatli daromadlarni auditini; soliqlarni va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar auditini; muddati kechiktirilgan boshqa uzoq muddatli majburiyatlar auditini; xaridorlarni, buyurtmachilardan olingan bo'naklarni va boshqa uzoq, qisqa muddatli kreditorlik qarzlarni auditini; uzoq va qisqa muddatli bank krediti, qarzlarni auditini.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

1. Joriy majburiyatlar auditida kamchiliklar sabablarini surishtirish auditorlik dalillarini olishning qaysi turiga mansub?

- A. Nazorat.
- B. So'rov.
- C. Hisoblash.
- D. Analitik amallar.

2. Hisob-kitob muomalalari auditini quyidagi tartibda o'tkaziladi:

3. Birlamchi hujjatlar o'rganiladi va ulardagi ma'lumotlarni to'g'ri qayd etilganligi aniqlanadi.

A. Hisob ma'lumotlari bo'yicha tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar bilan hisob-kitob ishlari o'rganiladi, qarzlarni haqqoniylik inventarizatsiya qilinadi.

B. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar, budjet bilan hisob-kitoblar o'rganiladi.

C. A va B javoblar to'g'ri.

## XIV mavzu. XUSUSIY KAPITAL AUDITI

---

### 14.1. Xususiy kapital auditi bosqichlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kapitali ikki manba: xususiy kapital yoki majburiyatlar asosida shakllanadi.

Xususiy kapital tushunchasi O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, 142-m.), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998-yil 26-iyulda 17-07/86-son bilan tasdiqlangan (ro'yxat raqami 475, 1998-yil 14-avgust, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999-y., 5-son) Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998-yil 26-iyulda 17-07/85-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining «hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar» Buxgalteriya hisobi milliy standartida (ro'yxat raqami 474-son, 1998-yil 14-avgust, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999-yil, 5-son) keltirilganidek, quyidagi tarkibiy qismlari to'g'risidagi, ustav kapital, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan o'z aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlari haqidagi axborotni umumlashtiradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning xususiy kapitali iqtisodiy tuzilishiga ko'ra ikki, xususan: o'zgarmas va o'zgaruvchan turlariga ajratiladi. Xususiy kapitalning o'zgarmas qismi bevosita ustav kapitali bilan bog'liq bo'lsa, o'zgaruvchan tarkib bevosita qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda ko'rsatkichlari asosida shakllanadi.

Xususiy kapitalning o'zgaruvchan qismi hisoblangan xo'jalik yurituvchi subyektning foydasi ikki funksiyani bajaradi. Jumladan:

1. Davlat budjetining daromad manbayini ta'minlaydi.
2. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish manbayi bo'lib hisoblanadi (investitsion faoliyatga jalb etiladi).

Shu sababdan xususiy kapital auditida ta'xis hujjatlari (ustav, ta'xis shartnomasi) mavjudligi, shakllari va to'g'ri rasmiylashtirilganligi, ular mazmunining amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjat talablariga muvofiqligi, to'liq va o'z vaqtida shakllanishi, qo'shilgan ulushlarining to'g'ri baholanishi, tegishli muomalalarning hisobvaraqlarda to'g'ri aks ettirilgani o'rganiladi.


Bunda, ta'sis hujjatlarida xo'jalik yurituvchi subyektning qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanishi, amalga oshirayotgan faoliyat turlarining ta'sis hujjatlariga muvofiqligi, tegishli faoliyat bilan shug'ullanish uchun litsenziyaning mavjudligiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, auditda faoliyat turlari bo'yicha olingan litsenziyaning amal qilish muddatini o'rganishi zarur. Chunki litsenziya xo'jalik yurituvchi subyektning unda ko'rsatilgan vaqt oralig'dagina faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Tegishli litsenziyaga ega bo'lmasdan turib xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishiga yo'l qo'yilmaydi.

Auditda mutaxassisning mulkchilik shakli, uning egasi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi talab etiladi. Sababi xo'jalik yurituvchi subyekt bitta ta'sischi tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, auditor shu ta'sischi tomonidan tasdiqlangan, tegishli tartibda davlat tashkilotlaridan ro'yxatdan o'tgan va notarial idora tomonidan tasdiqlangan ustav asosida faoliyat ko'rsatishini o'rganadi. Bir necha ta'sischi tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, u holda ta'sis shartnomasi tuzilishi va ustav ta'sischi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi zarur. Ta'sis shartnomasini o'rganishda unda keltirilgan quyidagi shartlarga e'tibor qaratiladi: mulklarni ulush sifatida qo'shishga, faoliyatni boshqarish va aralashishga, ko'rilgan moliyaviy natijalarni ta'sischi o'rtasida taqsimlanishiga, ta'sischi faoliyatdan chiqilishiga, ulushni sotish tartibiga, ulushining hajmi va uni o'zgartirish tartibiga, ulushlarni qo'shishga doir majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarliklarga va boshqalar.

Ta'sis hujjatlarini o'rganishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'ziga xos jihatlari inobatga olinishi zarur. Chunki mamlakat iqtisodiyotida turli ukladga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlari faoliyatda bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan, aralash mulkchilikka asoslangan aksiyadorlik jamiyatining ta'sis hujjatlari ustav kapitalining hajmi, chiqariladigan aksiyalarning toifalari, nominal qiymati va miqdori, aksiyadorlarning huquqlari to'g'risidagi shartlar asosida shakllantiriladi.

## **14.2. Ustav kapitalining shakllantirilishi va o'zgarishlari audit**

Ustav kapitali mulkchilik shakliga binoan shakllanadi va nomlanadi. Xususan, xususiy sektor subyektlarida — ustav kapitali, davlat ukladidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda — ustav fondi, deb nomlanadi (18-chizma).



**18-chizma. Ustav kapitalining mulkchilik shakliga binoan shakllanishi va nomlanishi**

Ustav kapitali auditi uning tashkiliy jihatdan, ya'ni: davlat ro'yxatiga olinganligi to'g'risida guvohnoma; tegishli buyruqlar va farmoyishlarning mavjudligi; aksiyalarga obuna bo'lish, savdo natijalari to'g'risidagi ta'sischi yoki aksiyadorlar majlisining bayonnomalari; soliq inspeksiyasida hisobga olinganligi to'g'risida ma'lumotnoma, davlat statistika organlari, tegishli sug'urta tashkilotlari va boshqa budjetdan tashqari tashkilotlarda ro'yxatga olinganligi to'g'risida guvohnoma; amaldagi qonunchilikka muvofiq faoliyat turlari uchun berilgan litsenziyalarning borligi o'rganiladi.

Auditning navbatdagi bosqichi ta'sischi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga binoan tegishli ulushlarini ustav kapitaliga o'z vaqtida, to'g'ri, to'liq qo'shganiga baho beradi.

Ta'sischi tomonidan ustav kapitaliga kiritilgan ulush, amaldagi qonunosti hujjatlarga binoan qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Ustav kapitali pul, qimmatli qog'ozlar, mulkiy huquqlar va pulda baholanadigan boshqa huquqlar shaklida shakllantiriladi. Shu bois, auditda ta'sischi tomonidan kiritilgan ulushlarni pulda baholash jarayoni to'g'ri amalga oshirilganiga e'tibor qaratiladi.

Ta'sischi tomonidan ustav kapitaliga qo'shiladigan ulushlar buxgalteriya hisobi va hisobotida ularning haqiqatda kirim qilinishi me'yoriga qarab aks ettiriladi. Xususan, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy qiymatliklar uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, bank ko'chirmasi va unga ilova qilingan tegishli hujjatlar asosida aktivlarining kirimi va boshqalar.

Ulushlar belgilangan miqdori kirim qilinganidan so'ng ustav kapitali buxgalteriya hisobida aks ettirilib, har bir ishtirokchi bo'yicha hisob yuritiladi.

Ustav kapitalining miqdori ta'sis hujjatlarida belgilangan hajmdan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. Ustav kapitalining summasi ta'sis hujjatlari, hisob registrlari va hisobotdagi ma'lumotlarga teng bo'lishi zarur.

Ustav kapitaliga chet el valutasida qo'shiladigan ulushlar amaldagi tartibga muvofiq amalga oshiriladi. Chet el valutasidagi ustav kapitali va ta'sischi'larning ustav kapitaliga ulushlari bo'yicha qarzlarni shakllantirish ta'sis hujjatlari imzolangan sanada amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan kurs bo'yicha so'mga hisoblab o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda auditor chet el valutasini kursi va so'mga hisoblab o'tkazishning to'g'riligi, hisobvaraqlarda to'g'ri aks ettirilishini o'rganadi.

Aralash mulkchilikka asoslangan aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitalining to'g'ri shakllantirilishini o'rganishda quyidagi talablarga e'tibor qaratiladi:

1. Ustav kapitalining aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topganligi.

2. barcha aksiyalar egasiga egaligi va ularning ta'sischi'larning o'rtasida joylashtirilgan bo'lishi.

3. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining 10 foiz hajmdan ortiq bo'lmasligi.

4. Belgilangan muddatlarda ustav kapitalining to'liq shakllanishi.

5. Aksiyalarni reyestrlarida ro'yxatga olinganligi va boshqalar.

Ustav kapitaliga ulushlarning to'g'ri kiritilganini ta'sischi'larning bilan hisob-kitoblarni tasdiqlovchi hujjatlarni o'rganish orqali baholaydi. Chunki ushbu hujjatlarda ustav kapitalini shakllantirishga oid ko'rsatmalar orqali tegishli muomalani buxgalteriya hisobvaraqlarida to'g'ri aks ettirish va soliqlar bo'yicha imtiyozlar asoslanadi.

Shuningdek, ustav kapitaliga kiritilgan ulushlar inventarizatsiyasida faoliyatga kiritilgan aktivlar, ya'ni yaroqsiz asosiy vositalar, qiymatini yo'qotgan nomoddiy aktivlarning bor yoki yo'qligi o'rganiladi. Ustav kapitali belgilangan tartibda, ya'ni aksiyalar nominal qiymatini oshirish, qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilgan yoki kamaytirilganda aksiyadorlik jamiyatining ta'sis hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, shundan so'ng uning hajmini o'zgartirish mumkin.

Ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini yoki ularning umumiy sonini qisqartirish, aksiyalarning bir qismini jamiyatning

o'zi keyinchalik muomaladan chiqarish sharti bilan sotib olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin. Shuningdek, ustav kapitali xo'jalik yurituvchi subyektning xususiy manbalarini kapitallashtirish hisobiga ko'paytirilishi, yoki ulushini qaytarib olishi hisobiga kamaytiriladi.

Audit yakunida ustav kapitalini buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish bo'yicha ijobiy yoki salbiy auditorlik xulosasi tuzadi.

### 14.3. Qo'shilgan kapital auditi

Qo'shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan yuqori bahoda sotishdan olingan emission daromadlar va ustav kapitalini shakllantirishda hosil bo'lgan kurs tafovutlarni hisobga oladi. Shu sababdan qo'shilgan kapital tarkibining to'g'ri shakllanishi va o'zgarishlarini tegishli asoslarga muvofiq o'rganib, natijalari baholanadi.

Qo'shilgan kapital auditidan maqsad — xo'jalik yurituvchi subyektida qo'shilgan kapital shakllanishi va ishlatilishi hisobini to'g'ri tashkil etilganini o'rganish.

Bu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarning hal qilinishi talab etiladi:

1. Qo'shilgan kapitalning to'g'ri shakllantirilgani.
2. Qo'shilgan kapitalning to'g'ri ishlatilgani.
3. Qo'shilgan kapitalga oid muomalalarning buxgalteriya hisobvaraqlarida to'g'ri aks ettirilgani.
4. Qo'shilgan kapitalning buxgalteriya hisobi hamda hisobotlarida aniq, to'g'ri ko'rsatilgani va boshqalar.

Qo'shilgan kapital auditining birinchi bosqichida dastlabki hujjatlar, xususan, asosiy vositalarni qayta baholashga, emission daromatlarning hisob-kitoblariga, aksiyalarning sotish bahosini uning nominal qiymatidan farqiga doir materiallar, shuningdek, ta'sischilarning qo'shilgan kapitalni sarflashga hamda buxgalteriya hisobotlarida aks ettirilishiga oid qarorlari o'rganiladi.

Qo'shilgan kapital auditida:

-o'tgan hisobot davri bo'yicha hisobvaraqlar qoldig'i joriy yil boshlanishiga hisob registrlariga to'g'ri o'tkazilganligi;

- hisobot davrining boshlanishi va oxiriga buxgalteriya hisobotida aks ettirilgan ko'rsatkichlar qo'shilgan kapital hisobga olinadigan hisobvaraqlardagi ma'lumotlarga mosligi;

- qo'shilgan kapitalni shakllantirish me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilayotganligiga ishonch hosil qilish kerak.

Qo'shilgan kapital auditida dastlab, emission daromadlar aksiyalarni birlamchi sotishda nominal qiymatidan yuqori bahoda sotilishi natijasida olingan natija hisobiga shakllanganligi o'rganib chiqiladi.

Ustav kapitalini shakllantirishda xorijiy valuta va xorijiy valutadagi qimmatliklar ulushlarni ustav kapitaliga kiritish kuniga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan xorijiy valutalarning so'mga nisbati (kursi) bo'yicha baholanishi kerak. Audit davomida ustav kapitalidagi ulushlarni ta'sis hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish kuniga va haqiqatda kiritilgan sanaga bo'lgan valuta kurslari o'rtasidagi ijobiy farq ustav kapitalini shakllantirish jarayonida hosil bo'lgan qo'shilgan kapital sifatida hisobga olinganligi o'rganiladi. Bunda salbiy farq ilgari yig'ilgan ijobiy farq hisobidan qoplanganligi, yig'ilgan ijobiy farq summasi salbiy farqni qoplay olmasa, qoplanmagan summa xo'jalik yurituvchi subyekt zarari sifatida hisobga olinganligiga alohida e'tibor beriladi. Ushbu farq summasi har bir ta'sischi bo'yicha alohida hisobga olingan bo'lishi kerak.

Qo'shilgan kapital xususiy kapitalning tarkibiy qismi sifatida xo'jalik yurituvchi subyektning barcha ta'sischilari umumiy mulki hisoblanadi. U xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalariga bo'liq bo'lmagan hodisalar natijasida xususiy kapitalda bo'lgan o'zgarishlarni ifodalaydi.

#### **14.4. Rezerv (zaxira) kapitali auditida**

Xo'jalik yurituvchi subyekt aktivlarini ko'zda tutilgan muddat-arda qayta baholashdan yuzaga kelgan zaxiralar, uning ta'sis ujjatlariga muvofiq foyda hisobidan shakllantirilgan zaxiralar, badalsiz olingan mol-mulk summasi zaxira kapitalini tashkil qiladi.

Zaxira kapitali auditida uni shakllantirish uchun asos bo'lgan me'yoriy hujjatlarga rioya qilinayotganligi o'rganiladi. Zaxira kapitali mulklarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar amalga oshirilganda, ya'ni mulklarni qayta baholash to'g'risida hukumat qarorlari, uslubiy

ko'rsatmalari, hisob siyosati va boshqa asoslarga ko'ra har bir obyekt bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Auditda qayta baholash natijasida aktivlar qiymati kamayishi ushbu sanaga har bir aktiv obyektini qiymatining oshishi bo'yicha yig'ilgan summa hisobidan qoplangani, ushbu summa yetishmagan taqdirda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa operatsiyon xarajatlari tarkibiga kiritilgaligiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, qayta baholangan aktivlar bo'yicha ammortizatsiya summasini qayta baholash yig'ilgan rezerv (zaxira) kapitali hisobiga qoplanganligi o'rganiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tugatilayotganda aktivlarni qayta baholashdan yig'ilgan rezerv (zaxira) summasi ta'sischi o'rtasida ulushlariga muvofiq taqsimlanadi.

Audit jarayonida rezerv (zaxira) kapitali (fondi) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlariga muvofiq shakllantirilganligi o'rganib chiqiladi. Shuningdek, tashkil etilgan rezerv (zaxira) kapitali (fondi) balansda aks ettirilgan umumiy zararni qoplash va boshqa maqsadlarga faqat qoplashning boshqa manbalari mavjud bo'lmagan hollarda sarflanganligiga alohida e'tibor beriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlarida belgilangan me'yorga yetgandan so'ng rezerv (zaxira) kapitali (fondi)ga ajratmalar ajratish to'xtatilishini ham nazarda tutish kerak.

Badalsiz olingan mol-mulk auditida ushbu aktiv qaytarib berilmasligi sababli soliqqa tortilganligi o'rganiladi.

#### **14.5. Xususiy kapitalning boshqa elementlari auditida**

Xususiy kapitalning boshqa elementlari auditida:

1. Sotib olingan o'z aksiyalari, xususan, imtiyozli va oddiy aksiyalarning mavjudligi hamda harakati.

2. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ning hisobot davridagi va yillar bo'yicha yig'ilib kelayotgan summasi harakati.

3. Maqsadli tushumlarning kelib tushishi va kamayishi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshirilganligi o'rganiladi.

Ustav kapitali sotib olingan o'z aksiyalari hisobiga kamayib, buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettirilishi auditda inobatga olinishi kerak. Shuningdek, sotib olingan o'z aksiyalar sotib olish qiymatidan ortiqcha narxda qayta sotilayotganda, farqi moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlariga qo'shilishi, o'z qiymatidan past



narxda sotilganda esa moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni oshirishiga e'tibor qaratiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, nominal qiymatidan past narxda sotib olingan o'z aksiyalari bekor qilinganda, farqi moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar, nominal qiymatidan yuqori narxlarda sotib olinganda esa, farqi moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar tarkibiga qo'shilgan bo'lishi kerak.

Ta'sischilarning ulushlari asosida tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda ulushlarni sotib olish va sotishda ham yuqorida ko'rilgan jihatlarga ahamiyat beriladi.

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) auditida yakuniy moliyaviy natija summasining to'g'ri aks ettirilganligi o'rganilib, hisobot yili foydasining sarflanishi ta'sis va me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshirilganligi, rezerv (zaxira)lar to'g'ri tashkil qilinganligi, o'tgan yil foydasi dividend to'lovlariga to'liq va aniq yo'naltirilganligi, taqsimlanmagan foyda summasi hisobotlarda aks ettirilganligiga e'tibor qaratiladi.

Maqsadli tushumlar auditida xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan olingan grantlar, subsidiyalar, a'zolik to'lovlari, ma'lum maqsadlarda ishlatiladigan soliq imtiyozlari va boshqa maqsadli tushumlarni O'zbekiston Respublikasi qonunlari va qonunosti hujjatlari talablariga muvofiq olinganligi, ko'zda tutilgan maqsadlarga sarflanishi, hisobvaraqlardan o'chirilishi to'g'riligini o'rganish zarur. Xususiy kapitalning boshqa elementlari auditini yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi.

## **Xulosalar**

Xususiy kapital auditining o'ziga xos xususiyatlari mulkchilik ukladlarining o'ziga xos tomonlari bilan izohlanadi. Shu sababdan xo'jalik yurituvchi subyektlarning xususiy, ya'ni ustav, qo'shilgan, rezerv (zaxira) va kapitalning boshqa elementlari auditini mulk ukladlaridagi o'ziga xos tomonlar asosida shakllantirish zarur.

## **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Xususiy kapital auditini bosqichlarini sanab o'ting.
2. Davlat ukladidagi tashkilotlarda ustav fondining shakllantirishi va o'zgarishlari auditini to'g'risida ma'lumot bering.

3. Aralash mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlarda ustav kapitalining shakllantirilishi va o'zgarishlari auditini izohlang.

4. Jamoa mulkchiligiga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlarda ustav kapitalining shakllantirilishi va o'zgarishlari auditini bayon eting.

5. Xususiy mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlarda ustav kapitalining shakllantirilishi va o'zgarishlari auditini izohlang.

6. Qo'shilgan kapital auditini bayon eting.

7. Rezerv (zaxira) kapital auditini izohlang.

8. Sotib olinga xususiy aksiyalar auditini to'g'risida ma'lumot bering.

9. Xususiy kapitalning boshqa elementlarining auditini izohlang.

### **Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar**

Xususiy kapital auditini; ustav fondi auditini; ustav kapitali auditini; qo'shilgan kapital auditini; rezerv (zaxira) kapital auditini; sotib olingan xususiy aksiyalar auditini; taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) auditini; maqsadli tushumlar auditini.

### **Mavzu bo'yicha testlar**

**1. Ustav kapitali auditini bo'yicha tuzilgan tashkiliy hujjatlar to'plami qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Soliq inspeksiyada hisobga olinganligi to'g'risida ma'lumotnoma, davlat statistika organlari, tegishli sug'urta tashkilotlari va boshqa budjetdan tashqari tashkilotlarda ro'yxatga olinganligi to'g'risida guvohnoma.

B. Amaldagi qonunchilikka muvofiq litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat turlari uchun berilgan litsenziyalar.

C. Aksiyalarga obuna bo'lish natijalari to'g'risidagi, savdo natijalari to'g'risidagi, ta'sischi yoki aksiyadorlar majlisining bayonnomalari.

D. Dalolatnomalar, nakladnoylar, bank ko'chirmalari, to'lov-topshiriqnomalari nusxalari, kassa kirim orderlarining kvitansiyalari.

**2. Quyidagi javoblarning qaysi birida xususiy kapital auditining obykti to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A. Ustav kapitali, rezerv kapitali, uzoq muddatli bank kreditlari.
- B. Ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda, rezerv kapitali, debitorlik qarzlari.
- C. Ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda, rezerv kapitali, debitorlik qarzlari, qo'shilgan kapital.
- D. Ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), rezerv kapitali, qo'shilgan kapital va boshqa xususiy kapital elementlari.

**3. Auditor ta'sischi ulushlarining ustav kapitaliga qo'shilganligini tasdiqlovchi hujjatlar to'plamiga qaysi hujjatni kiritmaydi?**

- A. Bank ko'chirmalari.
- B. To'lov-topshiriqnomalari nusxalari.
- C. Amortizatsiya hisoblash qaydnomasi.
- D. Kassa kirim orderlarining kvitansiyalari

**4. Ustav kapitaliga ta'sischi tomonidan ulushlar qo'shilmagan yoki to'liq qo'shilmagan holatlar aniqlansa, auditor qanday qarorga keladi?**

- A. Faoliyatni vaqtinchalik to'xtatilishiga asos bo'ladi.
- B. Xo'jalik yurituvchi subyekt ta'sis etilmagan va tugatilishi kerak, deb topilishiga asos bo'ladi.
- C. Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati noqonuniy, deb topilishiga asos bo'ladi.
- D. Boshqa xo'jalik yurituvchi subyektga qo'shilishi kerak, deb topilishiga asos bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, NMIU 2014 y.-73- b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi». T.: 1998-yil 30-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolik kodeksi». T.: 1996-yil 29-avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksi». T.: 2007-yil 23-noyabr.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni. 1996-yil 30-avgust.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni. (yangi tahriri). 2000- yil 26- may.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirish tarkibi to‘g‘risida»gi Nizomi. 1999- yil 5- fevraldagi 54-sonli qaror.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 365-sonli «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to‘g‘risida»gi qarori. 2000-yil 22-sentabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 14-sonli buyrug‘i (O‘zR. AV tomonidan 24.01.2003-yilda 1209-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).
10. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi Milliy standartlari.- T.: O‘z. BAMA. 1999- y.
11. O‘zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining Milliy standartlari.
12. Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari. Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi. 2008-yil.
13. Международные стандарты финансовой отчетности. – М.: Аскери – АССА. 1999 г..
14. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. Budjet nazorati va auditi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2009- y 192- b.
15. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uni O‘zbekiston sharoitida bartaraf etish yo‘llari va choralari». T.: «O‘zbekiston», 2009-y. – 56-b.

16. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi». «Xalq so‘zi» gazetasi, 2009-yil 13-fevral.

17. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-Toshkent: «O‘zbekiston», 2010-yil 80-b.

18. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish va xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Toshkent: «O‘zbekiston». 2011-y, 45-b..

19. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. T.: «O‘ZBEKISTON», NMIU, 2012, 35-b.

20. Аржевитина Н.С., Старкова Е.А.; под ред. Е.В. Шевелевой. История бухгалтерского учета: учебное пособие /– Челябинск: Изд-во ЮУр- ГУ, 2006. – 74 с..

21. Бабаев Ю.А., Петров А.М. Теория бухгалтерского учета. – М.: Проспект, 2012. – 240 с..

22. Бутрин А.Г., Ковалев А.И. Управление оборотными средствами в цепи поставок промышленного предприятия // Экономический анализ: теория и практика. – 2011. - № 3. – С. 52 – 57..

23. Битюкова Т.А., Ерофеева В.А., Пискунов В.А. Аудит 2-е изд. Учебное пособие для вузов. – М.:Издательство Юрайт, 2011 г. – 638 с..

24. Вещунова Н.Л., Фомина Л.Ф. Бухгалтерский учет. – М.: Рид Групп, 2011. – 608 с..

25. Веретенникова О.Б., Лаенко О.А. Оценка эффективности использования оборотного капитала хозяйствующих субъектов // Управленец. – 2011. - № 11-12. – С. 52 – 55 с..

26. Веретенникова О.Б., Лаенко О.А. Сущность оборотного капитала предприятия и его классификация // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. – 2012. - № 2. – С. 178 – 183 с..

27. Воронина, Л. И. Аудит: теория и практика : учеб. для бакалавров / Л. И. Воронина. – М. : Омега-Л, 2012. – 674 с..

28. Гомола А.И., Кириллов В.Е., Кириллов С.В. Бухгалтерский учет. – М.: Академия, 2011. – 432 с..

29. Грачева М.Е. Анализ собственных оборотных средств и рабочего капитала // Аудит и финансовый анализ. – 2011. - № 6. – С. 133 – 138 с..

30. Григорьева, Т. И. Финансовый анализ для менеджеров: оценка, прогноз : учеб. для магистров / Т. И. Григорьева. – 2-е изд., перераб. и доп. – М. : Юрайт, 2012. – 462 с..

31. Данилин В.Н., Данилина Е.И. О новой концепции воспроизводства оборотного капитала в современных условиях

хозяйствования // Проблемы современной экономики. – 2012. - № 1. – С. 43 – 46 с..

32. Зобова Е.В. Источники финансирования оборотного капитала предприятия // Социально-экономические явления и процессы. – 2011. - № 11. – С. 83 – 87 с..

33. Касьянова Г.Ю. Главная книга бухгалтера. – М.: АБАК, 2013. – 864 с..

34. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет. – М.: Инфра-М, 2012. – 656 с.

10. Кондраков Н.П., Кондраков И.Н. Бухгалтерский учет в схемах и таблицах. – М.: Проспект, 2013. – 280 с..

35. Карагод, В. С. Международные стандарты финансовой отчетности : учеб. пособие для бакалавров / В. С. Карагод, Л. Б. Трофимова. – 3-е изд., испр. и доп. – М. : Юрайт, 2012. – 322 с..

36. Кирьянова, З. В. Анализ финансовой отчетности : учеб. для бакалавров / З. В. Кирьянова, Е. И. Седова. – 2-е изд., испр. и доп. – М. : Юрайт, 2012. – 428 с..

37. Ковалев, В. В. Корпоративные финансы и учет: понятия, алгоритмы, показатели : учеб. пособие / В. В. Ковалев, Вит. В. Ковалев. – 2-е изд., перераб. и доп. – М. : Проспект, 2012. – 874 с..

38. Коношляник, Т. М. Основы аудита : учеб. пособие / Т. М. Коношляник, Н. А. Мухарева. – М. : КНОРУС, 2012. – 311 с..

39. Международные стандарты финансовой отчетности : учебник / под ред. В. Г. Гетьмана. – 2-е изд., перераб. и доп. – М. : ИНФРА-М, 2013. – 558 с..

40. Савин, А. А. Аудит налогообложения : учеб. пособие / А. А. Савин, А. А. Савина. – 2-е изд. – М. : Вузовский учебник : ИНФРА-М, 2013. – 366 с..

41. Суворова, С. П. Международные стандарты аудита : учеб. пособие / С. П. Суворова, Н. В. Парушина, Е. В. Галкина. – 2-е изд., перераб. и доп. – М. : Форум : ИНФРА-М, 2012. – 303 с..

42. Толпегина О.А., Толпегина Н.А. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. – М.: Юрайт, 2013. – 672 с..

43. Tuloxodjaeva M.M., Ilxomov Sh.I., Axmadjonov K.B. va boshqalar. Audit. Darslik. 1-jild. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent: NORMA/ 2008/- 320 b.

44. Tuloxodjaeva M.M., Ilxomov Sh.I., Axmadjonov K.B. va boshqalar. Audit, Darslik. 2-jild. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent: NORMA/ 2008/-320 b..

45. Ковалев В.В., Ковалев Вит. В. Анализ баланса или как понимать баланс. Учебно-практическое пособие – М.: Проспект, 2010-560 ст..

46. Kosimov X., Yugay L., Xoshimova A., Pardayev B., V.Abdunazarov. Auditorlik faoliyati bo'yicha uslubiy qo'llanmalar to'plami/ -Toshkent, 2010.-320 b..

47. Пачоли Л. Трактат о счетах и записях. М.: «Финансы и статистика», 1983 г. 286 с..

48. Саталкина Н.И., Герасимов Б.И., Терехова Г.И., Румянцев Е.К., Тен А.В.; под ред. д-ра экон. наук, проф. Герасимова Б.И.. История экономического анализа: учебное пособие /– Тамбов : Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2009. – 100 с.

49. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. – 5-е изд.,– М.: ИНФРА – М, 2011. – 536 ст..

50. Федоренко, И. В. Аудит : учебник / И.В. Федоренко, Г.И.Золотарева. – М: ИНФРА-М, 2013. – 272 с.

51. Чуев И.Н., Чуева Л.Н. Комплексный экономический анализ финансово хозяйственной деятельности –М.: Даньков и Ко, 2010-384 ст..

52. Чернышева Ю.Г., Чернышев Е.А. Анализ финансово-хозяйственной деятельности –Ростов. МарТ., Феникс, 2010 -264с.

53. Qosimov X., Yugay L., Xoshimova A., Pardayev B., Abdinazarov V.. Auditorlik faoliyati bo'yicha uslubiy qo'llanmalar to'plami/ – Toshkent, 2010. – 316- b.

54. Internet saytlari:

[http:// www.buh.uz](http://www.buh.uz).

[http:// www.cipa.uz](http://www.cipa.uz).

<http://www.accounting.com>.

<http://www.accounting.rutgars.edu>.

<http://www.accountingweb.com>.

<http://www.buhgalteria.com.ua>.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

<b>I mavzu. IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING RIVOJLANISH TARIXI VA FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI</b> .....	4
1. «Iqtisodiy tahlil va audit» fanining shakllanishi.....	4
2. XV-XVIII asrlarda Yevropada ikkiyoqlama yozuvning paydo bo'lishi va rivojlanish davrida iqtisodiy tahlil.....	7
3. Auditning rivojlanish tarixi.....	9
4. O'zbekistonda iqtisodiy tahlil va auditning rivojlanishi.....	12
5. Iqtisodiy tahlil va auditning tamoyillari.....	14
Xulosalar.....	17
Mavzu bo'yicha savollar.....	17
Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar.....	18
Mavzu bo'yicha testlar.....	18

<b>II mavzu. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI</b> .....	20
1. Iqtisodiy tahlil fanining mohiyati va predmeti.....	20
2. Iqtisodiy tahlil fanining maqsadi va vazifalari.....	22
3. Fanlar sistemasida iqtisodiy tahlilning tutgan o'rni.....	23
4. Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar tizimi.....	26
Xulosalar.....	29
Mavzu bo'yicha savollar.....	30
Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar.....	31
Mavzu bo'yicha testlar.....	31

<b>III mavzu. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO'LLANILADIGAN AN'ANAVIY USULLAR</b> .....	32
1. Iqtisodiy tahlilning metodi va uning xususiyatlari.....	32
2. Mutlaq, o'rtacha va nisbiy kattaliklardan foydalanish usuli.....	34
3. Taqqoslash usuli va uning qo'llanishi.....	39
4. Mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli va ularning mohiyati.....	43
4. Guruhlashirish usuli va uning ahamiyati.....	45
5. Balansli bog'lanish usulining tahlilda qo'llanilishi.....	49



6. Zanjirli o‘rin almashtirish usuli va uning mohiyati.....	53
7. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan boshqa metodlar .....	55
Xulosalar .....	60
Mavzu bo‘yicha savollar .....	60
Mavzu bo‘yicha tayanch so‘zlar .....	61
Mavzu bo‘yicha testlar .....	61

#### **IV mavzu. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI, AXBOROT MANBALARI VA IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL**

<b>ETISH .....</b>	<b>63</b>
4.1. Iqtisodiy tahlil turlari.....	63
4.2. Iqtisodiy tahlilning shakllari .....	66
4.3. Iqtisodiy tahlil uchun kerakli ma‘lumotlar tizimi .....	68
4.4. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarining to‘g‘riligini tekshirish usullari .....	72
4.5. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish bosqichlari .....	75
Xulosalar .....	77
Mavzu bo‘yicha savollar .....	78
Mavzu bo‘yicha tayanch so‘zlar .....	79
Mavzu bo‘yicha testlar .....	79

#### **V mavzu. KORXONALARNING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH USULLARI .....**

<b>80</b>	<b>80</b>
5.1. Mahsulot ishlab chiqarish va uning sotilishining muhim ko‘rsatkichlari tahlili.....	80
5.2. Mehnat resurslari bilan ta‘minlanganlik va ularning unumdorligi tahlili .....	91
5.3. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarining omilli tahlili.....	101
5.4. Material boyliklar bilan ta‘minlanganlik va ulardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari tahlili.....	110
5.5. Yerdan foydalanish ko‘rsatkichlari tahlili .....	117
5.6. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi tahlili .....	121
5.7. Foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili.....	129
Xulosalar .....	141
Mavzu bo‘yicha savollar .....	143
Mavzu bo‘yicha tayanch so‘zlar .....	144
Mavzu bo‘yicha testlar .....	145

<b>VI mavzu. KORXONALAR MOLIVAVIY FAOLIYATINI TAHLIL QILISH USULLARI</b> .....	146
6.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati tahlilining maqsadi, vazifalari hamda axborot manbalari.....	146
6.2. Buxgalteriya balansining aktivi va passivi harakatchanligi tahlili.....	150
6.3. Tovar-moddiy zaxiralari qoplashga mablag‘lar manbayining yetarliligi yoki yetishmasligi tahlili.....	153
6.4. Sekin sotiluvchi aktivlarning aylanishi tahlili.....	156
6.5. Xo‘jalik yurituvchi subyektning to‘lov qobiliyati tahlili.....	158
6.6. Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili.....	160
6.7. Buxgalteriya balansi bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili.....	163
6.8. Debitorlik qarzlari aylanishining omilli tahlili.....	166
6.9. Kreditorlik qarzlari aylanishining omilli tahlili.....	169
6.9. Operatsion faoliyatdan pul mablag‘larining harakati tahlili.....	172
6.10. Investitsion faoliyatdan pul mablag‘larining harakati tahlili.....	174
6.12. Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘larining harakati tahlili.....	176
6.13. Soliqqa tortish va xo‘jalik yurituvchi subyekti pul oqimlarining to‘g‘ri usulda tahlili.....	177
6.14. Xo‘jalik yurituvchi subyekti pul oqimlarining egri usulda tahlili.....	179
6.15. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xususiy kapitali tahlili.....	183
6.16. Xususiy kapital holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili.....	188
6.17. Xo‘jalik yurituvchi subyektlari mablag‘larining xususiy kapital bilan ta‘minlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili.....	189
6.18. Xususiy kapital samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularning omilli tahlili.....	191
Xulosalar.....	193
Mavzu bo‘yicha savollar.....	193
Mavzu bo‘yicha tayanch so‘zlar.....	194
Mavzu bo‘yicha testlar.....	195

<b>VII mavzu. AUDITNING MOHIYATI, UNING MAQSADI VA VAZIFALARI</b> .....	196
7.1. Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati.....	196
7.2. Auditning maqsadi va vazifalari.....	200
7.3. Auditning predmeti va obyektlari.....	203
7.4. Auditning usullari.....	205
Xulosalar.....	207
Mavzu bo‘yicha savollar.....	208

Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar .....	208
Mavzu bo'yicha testlar .....	208

<b>VIII mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AUDITORLIK FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI</b> .....	210
8.1. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlari.....	210
8.2. Auditorlik tashkilotini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari .....	214
8.3. Auditorlik tashkilotining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi .....	218
8.4. Auditorlik tashkilotlarining reytingi va ularning birlashmalari.....	221
8.5. O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining Milliy Standartlari.....	226
8.6. Auditorlik faoliyati bo'yicha qabul qilingan xalqaro standartlar .....	230
Xulosalar .....	233
Mavzu bo'yicha savollar .....	234
Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar .....	235
Mavzu bo'yicha testlar .....	235

<b>X mavzu. AUDITORLIK TEKSHIRUVINING TURLARI VA SHAKLLARI</b> .....	236
9.1. Auditning turlari va shakllari to'g'risida tushuncha .....	236
9.2. Majburiy audit.....	238
9.3. Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) audit.....	241
9.4. Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko'ra audit o'tkazish xususiyatlari.....	242
9.5. Operatsion audit .....	244
8.6. Muvofiqlik auditi.....	246
8.7. Moliyaviy hisobot auditi.....	247
8.8. Ichki va tashqi audit.....	251
8.9. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari.....	254
Xulosalar .....	260
Mavzu bo'yicha savollar .....	261
Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar .....	262
Mavzu bo'yicha testlar .....	262

<b>X mavzu. AUDITORLIK TEKSHIRISHNI REJALASHTIRISH</b> .....	264
10.1. Auditni rejalashtirishning bosqichlari.....	264
10.2. Auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish .....	267
10.3. Audit dasturini tayyorlash va tuzish.....	270

10.4. Auditni rejalashtirishning asosiy tamoyillari.....	273
10.5. Auditorlik amallar va auditorlik dalillar manbalari.....	275
10.6. Analitik protseduralar (tahliliy amallar).....	281
Xulosalar.....	283
Mavzu bo'yicha savollar.....	283
Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar.....	284
Mavzu bo'yicha testlar.....	284

## **XI mavzu. AUDITORLIK TEKSHIRUVINING YAKUNIY**

<b>BOSQICHI.....</b>	<b>286</b>
11.1. Auditor axloqi (etikasi).....	286
11.2. Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mustaqilligi.....	288
11.3. Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish.....	291
11.4. Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash.....	296
11.5. Auditorlik hisoboti va uni tuzish tartibi.....	300
11.6. Auditorlik xulosasi va uni tuzish tartibi.....	303
Xulosalar.....	308
Mavzu bo'yicha savollar.....	309
Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar.....	310
Mavzu bo'yicha testlar.....	310

## **XII mavzu. AKTIVLAR AUDITI.....**

12.1. Aktivlar auditini tashkil etish bosqichlari.....	312
12.2. Uzoq muddatli aktivlar harakatining buxgalteriya.....	315
hisobida yuritilishi auditi.....	315
12.3. Uzoq muddatli ijaraga olingan va berilgan aktivlar auditi.....	321
12.4. Uzoq muddatli aktivlardan foydalanish jarayonidagi xarajatlar.....	324
auditi.....	324
12.5. Moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar) auditi.....	328
12.6. Joriy moddiy aktivlar auditi.....	331
12.7. Pul mablag'lari auditi.....	333
Xulosalar.....	335
Mavzu bo'yicha savollar.....	336
Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar.....	336
Mavzu bo'yicha testlar.....	336

## **XIII mavzu. MAJBURIYATLAR AUDITI.....**

13.1. Majburiyatlar auditining bosqichlari.....	338
13.2. Uzoq muddatli majburiyatlar auditi.....	340

13.3. Qisqa muddatli majburiyatlar auditi .....	342
13.4. To'lov muddati kelgan majburiyatlar auditi.....	343
Xulosalar .....	346
Mavzu bo'yicha savollar .....	346
Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar .....	347
Mavzu bo'yicha testlar .....	347
<b>XIV mavzu. XUSUSIY KAPITAL AUDITI.....</b>	<b>348</b>
14.1. Xususiy kapital auditi bosqichlari .....	348
14.2. Ustav kapitalining shakllantirilishi va o'zgarishlari .....	349
14.3. Qo'shilgan kapital auditi.....	352
14.4. Rezerv (zaxira) kapital auditi.....	353
14.5. Xususiy kapitalning boshqa elementlari .....	354
Xulosalar .....	355
Mavzu bo'yicha savollar .....	355
Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar .....	356
Mavzu bo'yicha testlar .....	356
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....</b>	<b>358</b>

Vahobov Alisher Vasikovich  
Ibragimov G'ayrat Artikovich  
Yakubov Ulugbek Kosimovich

# **IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT**

*Darslik*

Muharrir: **N. Artiqova**  
Badiiy muharrir: **M. Odilov**  
Kompyuterda sahifalovchi: **U. Raxmatov**

Nashr. lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 05.05.2015-y.da berildi.  
Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog'ozi №2. «Times» garniturası.  
Shartli b.t. 23,0. Nashr hisob t. 22,85. Adadi 200 dona.  
16-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.  
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»  
bosmaxonasida chop etildi.  
100000. Toshkent, Amir Temur 60-A uy.